

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

Yuldasheva G.I.

HALQARO MUNOSABATLARNING METOD-
OLOGIK ASPEKTLARI

Toshkent-2009

Ushbu nashr O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining oily o'quv yurtalri uchun o'quv qo'llanmalariga nisbatan qo'yiladigan talablarni e'tiborga olgan holda tayorlangan va "Mutaxassislik nazariyasi muammolari (xalqaro munosabatlarning uslubiy jihatlari)" kursi bo'yicha eng muhim mavzularni o'z ichiga olgan.

Kitobda xalqaro munosabatlar tushunchasi va mezonlariga ta'rif beriladi, xalqaro munosabatlarni o'rganish nazariyasini va amaliy uslubiyotini yo'lga qo'yishning asosiy muammolari yoritib beriladi, xalqaro hayotni tahlil etish nazariyasi bilan amaliyotning o'zaro hamjihatligi muammolari ochib beriladi.

O'quv qo'llanmasi talabalar, aspirantlar va xalqaro-siyosiy fanlar uslubiyoti va nazariyasi muammolari bilan qiziquvchi barcha kitobxonlar uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchi: *Yuldasheva G.I.*, siyosiy fanlar doktori

O'zbek tiliga tarjima: *Khudaibergenova Z.N.*, f.f.d.

Taqrizchilar: *Jumaev N.* - s.f.d., Prezident huzuridagi Davlat va Ijtimoiy Qurilish Akademiyasi
Karimova N.E. - tarix.f.d., Toshkent davlat sharqshunoslik instituti

Ushbu o'quv qo'llanma Toshkent davlat sharqshunoslik institutining O'quv-uslubiy kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (№1- sonli bayonnoma. 16.10.2008 yil).

KIRISH

Jahon siyosatining keskin o'zgarishi sharoitida Xalqaro munosabatlar (XM) ning asosiy nazariyalari to'g'risida bilimga ega bo'lish va o'zgaruvchan dunyoda yuz berayotgan hodisalarni baholashga imkon beruvchi amaliy tahlilni amalga oshirish malakasi va ko'nikmalariga ega bo'lish dolzarblik kasb etmoqda.

Shu munosabat bilan yaratilgan "Xalqaro munosabatlarning metodologik aspektlari" mavzusidagi ma'ruzalar matni ikki qutbli dunyo rivoji xususiyatlari to'g'risida tasavvur berish, xalqaro maydondagi o'zaro munosabatlar amaliyoti muammolari va asosiy tendensiyalari haqida axborot berish; xalqaro munosabatlarning o'zgarishi tabiati va xarakteri, xalqaro tizim muhiti va tuzilishi, uning unsurlari tarkibi-xalqaro aktorlar, ularning maqsad va namoyon bo'lish vositalari, xalqaro munosabatlar va jahon siyosatini tadqiq qilishda keng tarqalgan metodlar va amaliy yondashuvlar haqida talabalarda tasavvur uyg'otadi.

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma XMning nazariy-uslubiy muammolarini o'qitish sohasida to'plangan tajriba asosida ishlab chiqilgan bo'lib, XM nazariyasini shakllanish jarayonidan tortib avvalgi XM nazariyasini tasdiqlash va yangisini ilgari surishga imkon beruvchi amaliy tahlilning asosiy metodlarini qo'llashgacha bo'lgan muammolar tizimini qamrab oladi. Mazkur ma'ruzalar matni "Xalqaro munosabatlar tarixi va nazariyasi" ixtisosligi bo'yicha ta'lim olayotgan magistrant-talabalarni tayyorlashda majburiy fan hisoblanadi.

Fanni o'qitishdan maqsad - xalqaro problematikani xalqaro munosabatlar va jahon siyosatida mavjud muhim muammolarni yechishdagi zamonaviy nazariy konsepsiya va yondashuvlarni o'rganish nazariyasining shakllanish jarayonlari, uning operatsionalizatsiyasi va verifikatsiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni yanada chuqurroq o'rganish; xalqaro-siyosiy vaziyatlarni amaliy tahlil qilish sohasida asosiy metodologik yondashuvlar va usullarni o'zlashtirish; xalqaro munosabatlar sohasida mustaqil ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish ko'nikmasiga ega bo'lish.

Fanning vazifalari quyidagilardan iborat: XMni amaliy tahlil qilish jarayonida qo'llaniluvchi asosiy nazariyalar, tushunchalar va metodologik yondashuvlar, nazariyalar tuzilishi va uni ishlab chiqish jarayoni bilan tanishtirish. "Mutaxassislikning nazariy muammolari (Xalqaro

munosabatlarning metodologik aspektlari) fani” magistraturaning birinchi bosqichi birinchi semestrda o‘qitiladi. Fan dasturi “Xalqaro munosabatlar “fakulteti bakalavriat bosqichi talabalariga o‘qitilayotgan asosiy ijtimoiy-siyosiy fanlarning mantiqiy davomi hisoblanadi. O‘quv qo‘llanmadan talabalar, aspirantlar, umuman, XM metodologiyasi muammosi va siyosiy fanlar bilan qiziquvchilar foydalanishi mumkin.

1 - Ma'ruza: Xalqaro munosabatlar o'quv va tadqiqot fani sifatida

Reja:

1. Xalqaro munosabatlar tushunchasi va mezoni
2. Jahon siyosati
3. Ichki va tashqi siyosatning o'zaro aloqadorligi
4. Xalqaro - siyosiy fanlar predmeti

Tayanch so'z va iboralar:

xalqaro munosabatlar, jahon siyosati, XM tushunchasi va mezoni.

Xalqaro munosabatlar tushunchasi va mezoni

“Xalqaro munosabatlar” tushunchasining ko‘plab ta’riflari mavjud. Masalan, xalqaro munosabatlar, bu

- davlat tizimlari va davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, huquqiy, diplomatik va boshqa aloqalar hamda munosabatlar, shuningdek jahon maydonida harakatlanuvchi asosiy sinflar, asosiy ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy kuchlar, tashkilotlar va jamoatchilik harakatlari, umuman, keng ma’noda xalqlar o‘rtasidagi munosabatlar majmuidir (Inozemtsev, 1978, - 11 b.);

- inson hamjamiyatini shakllantiruvchi integrasion aloqalar majmui (Shahnazarov, 1978. – 19 b.);

- davlatlar va nodavlat tashkilotlari, partiyalar, kompaniyalar va turli davlatlarning yuridik shaxslari o‘rtasidagi munosabatlar (Xalqaro huquq kursi 1989, – 10 b.).

Bu ta’riflarning hech biri obyekt mazmunini to‘la ochib berolmagan. Ularning vazifasi faqatgina obyekt haqida dastlabki tasavvurni berishdan iborat. Shuning uchun tadqiqotchilar xalqaro munosabatlar tushunchasini talqin etishar ekan, nafaqat unga mukammal ta’rif berishga, balki uning mohiyati va spesifikasini aniglab olishga yordam beruvchi kriteriyalarni ajratishga intilishadi.

XM tahlilining keng tarqalgan kriteriyalari

Jadval. 1.1

Kriteriyalar	Mutaxassisning F.I.SH.	XM tushunchasi talqin qilish
Ishtirokchilar spesifikasi va XM ning	Raymon Aron	Siyosiy birliklar o‘rtasidagi munosabatlar, harakatdagi

o'ziga xos tabiati		shaxs – davlat. XM – jamiyatning tabiiy, fuqarolik jamiyatidan oldingi holati. Ramziy personajlar-diplomat va askar.
	D. Kapora'zo	Harakatdagi shaxs – davlat emas, balki sinflar, ijtimoiy – siyosiy guruhlar va siyosiy kuchlar.
	D. Singer	XM ning barcha imkoniy ishtirokchilari xulqi: individdan global hamjamiyatgacha.
	J. Rozenau	Harakatdagi shaxs – bir-biri bilan davlatning minimal vositachiligi orqali yoki hatto uning (davlatning) irodasiga qarshi munosabatlarga kirishuvchi aniq shaxslar. Ramziy personajlar – turist va terrorist.
Lokalizatsiya mezonlari	M. Merl	XM- chegaralarni kesib o'tadigan yoki chegaralarni kesib o'tish tendensiyasiga ega kelishuvlar va oqimlar majmui.

XM tushunchasini ta'riflashga oid qayd etilgan yondashuvlar farqli xulosalarga olib kelishi mumkin va bunda o'ziga xos har biri ustunlik va kamchiliklarga ega. Umuman olganda, xalqaro munosabatlarning turlicha tiplari, ko'rinishlari, darajalari va holati to'g'risida so'z yuritish mumkin. XM, shuningdek sinfiylik mezonlari, hukmronlik va tobelik munosabati, hamkorlik, o'zaro yordam va o'zgaruvchan munosabatlar asosida tasniflanishi mumkin.

Quyidagi mezonlar asosida XMning ikki turi ajratiladi:

1. Kuchlar balansi;
2. Manfaatlar balansi.

Xalqaro munosabatlar

ijtimoiy hayot sohasi bo'yicha iqtisodiy, siyosiy, harbiy-strategik, madaniy, mafkuraviy va boshqa munosabatlariga ajratiladi;

ishtirokchilarga bog'liq ravishda davlatlararo munosabatlar, turlicha xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlar va hokazolar tasniflanadi;

intensivlik va rivojlanish darajasi asosida (yuqori, o'rta, past) darajalarga bo'linadi;

geosiyosiy o'lchov asosida global, mintaqaviy (Yevropa, Osiyo va b.) xalqoro o'zaro ta'sirning submintaqaviy darajasi ajratiladi;

keskinlik darajasi nuqtai nazaridan - barqarorlik va beqarorlik holati; ishonch va dushmanchilik, hamkorlik va nizo, urush va tinchlik va hokazolar tasniflanadi.

XMning fanga ma'lum barcha tiplari, ko'rinishlari, darajalari va holatlari majmuasi ijtimoiy munosabatlarning alohida turi sifatida namoyon bo'lib, o'zining spesifikasi sababli XMning ishtirokchisi tarzidagi u yoki bu ijtimoiy jamoaga xos ijtimoiy munosabatlardan farq qiladi. Shu jihatdan **XMni ijtimoiy munosabatlarni hududiy tuzilmalar doirasidan chekkaga chiquvchi ichki ijtimoiy munosabatlarning o'zaro harakati turi sifatida ta'riflash mumkin.**

Jahon siyosati

“Jahon siyosati” tushunchasi siyosiy fanlarning faol qo'llaniladigan, ayni vaqtda nisbatan aniq ta'riflangan tushunchalari qatoriga kiradi. Ko'pchilik tadqiqotchilar jahon siyosatini mavhum (abstrakt) tushuncha deb hisoblashadi, ya'ni bu, siyosatshunosning XMda shartli ravishda siyosiy tomonni va siyosiy o'lchovni ajratuvchi qarashidir. Ushbu tushunchaga rus siyosatshunoslari A.E.Bovin va B.P.Lunin tomonidan aniqlik kiritilgan. Ularning fikriga ko'ra, “**Jahon siyosati** – bu *xalqaro maydondagi davlatlarning o'zaro ta'siri va faoliyatidir*; **Xalqaro munosabatlar** - *davlatlar o'rtasidagi real aloqalar tizimi* bo'lib, jahon siyosatidagi hudud, o'ziga xos muhit va ular harakatlari samarasi sifatida namoyon bo'ladi.

Jahon aloqalari subekti, ishtirokchisi sifatida davlatlardan tashqari, turli xil harakatlar, tashkilotlar, partiylar maydonga chiqadi. Jahon siyosati xalqaro munosabatlarni shakllantiruvchi faol omil hisoblanadi. Xalqaro munosabatlar jahon siyosati ta'siri ostida doimiy o'zgarishda bo'ladi. Va o'z navbatida uning mazmuni va xarakteriga ta'sir o'tkazadi. Bunday pozitsiya jahon maydonida sodir bo'layotgan voqealarni tushunishni osonlashtiradi va uni jahon

siyosati tahlili asosi sifatida qabul qilish mumkin. Ammo, xalqaro siyosat sohasidan farqli ravishda, jahon siyosatida davlatni xalqaro aloqalarning bosh ishtirokchisi sifatida inkor etmaydigan va xalqaro muhitni shakllantirishda muhim rol o'ynovchi noan'anaviy faktlarga ko'proq e'tibor qaratiladi.

Shuningdek, tashqi va xalqaro siyosat o'rtasida farq mavjud. U yoki bu davlatning *tashqi siyosati* deganda – tashqi ishlar vazirligi (yoki unga muvofiq tashqi siyosiy idoralar) tomonidan uning nisbatan keng tuzilmalar doirasida milliy manfaatlar aks ettirilgan holda ishlab chiqilgan *davlat xalqaro siyosatining asosiy prinsiplarini amalda oshirilishi* nazarda tutiladi.

XMning nodavlat ishtirokchilariga kelsak (masalan, ko'p millatli korporatsiyalar, xalqaro mafiya guruhlar, konfessional jamiyatlar va b.), *ularning ko'pchiligi uchun xalqaro siyosat "tashqi siyosat" hisoblanmaydi.*

Xalqaro siyosat bir vaqtning o'zida :

a) Transmilliy - u yoki bu davlatdan tashqarida, ammo ba'zida unga xilof ravishda amalga oshiriladi.

b) Davlatlashtirilgan - uning subektlari davlatga tegishli yetakchilar guruhidan iborat bo'lib, davlatga oidlik formal xarakterga ega.

Albatta, davlatning tashqi va xalqaro siyosati uning ichki siyosati bilan uzviy aloqada bo'ladi, bu holat yagona asos va yakuniy maqsad, yagona xazina bazasi va yagona subekt kabi omillarga bo'g'liq bo'ladi. Shu bilan birga, transmilliy siyosat va davlatlashtirilgan siyosat borgan sari ko'proq davlatlararo munosabatlarda qo'llanmoqda.

Ayni paytda tashqi siyosat faqatgina tashqi ishlar vazirligi vakolatiga tegishli bo'lib qolmayapti.

Ichki va tashqi siyosatning o'zaro aloqadorligi

Ichki va tashqi siyosatning o'zaro aloqadorligi hamda o'zaro ta'siri muammosi - siyosiy fanlarning murakkab munozarali muammolaridan biridir. Xalqaro - siyosiy fanlarning har bir yo'nalishi ushbu muammoni siyosatni harakatlantiruvchi kuchlari va manbalari asosidagi o'z shaxsiy tasavvuridan kelib chiqib o'rganadi.

Masalan, *siyosiy realizm* tarafdorlari uchun tashqi va ichki siyosat oxir- oqibat kuch uchun kurashga olib keladigan yagona mazmunga ega bo'lsa-da, davlat faoliyatining prinsipial jihatdan farqli sohalarini qamrab oladi. Tashqi siyosat ikki tarkibiy qismdan iborat milliy

manfaatlar bilan belgilanadi: birinchisi, tirik qolish imperativi, ikkinchisi, bu manfaatlarning vaqt va makondagi aniq shakli. Ushbu shaklning belgilanishi tashqi dunyo bilan aloqalarda monopoliyaga ega davlatga taalluqli. Milliy manfaatlar asosi doimiy xarakterga ega bo'ladi, shuning uchun davlat hayotining ichki omillari realistlar tomonidan milliy manfaatlar tabiatiga ta'sir qilish imkoniyatiga ega deb hisoblanmaydi.

Boshqa nazariy maktab va yo'nalishlar nuqtai nazariga ko'ra, ichki va tashqi siyosat shunchalik bir-biri bilan bog'liq emas, ularning aloqalari determinativdir. Ular determinatsiyasining ikki versiyasi mavjud: 1. *Ortodoksal marksizm* nuqtai nazariga ko'ra, tashqi siyosat - ichki siyosiy tuzumning sinfiy mohiyati in'ikosi (aksi) bo'lib, bu mohiyatni ifodalovchi iqtisodiy munosabatlarga bog'liq bo'ladi. *Geosiyosiy konsepsiya* tarafdorlari, "Boy shimol" va "Kamba'gal janub" nazariyalari, shuningdek, bog'liqlikning neomarkistik nazariyasi, "jahon markazi", "jahon periferiyasi" va bu qarashlarga ko'ra ichki siyosat manbasi tashqi majburlov kuchlaridir. Gap "markaz" va "periferiya" o'rtasidagi tashqi siyosiy kurashining asosiy maydoni bo'lgan nosimmetrik o'zaro bog'liqlik munosabatlari mavjudligi to'g'risida bormoqda. Ichki siyosiy jarayonlar ahamiyati, u yoki bu davlatlar doirasida partiyalar va harakatlar kurashi, ichki siyosiy jarayonlar ahamiyati, ularning jahon iqtisodidagi o'rni bilan belgilanadi.

Neorealizm va strukturalizm vakillari uchun tashqi siyosat ichki siyosatning davomi hisoblanadi, xalqaro munosabatlar esa ichki ijtimoiy munosabatlar davomi sifatida qabul qilinadi.

Tashqi siyosatni ta'riflashdagi hal qiluvchi rolni xalqaro tizimning ichki dinamikasi o'ynaydi.

Dunyoning o'zaro bog'liqligi konsepsiyasi vakillari mazkur masalaning tahlilida ichki va tashqi siyosat yagona asos - davlatga ega degan fikrga asoslanishadi. Davlat hokimiyatning ikki monopoliyasiga ega: o'z hududida kuch ishlatish huquqi, qonuniy soliqlar olish huquqi. Lekin davlatning bu ikki monopoliyasini amalga oshirish davlatning harbiy axborot va boshqa ilg'or texnologiyalari rivoji darajasiga bevosita aloqador bo'ladi. Shu sababli ushbu konsepsiya tarafdorlari uchun ichki siyosatning tashqi siyosatga nisbatan birlamchiligi yoki aksi holati mutlaq ahamiyatga ega emas; ularning fikriga ko'ra, har ikki holat, avvalambor, texnologik xarakterdagi omillar bilan belgilanadi.

Transmilliylik maktabi tarafdorlari yanada ilgari ketishadi. Ularning fikriga ko'ra, ishtirokchilarning turli ekanligi o'zaro ta'sir ko'rinishlari va kanalning har xil ekanligi davlatni xalqoro muloqat mar-

kazidan siqib chiqaradi. Ko‘z o‘ngimizda siyosatni ichki va tashqiga bo‘lish ahamiyatli bo‘lmagan global dunyo paydo bo‘ladi. 1969 yilda J.Rozenau tomonidan ilgari surilgan jamiyatning ichki hayoti va xalqoro munosabatlarning o‘zaro ta’siri to‘g‘risidagi g‘oyalari bunday yondashuvga katta ta’sir ko‘rsatdi.

U birinchilardan bo‘lib, dunyoning “ikkiga bo‘linishi”ga oid fikrlarni bayon etdi: zamonaviylik, bir tomondan, davlatlararo o‘zaro munosabatlar maydonlari mavjudligi bilan xarakterlanadi, by erda klassik diplomatiya va strategiya “qonunlari” amalda bajariladi; boshqa tomondan, “suverenitetdan tashqari” aktorlar, ya’ni nodavlat ishtirokchilari to‘qnashadigan maydon mavjud. Bundan Jahon siyosatining ikki qatlamligi kelib chiqadi: davlatlararo munosabatlar va nodavlat aktorlarning o‘zaro aloqalari bir-biri bilan alohida nisbatan mustaqil va bir-biriga parallel ikki “post- xalqoro” siyosatni tashkil etadi;

Ichki va tashqi siyosatning o‘zaro munosabati muammosini o‘rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Deterministik tushuntirish haqiqatning bir qismini aks ettiradi xolos va shu sababli universallikka da’vogarlik qila olmaydi. Aslida u yoki bu mamlakat ichki siyosiy hayotida yuz bergan har qanday muhim hodisa uning xalqaro holatida aks etadi va undan tashqi siyosat sohasida tegishli choralarni ko‘rishni talab qiladi.

2. Hozirgi sharoitda ichki va tashqi siyosat o‘rtasidagi aloqalar mustahkamlashib bormoqda, shu bois ba’zida bu atamalarining qo‘llanishi o‘z ahamiyatini yo‘qotmoqda, aslida, gap ularning doimiy ravishda bir-birini to‘ldirib borishi to‘g‘risida ketmoqda. Tashqi siyosatning ustuvor jihatlar taraqquyotining ichki omillari ta’siri ostida shakllanadi, bu holatda ichki siyosat rejimi maqsadlari – siyosiy demokratiya, bozor iqtisodiyoti va boshqalar hisobga olinadi.

3. Suverenitetdan xoli aktorlarning o‘sishi davlatning tugashini bildirmaydi. Ichki va tashqi siyosat bir-biri bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, bir vaqtning o‘zida bir tanganing ikki tarafi hisoblanadi, ulardan biri davlatning ichki tomoni, boshqasi davlatning tashqi tomonini ifoda etadi.

4. Siyosiy vaziyatlar va voqealarning murakkablashuvi o‘z oqibati bilan shunday holatga olib keladiki, ularning xatti-xarakati nafaqat milliy chegaralar doirasidan chiqadi, shu bilan birga iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlarda va ideallarda jiddiy o‘zgarishlarga olib keladi va ko‘pgina holatlarda odatdagi tasavvurlarimizga to‘g‘ri kelmaydi.

Bularning hammasi XM nazariyasi fanini tushuntirishni qiyinlashtiradi.

Xalqaro siyosiy fanlar predmeti

“XM nazariyasi” mustaqil fanmi yoki uni politologiyaning ajralmas qismi deb hisoblash mumkinmi? Bir qarashda, bu savolning javobi aniq: yadrosi siyosiy o‘zaro aloqalar bo‘lgan xalqaro munosabatlar siyosatshunoslikning ajralmas obyektidir.

XM siyosatning har qanday boshqa turlari (iqtisodiy, ijtimoiy va boshqalar)ga o‘xshab turli xil vositalar yordamida ro‘yobga chiqivchi manfaatlar, maqsadlar va qadriyatlar raqobati va muvofiqlashuvidan iborat.

Bu yerda ichki siyosatdagi kabi, gap hokimiyat va zaxiralar taqsimoti to‘qnashuvi haqida ketmoqda. Olimlarning fikricha, xalqaro munosabatlar fanining asosiy predmeti hokimiyat munosabatlaridir. Uning predmeti siyosiy fanlar predmetiga to‘g‘ri keladi, faqat geografik sohada farqlanadi. Dalil sifatida ichki siyosiy va xalqaro – siyosiy jarayonlarning kuchli o‘zaro ta’siri va o‘zaro birlashib ketishiga oid faktlar keltiriladi. Haqiqatan, hozirgi kunda ichki va xalqaro siyosatning o‘zaro bir-biriga singib ketishi fenomeni kuzatilayapti. Siyosiy fanlarni ichki va tashqiqa ajratmasdan uning asosiy masalalarini ko‘rib chiqishga bo‘lgan intilishi tushunarli va samaralidir. Gap oxir-oqibatda, asosida manfaatlar kurashi yotgan siyosatning faoliyat jarayoni sohasidagi ikki jihati va ikki aspektiga taalluqli. Ammo “Xalqaro munosabatlar” fani o‘zining uzoq yillik tarixiga qaramasdan yetarli darajadagi yirik muvaffaqiyatlarga erisha olmadi (bu sohada ilk tadqiqot mil.avvalgi V asrda yashab o‘tgan Fukididning “Peloponnes urushi tarixi” asaridir). Ushbu yo‘nalishda muvaffaqiyatga erishgan yirik vakillar safiga G.Morgentau, R. Aron va A.Yolfers va boshqalarni kiritish mumkin. Ular ushbu fenomenning murakkabligini, uning ichki va xalqaro hayot, psixologiya va tashkilotlar nazariyasi, iqtisodiy soha va ijtimoiy strukturaga bog‘liq ravishda bir yoqlama tushuncha emasligini nomoyon etishgan. Bu holat sotsiologiya, psixologiya, iqtisodiyot va matematika, antropologiya va informatika hamda boshqa fanlar imkoniyatlariga tayangan holda davlatning tashqi siyosiy faoliyatini aniq o‘rganishga yordam beradi.

XMlar fanini avtomatlashtirishdagi asosiy to‘siq, uning obyektini identifikasiyalashdagi qiyinchilik tufayli kelib chiqadi. XM nazariyasining ana’naviy obyekti markaziy yoki yuqori hokimiyat, xusu-

san, qonuniy zoʻravonlik va soʻzsiz majburlov yoʻqligi bilan harakatlanuvchi anarxik, betartib maydon, yaʼni “fuqarolik jamiyatidan oldingi holati” hukmron boʻlgan muhit hisoblanadi. Bu munosabat bilan Raymon Aron xalqaro munosabatlarning spesifik belgisi ularning “urush soyasida” yuzaga kelishidir deb hisoblaydi. Shuning uchun xalqaro munosabatlarni tadqiq qilish haqida gap ketganida, eng avvalo, milliy manfaatlar prinsipi mutloqlashtirilishi va davlatlararo oʻzaro taʼsir eʼtiborda tutiladi, lekin dunyoning oʻzaro bogʻliqligi hamda ichki va tashqi siyosatning oʻzaro birikib ketishining oʻsishi natijasida har qanday chegaralarni kesib oʻtuvchi va yagona davlat nazoratidan qochuvchi sotsial munosabatlar va oqimlar “Xalqaro munosabatlar” fanining obyektiga aylanadi. Boshboshdoqlik xalqaro munosabatlarning asosiy kriteriyalari orasidagi imtiyozli oʻrnini asta-sekin yoʻqotmoqda. Milliy manfaatlar haqida ham shunday deyish mumkin. Baʼzida milliy manfaatlar bogʻliq strategik muhit xususiyatlari birinchi oʻringa chiqadi va xalqaro munosabatlarning anarxikligi darajasiga taʼsir oʻtkazadi. Piravordnatijada xalqaro munosabatlar obyekti, bir tomondan, tartib va tartibga solish dualizmi, boshqa tomondan, oldindan aytib boʻlmalikning salmoqli hissasi bilan xarakterlanadi. Qayd etilgan dualizmni yagona nazariya doirasida aks ettirib boʻlmaydi. Amerikalik olim K.Xolstining fikriga qaraganda, “Xalqaro munosabatlar” fani uchun nazariy plyuralizm murakkab dunyoning turli shakldagi realligining yagona imkoniy javobidir. Yagona nuqtai nazar yoki alohida metodologiyaga asoslangan muayyan ortodonsallikni oʻrnatishga urinish bilish progressi imkoniyatining haddan tashqari soddalashishiga va kamayishiga olib kelishi mumkin. (Holst, 1989. P.256). Turli vositalardan foydalanadigan turli imkoniyatlarga ega va turli muhitlarda roʻyobga chiqadigan siyosiy faoliyatning turli koʻrinishlari haqida soʻz ketyapti. Lekin siyosatshunoslikning boshqa sohalaridan farqli tomoni shundaki, XM nazariyasi “kuchlar balansi”, “bir va koʻp qutblilik”, “diplomatiya”, “strategiya” kabi oʻzining xususiy tushunchalari va muammolariga ega. XM haqidagi fan “milliy manfaat”, “muzokaralar” va boshqa shu kabi umumsiyosiy tushunchalar bilan siyosiy nazariyani boyitdi. Shu tarzda u oʻzining tadqiqot predmetiga ega, nisbatan avtonom siyosiy fan sifatida namoyon boʻladi. Ammo uning toʻliq alohida fan ekanligi toʻgʻrisida gapirishga hali erta.

SEMINAR

Maʼruzalar mavzulari:

1. XM tahlil obyekti va predmeti sifatida
2. Ichki va tashqi siyosatning siyosiy tahlilidagi roli
3. Amaliy siyosatda amaliy tahlil va “aql trest”larining roli

Adabiyotlar roʻyhati:

1. *Каримов И.А. Узбекистан на пороге XXI века. Угрозы безопасности, условия и гарантии прогресса.* –Т.: “Узбекистон”, 1997.
2. *Цыганков П.А. Теория международных отношений.* –М., 2003.
3. *Иноземцев Н.Н. Ленинский курс международной политики КПСС.* –М., 1978.
4. *Шахназаров Г.Х. Грядущий миропорядок.* –М., 1981. –С.19.
5. *Курс международного права: В 7 т. Т.1. Понятие, предмет и система международного права.* –М., 1989.
6. *Holsti K.J. Mirror on the Wall, Which are the Fairest Theories of All?// International Studies Quarterly. Vol. 33. 1989.*
7. *Богатуров А. Современный международный порядок // Современный международный порядок. – Т.3, № 2(8). Май-август 2005.*
8. *Богатуров А. Понятие мировой политики в теоретическом дискурсе//Международные процессы – Т.3, № 2(8). Май-август 2005.*
9. <http://www/intertrends.ru/four/002/htm>
10. <http://www/marshallcenter.org/>
11. <http://www/jahon.mfa.uz>

2 -Ma'ruza: XMni o'rganish metodologiyasi masalasi

Reja:

1. *Metod muammosining ahamiyati*
2. *Tadqiqot jarayoni, nazariyaning operasionallashishi va ifodalanishi*
3. *Tadqiqotning mos metodlarini tanlash, ma'lumotlar tahlili va natijalar interpretatsiyasi (sharhi)*

Tayanch so'z va iboralar:

metod, metodika, nazariya, tarix, sotsiologiya, prakseologiya, empirik tahlil, me'yoriy tahlil, eksplisitlik, tizimlilik, nazoratlilik, ilmiy tadqiqot, amaliy tadqiqot, fundamental tadqiqot, ma'lumotlar, operatsionalizasiya, o'zgaruvchanlik, umumiylik, reprezentativlik, sezuvchanlik.

Metod muammosining ahamiyati

Metod muammosi - har qanday fanning muhim muammolaridan biridir, chunki gap yangi bilimni qanday qo'lga kiritish, qanday qilib uni amaliy faoliyatda qo'llashga o'rgatish haqida ketmoqda. Shu bilan birga, u fan obyektni dastlabki o'rganuvchi eng murakkab muammolardan biri bo'lib, ushbu o'rganishning natijasi hisoblanadi. Tadqiqotchi eng avvalo, yangi bilimni egallashning vosita va usullarining aniq jamlanmasiga ega bo'lishi kerak. Shu sababli u obyektni o'rganishni talab etadi. U o'rganishning yakuni hisoblanadi, zotan, uning natijasida qo'lga kiritilgan bilim nafaqat obyektning o'ziga tegishli, balki uni o'rganish metodlari, shuningdek amaliy faoliyati natijalari tatbiqiga ham tegishlidir. Zero, tadqiqotchi metod muammosi bilan adabiyotlarni tahlil qilish va uni tasniflash, baholash zaruriyatida to'qnash keladi. Bundan "metod" tushunchasi mazmunini tushunish va bir yoqlama ma'noga ega emasligi o'rta qiqadi. Bir tomondan, **metod** 1) bu, fanni tadqiq etish vositasi va usullari, jarayonlari jamlanmasi, boshqa tomondan, 2) egallangan bilimlar majmuidir. "Metod" so'zi "**metodika**" tushunchasiga chambarchas bog'liq bo'lib, quyidagilarni anqlatadi:

1. Harakatlar usullarining birligi.
2. Fanning tarkibiy qismi.

3. Nazariyaning tatbiq'i va realizatsiyasi yo'llarini ochib beruvchi nazariyaning amaliy tarmog'i.

4. Tadqiqotchi, ekspert, tashkilotchining faoliyat sohasi.

Ko'pchilik ijtimoiy fanlar, shu bilan birga, "XM" fani ham faqat o'ziga xos, spesifik metodlarga ega. Ular, qanday bo'lmasin, umumiy ilmiy metodlar va boshqa (ijtimoiy va tabiiy-ilmiy) fanlar metodlarini o'z fanlari obyektlariga nisbatan o'zgartirib qo'llashadi. Umuman, siyosiy fanlarning, jumladan, XM metodologik yondashuvlari uch jihatga asoslanadi:

1) axloqiy qadriyatlarga xos fikrlar yoki shaxsiy qarashlardan tadqiqot pozitsiyasini imkon qadar aniq ajratish;

2) barcha ijtimoiy fanlar uchun umumiy bo'lgan tahliliy usul va jarayonlardan foydalanish;

3) tizimlashtirishga intilish yoki, boshqacha aytganda, qonunlarni kashf etishni yengillashtiruvchi, umumiy yondashuvlar va modellar ishlab chiqishga harakat qilish.

Bunda tadqiqotchi o'zining shaxsiy pozitsiyasi yoki muayyan bir masala bo'yicha o'z fikrlarini aytishdan qochishi kerak degan ma'no kelib chiqmaydi. Tadqiqotchi uchun bosh muammo mafkura va fan munosabatlari muammosidir. Amalda mafkurasiz hayot mavjud bo'lishi mumkin emas, mafkura u yoki bu darajada xuddi muallifning ijobiy nuqtai nazari ifodasi sifatida mavjud. Dalillar sharhi, hatto "kuzatuv burchagi" tanlovi va b. muqarrar ravishda tadqiqotchi nuqtai nazariga aloqador. Bunda eng yaxshi natijaga mafkurani inkor etgan holda erishib bo'lmaydi, mafkuraviy bardosh, mafkuraviy pluralizm va mafkuraviy nazorat orqali yuqori natijaga erishiladi (bunda har qanday mafkura ustidan fan nazorati ma'nosida tushuniladi). Yuqorida aytilganlar metodologik dixotomiyaga, ya'ni ana'naviy tarixiy-tarifiy yoki intuitive-mantiqiy yondashuvning operatsion-amaliy yoki tahliliy-prognostik yondashuvlar qarama-qarshiligiga taalluqlidir. Darhaqiqat, XM fanining sezilarli rivoji natijasida tahliliy konsepsiyalar, metodlar va modellarning jadal taraqqiyoti ma'lumotlarni qiyosiy o'rganishga o'tish, elektron hisoblash texnikasi salohiyatidan tizimli foydalanish boshlanadi. Bularning hammasi xalqaro siyosiy fanlarni jahon siyosati va XMni prognozlash va amaliy boshqarish ehtiyojiga yaqinlashtirdi. Bu bilan birga avvalgi "klassik" (эски) metodlar va konsepsiyalar mavjudligi davom etadi. Aslida, "ana'naviy va ilmiy" metodlarni hech qachon qarama-qarshi

qo'ymaslik kerak, haqiqatda ular bir-birini to'ldiradi. Siyosiy hodisalar mohiyatini faqatgina amaliy metodlar yordamida to'liq tadqiq qilish mumkin emas. Umuman ijtimoiy munosabatlarda, ayniqsa, xalqaro munosabatlarda deterministik izohlanmaydigan stoxastik jarayonlar hukmronlik qiladi. Shuning uchun ijtimoiy fanlar, shuningdek XM fani xulosalari butunlai tasdiqlanmaydi yoki qalbakilashtirilmaydi. Boshqa tomondan, to'plangan faktlar orasida aniq korrelyasiya kerak bo'lgan paitda intellektual ana'nalarni qattiq turib himoya qilish mantiqsiz. Fundamental planda XMni o'rganish (P.Aron) *nazariyaga* (by ijtimoiy munosabatlar alohida turining asosiy harakatlanuvchi kuchi, spesifikasi va mohiyatini tadqiq qilish), *sosiologiyaga* (uning o'zgarishlari va evolyusiyasini aniqlashtiruvchi desteterminant va qonuniyatlarni izlash); *tarixga* (istisno va analogialarni (o'xshashliklarni) topishga ko'maklashuvchi avlodlar va davrlar almashinuvi jarayonida XM rivojlanishi) va *prakseologiyaga* (xalqaro siyosiy qarorlarni tayyorlash, qabul qilish va realizasiyasi jarayoni tahlili) asoslanuvchi yondashuvlarni talab etadi. Amalda *faktlar tahlili* (mavjud ma'lumotning yig'indisi tahlili); mavjud holatni *sharhlash* (nomaqbullikdan qochishga da'vat qiluvchi va hodisaning ma'qul rivoji ta'minoti sabablarini izlash) vaziyatning keyingi evolyutsiyasini *prognozlash* (uning oqibatlari ehtimolligini tadqiq qilish), *qarorni tayyorlash* (vaziyatga ta'sir ko'rsatuvchi mavjud vositalar ro'yxatini tuzish, turli alternatalarni (muqobilliklarni) baholash) va nihoyat, *qarorni qabul qilish* (bunda vaziyatning imkoniy o'zgarishiga tez aralashuv zaruriyatini inkor etmaslik kerak).

Tadqiqot jarayoni, nazariya operatsionalizatsiyasi va ifodalanishi

Dunyoni bilish jarayonida biz ikki oddiy bo'lmagan savollarga to'qnash kelamiz. Biz qanday qilib bilim egallaymiz? Bilganlarimizdan qanday foydalanishimiz kerak? Birinchi masala: bu, metod masalasi, ikkinchisi esa: etika va afzallik masalasi. Birinchi holatda gap bilim olish va uni tashkillashtirish haqida ketmoqda, ikkinchi holatda biz bu jarayonlarga bog'liq axloqiy majburiyatga to'xtalamiz.

Bu ikki sohani aniq belgilab olish uchun siyosatshunoslar maxsus tushunchalardan foydalanishadi. *Empirik* - real voqelik va uning ta'riflari kuzatuvi bilan xarakterlanadi yoki ularga bog'liq bo'ladi.

Me'yoriy – baholovchi fikrlar va afzalliklar bilan xarakterlanadi yoki ularga oid bo'ladi.

Empirik tahlil siyosiy voqelikni ta'riflash uchun umumiy obyektiv tilni ishlab chiqish va undan foydalanish.

Me'yoriy tahlil reallik haqidagi bilimlarimizdan foydalanishda biz *amal qiladigan* subyektiv maqsadlar, qadriyatlar va axloqiy normalarni ishlab chiqish va o'rganish. Siyosiy talab, ehtiyoj, bu tahlilning ikkala tipi - empirik va me'yoriy tahlildan, nafaqat bilimlarni maksimal darajada jalb qilish, balki siyosiy reallikni tushunish orqali foydalanishdir. Shu ma'noda biz ilmiy tadqiqotni 1) talab tili falsafasini yaratish 2) biz uchun turli maqsadlar va vaziyatlarda effektiv xizmat qiladigan bilimlarni to'plash sifatida ko'rishimiz mumkin. Ilmiy tadqiqot - bu, bilishning o'z kamchiliklarini o'zi bartaraf etuvchi va doimiy rivojlanuvchi bilish usuli. Bu, ilmiy tadqiqotning eksplisitlik, tizimlilik va nazorat ostida bo'lish xususiyatlariga egaligi bilan izohlanadi.

Ilmiy tadqiqotning *eksplisitligi* quyidagicha namoyon bo'ladi: reallikni ta'riflash va o'rganishning barcha qoidolari aniq ko'rinishda ifodalanadi. Hech narsa yashirilmaydi. Hech narsaga e'tiqod qo'yilmaydi. *Tizimlilikda* har bir aniqlangan fakt sabab aloqasi bilan bog'langan bo'ladi yoki boshqa faktlar bilan birgalikda kuzatiladi. Hech qanday fakat shu vaziyat uchun yaroqli tushuntirishlar tan olinmaydi, metodlardan chekinishlarga yo'l qo'yilmaydi. Nazorat ostidalik tahlil qilina-yotgan hodisalar imkon boricha mavjud holatda yo'l qo'yilgan jiddiylıklar bilan ko'rib chiqishda kuzatiladi. Yakuniy xulosa puxta, extiyotkor va batafsil bahodan keyin chiqariladi. Cheklovlarga qaramasdan, ilmiy tadqiqot bizga haqiqiy voqelikni bilishning butunlay yangi, yanada ishonchli darajasini beradi. Shuning uchun ilmiy metod siyosatni tadqiq qilishda qo'llanadi. Demak, **ilmiy tadqiqot** (scientific research) - ma'lumotni tahlil qilishda ma'lum qoidalarini qo'llash orqali gipoteza va nazariyani tekshirish metodidir, bu metod qat'iy belgilangan shart-sharoitdagi kuzatishlarning interpretatsiyasi va kuzatuv natijasida qo'lga kiritiladi. Ilmiy tadqiqotlar fundamental va amaliy xarakterga ega.

Fundamenatal tadqiqotlar (basic research)ning birlamchi maqsadi ilmiy nazariyani tekshirish yoki uni rivojlantirishdir. **Amaliy tadqiqotlar** (applied research)ning birlamchi maqsadi aniq siyosiy muammolarni o'rganish va uni hal qilishga qaratilgan tadqiqot. Siyosatni tadqiq qilish jarayoni oltita mustaqil, ayni damda bir-biri

bilan uzviy bog'liq bosqichlardan iborat: 1) nazariyaning ifodalani-shi; 2) nazariyaning operatsionallashuvi; 3) tadqiqotga mos metodni tanlash; 4) xatti-harakatni kuzatish; 5) ma'lumotlarni tahlil qilish; 6) ma'lumotlar interpretatsiyasi.

Amaliyotda tadqiqot quyidagi ketma-ket bosqichlardan iborat: tadqiqot muammosini tanlash, tadqiqot vazifasini shakllantirish, tanlangan mavzuning turli unsurlari va qismlarini tahlil qilish va ularning ichidan tadqiqot uchun ahamiyati bo'lganlarini yoritish. Siyosiy xatti-harakat asosiy omillarni aniqlash uchun kuzata bilish va oldin o'tkazilgan o'xshash mavzuli tadqiqotlardan foydalanish orqali xulosalar chiqarish zarurdir. Bu esa, fikrlash, mantiqiy farazlar qilish, mos keluvchi empirik ma'lumotlarni izlashni talab qiladi. Manbalardagi ma'lumotlar va mantiqiy mulohazalar yordamida biz o'rganilayotgan hodisa bilan tahminiylar bog'liq bo'lgan omillarni oldindan ajratib ko'rib chiqishga urinishimiz kerak. Asoslangan tanlov orqali amalga oshirilgan tadqiqot muammosini oxirigacha ishlab chiqish jarayoni *nazariyaning ifodalanishi* deyiladi. Navbatdagi bosqich, ya'ni *operatsionalizatsiyalashtirish* deganda, bizning nisbatan abstrakt nazariy tushunchalarimizni aniq atamalariga o'zgartirish yoki qayta ifodalash tushuniladiki, ular biz istagan narsalarni o'lchashga imkon beradi.

Operatsionalizatsiya, konseptual darajadan (muammo haqida o'y-lash) operatsional darajaga (uning yechimlarini ishlab chiqish) o'tishni maqsad qiladi. *Operatsionalizatsiya* - abstrakt tushunchalarning aniq atamalariga aylanish jarayoni. Shakllantirilgan nazariyalar asosida odatda gipoteza shakllanadi. *Gipoteza* o'zgarishlar o'rtasidagi bir qator bog'liqliklar mavjudligini bashorat qiluvchi tasdiqdir. *O'zgaruvchan* (variable) - turli vaziyatlar uchun turli ma'nolar yoki bir voqea doirasida vaqtning turli fursatlari uchun qabul qilinadigan belgi.

Tadqiqotning mutanosib metodlari tanlovi, ma'lumotlar tahlili va natijalar interpretatsiyasi

Tadqiqotning navbatdagi bosqichi tadqiqot strategiyasi va boshlang'ich qadam rejasini ishlab chiqishni talab qiladi. Bunda ikki mulohaza asosiy o'rinni egallaydi.

Birinchidan, bizni kiziktirgan aniq savollar ko'rish uchun (anik o'zgaruvchanni olchashga karatilgan) metodlar va metodlar birikmasini tanlash kerak, bu ish operatsionalizatsiya jarayoniga mos ravishda amalga oshirilishi zarur. Tadqiqot muammosining aniq ifodalanishiga bog'liq ravishda u yoki bu metodlar birikmasi yoki

strategiyasi foyda keltirishi mumkin. Shunday qilib, ushbu tadqiqot metodining maqbulligi biz aynan qaysi muammoni o'rganishimiz bilan belgilanadi. Ikkinchi mulohazani realizatsiya imkoniyati sifatida ta'riflash mumkin. Mutanosib metod – bu tadqiqot vaziyatida yuzaga keladigan cheklovlar sharoitida vaziyatni maksimal darajada samarali tadqiq qiluvchi metoddir.

Natijada o'zgaruvchanlarni o'lchash usulini topish kerak:

- 1) o'zgaruvchanning ishchi ta'riflariga mos metod;
- 2) amaliy jihatdan amalga oshiruvchanlik metodi.

Tadqiqot jarayonining to'rtinchi bosqichida tadqiqot strategiyasi haqiqatda ro'yobga chiqadi. Bunda ko'p omillarni hisobga olish kerak, ulardan ikkitasiga alohida to'xtalib o'tish kerak.

Cheklangan tasodiflarning (belgilar) tahlil natijalarini ko'plab tasodiflarga (belgilar) tarqatish imkoniyatini **generalik (umumiylik)** deb tushuniladi. Bu sharoitda *tanlovni shakllantirish protsedurasi* deb nomlangan strategiyani ishlab chiqish kerak. Bu jarayon yordamida nihoyatda ko'plab obyektlarning kam sonli vakillari qandayligi aniqlanadi va by tahlildan olingan hulosalar umumiylikka ishlatilishi mumkin. Buning natijasida biz barcha yig'indi, jamlovga tatbiq etish mumkin bo'lgan xulosalarga ega bo'lamiz.

Tahlil obyektni tanlab olgach, ularning tadqiqiga maksimum darajada e'tibor qaratishimiz kerak. Bunda reaktiv hisoblanadigan siyosiy hodisa va xatti-harakatlarni o'lchashning bunday usullarini qo'llashdan qochish kerak. **Reaktivlik** deganda, ikki imkoniyatdan biri tushuniladi, yoki tadqiqotchi, yoki tadqiqot metodlari qandaydir darajada kuzatiluvchiga ta'sir qilishi mumkin va ularning harakatlariga tadqiqotchi ishtirokiga bog'liq holda o'zgartirish kiritadi. Boshqacha aytganda, tadqiqot jarayoni tadqiq etiluvchining harakatini o'zgartirishi mumkin, degan xavf mavjud, bundan yakuniy natijalar xato bo'lib chiqishi mumkin. Tadqiqot jarayonida har bir obyekt to'g'risida biz yig'adigan axborot elementlari **ma'lumot** deyiladi. Bu bosqichdagi maqsadimiz - tadqiqot muammosi yechimi uchun biz qo'lga kiritgan natijaga oydinlik kiritish. Asosiysi, gipotezani baholashda ikki o'zgaruvchanlik o'rtasidagi statistik bog'liqlikni aniqlashtirish zarur, keyin bu ikki o'zgaruvchanlik qanday qilib bir-biriga bog'langan va kam sonli obyektlarni tadqiq qilishda aniqlangan u yoki bu munosabatlarning mazkur obyektlarning yig'indisi tadqiqi natijalaridagi kabi qanchalik haqiqatga yaqinligini aniqlashdan iborat. Yoki, boshqacha aytganda, tasdiq asoslanganligi

shundan iboratki, kichikroq tanlangan guruh umumiy majmua uchun reprezentativ yoki xos, degan fikr qanchalik asosli ekanligi aniqlanadi.

Reprezentativlik (namoyon bo'lish) - hodisalarning kichik yig'indisi va yirik yig'indisi o'rtasidagi o'xshashlik darajasi. (Kichik yig'indisi yirik yig'indisidan teriladi). Va nihoyat, biz alohida fragmentlardan yagona manzarani yaratishimiz va natijalarni sharhlashimiz lozim. Ya'ni quyidagi savollarga javob berish lozim: tadqiqot muammosini istaganimizdek ifodalashda qanchalik muvaffaqiyatga erishdik, nimalarni aniqladik, bizning natijalarimiz qanday ahamiyatga ega, kutilgan natija bilan bu natijalar o'rtasida qanday mutanosiblik mavjud. Qo'lga kiritilgan natijalar qadrini pasaytiradigan xatolar sodir etdikmi, nazariya va real siyosiy voqelik o'rtasidagi, nazariya va tadqiqot orasidagi mustahkam aloqani saqlab qola oldikmi va boshqalar. Aslida, biz bu bosqichda siyosiy xatti-harakatning ba'zi jihatlari tasdig'iga (raqamlar) duch kelamiz. Bu tasdiqlar real siyosiy (statistik) mutanosiblikni aks ettirishi ham, aks ettirmasligi ham mumkin. Biz tadqiqot masalasi yechimida aniqlangan faktlar va bunday mutanosibliklarning hissasi qay darajada ekanini aniqlashimiz darkor.

SEMINAR

Ma'ruzalar mavzulari:

1. XMni tadqiq qilishda metod muammosi
2. Tadqiqot jarayoni

Adabiyotlar ro'yhati:

1. *Цыганков П.А. Теория международных отношений. –М., 2003.*
2. *Джарол Б.Мангейм, Ричард К.Рич. Политология. Методы исследования.*
3. *Косолапов Н. Анализ внешней политики: основные направления исследования // Мировая экономика и международные отношения. 1999. № 2.*
4. *Косолапов Н. Международные отношения: эпистемология и методы исследования // Мировая экономика и международные отношения. – 1998. - №3.*
5. *Косолапов Н. Явление международных отношений: историческая эволюция объекта анализа - Мировая экономика и международные отношения. – 1998. №4.*
6. <http://www.intertrends.ru/four/002/htm>
7. <http://www/auditorium.ru>
8. <http://www/jahon.mfa.uz>

3 - Ma'ruza: Nazariyani yaratish: siyosiy fanlarda gipotezalar va tushunchalar

Reja:

1. *Nazariya tushunchasi*
2. *Nazariya komponentlari*
3. *Gipotezaning ifodalanishi*

Tayanch so'z va iboralar:

Nazariya, qidiruv tadqiqoti, deduksiya, induksiya, tushuncha, empirik referent, kovariatsion munosabatlar, kauzal munosabatlar, soxta munosabatlar, bilvosita kauzatsiya, ko'p sonli kayzatsiya, kauzal model, ijobiy munosabatlar, salbiy munosabatlar, gipoteza, raqobatlashuvchi gipoteza, tobe o'zgaruvchan, mustakil o'zgaruvchan, antisedent o'zgaruvchan, oraliq o'zgaruvchan.

Nazariya tushunchasi

Ilmiy tadqiqot nimanidir bilish ehtiyojidan boshlanadi. Bu tadqiqot muammosi deb ataladi. Odatda muammo o'ta umumiy xarakterga ega. Bu savolga aniq va foydali javob berishning samarali yo'li dunyoda kuzatiladigan munosabatlar empirik tadqiqotiga mavjud metodlarni qo'llashdan iborat. Eng avvalo, muammoning barcha yechimlari uchun maqbul ilmiy jarayonlarni qo'llashdan avval, umumiy savolni bir yoki bir necha aniq savol shakliga keltirishimiz lozim. Bularni bajarmay turib, biz yechimni qidirishda nimani kuzatishni bila olmaymiz yoki kuzatilgan faktlarning tadqiq qilina-yotgan muammo bilan qanday bog'langanligini tushuna olmaymiz. Umimiy muammoni bir yoki bir necha aniq savollarga aylantirish kuzatilgan faktlarning imkoniy izohlarining qayta ishlanishini talab qiladi. Voqeaga barcha imkoniy sharhni berishga intilganimizda, biz nazariyani yaratamiz. Nazariya anglashga urinish orqali yaratiladi. Ular ishimizni yo'naltirishga yordam beradi va muammoni to'g'ri yoki noto'g'ri anglashimizni belgilaydi. Aynan shuning uchun nazariyani yaratish tadqiqot jarayonining ilk qadami hisoblanadi va aynan shuning uchun nazariya va tadqiqotning o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni anglash muhimdir. U yoki bu nazariyaga avval-boshda egamizmi yoki yo'qmi, bundan qat'iy nazar, tadqiqot mobaynida ayni faktlarni qo'lga kiritamiz.

Lekin biz nazariya vositasida bir-biri bilan bog‘lashimiz mumkin bo‘lgan faktlar yordamida muammoni anglash sohasida ilgari siljishimiz mumkin. Nazariya nima uchun faktlar aynan shunday bog‘lanishini tushuntirishga yordam beradi, aniq doirada faktlarni interpretatsiya qilish va ular o‘rtasidagi aloqani o‘rnatish imkoniyatini beradi.

Nazariya ikki sababga ko‘ra yaratiladi. Birinchidan, biz nazariya yordamida voqelikni soddalashtirishga, mumkin qadar uni anglash va nazorat qilish yoki uni uyg‘unlashtirishga umid qilamiz. Ikkinchidan, voqelikni anglashga erishilgach, nazariya uning to‘g‘riligini tekshirishga yordam qilishi mumkin. **Nazariya** bu, dunyoda, bizningcha, sodir bo‘layotgan voqealarni aks ettiruvchi timsollarning ko‘p sonli mantiqiy bog‘lanishidir. Nazariya faqat intellektual instrumentdir, holos; huddi bolg‘a tayyorlashning bir qancha usullari mavjudligi kabi, siyosiy hayotni izohlovchi nazariyani ishlab chiqishning ko‘pgina yo‘llari mavjuddir. Siyosiy hayotning bizni qiziqtiradigan jihatlarini anglashga olib boradigan nazariya qanday yaratiladi? Javob aniq va sodda, chunki nazariya turlicha usullar orqali yaratiladi. Lekin biz nazariyani yaratish jarayoni asosida yotadigan asosiy g‘oyalarni va bu jarayonning muhim bosqichlarini izohlab berishimiz mumkin. Ulardan biri muammo konseptualizatsiyasidir.

Bir voqeani anglashni istaganimizda, biz eng avvalo o‘zimizdan hodisa haqidagi qaysi bilimlarimiz uni anglashga yordam bera oldi, deb so‘rashimiz lozim. Tushinishga shaxsiy tajriba, tasodifiy kuzatuv va ijodiy mulohaza orqali erishiladi. Bu sohadagi boshqa yutuqlarni tizimli o‘rganish ham foydadan holi bo‘lmaydi. Foydali nazariyalar biz izohlashni istagan voqealarni batafsil o‘rganishdan yuzaga keladi. Dاللillar to‘g‘risidagi nomutanosis bilimlar nazariyani yaratishdagi harakatlarimizni butunlay noto‘g‘ri yo‘nalishga yo‘naltirishi mumkin. Shu sababli mos keluvchi faktlarni aniqlashni maqsad qiluvchi qidiruv tadqiqotlari juda muhim hisoblanadi. Shu sababdan agar (biz ishonchli nazariyani yaratishni istasak) tadqiq qilinayotgan hodisa to‘g‘risida adabiyotlardan axborot qidirish zarur. Odatda biz, kuzatilayotgan voqealarni izohlovchi modellar uchun ishni faktlarni qidirishdan boshlaymiz, ularning xususiyatlari, belgilari va sabablarini birlashtiruvchi umumiylikni izlaymiz (Masalan, universitet shaharchalaridagi talabalar chiqishlarining da‘vat etuvchi motivlariga asoslanamiz).

Biz kuzatayotgan narsalarni umumlashtirishdan biz kuzatmayotgan yoki kuzata olmayotgan jarayonga o'tish induksiya deyiladi. Induksiya ilmiy tadqiqotning bazasini tashkil etadi. Induksiya yordamida kuzatuvga asoslanib yaratilgan nazariya empirik asoslanganlik deyiladi. Induksiya jarayonida bir qator vaziyatlar to'g'risidagi bilimlarimizdan kelib chiqib, boshqa o'xshash holatlarda vaziyat qandayligi haqida xulosa qilamiz.

Ammo nazariya yaratish uchun faqatgina induksiya yetarli emas. Siyosiy xatti-harakat to'g'risida ba'zi farazlarni ilgari surish zarur bo'lib qoladi. Kelajakda bu farazlar (aksioma yoki postulat deb ataladi) nazariyamiz tarkibiga kiradi. Ular, umidlarimizga muvofiq dastlabki izohlari mavjud ma'lumotlar bilan tasdiqlanadigan shart-sharoitlar bilan tavsiflanadi. Aniq sharoitda siyosiy xatti-harakat to'g'risidagi umumiy tasdiqlanadigan bu holatlar xulqning (chiqish) aniq usulini tushuntirib beradi. Shu usul bilan ularning mantiqiy ravishda nazariy farazlardan kelib chiqishini ko'rsatadi. Shunday qilib biz, induktiv mulohazaga teskari harakatlarni amalga oshiramiz. Abstraktlik va umimiylikdan aniq va spetsifik mulohazalarga o'tishning bu jarayoni **deduksiya** nomi bilan ma'lum. Barchamiz deduktiv mantiqdan har kuni foydalanamiz (masalan, liftidan foydalanish).

Deduksiya - bu real dunyo voqealarini izohlovchi nazariyadan foydalanishga imkon beruvchi jarayondir. Ammo nazariyani ishlab chiqish uni samarali qilmaydi. Odatda biz ba'zi voqealarni izohlashda ko'pgina nazariyalarga asoslanamiz. Kuzatuvlar izohining foydali bo'lishi uchun nazariya quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi shart.

1) tasdiqlanuvchi; 2) mantiqiy qarama-qarshi bo'lmagan; 3) foydalanish imkoniyatining mavjudligi; 4) umumiy; 5) tejamli.

Nazariya komponentlari

Nazariya bir-biriga tasdiqlar yordamida bog'langan ko'plab farazlardan mantiqiy chiqarilgan ko'pgina tushunchalardan iborat. Nazariyaning mantiqiy tizimi shundaydir:

Tushuncha – ba'zi tasavvurlarni ifodalaydigan so'z yoki ramz. U yoki bu obyektning nomlanishini qayd qilganimizda, biz unga nisbatan bir qator prognozlar qilishimiz mumkin, zero, atash bu, ma'lum xususiyatlarning birikmasi ramzidir. Tushunchani nima foydali qiladi?

1. U loaqal kuzatilishi mumkin bo'lgan hodisalarga oid bo'lishi zarur. Qandaydir ilmiy qiymatga ega bo'lish uchun tushuncha biz-

ning odatiy sezgi organlarimiz yordami bilan o'lganishi yoki biror narsaga muvofiq kelishi zarur. Bevosita yoki bilvosita kuzatiladigan ashyolar *empirik referent* deb nomlanadi.

2. Tushuncha *aniq* bo'lishi kerak. Ba'zi obyektlarni ta'rif qilishda ba'zi tushunchalar ishlatilganida, biz gap nima haqida ketayotganini aniq bilishimiz shart. Aniqlik empirik referentni identifikatsiyasiga va kuzatilayotgan hodisalar o'rtasida chegaralar o'tkazishga yordam beradi.

3. Foydali tushunchalar *nazariy ahamiyatga ega bo'lishi zarur*. Tushuncha kuzatilayotgan hodisalar izohida muhim rol o'ynaydigan nazariyaning ko'p sonli boshqa tushunchalar bilan bog'liq bo'lganida, nazariy ahamiyatga ega bo'ladi.

Shunday qilib, nazariya tushunchalarni bir-biriga bog'lab, ularning foydaliligini aniqlaydi. Chunki ularni bir-biriga bog'lash orgali tushunchalarni izohlarda ishlatish mumkin bo'lib qoladi. Nazariya tushunchalar o'rtasida muayyan munosabatlarni qurib, tushunchalarni bir-biriga bog'laydi. Bu munosabatlar farazlarimizdan kelib chiqadi va tasdiq xarakteriga ega bo'ladi. Tasdiq odatda, tushunchalar o'rtasida ikki tipdagi munosabatni o'rnatadi: Kovariatsiya yoki kauzatsiya.

Kovariatsion munosabatlar ikki yoki undan ortiq tushunchalarning bir vaqtning o'zida o'zgarish tendensiyasiga egaligini ko'rsatadi: biri ko'payganda (kamayganda), boshqalari ham ko'payadi (kamayadi). Kovariatsion munosabatlar munosabatlarning bir vaqtda o'zgarish sabablari to'g'risida hech qanday axborotga ega emas. Masalan, siyosiy xabardorlik darajasi va ovoz berishda ishtirok etish ehtimoli kovariatsion munosabatlarga ega, birining o'sishi boshqasining o'sishiga olib keladi.

Kauzal munosabatlarda bir yoki bir qancha tushunchalardagi o'zgarish boshqa tushunchalarning o'zgarishiga olib keladi. Masalan, shaxsda partiyaga tegishlilik identifikatsiyasi kuchli bo'lsa, uning ovoz berishda ishtiroki ehtimoli ham shuncha yuqori bo'ladi, deya ta'kidlashimiz mumkin.

Biz kundalik hayotda "sabab" va "oqibat" tushunchalari haqida mulohaza yuritishga o'rganib qolganmiz, lekin qoidaga ko'ra, bu tushunchalar qat'iy ma'noda ishlatilmaydi. Ko'pincha inson harakati oqibati va sabablarini belgilash g'oyatda qiyin bo'ladi, voqea qanchalik muhim bo'lsa, uning sabablarini aniqlash shunchalik qiyin bo'ladi. Ushbu qiyinchiliklar oqibatida biz, bir vaqtning o'zida 4

shart bajarilganda, kauzal munosabatlarni ehtiyotkorlik bilan qayd etishimiz darkor.

1) Belgilangan sabab va oqibatlar birga o'lganishi kerak, ya'ni ular kovariatsion munosabatda bo'lishi kerak;

2) Sabab natijadan oldin yuz berishi kerak.

3) Biz faraz qilgan sabab va oqibatlar o'rtasidagi kauzal aloqalarni identifikatsiyalash imkoniyatiga ega bo'lishimiz kerak. Biz **A** ning o'zgarishi natijasida **B** ning o'zgarishiga olib keladigan jarayonni identifikatsiyalash imkoniyatiga ega bo'lishimiz kerak, degan ma'noni bildiradi.

4) Sabab va oqibat hodisalari o'rtasidagi kovariatsiya bir vaqtning o'zida uchinchi ma'lum bir omil mutanosibligi sababli yuzaga kelmasligi kerak. So'nggi shart bizga soxta munosabatlarni eslatadi.

Soxta munosabatlar tobelik bo'lib, unda ikki o'zgaruvchan, faqatgina tasodifiylik yoki qandaydir boshqa o'zgaruvchan ta'siri ostida kovarlashtiriladi. **A** va **B** birgalikda o'zgarganda ikkalasi **C** orqali yuzaga keladi. **C** yo'q bo'lganida, ular birgalikda o'zgarmaydi, bunda **A** va **B** o'rtasidagi ko'rib chiqilayotgan munosabatlar soxta munosabatlar deb nomlanadi. Biz ilgari surayotgan farazlarni diqqat bilan kuzatish juda muhim. Chunki bu farazlarni, kauzal o'zaro ta'sir natijasi sifatida nazariyaga kiritishdan avval, ehtimoliy soxta munosabatlarni ochib berishda ilgari surayapmiz (masalan, import rom narxi va vazirlar maoshi). Ijtimoiy kauzatsiyaning ikki xususiyatini tushunish ahamiyatli.

1) Bir hodisa boshqa voqeani bevosita yoki bilvosita yuzaga keltirishi mumkin. **A** **B**-ni quyidagi holatda yuzaga chiqaradi, bunda **C**-ning hosil bo'lish sababi bo'ladi, qaysiki bevosita **B**-ni maydonga keltiradi. Butun nazariyani imkoniyat doirasida yaratish uchun, bilvosita kauzatsiyaning katta e'tibor bilan kuzatish zarur. Bilvosita kauzatsiya - bir o'zgaruvchan boshqasi sababli ta'sir qiladi, bu holat faqat uchunchi ahamiyatli o'zgaruvchan o'zgarishi vositasida sodir bo'ladi. U esa keyin bevosita ikkinchi o'zgaruvchaga ta'sir ko'rsatadi.

2) Inson xatti-harakati odatda bittadan ortiq sababga bog'liqligini hisobga olish kerak. Nazariyani qayta ishlashda ortiqcha soddalashtirishdan qochish lozim va ko'p sonli kauzatsiyaga ijtimoiy hayotda talab darajasidagi o'rinni ajratib berish kerak. Buning ma'nosi shuki, har qanday voqea bir necha turli sabablarga ega bo'lishi mumkin va ba'zi voqealarning amalga oshirilishi bir vaq-

tning o'zida ko'plab hodisalarni ro'y berishini talab qiladi. Ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun odatda, nazariyaning kauzal modelini yaratish foydalidir. **Kauzal model** – bu, aniq ko'rinishda nazariyada qabul qilingan barcha munosabatlarni ifodalovchi diagrammadir. Bunday tarzda bizning asoslarimizdan kelib chiqadigan barcha oqibatlar yanada yaqqol ko'zga tashlanadi.

Kovariatsion va kauzal munosabatlar ham ijobiy, ham salbiy bo'lishi mumkin. Bu ikki tushuncha bir yo'nalishda yoki qarama-qarshi yo'nalishda o'zgarishi mumkin degani. Agar ular bir yo'nalishda o'zgarsa, munosabatlar ijobiy hisoblanadi, ya'ni *ijobiy munosabatlar* mazmunan bir-biriga mos keluvchi ikki turli o'zgaruvchanning bir yo'nalishda o'zgaradigan munosabatlari. Ijobiy munosabatlar tasdiq orqali ifodalanadi: jamiyatdagi kam sonli millatlarning nisbiy notengligi qanchalik kuchli bo'lsa, siyosiy zo'ravonlik ehtimoli ham shunchalik yuqori bo'ladi. *Salbiy munosabatlar* - mazmunan bir-biriga mos, turli ikkita o'zgaruvchanning qarama-qarshi yo'nalishda o'zgaradigan munosabatlari. Salbiy munosabatlar quyidagi tasdiqni bildiradi, tajriba o'tkazilayotgan shaxsning siyosiy begonalashuvi darajasi qanchalik kuchli bo'lsa, uning ana'naviy siyosiy faoliyatda ishtirok etish ehtimoli shunchalik past bo'ladi. Nazariyada tushunchalar o'rtasidagi qaysi munosabatlar (salbiy yoki ijobiy) bizni kutib turganini ko'rsatib berish kerak. Nazariyaga yakunlanganlik nuqtai nazaridan qarab bo'lmaydi. Uni vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqish va mukammallashtirish talab qilinadigan instrument sifatida qabul qilish mumkin. Tadqiqot jarayonida markaziy o'rinda nazariyani tekshirib chiqish turadi. Nazariya - ko'pgina tushunchalar, farazlar va tasdiqlardan iborat bo'lib, u hech qachon to'la isbotlangan yoki inkor etilgan bo'lmaydi.

Gipotezaning ifodalanishi

Gipotezalar yoki umidlarimizga mos keluvchi kuzatuvlar to'plangani sari nazariyaning foydali ekanligiga ishonch hosil qilamiz, deyish to'g'riroq bo'ladi. Aksincha, nazariyadan kelib chiquvchi gipotezalarga mos kelmaydigan kuzatuv natijalari to'plangani sari, bizning ishonchimiz kamaya boradi. Chunki "nazariyani tekshirish" deb atalgan hodisa aslida gipotezani tekshirishga olib boradi.

Gipoteza - o'zgaruvchanlar o'rtasidagi (bir qancha) tobeliklar (bog'liqliklar) mavjudligini bashorat qiluvchi tasdiq. Bu, mohiyatan, fikrimizcha, haqiqatda mavjud voqelik tasdig'idir. Real dunyoda yuz berayotgan hodisalarni to'g'ri tashkil etilgan kuzatish natijasida biz nimalarni ko'rishni kutmoqdamiz, gipoteza shu to'g'risida xabar beradi. Gipoteza bizning tushunchalarimizda ifodalangan hodisalar o'rtasidagi kutilayotgan aloqalarni tavsiflovchi deklarativ farazlarni namoyon qiladi. Odatda ular quyudagicha ifodalanadi:

Qanchalik baland (past, ahamiyatli, ko'p, sekin va b.) bo'lsa, shunchalik baland (past, ahamiyatli, ko'p, sekin va b.) bo'ladi. Chiziqlar bir vaqtda o'zgarishi kutilayotgan hodisa nomlari bilan to'ldiriladi. Masalan, quyidagi gipotezani taklif qilish mumkin:

Viloyatda kambag'al aholi foizi qanchalik yuqori bo'lsa, ularning vakillari ijtimoiy ta'minot to'g'risidagi qonunlarni qo'llab - quvvatlashlashiga shunchalik tez ovoz berishadi. Bu bashorat qiluvchi kovariatsion gipoteza. U ovoz berish natijalari haqida xabar bermaydi, ammo bizga haqiqat va nazariya o'rtasidagi muvofiqlikka oid ma'lumotlarni qo'lga kiritishga intilgan holda kuzatishimiz mumkin bo'lgan narsani ko'rsatadi. Empirik kuzatishlar yordamida qo'lga kiritilgan bu ma'lumotlar, umumiy ko'rinishdagi nazariyadan kuzatuvni tashkillashtirsa bo'ladigan, yanada aniqroq darajaga o'tishni talab qiladi. Shunday qilib, biz o'zgaruvchan atamalarni muhokama qilishga o'tishimiz darkor.

O'zgaruvchan muayyan hodisaning empirik kuzatiluvchi xossasi sifatida belgilanishi mumkin. Bunda u birdan ko'p ma'noga ega atama sifatida qabul qilinishi mumkin. Masalan, jins va millat kabi o'zgaruvchanlar chegaranlangan ma'nolarga ega bo'lib, ularga "erkaklarniki" yoki "inglizcha" deb sifat jihatidan xarakteristika beriladi. Yosh va yillik daromad kabi o'zgaruvchanlar yanada keng doiradagi mazmunga ega bo'lishi mumkin, ularni hisoblash yo'li orqali o'lchash mumkin.

O'zgaruvchanlar abstrakt tushuncha mazmuniga ega tasdiqlarni yanada aniqroq empirik ta'rif shaklidagi tasdiqqa o'tishiga imkon beradi. Tasdiqning empirik to'g'riligi ijobiy baholanishi mumkin. O'zgaruvchan tadqiqot jarayonida ikki sababga ko'ra markaziy o'rinni egallaydi. Birinchidan, yanada aniq empirik ta'rifni havola qilib, nazariyani tekshirish uchun nimani kuzatish kerakligini aniqlashga yordam beradi. Ikkinchidan, gipoteza doirasida o'zgaruvchanning o'r-

nini bilib, kuzatishlarni tashkillashtirishimiz mumkin. Boshqa o'zgaruvchanliklar mazmuni o'zgarishiga javob sifatida o'z mazmunini o'zgartiradigan o'zgaruvchanlar *tobe o'zgaruvchanlar* deyiladi. Ularning mazmuni boshqa o'zgaruvchanlar mazmuniga bog'liqdir. O'zining shaxsiy mazmunini o'zgartirib boshqa o'zgaruvchanlar mazmuniga ta'sir ko'rsatuvchi o'zgaruvchanni *mustaqil o'zgaruvchan* deyishadi. Bir o'zgaruvchanning mustaqil yoki tobe bo'lishi mazkur o'zgaruvchanlikka oid gipoteza bilan tasdiqlanuvchi munosabat orqali belgilanadi. O'zgaruvchan bir tadqiqotda tobe, ikkinchisida mustaqil bo'lishi mumkin. Ijtimoiy tahlil uchun muhim bo'lgan o'zgaruvchanning bir tipi oraliq o'zgaruvchandir. *Oraliq o'zgaruvchan* tobe va mustaqil o'zgaruvchanlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni amalga oshiradi. Ular boshqa o'zgaruvchanlar o'rtasidagi o'zaro aloqani boshqaradi.

Agar biz shunga mos keluvchi nazariyani yaratsak, masalan, lobbistik faoliyat guruhi tashkil etilishi va mablag'lar o'sishi o'rtasidagi oraliq holatni egallasa, quyidagi bashoratni qilishimiz mumkin:

Agar lobbistik faoliyat faol xarakterga ega bo'lsa, bunda manfaatdor guruhlarini tashkil etish hukumat mablag'lari o'sishi bilan ijobiy ravishda bog'liq bo'ladi. Qachonki lobbistik faoliyat juda cheklangan bo'lganida manfaatdor guruhlarini uyushtirish hukumat mablag'lari o'sishi bilan qisman aloqaga ega bo'ladi.

O'zgaruvchanning so'nggi tipi bu antesedent o'zgaruvchanlikdir. *Antesedent o'zgaruvchan* – ushbu gipoteza doirasida mustaqil o'zgaruvchanlik sifatida ko'rib chiqilayotgan boshqa o'zgaruvchanda o'zgarishini yuzaga olib keluvchi o'zgaruvchandir. Oraliq o'zgaruvchan tobe va mustaqil o'zgaruvchan o'rtasida o'rin egallagan vaqtda, antesedent o'zgaruvchan mustaqil o'zgaruvchangacha harakatga kirishadi. Masalan, ota-onalarning partiyaviy tegishliligi ovoz berish ehtimolligi bilan bog'liq kauzal zanjirdagi antesedent o'zgaruvchan hisoblanadi.

Shunday qilib, *gipotezalar – ma'lum darajadagi o'zgaruvchanlar o'rtasidagi munosabatlar tasdig'idir*. Ular bizning barcha nazariy tuzilmalarimizning empirik foydaligi to'g'risida ma'lumotlar yig'ish uchun asos yaratadi. Biz gipotezani induktiv yoki deduktiv mulohazalar yo'li bilan yaratamiz, bu, biz joylashgan tadqiqot jarayoni bosqichiga bog'liq. Agar nazariyani yaratishda biz tajriba va xatolar metodlaridan foydalansak, gipotezalar induktiv umumlashtirish jarayoni yordamida ilgari suriladi. Induktiv usul bilan qo'lga kiritilgan

gipotezalar qidiruv tadqiqotida muhim rol o'ynashi mumkin, zotan qidiruv tadqiqoti nazariya yaratishda foydali bo'lsa-da, ammo ular voqelikni izohlashda foydasiz hisoblanadi. O'zgaruvchanlarni mantiqiy aloqa tizimiga birlashtiruvchi nazariyani yaratishimiz bilanoq, deduktiv mulohaza yordamida undan gipotezani ajratib olishimiz mumkin.

Gipotezalar nazariyadan mantiqan kelib chiquvchi dunyo haqidagi bashoratlar bo'lgani sababli, gipotezalarni tasdiqlovchi faktlarni aniqlash hodisalarni izohlashga yordam beradi. Chunki bunday faktlarning aniqlanishi gipotezalar kelib chiquvchi nazariy tizimlar validligini aks ettiradi.

Lekin faqatgina deduksiyani ishlatib, o'zgaruvchanliklar o'rtasidagi munosabatlar to'g'risida hech qanday yangi ma'lumotni bila olmaymiz. Biz deduksiyadan faqatgina bu munosabatlar to'g'risidagi barcha imkoniy axborotlarni chiqarib olish uchun foydalanamiz. Deduksiya bizning farazlarimizdan kelib chiquvchi xulosalarni aniqlash uchun ishlatiladi va aynan shu aniqlash gipotezani yaratadi. *Fakat gipoteza nazariya bilan deduktiv mantiq qoidalari asosida bog'langan bo'lsagina* gipoteza to'g'riligini tasdiqlovchi ma'lumotlar nazariya to'g'riligini tasdiqlovchi ma'lumotlar bo'lib hisoblanadi. Faqatgina shu vaziyatda biz qo'rqmasdan gipoteza validligiga tegishli ma'lumotlardan boshlang'ich nazariyaga oid har qanday mulohazaga o'tishimiz mumkin. Gipotezaning bunday mantiqiy xulosasi jarayonida voqelikni fakt orqali tekshirish va nazariya natijalari nuqtai nazardan nazariyani baholash natijasida rivojlanadi, to'ldiriladi, mukammallashtiradi. Bu jarayonda gipotezaning alohida bir ko'rinishi muqobil raqobatlashuvchi gipoteza muhim rol o'ynaydi. Raqobatlashuvchi gipoteza - tadqiqot natijalarining muqobil izohidir, agar boshlang'ich gipoteza to'g'ri bo'lsa, mazkur izoh mantiqiy nuqtai nazardan to'g'ri bo'la olmaydi. Har qanday voqeada ko'plab ehtimoliy izohlashlar bo'ladi. Agar bu izohlarni gipoteza ko'rinishida ifodalasak, bir-biriga muvofiq kelmaydigan gipotezalar muqobil raqobatlashuvchi gipoteza deb aytiladi. Ular uzoklanayotgan voqeani anglash yoki ko'rib chiqishning turli usullarini taqdim etgani uchun muqobildir. Bir vaqtning o'zida valid bo'la olmaganligi uchun ular raqobatlashuvchidir. Agar gipotezalarning biri to'g'ri bo'lsa, boshqasi noto'g'ri bo'lishi shart. Biz har qanday voqea bilan bog'liq barcha imkoniy muqobil gipotezalarni tekshira va taqqoslay olmaymiz, ammo agar biz hech bo'lmaganda bitta

gipotezaga ishonishni istasak, bu kuzatuvlarimiz noto'g'ri yo'nalishga yo'naltirmasligiga ishonch hosil qilishimiz uchun asosiy raqobatlashuvchi gipotezalarni tekshirishga intilishimiz shart.

Nazariya ikki shartni bajarishda foydali intellektual instrument sifatida tan olinadi. Bashorat qilingan nazariyaga mos keluvchi ma'lumotlar topilganda va raqobatlashuvchi gipoteza istisno qilinganda. Lekin shuni esda tutish lozimki, hech qaysi alohida olingan tadqiqot u yoki bu nazariya yoki nazariya qismini inkor etish yoki qabul qilish uchun yetarli ma'lumotlarni bermaydi. Bunda ayni tadqiqotga aloqasi bo'lmagan hodisalarga taalluqli nazariyalar e'tiborda tutilyapti. Nazariya validligini rad qiluvchi ma'lumotlar kelasi tadqiqotlar davomida doim paydo bo'lishi ehtimoli saqlanib qolmoqda. Biz hamisha qarama-qarshi faktlarga duch kelishga va yanada foydali nazariyaga yangi ma'lumotlar qo'shish uchun induksiya bajonidil murojat qilishga tayyor bo'lishimiz darkor. Nazariyani yaratish - bu farazlar va ma'lumotlar, mulohazalar va tadqiqotlar o'rtasidagi doimiy o'zaro ta'sir jarayonidir.

SEMINAR

Ma'ruzalar mavzulari:

1. Nazariy tafakkurning asosiy bosqichlari va siyosiy nazariya vazifasi
2. XMni tadqiq qilishda gipotezalar va tushunchalar

Adabiyotlar ro'yhati:

1. *Karen Mingst. Essentials of International Relations. W. W. Norton and Company. – New York. London. 1999.*
2. *Джарол Б.Мангейм, Ричард К.Рич. Политология. Методы исследования.*
3. *<http://www/auditorium.ru>*

4- Ma'ruza: Nazariya operatsionalizatsiyasi

Reja:

1. Operatsionalizatsiya: nazariya va ta'rif o'rtasidagi aloqa
2. O'lchov, o'lchov birliklari
3. Nazariya validligi va ishonchliligi

Tayanch so'z va iboralar:

Operatsionalizatsiya, instrumentalizatsiya, o'lchov, kuzatish, ko'rsatkich, nominal o'lchov, tartibli o'lchov, interval o'lchov, o'lchov xatosi, tizimli xatolar, tasodifiy xatolar, validlik, pragmatik validlik, amaliy validlik, prognostik validlik, tashqi validizatsiya, konvergent validlik, yaqqol validlik, diskriminant validlik, ishonchlilik.

Operatsionalizatsiya: nazariy va ta'rif o'rtasidagi aloqa

Tadqiqotning dastlabki muammolaridan biri bu – masalaning abstrakt darajasidan aniq kuzatishlarga o'tish usullarini ishlab chiqish, zotan, bu holat ularga javob berishga imkon yaratadi.

Abstrakt tushunchalarni anik tushunchalarda ifodalash uchun kuzatilayotgan voqealarni to'plash jarayoni **operatsionalizatsiya** sifatida ma'lum, kuzatishlarni olib borishda bosqichlarni aniqlashtirish **instrumentalizatsiya** deyiladi. Boshqacha aytganda instrumentalizatsiya kuzatishni olib borishda zarur bo'ladigan jarayonlar spetsifikasi, tadqiqot vositalari yoki o'lchov usullarini aniqlashtirishdir. Uning natijasi **o'lchov** hisoblanadi: instrumentariyni voqelik ustidan olib borilgan kuzatish natijalarini sanash yoki boshqa miqdoriy xarakteristikasini aniklash uchun tatbiq etishdir. O'lchovdan oxir oqibatda, qaror qabul qilish va savollarga javob berish fakti sifatida foydalanamiz. Tadqiqotda kuzatuv to'g'risida gapirganimizda, o'rganilayotgan obyektlarga tahlil etilayotgan hodisalarning xossalari yoki ba'zi xarakteristikalarini oid deb hisoblash maqsadida o'lchov instrumentidan foydalanish jarayonini nazarda tutamiz. Boshqacha aytganda, kuzatish xulq yoki xossani o'lchash uchun instrumentdan foydalanish ma'nosini bildiradi.

Biz hech qachon tushunchalarni amalda taqqoslay olmaymiz, hattoki nazariyalarimizni, muammolarni, tushunchalarni bildiruvchi atamalarda ifodalangan bo'lsa-da, biz tushunchalar ko'rsatkichlarini taqqoslaymiz. **Ko'rsatkich** - ba'zi o'zgaruvchan uchun spetsifik

o'Ichov. Kaisi darajada tanlangan ko'rsatkichlar o'Ichov uchun belgilangan tushunchani aks ettirishsa, shy darajasida bizning taqqoslarimiz aniq bo'lishi mumkin.

Operatsionalizatsiya deyarli muqarrar ravishda fikrning qisman yo'qolishiga yoki soddalashishiga olib keladi. Ko'rsatkichlar bizning nazarimizdagi tushunchaga kamdam-kam holda mos keladi. Bu kamchiliklarni iloji boricha kamaytirish zarur. Shunday ko'rsatkichlarni topish kerakki, ular tushunchalar mazmunining katta qismi yoki alohida jihatlarini imkon qadar aniq ifodalashi kerak. Ijtimoiy fanlarda ko'pincha tanlangan o'zgaruvchan tushunchaning barcha ma'nolarini ifodalay olmaydi va undan foydalanish dunyoda mavjud aloqalar to'g'risida noto'g'ri tasavvur beradi. Ijtimoiy fanlardagi eng muhim tushunchalar birdan ko'p aspekt yoki komponentga egaligi sababli ko'p o'Ichovlidir. Biz tomonimizdan kiritilgan mezonlar ko'rsatkichning ko'p o'Ichovliligini aks ettirishi kerak (ko'p shakllilik, noo'xshashlik), agar biz ularning konsepsiya indikatorini sifatida qo'llanilishini istasak (masalan, demokratiyani belgilovchi mezon - domiy saylovlarni o'tkazish). Tushunchaning operatsionalizatsiyasi qanday ta'minlanadi? Bu bajarilishi zarur bo'lgan jarayonlar to'plamini aniqlash yo'li bilan amalga oshiriladi, yoki har bir alohida vaziyatda tushunchaning paydo bo'lishi empirik ko'rsatkichga ega bo'lishi uchun kerakli ishlarni belgilash orqali bajariladi. Bu jarayonlar tushuncha va unga muvofiq keluvchi o'zgaruvchanlikni operatsion ta'riflashga yordam beradi. Operatsionalizatsiya jarayoni ma'lum darajada tushuncha uchun operatsion ta'rif tanlovi vazifasiga olib keladi. Operatsion ta'rifni yaratish natijasida o'Ichovni bajarish uchun instrument vosita ishlab chiqiladi. Ijtimoiy fanlar uchun tipik instrumentlar qatoriga quyudagilar kiradi: tadqiqotni o'tkazish shakli masalalari, huddi BMT majlislaridagi debatlar kabi muayyan voqealar kuzatuvini izohlash va ularni o'tkazish bo'yicha yo'riqlar, ma'lumotnomalardan olinadigan ko'plab xarakteristikalar, o'Ichovni shakllantirish uchun ularni birlashtirish qoidalari.

O'Ichov, o'Ichov darajasi

Mavhum tushunchani miqdoriy jihatdan namoyish qilish va bu tushunchalar orqali ifodalangan xossalar atamalarida real dunyo hodisalarining taqqosini amalga oshirish uchun o'zgaruvchanning operatsionalizatsiyasini o'tkazamiz. Xossa namoyishi uchun miqdoriy mazmunni qayd qilinishi *o'Ichov* deyiladi. O'zgaruvchan bilan

bog'liq har bir aniq vaziyatda o'lchov natijasi ba'zi mazmun bilan muvofiqlashadi. Bunda biz katta aniqlik bilan shu haqda gapirishimiz mumkinki, kuzatishning ushbu obyekti (masalan, inson, shahar, millat, tashkilot) o'lchanadigan o'zgaruvchanning qay darajadagi xossasini bildirishi haqidagi fikrimizni bildirishimiz mumkin. O'lchov jarayoni hodisalarni kategoriyaga kiritish va tartibga solish vositasini taqdim qiladi. Shu bilan birga, ba'zi jarayonlar boshqalariga nisbatan voqealar o'rtasidagi yanada nozik va mufassal tafovutni aniqlashtirish imkoniyatini beradi. Shuning uchun *o'lchovning turli darajalarini* ajratishga to'g'ri keladi. O'lchov darajalari *nominal, tartibli, interval* darajalarga bo'linadi.

Nominal o'lchov hodisalarni (darajasi) va ular o'rtasidagi masofani hisobga olmagan holda oddiy tasnif qiluvchi o'lchovlardir. U voqea to'g'risida minimal axborotni taqdim etadi va faqatgina turli obyektlarni chegaralashga imkon beruvchi diskret kategoriyalarning to'plamini taqdim etadi. Millat, masalan, odatda nominal darajada odamlarni ingliz, shvetsariyalik, braziliyalikka klassifikatsiya qilish orqali o'lchaydi.

Foydali bo'lishi uchun nominal o'lchov sxemalari - **ozaro rad qiluvchi va istisno qiluvchi** ko'plab kategoriyalarga asoslangan bo'lishi shart. Bu quyidagilarni anglatadi: 1) bir obyektни birdan ko'p kategoriyaga kiritish mumkin emas; 2) kategoriya shunday bo'lishi kerakki, har bir obyekt u yoki bu kategoriyaga kiritilishi mumkin. Gap hodisalar taqqosi to'g'risida ketganida, nominal darajadagi o'lchov o'lchovning kam foyda beruvchi tipi ekanini hisobga olish muhim.

Tartibli o'lchov ko'proq axborot yetkazib beradi, chunki u faqatgina turkumlashtirib qolmaydi, balki voqeani ranjirovka qiladi va tartibga soladi ham. **Tartibli o'lchov** voqealarni tasniflovchi va tartibga soluvchi o'lchov turi bo'lib, u hodisalar o'rtasidagi masofani e'tiborda tutmaydi. Tartibli o'lchov har bir obyekt sonini aniqlashtirishga yordam beradi. Mazkur son ushbu obyekt boshqa obyektдан farqlanishini va o'lchanuvchi o'zgaruvchan nuqtai nazardan boshqa obyektlarga o'xshashlikni bildiradi. Bu raqam, shuningdek, aynan shu obyekt boshqalari bilan aniq xossalarni xarakterlanuvchi miqdori atamasi orqali bog'langan.



Tartibli o'zgaruvchan bir obyektдаgi ushbu o'zgaruvchan boshqalariga ko'ra ko'proq yoki kamroq ahamiyatga egaligi haqida gapirishga imkon beradi. Masalan, *ijtimoiy sinf* tushunchasi odatda

tartibli ravishda o'lganadi: har bir inson quyi, o'rta, oliy sinfga taalluqli bo'ladi.

Interval o'lchov obyektning interval darajada o'lgandan keyin tasniflovchi va tartibga soluvchi o'lchovdir. Shuningdek, interval o'lchov o'lchovlanayotgan xossaning boshqa obyektlarning xossalari bilan nisbatan qanchalik katta yoki kichik miqdorda ekanligini xarakterlaydi. Bu o'lchovning eng ma'qul shaklidir. Chunki u o'rganilayotgan voqea to'g'risida yanada batafsil axborot yetkazib beradi va tadqiqotchida mavjud ma'lumotlar bo'yicha matematik o'lchovlarini amalga oshirishga imkon beradi. Interval o'lchov o'lganayotgan xossaning ba'zi standart birliklari mavjudligi to'g'risidagi tasavvurga asoslanadi (masalan, o'zgaruvchan foyda).

Qanday qilib biz operatsionalizatsiya amalga oshirilayotgan aniq tushunchalarga to'g'ri keluvchi o'lchovlar darajasini tashlashimiz mumkin? Bu, konseptualizatsiya va o'lchov texnologiyasi muammosi. O'lchovning nominal darajasidan tartibli yoki interval darajasiga o'tishi *bu o'tishning nazariy asosi ishlab chiqilishiga va nisbatan yuqori darajadagi o'lchovni amalga oshiruvchi operatsion jarayonlarning texnik imkoniyatlari mavjudligiga bog'liq bo'ladi.*

G'arblik olim U.F.Shayvlining operatsionalizatsiya qoidalariga rioya qilish mumkin. U ushbu obyektning o'lchashning maksimal darajada aniq bo'lgan o'lchovlarini qo'llashni va noaniq o'lchov evaziga axborotni yo'qotmaslikni maslahat beradi. Bu, odatda, o'lchovning yanada qat'iy jarayonlarini qo'llash kerakligini bildiradi. Imkoniyat mavjud bo'lganida nazariy jihatdan oqlangan, ammo tartibli va interval o'lchov texnik jihatdan mumkin bo'lmagan. Ammo shunday voqealar mavjudki, ular uchun o'ta aniqlikdagi o'lchov nomaqbuldir, chunki u ikki davlat o'rtasidagi aloqalarning u yoki bu tendensiyasini hamma vaqt ham ochib bermasligi mumkin. Masalan, O'zbekiston va Rossiya o'rtasida 1990-2005 yillardagi o'zaro tovar ayirboshlash darajasi to'g'risidagi gipotetik diagrammani havola qilamiz. Bunda avval har bir yil uchun ma'lumot, keyin har 5 yoki 10 yilliklar hisobga olinadi. So'nggi holatda diagramma tomonlarning o'zaro munosabatlari tendensiyasining o'zgarishini yanada aniqroq ko'rsatadi.



4.1-rasm. O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi tovar ayirboshlashning gipotetik dinamikasi tendensiyasi.

Rasm 1990-2005 yillarda tashqi siyosiy munosabatlardagi ijobiy tendensiya taraqqiyotini namoyish etadi (miqdoriy ma'lumotlar o'ylab topilgan, quyidagi diagrammada har besh yillik ma'lumotlar ishlatilgan).

O'lchovlar ushbu o'zgaruvchanlarga muvofiq ma'nolarni obyektlarga oidligini ko'rsatadi. Aynan shu qiymatlar bizning kuzatuvlarimizni qiyoslashda tushunchalarni ifoda qilish uchun qo'llaniladi. Kuzatuvlarimizdan nazariyaga oid qanday xulosalar chiqishini tushunishdan avval, biz o'zgaruvchanlar yoki ko'rsatkichlar o'rtasidagi kutilayotgan munosabatlarni aniqlovchi ishchi gipotezalar shaklidagi o'zgaruvchanlar o'rtasidagi gipotezalarni taqdim etishimiz kerak. Ya'ni **ishchi gipoteza** ko'rsatkichlar o'rtasidagi ba'zi bog'liqlikning mavjudligini bashorat qiluvchi tasdiq.

Tushunchalar, o'zgaruvchanliklar va ko'rsatkichlar o'rtasidagi munosabatlar quyidagi jadvalda ko'rsatilgan.

Tushunchalar, o'zgaruvchanlar va ko'rsatkichlar o'rtasidagi munosabatlarning aniqlanishi

Tushuncha:	Tasdiq:	Tushuncha:
beqarorlik ↓ Tushunchaning o'sishiga ko'ra bunda (<i>beqarorlik</i>) o'zgaruvchan o'sadi. ↓ <u>O'zgaruvchan</u> - siyosiy ixtilof darajasi ↓ O'zgaruvchan o'sishiga ko'ra ko'rsatkich o'sadi ↓ <u>Ko'rsatkich</u> – munozarali siyosiy masalalar miqdori	globalizatsiya davrida mintaqada qanchalik yuqori darajada beqarorlik bo'lsa, xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayoni shunchalik nosilliq bo'ladi ↓ <u>Gipoteza</u> - mintaqadagi davlatlar o'rtasidagi siyosiy ixtilof darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, mintaqada iqtisodiy dezintegratsiya darajasi shunchalik yuqori bo'ladi ↓ <u>Ishchi gipoteza</u>: Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari o'rtasidagi munozarali masalalar miqdori qanchalik ko'p bo'lsa, mintaqaviy global darajada tovar ayirboshlash darajasi shunchalik past bo'ladi	beqarorlik ↓ Tushunchaning o'sishiga ko'ra (bu vaziyatda <i>beqarorlik</i>) o'zgaruvchan o'sadi. ↓ <u>O'zgaruvchan</u>: iqtisodiy dezintegratsiya ↓ O'zgaruvchan o'sishiga ko'ra ko'rsatkich <i>kamayadi</i>. ↓ <u>Ko'rsatkich</u>: mintaq va mintaqaviy-global derjavalar o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi.

XM sohasidagi misollarni ko'rib chiqamiz. Bizni xalqaro hayot sohasidagi dominatsiya nazariyasi qiziqtiradi, deb taxmin qilaylik. Bu nazariyadan quyidagilar kelib chiqadi: *“Davlat qanchalik kuchli ta'sirni boshdan o'tkazsa, u shunchalik konformist siyosatni olib boradi”*. Biz quyidagi gipotezani ilgari surishimiz mumkin: *“Davlatning iqtisodiy qaramligi kuchaysa, bu davlatning homiy davlatga nisbatan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlash ishlari darajasi ham o'sadi. Biz iqtisodiy qaramlikni homiy davlatga yo'llanuvchi eksport mahsuloti foizi sifatida operatsionalizatsiya qilishimiz mumkin. Eksport foizi bizning holatda qaramlikning mustaqil o'zgaruvchan bog'liqligi bo'ladi. Qo'llab-quvvatlash BMT Bosh Assambleyasida ovoz berish foizi bilan o'lchanadi, bunda qaram davlat homiy davlatga qaraganda boshqacha shaklda ovoz beradi. BMTda ovoz berish foizi homiy davlat qo'llab-quvvatlash siyosatining tobe o'zgaruchan ko'rsatkichi hisoblanadi. Endi biz ko'rsatkichlar o'rtasidagi salbiy munosabat mavjudligini tasdiqlovchi ishchi gipotezani shakllantirishimiz mumkin: homiy davlatga eksport qilinuvchi mahsulotlar foizi oshsa, BMTda ovoz berishda homiy davlat bilan kelishilmaydiganlar ovozlar foizi kamayadi.*

Ushbu ishchi gipoteza qaysi kuzatishlar bizning gipoteza va nazariyaga qo'shilishi haqida xabar beradi. U hattoki, bizda mavjud o'zgaruvchanlar va ko'rsatkichlar o'rtasidagi imkoniy munosabatlarni taklif etadi.

Gipoteza bilan bashorat qilingan munosabatlar ijobiy hisoblanadi. Ishchi gipoteza *salbiy* munosabatlarni bashorat qiladi. Bu tobe o'zgaruvchanlik va uning ko'rsatkichi o'rtasidagi munosabatlar salbiyligi bilan izohlanadi. O'z navbatida bu shuni anglatadiki, biz tobe o'zgaruvchanlikning operatsionalizatsiyasini amalga oshirgach, aynan ko'rsatkichlar o'rtasidagi salbiy munosabatlar, tushunchalar va o'zgaruvchanlar o'rtasidagi ijobiy munosabatlarni bashorat qiluvchi gipotezani va nazariy tasdiqni qo'llab-quvvatlovchi ma'lumotlarni beradi. Biz agar faktlarning noto'g'ri izohidan qolishni istasak va kuzatishlar asosida nazariyamizning foydaliligiga tegishli to'g'ri xulosalar qilishni xohlasak, shuni anglashimiz lozim. Tushunchaning har qanday operatsionalizatsiyasi – bu, mantiqan, gipotezadir. Qachon biz operatsionalizatsiyani o'tkazsak va “Ushbu tushuncha qandaydir ko'rsatkich bilan ifodalansin” desak, biz quyidagi gipotezani ilgari suramiz. Biz nazarda tutgan ushbu tushuncha qo'llanilayotgan obyekt uchun tanlangan

ko'rsatkichda haqiqatan aks etadi. Bu gipoteza kuzatishlar bilan tasdiqlanishi ham mumkin, tasdiqlanmasligi ham mumkin.

Sotsiyal fanlarda o'lchovning valid va ishonchli jarayonlarini qidirish, bu ko'p jihatdan gipotezani tekshirish jarayonidir. Xatolarni tan olishga va hammasini boshqatdan boshlashga tayyor bo'lish kerak, agarda faktlar kiritilgan ko'rsatkichlar bizning tushunchalarimizni aks ettirmasligini ko'rsatsa, o'lchovlarni tekshirish birinchi navbatda, tanlangan ko'rsatkichlar validligi va ishonchliligini baholashga urinishda sodir bo'ladi.

Ilyustratsiya sifatida globalizatsiya davrida dunyoning o'zaro bog'liqligi to'g'risidagi nazariya operatsionalizatsiyasini olishimiz mumkin. Sxema quyidagi ko'rinishda bo'ladi.

Jadval 4.3

Operatsionalizatsiyalash: tushuncha, o'zgaruvchan va o'lchov o'rtasidagi munosabat

<u>Nazariy tasdiq</u>: Globalizatsiya davrida mintaqada beqarorlik qanchalik ko'p bo'lsa, xalqaro iqtisodiy integratsiyaning jarayoni shunchalik beqaror bo'ladi. ↓ <u>Gipoteza</u> –mintaqa davlatlari o'rtasida siyosiy ixtilof darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ularning o'rtasidagi iqtisodiy integratsiya darajasi shunchalik zaif bo'ladi ↓ <u>Ishchi gipoteza</u>: Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari o'rtasidagi munozarali masalalar miqdori qancha ko'p bo'lsa, mintaq va	<i>Beqarorlik tushunchasi</i> ↓ <i>O'zgaruvchan - siyosiy ixtilofning o'zgaruvchan darajasi</i> ↓ <i>Ko'rsatkich 1 – bahsli siyosiy masalalar miqdori</i> ↓ <i>Ko'rsatkich 1 mazmuni (miqdoriy ifoda)</i>	<i>O'zgaruvchanlik tushunchasi</i> ↓ <i>O'zgaruvchan – iqtisodiy integratsiyaning o'zgaruvchan darajasi</i> ↓ <i>K'orsatkich 2 tovar aylanmasi hajmi</i> ↓ <i>Ko'rsatkich 2 mazmuni (miqdoriy ifodada)</i>
--	--	---

mintaqaviy global darajadagi tovar ayriboshlashi shunchalik kam bo'ladi. ↓ <u>Kuzatish</u> (o'lchov) - munozarali siyosiy masalalar miqdori va mintaqadagi tovar aylanmasi hajmi		
---	--	--

Bu shemada ko'rsatilgan ko'rsatkichlardan tashqari, XMni tadqiq qilishda ko'rsatkich sifatida, shuningdek harbiy -siyosiy hamkorliklar (bu sohada ikki va ko'p tomonlama kelishuvlar va shartnomalar miqdori), qarama-qarshi yo'nalishdagi bloklar va ittifoqlarga a'zolik, iqtisodiy hamkorlik (imzolangan bitimlar miqdori), etnomilliy omil va boshqalar qo'llanishi mumkin. Bizning o'lchovlar juda kam holatda nuqsonsiz (agarda qachondir bo'lsa) bo'ladi. Haqiqiy farqlardan tashqari biror narsaga bog'liq ravishda real obyektlarga oid deb hisoblangan har qanday ma'no defferensiatsiyasi **o'lchov xatosiga** tegishlidir. Ular obyektlar o'rtasidagi haqiqiy tafovutlarni tavsiflamaydi, o'lchov jarayonidagi noto'g'ri o'lchash natijasida qayd qilingan farqlarni ifoda etadi. Biz o'lchov xatolarining bir qancha asosiy manbalarini sanab o'tishimiz mumkin. Bu ish xarakteristikalaridagi biz o'lchashni istagan nohaqiqiy farqlarni baholashdagi tavofutlarning ko'p uchraydigan manbalarini aniqlash orqali amalga oshiriladi.

1) o'lchovlarimiz orqali maqsadsiz aniqlangan doimiy xarakteristikaga ega boshqa obyektlar o'rtasidagi farqlarni ajratishdagi farqlar (mafkura);

2) o'lchovlarimizda aks etadigan (kayfiyat, salomatlik, tabiiy ofat) vaqtinchalik xarakterli obyektlarni taqsimlashdagi farqlar;

3) turli odamlar tomonidan o'lchov instrumentlari interpretatsiyasidagi namoyon bo'luvchi farqlar;

4) o'lchovni o'tkazish sharoitidagi farqlar;

5) o'lchov instrumentlarini qo'llashdagi farqlar;

6) ma'lumotlar tahlili va qayta ishlab chiqishdagi farqlar;

7) o'lchov instrumentlari shakliga individuumlar reaksiyalari o'rtasidagi farqlar.

Xatolar tizimli va tasodifiy xatolarga ajratiladi.

Tizimli xatolar - bu xatolar real dunyodagi o'zgaruvchanliklarning chalkashliklari yoki instrumentning o'ziga xos xususiyatlari tufayli paydo bo'ladi. Ular ushbu instrument foydalanilgan har vaqtda paydo bo'ladi va doimo ayni o'lchov qo'llanadigan tadqiqotlar va obyektlarda uchraydi.

Tasodifiy xatolar turli ravishda paydo bo'ladi va ular obyektning o'tuvchi xarakteristikasi bilan instrument qo'llashdagi vaziyat farqlari, o'lchovni olib borishdagi xatolar va ma'lumotlarni hamda boshqa omillarni qayta ishlashdagi xatolar bilan bog'liq ravishda yuzaga chiqadi.

Nazariya validligi va ishonchliligi

Nazarda tutilayotgan tushunchalarga o'lchovning mos kelishi darajasini belgilash uchun "validlik" atamasi ishlatiladi. O'lchovning validligi bilan qiziqish bu, biz o'lchashni taxmin qilgan narsalarni haqiqatan mazkur o'lchov bilan o'lchayapmizmi yoki yo'qmi degan savol bilan qiziqishdir. Validlikni ta'minlash ko'pincha ijtimoiy fanlar o'lchovi bilan bog'liq, deb hisoblanadi. **Validlik** (asoslanish) - tushunchaning o'lchov (ko'rsatkichga) mos kelish darajasi. Valid bo'lishi uchun o'lchov *tugal* va *to'liq* bo'lishi shart. Bu vaziyatda ikki masala paydo bo'ladi: tugal, to'liq va o'rinli o'lchov qanday amalga oshiriladi va qanday qilib biz bu vazifani bajara olishimizga o'zimizni ishontirishimiz mumkin.

Birinchi savolga javob operatsionalizatsiya jarayonidan boshlanadi. Biz validlikni daraja sifatida ta'riflashimiz mumkin. Bu darajada o'lchovlar baxolaridagi farqlar biz o'lchamoqchi bo'lgan o'zgaruvchanlik ma'nolarini taqsimlashdagi tavofutlarni aks ettiradi. Biz balki hech qachon to'liq va umumiy validlikka erisha olmaganligimiz uchun maqsadimiz o'lchovlarni tanlashdan iborat bo'lishi kerak. Mazkur o'lchovlar bizni qiziqtiruvchi o'zgaruvchanga bog'liq tavofutlardan boshqa barcha farqlardan minimal darajada ta'sirlanuvchi o'lchovlar bo'lishi kerak. Bunda baxolashdagi ehtimoliy farqlar sabablarini aniqlash uchun o'lchovlar bilan bog'liq barcha jarayonlarni diqqat bilan ko'rib chiqish lozim. Tizimli xatolar ta'siridan kafolatlanish uchun bu bosqichda biz o'ta diqqatli bo'lishimiz zarur. Nisbatan to'liq va o'rinli operatsionalizatsiyaga ega bo'lish tadqiqot obyektini qanchalik yaxshi bilishga, shuningdek muqobil operatsionalizatsiyaning batafsil mantiqiy tahlilini amalga oshirishga bog'liq. Biroq o'lchovlarimiz validligini

qanchalik muvofiq ekanligini bilgandan so'ng tekshirish mumkin. O'lvhovlar validligini baholash jarayoni **validizatsiya** deyiladi.

Validizatsiyaning 4-ta asosiy yondashuvi mavjud. Birinchisi, ko'-pincha pragmatik validlik deb ataladi. Chunki o'lvhov validligi uning voqealar va harakatlarni qanchalik to'g'ri bashorat qilinishiga oid ma'lumotlar asosida baholanadi. Pragmatik validlik (asoslanganlik) boshqa tushunchalarning ko'rsatkichlari ma'nolarini bashorat qilish uchun foydalanish imkoniyatida yuzaga keladigan ba'zi tushunchalarning ko'rsatkichlari (o'lvhovlari) xossasidir. Kelgusidagi o'lvhovlarni bashorat qilishga imkon beruvchi validlik **prognostik validlik**dir.

Pragmatik validlik o'zgaruvchandan ba'zi muqobil ko'rsatkichlarning mavjudligini talab qiladi, fikrimizcha, ular valid in'ikosi hisoblanadi. Biz o'lvhovlarimizni ana shu muqobil ko'rsatkichlar boyicha tekshirib chiqamiz, xuddi tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma bo'yicha aniq yoshni tekshirish mumkin bo'lgani kabi. Afsuski, sotsiologik tadqiqotlarda qo'llanadigan tushunchalar uchun aniq mos keluvchi valid muqobil ko'rsatkichlar kamdan-kam uchraydi. Bunda odatda, bizga ikkinchi tipdagi validizatsiyaga, konstruktiv validizatsiyaga murojaat qilishga to'g'ri keladi. **Konstruktiv validizatsiya** mazkur ko'rsatkichlarni qo'llashga yo'llanma beruvchi nazariyadan kelip chiquvchi kutilayotgan natijalarni turli o'lvhovlar bo'yicha berilgan baholar o'rtasidagi real munosabatlar muvofiqligi darajasi xususidagi ma'lumotlardan o'lvhovlar validligini chiqarish orqali amalga oshiriladi. Boshqacha qilib aytganda, konstruktiv nazariy validlik (asoslanganlik) ba'zi ko'rsatkichlarni nazariyaga muvofiq ravishda tutish xususiyatidir. Bunday mulohaza ikki yo'nalishda olib boriladi. Eng avvalo, biz o'z-o'zimizga shunday deyishimiz lozim: "Agar X tushuncha Y tushuncha bilan ijobiy, Z tushuncha bilan salbiy aloqada bo'lsa (bizning nazariyamiz bashorat qilganidek), validlik o'lvhovidagi X tushuncha bahosi validlik o'lvhovidagi Y tushuncha bahosi bilan ijobiy aloqada bo'ladi va validlik o'lvhovidagi Z tushuncha baholari bilan salbiy munosabatga kirishadi. Biz o'lvhovning validligi haqida quyidagi holatda hukm chiqarishimiz mumkin. Mazkur o'lvhovni o'zgaruvchanning ko'rsatkichi sifatida qay darajada qo'llanilishi mazkur o'zgaruvchan va boshqa o'zgaruvchanlar o'rtasida bizning nazariyamizga muvofiq ravishda kutilayotgan munosabatlar turi o'rnatiladi".

Misol sifatida xalqaro hamjamiyatlar o'rganilishini olamiz. Biz shunday ittifoqning ishonchliligi o'lchovini muvofiq keluvchi davlatlarning matbuot maqolalarining kontent tahlili asosida barpo etishimiz mumkin. Ikki davlat hamjamiyati ishonchliligi valid ko'rsatkichi sifatida ushbu davlat matbuotlarida boshqa davlat to'g'risida yozilganlarni ko'rsatish mumkinmi? Biz bu savolga quyidagicha javob berishimiz mumkin. "Bizning nazariyaga muvofiq ravishda davlat hamjamiyatga qanchalik ishonchli bo'lsa, ular BMT-da shunchalik ko'proq ovoz beradilar va o'zaro savdoda shunchalik kam cheklashlar bo'ladi. Shuning uchun hamjamiyat ishonchliligi bahosi valid o'lchovda *BMTdagi bir xil ovoz berish* o'lchovi bahosi bilan ijobiy, *savdo sohasidagi cheklovlari* miqdori o'lchovlari bahosi bilan salbiy munosabatga kirishadi. Keyin biz kutilayotgan natijalar kuzatuvlarimiz bilan tasdiqlanish-tasdiqlanmasligini aniqlash uchun zarur ma'lumotlar tahliliga o'tamiz. Agar o'zaro munosabat kutilgandek bo'lsa, valid o'lchovdagi hamjamiyat ishonchliligiga ko'proq ishonishimiz mumkin bo'ladi".

Basharti o'zaro munosabat kutganimizdan boshqacha bo'lsa, bu tushuncha o'lchov ishonchlimi, degan savol tug'iladi.

Biz hozirgina ta'riflaganimiz, ko'pincha **tashqi validizatsiya** deb nomlanadi. Bunda validizatsiya bilan tekshirilayotgan o'lchovdagi baholar qiyosi boshqa o'zgaruvchanliklar uchun o'lchovlar bahosi bilan amalga oshiriladi. Validizatsiyaning ushbu metodini qo'llash uchun albatta, bizning tadqiqotga boshqa o'zgaruvchanlar o'lchovlarini kiritish lozim. Bu *tadqiqot jarayonining dastlabki bosqichlaridanoq o'lchovlarimiz validizatsiyasi usullari haqida o'ylab ko'rish zarurligini* anglatadi. Tashqi validizatsiyani amalga oshirishga urinishlar o'lchovimizning validligiga ishonchli isbotni, agar biz qolgan o'zgaruvchanlar uchun qo'llaniladigan o'lchovlar validligiga ishonsak, beradi. Bularning bari gipotezani tekshirish jarayonini eslatadi. Hech qanday alohida olingan natija o'lchov validligi yoki novalidligini kafolatlamaydi. Muvaffaqiyatli validizatsiya holatlari to'plangani sari o'lchovning validligiga bo'lgan ishonchimizni oshiradi. Shu sababdan tashqi validizatsiyada foydalanish uchun bashorat qilingan munosabatlar nazariyasini izlash maqsadga muvofiq. Bizda validlikni tekshirishning turli usullari qanchalik ko'p bo'lsa, bizning natija ham shunchalik ishonchli bo'ladi.

Aynan shunday mulohaza yuritish mantig'i konstruktiv validizatsiyaning ikkinchi tipi - *ichki* yoki *konvergent validizatsiyaga* tatbiq etilishi mumkin. **Konvergent validlikda** ayni bir tushunchaning bir qancha ko'rsatkichlari (o'lchovlari) ayni natijaga olib keladi. Validizatsiyaning bu tipi ayni bir o'zgaruvchanlik uchun bir qancha o'lchovlarni ishlab chiqishni va ushbu turli o'lchovlarni o'zaro qiyoslashni o'z ichiga oladi.

Agar biz *ko'p sonli ko'rsatkichlarni* qo'llasak, o'lchash xatolarini har qanday o'lchov baholari farqlari manbasi sifatida aniqlash hamda o'zgaruvchan uchun aniq o'lchovni olish uchun katta imkoniyat paydo bo'ladi.

Validatsiyaning uchunchi tipi diskriminant validatsiya deb nomlanadi. **Diskriminant validlik** ba'zi ko'rsatkich (o'lchov)ning boshqa tushunchalarga qarama-qarshi vaziyatda biror tushunchaga nisbatan validlikka ega bo'lish xossasidir. O'lchov diskriminant validlikka egami, degan savolni berib, biz asosan ushbu o'lchovni muayyan tushunchaning ko'rsatkichi sifatida qo'llangan holda uni boshqa tushunchadan farqlash imkoniyati mavjudligi bilan qiziqamiz.

Nihoyat, validizatsiyaning so'nggi usuli **"yaqqol validlik"** tushunchasiga tayanadi. Yaqqol validlik - ko'rsatkich (o'lchov)ning intuitiv his qilinuvchi ishonchlilik xususiyati. Ba'zi o'lchovlar o'rganilayotgan harakatni to'g'ridan-to'g'ri kuzatishga asoslanadi. Shuning uchun ularning validligi haqida savol berish mantiqsiz bo'ladi. Bunday o'lchov *"tashqi ko'rinishdan"* validlik ko'rinadi.

O'lchov ishonchliligi to'g'risida gapirganimizda, uning yordamida olinadigan mazmunlar barqarorligi bizni qiziqtiradi. **Ishonchlilik** muntazamlilik darajasini bildiradi, ushbu muntazamlilik bilan birga o'lchayotgan instrument turli hodisalarga ma'lum ma'nolarning tegishlilikni aniqlashga imkon beradi. Agar o'lchov ishonchsiz bo'lsa, u valid bo'lishi mumkin emas, chunki kamida obyektga oid deb hisoblangan baholashdagi farqlar o'lchov hatolariga bog'liq ravishda yuzaga chiqadi, u obyektlar o'rtasidagi haqiqiy farqlarga asoslanmaydi. Ammo boshqa tomondan, o'lchov ishonchli bo'lishi mumkin, biroq valid bo'lmasligi ham mumkin. Shunday qilib, o'lchov ishonchli bo'lib, valid bo'lmasligi mumkin, lekin ishonchli bo'lmasdan turib valid bo'la olmaydi. Validlik tizimlilik va tasodifiy hatolar jihatidan nozik (zaif) bo'lsa, ishonchlilik faqatgina tasodifiy hatolar jihatidan xavf ostida bo'ladi. Ishonchsizlik tahdidining oldini

olish uchun o'lchov hatolari turli manbalarini bilish lozim va ular ustidan nazorat o'rnatish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solish lozim. Jumladan, o'lchovning real jarayonini rejalashtirish va tasodifiy hatolarning avval noma'lum bo'lgan sabablarini aniqlash uchun o'lchov instrumenlarining dastlabki test tekshiruvini o'tkazish zarur. Sotsial (ijtimoiy) fanlarda: biz taklif qilayotgan o'lchov ishonchli- ishonchli emasligini aniqlash ko'pincha qiyin bo'ladi. Bu quyidagi holat tufayli kelib chiqadi, o'zgaruvchanlarning haqiqiy ma'nosi vaziyat bosimi va vaqt mobaynida butunlay o'zgarishi mumkin. Odamlar tajriba ta'siri tufayli o'z fikrlarini o'zgartiradilar: davlat har bir tahdid paydo bo'lishiga javob tarzida o'z resurslarini mudofaa xarakteridagi idoralar va ijtimoiy xizmatlar o'rtasida boshqacha shaklda taqsimlashni boshlaydi va h.

Shuning uchun ishonchlilik testlarini vaqtning maksimal qisqa oraliqlarida o'tkazish kerak. Sotsiyal fanlarda o'lchov ishonchliligini aniqlashning uch metodi mavjud. Birinchisi *qayta-qayta test o'tkazish metodi*. Bu holatda ayni bir o'lchov qayta va qayta ayni bir obyekt to'plami uchun qo'llanadi. Agar obyekt har bir holatda bir xil bahoga ega bo'lsa, o'lchov ishonchli hisoblanadi. Ikkinchi metod *muqobil shakllar metodidir*. Bu metodga ko'ra, bir vaqtning o'zida o'lchovning turli shakllari aynan bir xil obyektlar guruhiga yoki aynan bir xil o'lchov obyektning turli gurihlariga nisbatan tatbiq etiladi.

Nihoyat, ishonchlilikni test qilishning so'nggi usuli *tanlab olish metodi* nomi bilan ma'lum. Ushbu metod shundan iboratki, obyektlarni tanlab olib, ularni bir qancha bir-biriga o'xshash tanlov vositalari guruhchalariga bo'lamiz, keyin ayni bir o'lchovni barcha tanlov guruhchalariga nisbatan qo'llaymiz va mazkur guruhchalar uchun natijalar tafovuti va o'xshashligidan o'lchovning ishonchliligi ko'rsatkichi sifatida foydalanamiz. Ammo (tanlab olish) metodidan foydalanish imkoniyati quyidagicha aniqlanadi: biz qismlarga bo'lish uchun shunday katta tanlov guruhiga ega bo'la olishimiz bilan belgilanadi, chunki katta tanlov guruhi statistik testlarning ongli bo'lishi uchun yetarli bo'lgan kichik tanlov guruhlariga ajratiladi. Hamma vaqt ham buning imkoni yo'q. Ta'riflangan metodlarning ko'plab turlari bor. Ushbu tadqiqot loyihasi uchun qaysi metodning to'g'ri kelishi tadqiqotchi qanday vaqt va imkoniyatlarga egaligi, shunindek, tadqiqot xarakteriga bog'liq bo'ladi. Ishonchlilikning qaysi testini qo'llashni afzal ko'rganimizga qaramay, o'lchov ishonchliligini tadqiqot bosh-

lanishigacha belgilash muhim hisoblanadi. Tadqiqotda qo'llanadigan instrumentlarni baholash uchun mo'ljallangan ma'lumotlar to'plami vositasida dastlabki test o'tkazishni talab qiladi.

Validlikning dastlabki testi va o'lchov ishonchliligi har qanday tadqiqot loyihasining tarkibiy qismi bo'lishi kerak, agar unda biror yerda ishonchli validizatsiyadan o'tmagan o'lchov ishlatilsa. Yoki bu loyiha foydalanishi kutilayotgan sharoitlardan juda farqlanadigan sharoitlarda validizatsiyadan o'tgan o'lchovlarga asoslangan proyektlarda ham validlikning dastlabki testi va o'lchovning tarkibiy qismi bo'lishi kerak.

SEMINAR

Ma'ruza mavzulari:

1. XMni tadqiq qilishda operatsionalizatsiya
2. Ilmiy tadqiqotda o'lchov tushunchasi
3. Tadqiqotda ishchi gipoteza
4. Validlik va tadqiqot ishonchliligi

Adabiyotlar ro'yhati:

1. *Karen Mingst. Essentials of International Relations. W. W. Norton and Company. New York. London. 1999.*
2. *Джарол Б.Мангейм, Ричард К.Рич. Политология. Методы исследования. –М., 2000.*
3. <http://www.auditorium.ru>
4. <http://www/jahon.mfa.uz>
5. <http://www.uza.uz>
6. <http://www.cer.uz>

5 - Ma'ruza: Reja bo'yicha ishlash: tadqiqot dasturini tuzish usullari

Reja:

1. *Tadqiqot maqsadi va dasturi, tadqiqot dasturida muqobil gipotezalarning hisobga olinishi*
2. *Tadqiqot dasturlari ko'rinishlari (turlari)*
3. *Tadqiqot dasturini tanlash va validlikka tahdid soluvchi omillar*

Tayanch so'z va iboralar:

tadqiqot dasturi, qiduruv tadqiqot, ta'rifiy tadqiqot, nazorat, eksperimental va kvazieksperimental dasturlar, noeksperimental dasturi, dala eksperimenti, test-effekt, ichki validlik, tashki validlik.

Tadqiqot maqsadi va dasturi, tadqiqot dasturida muqobil gipotezalarning hisobga olinishi

Har qanday jiddiy tadqiqotni amalga oshirishdan oldin, uning dasturini tuzish kerak. Unda har bir harakat aniq ta'riflanadi, shuningdek har bir harakatning bajarilish sababi va usullari izohlanadi. Bu "hujum rejasi"ga tadqiqot dasturi deyiladi.

Tadqiqot dasturi ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va interpretatsiyasi asoslangan sxemadir. Isbotlashning bu mantiqiy modeli kauzal valid xulosalar qilishga imkon beradi. Agar ushbu holatga muqobil va mos keluvchi tadqiqot dasturi bo'lmasa, eng yaxshi o'lchovlar ham foydasiz bo'lib qoladi, chunki ularning ahamiyatini aniqlash mumkin bo'lmay qoladi.

Gipotezani tekshirish barcha sotsial fanlar uchun juda muhim hisoblansa-da, tadqiqot ko'plab maqsadlarga ega bo'lishi mumkin va ushbu ilmiy loyihada maksimal darajada mos keluvchii tadqiqot dasturi uning maqsadiga bog'liq bo'ladi. Ba'zi tadqiqot loyihalari qiduruv tadqiqoti hisoblanadi. **Qidiruv tadqiqoti**, mazkur predmet nazariyasida hisobga olish zarur bo'lgan omillarni aniqlashga yo'naltirilgan tadqiqotdir.

Ular bizni tadqiq etiluvchi voqelik bilan yaqindan tanishish, muammoni yanada aniq ifodalash va gipoteza yaratish imkonini berish uchun mo'ljallangan. Shunday tadqiqotlar avval o'rganilmagan voqeliklarni yoki yangi hodisalar o'rganilayotganda muhim rol o'ynaydi. Bir qator loyihalar ta'rifiy tadqiqotlarni o'z ichiga oladi.

Ta'rifiy tadqiqot - voqelikning ma'lumotlar jihatini o'lchash bilan shug'illanadi, u ba'zi nazariyalarni tekshirish yoki uni rivojlantirish uchun emas, tadqiqotning o'zi uchun ishlatiladi. Nazariyani tekshirish muammo va gipotezani yaxshiroq ifodalash uchun imkon beradigan ba'zi voqeliklar to'g'risida tasavvur berishga mo'ljallangan. Va nihoyat, tadqiqot kauzal xulosalarni tekshirish uchun belgilanishi mumkin. Agar tadqiqot natijasini bir hodisaning boshqasini chaqirish tasdig'i uchun ishlatilishi mumkin bo'lsa, boshqa hodisani tushuntirishga harakat qilish mumkin. Shu bois, nima sababdan ayni hodisa shundayligining izohini topish uchun bu hodisa haqida yetarli darajada ma'lumot bo'lganida mazkur tadqiqot mos keladi. Dasturning murakkabligi emas, uning *adekvatligi* muhim omil hisoblanadi. Agar dastur tadqiqotchi istagan tipdagi xulosalarga mantiqiy asos bersa, u adekvat dastur bo'ladi.

Tadqiqot dasturiga tadqiqotning aniq maqsadidan qat'iy nazar, quyidagi asosiy unsurlardan tashkil topishi kerak:

- 1) tadqiqot maqsadlarining bayoni;
- 2) tekshiriladigan gipotezani bayon qilish (agar bo'lsa);
- 3) qo'llanilgan o'zgaruvchanlar spetsifikatsiyasi;
- 4) operatsionalizatsiya usullari bayoni va har bir o'zgaruvchaning o'lchovi;
- 5) kuzatishlarni tashkil etish va o'tkazishning batafsil tavsifi.
- 6) to'plangan ma'lumotlarning kelgusi tahlilini umumlashtiruvchi muhokamasi.

Tadqiqot dasturi - muqobil raqobatlashuvchi gipotezalarni ifodalash jarayoni hamda by gipotezalarni tekshirish uchun taxminiy natijalarga izoh sifatida ko'rib chiqish imkonsiz bo'lgan kuzatishlar usullarini ishlab chiqish jarayoni. Muqobil raqobatlashuvchi gipotezalar ishchi gipotezalar kabi ham aniqlanadi. Ular biz tushuntirishga urinayotgan hodisalarga taalluqli nazariyaning mantiqiy tahlili natijasida paydo bo'ladi. Haqiqiy alternativ raqobatlashuvchi gipoteza bizning asosiy gipotezamiz taklif qilayotgan munosabatlarni qarab chiqadi, ammo ularni boshqa sabab-oqibat jarayoni nuqtai nazaridan izohladi. Haqiqiy raqobatlashayotgan gipotezani biz "boshqa gipotezalar" deb atagan gipoteza bilan aralashtirmaslik kerak. "Sotsial voqealardagi ko'plab sababli aloqalarning mavjudligi sababli biz har qanday voqeada ko'plab teng ishonchli izohlarga duch kelamiz. Gipotezani va asosiy gipotezani mantiqiy jihatdan muqobil raqobatlashuvchi gipoteza ishonchligini isbotlab bo'lmasa,

u gipoteza bo‘ladi. Tanqidiy raqobatlashuvchi gipotezani ilgari surish-bu ijodiy jarayon imtiyozi. Sizning tadqiqotingiz qiymatini shubha ostiga qo‘yadigan barcha raqobatlashuvchi gipotezalarni aniqlashni kafolatlovchi qat’iy va aniq qoidalar mavjud emas.

Tadqiqot dasturlarining ko‘rinishlari

Tadqiqot loyihalari uchun dasturlarni ishlab chiqish jarayoni har bir tadqiqotchi uchun individualdir. Biroq tadqiqot dasturining bir qancha umumiy tiplari mavjud bo‘lib, ularning har biri ma’lum muammo bo‘yicha ishlash uchun qulaydir.

Tadqiqotning eksperimental dasturi. Yaxshi dasturning maqsadi - bir o‘zgaruvchanning boshqasiga ta’siri natijalarini maksimal darajadagi ishonchlilik bilan aniqlash imkoniyatidan iborat. Tadqiqot dasturi o‘zgaruvchanlar o‘zaro harakat qiladigan sharoitlarni ma’lum darajada nazorat qilish imkonini berish orqali bu ishni amalga oshirishga yordam beradi. Shunday nazorat dastur uchun asosiy tushunchadir. **Nazorat** tajribada kuzatilayotgan o‘zgaruvchanlikka ta’sir qiluvchi omillarni chegaralash; ma’lumotlar tahlilida ikki yoki undan ortiq o‘zgaruvchanlar o‘rtasidagi qaramliklarni o‘rganishda ba’zi o‘zgaruvchan ahamiyatini doimiy darajada tutib turishdan iborat. Tadqiqot dasturlarini, ularning nazorat darajasiga qarab tasniflash mumkin. Politologni qiziqtiruvchi asosiy tafovut bu – eksperimental va kvazieksperimental dasturlar o‘rtasidagi tafovut.

Eksperiment – ilmiy isbotning klassik usuli. **Eksperimental tadqiqotlar** ushbu stimul, voqea yoki boshqa o‘zgaruvchan va kuzatilayotgan harakat o‘rtasidagi bog‘liqlik alohida o‘rganiladigan tadqiqotlardir. Eksperiment bir o‘zgaruvchan ahamiyatining o‘zgarishi boshqa o‘zgaruvchan ahamiyatining o‘zgarishiga olib keladi, degan farazlarga asoslanadi (masalan, haroratning o‘zgarishi yog‘ning yopishqoqligi darajasi o‘zgarishiga olib keladi). Eksperiment tobe o‘zgaruvchanni, mustaqil o‘zgaruvchanni namoyon qiluvchi obyektlarni beradi. Har qanday kuzatilayotgan tobe o‘zgaruvchanning o‘zgarishi mustaqil o‘zgaruvchanning o‘zgarishi natijasi degan aniq ishonchni beruvchi sharoitlarda hisoblanadi.

Tadqiqotning elementar *eksperimental dasturi* quyidagilarni talab qiladi: mustaqil o‘zgaruvchan yoki *stimul* ta’siriga beriladigan shaxslardan iborat *eksperimental guruh* va eksperimental guruhga barcha mavjud aspektlarda o‘xshash, ammo stimul ta’siriga berilmaydigan *shaxslarning nazorat guruhi*. Tobe o‘zgaruvchanlik ahamiyati har bir guruhda stimul ta’siri boshlanishigacha o‘lchanadi, bu ish *dastlabki test*

(*pretest*) deb nomlanuvchi jarayon orqali va keyin yana bir marta eksperimental guruh stimuli ta'siriga *nazorat testini olish (posttest)* jarayonida o'lanadi. Stimul (mustaqil o'zgaruvchan) ta'siri to'g'risidagi xulosa har bir guruhning dastlabki va nazorat testlarining qiyosiy bahosiga asoslanadi. Dastlabki test va nazorat testi o'rtasidagi mazmunning farqi qancha katta bo'lsa, mustaqil o'zgaruvchanning ta'siri shunchalik katta bo'ladi. Quyidagi jadvalda tadqiqotning eksperimental dasturi mantiqiy tuzilishi ifodalangan. Ushbu tadqiqot dasturining ahamiyati shundan iboratki, u ikki valid kauzal xulosalarga - qiyoslash va boshqarishga erishishga imkon beradi.

Jadval 5.1

Klassik eksperiment dasturi

Guruh	Vaqt oni 1	Vaqt oni 2	Vaqt oni 3	Natija formulasi
Eksperi- mental	Dastlabki test	Stimul	Na'zorat test	Natija (eksperi- mental o'zgaruv- chan uchun) = (nazorat testi e - dastlabki test e) - (nazorat testi n -dastlabki test n), bunda e - ekspe- rimental guruh, n - nazorat guruhi
Na'zorat guruhi	Dastlabki test	-	Na'zorat test	

Boshqa ko'plab dasturlar klassik eksperimentning mantiqiy tuzil-
masiga asoslangan, ammo ularda olimlar uchun maxsus ravishda
oldindan belgilangan modifikatsiya bor. Yanada batafsil ishlab chiqilgan
dasturlarga bo'lgan ehtiyoj ma'lum darajada quyidagicha izohlanadi: 1)
ko'pincha ularning tadqiqot obyekti tadqiqot jarayoniga ta'sir qiladi
(masalan, inson kuzatilayotganini bilsa, uning xulq- atvori o'zgarishi
mumkin); 2) ularning tadqiqot obyekti turgun emas, doimo o'zgarib
turadi (masalan, insonlarni baholash vaziyatga bog'liq ravishda
o'zgaradi). Bu omillarni hisobga olish P.L.Solomon tomonidan ishlab
chiqilgan ikki eksperimental dastur misolida kuzatish mumkin.

Jadval 5.2

Guruh	Vaqt oni 1	Vaqt oni 2	Vaqt oni 3	Natija formulasi
Eksperimental	Dastlabki	Stimul	Na'zorat	Natija = [(nazo-

guruh	test		testi	rat test e – dastlabki test e) – (na'zorat testi $k1$ - dastlabki test $k1$) – (na'zorat test e – na'zorat test $k2$)
Na'zorat 1	Dastlabki test	-	Na'zorat testi	-
Na'zorat 2	-	Stimul	Na'zorat testi	-

P.Solomon tomonidan ishlab chiqilgan uchta nazorat guruhlarini bilan eksperiment dasturi.

Jadval 5.3

Guruh	Vaqt oni 1	Vaqt oni 2	Vaqt oni 3	Natija formulasi
Eksperimental guruh	Dastlabki test	Stimul	Na'zorat testi	Natija = [(nazo- rat testi e – dastlabki test e) – (na'zorat testi $k1$ – dastlabki test $k1$)] – [(nazorat testi $k2$) + (nazo- rat testi e – na'zorat testi $k3$)
Na'zorat 1	Dastlabki test	-	Na'zorat testi	-
Na'zorat 2	-	Stimul	Na'zorat testi	-
Na'zorat 3	-	-	Na'zorat test	-

Birinchi dastur reaktivlik muammosi jihatlaridan biri tadqiqiga qaratilgan, bu test-effekt deb ataladi. **Test-effekt** dastlabki va yakuniy test o'rtasidagi har qanday tafovut bo'lib, u o'rganilayotgan subyektning dastlabki testga javob reaksiyasidir. Eksperiment obyektlari dastlabki testdan o'tganda, nazorat testdagi ularning bahosi stimulga va dastlabki testga reaksiya sifatida shakllanadi. Dastlabki testga reaksiya natijasida paydo bo'ladigan, dastlabki va nazorat testi o'rtasidagi baholarning har qanday tafovuti, test-effekt deb nomlanadi. Agar stimulning xulqqa

ta'sirining aniq tasvirini qo'lga kiritishni istasak, biz bu test -effektini baholardan holi qilishimiz kerak. R.Solomon tomonidan taklif qilingan ikki nazorat guruhidagi tadqiqot dasturi bu ishni qilishga imkon beradi. Dastur, aynan klassik eksperimentdagi kabidir, tafovut uchunchi guruh qo'shilganligida ko'rinadi. Ikki nazorat guruhi dasturi bizga baholash va test-effektini tadqiq etilayotganlarni baholashda kuzatilgan o'zgarishlarning muqobil izohi sifatida cheklash imkonini beradi. Dastlabki test guruhlariga qiyosan nazorat testi guruhlaridagi tobe o'zgaruvchan baholari o'zgarishining boshqa ehtimoliy sabablari mavjud. Yana bir sabab tashqi omillar ta'siri bo'lib, u eksperimentator nazoratidan chetda joylashgan. Boshqa sabab – eksperimentdan tashqarida sinalayotganlar bilan ro'y berayotgan tabiiy o'zgarish - uzoq eksperiment yoki aqliy toliqish jarayonida yuzaga keladigan o'zgarish, eskirish kabi. Bunday omillarning ta'sirini (eksperiment natijalarini raqobatlashuvchi izoh sifatida istisno qilish mumkin) R.Solomonning uch nazorat guruhi dasturini qo'llab baholash mumkin. Har bir ko'rib chiqilgan eksperiment dasturi quyidagi farazga tayanadi: tadqiqotda ishtirok etuvchi barcha guruhlar eksperiment natijasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar nuqtai nazaridan bir xil bo'lishi mumkin. Shunday o'xshash guruhlarini shakllantirishning uch yondashuvi mavjud:

1. Muvofiqlikni aniq tanlash.
2. Tezlik (chastota) taqsimot nazorati metodi. Bu metod sinalayotganlarni guruhlar bo'yicha taqsimlashni maqsad qiladiki, bunda har bir guruhda aynan bir xil xarakteristikalarining mavjudligi va har bir xarakteristikaning bir xilda taqsimlanishi kafolatlanishi zarur.
3. Randomizatsiya metodi. Bunda barcha mos keluvchi sinaluvchilar ro'yhatidan tanlangan sinaluvchi ba'zi tasodifiy jarayon vositasida, masalan, tasodifiy sonlar jadvali yordamida guruhga qo'shiladi.

Dala eksperimentlari va noeksperimental dasturlar. Tadqiqotchilar mustaqil o'zgaruvchanliklarni boshqarishi va sinalayotgan reaksiyalarni nazorat qilishi mumkin bo'lganida, ammo vaziyatning boshqa jihatlarini nazorat qila olmaganlarida, ular dala eksperimentini o'tkazishi mumkin. **Dala eksperimenti** - real voqelik sharoitida eksperimentning qisman amalga oshirilishi (laboratoriya sharoitiga qarama-qarshi ravishda). Bu tadqiqotlarda eksperimental dastur qo'llanadi, unda sinaluvchilar tizimli ravishda eksperimental va nazorat guruhlariga ajratiladi.

Dala eksperimentlarida tadqiqotchilar puxtalik bilan sinalayotganlarni tanlab olishadi va eksperimental hamda nazorat guruhlariga tasodifiy taqsimlashadi, bu ish natijaga ta'sir ko'rsatuvchi fonli xarakteristikalarini nazorat qilish maqsadida qilinadi. Ular, shuningdek muqobil gipotezalarni istisno qilish uchun eksperiment sharoitini kuzatishadi. Biroq tadqiqot obyekti qanchalik murakkab bo'lsa, imkoniyati shunchalik kamayadi. Ushbu sharoitda tadqiqotchilar eksperimental dasturlarga yaqinlashishga harakat qilishlari zarur yoki noeksperimental dasturlarga murojaat qilishlari lozim.

Noeksperimental tadqiqotlarda eksperimental guruhlar bo'yicha sinaluvchilarni taqsimlashni nazorat qilish ham, mustaqil o'zgaruvchanni tarqatish ham, tobe o'zgaruvchan uchun dastlabki baholarni qo'lga kiritish ham imkonsiz. Olimlar bu holatda postfaktumdan foydalanishlari mumkin, bunda yagona kuzatish taxmin qilinayotgan kauzal voqea ro'y bergach amalga oshadi. Ba'zan mustaqil o'zgaruvchan ta'siriga uchramagan o'xshash sinaluvchilarning nazorat guruhlari qo'shiladi va ikki guruh bahosidagi tafovut mustaqil o'zgaruvchan ta'siriga bog'liq bo'ladi. Ammo bunday dasturlar mustaqil o'zgaruvchan ta'siriga tegishli ishonchli xulosa chiqarishga imkon bermaydi. Chunki hatto eng oddiy muqobil gipotezalarni istisno qiladi. Noeksperimental dasturlar qidiruv yoki tavsifiy tadqiqotlarga to'g'ri keladi, izohlovchi tadqiqotlarga mos kelmaydi.

Kvazieksperimental dasturlar. Politologiyada foydalanilayotgan ko'pchilik tadqiqot dasturlarini kvazieksperimental dasturlar sifatida belgilash mumkin. Bu tadqiqotlarda tadqiqotchilar yoki qo'shimcha ma'lumot to'plab yoki ma'lumotlar tahlili metodini qo'llab eksperimental dasturlarga taqlid qilishga urinishgan. Kvazi-eksperimental dasturlarning eng sodda tipi *ex post facto* eksperimenti hisoblanadi. Bu eksperimentni olib borishda tadqiqotchilar faqat kuzatishni amalga oshirishadi va ularning fikricha, nazorat qilinishi lozim bo'lgan tobe va mustaqil o'zgaruvchanlar va umuman boshqa barcha o'zgaruvchanlar to'g'risida ma'lumotlar to'plashadi. Boshqa keng tarqalgan dastur turi *vaqt qatori o'lchovi dasturi* nomi bilan ma'lum. Bu dasturlarda tadqiqotchi ba'zi kauzal hodisalarni kiritishgacha va kiritishdan keyin bir qancha kuzatishlarni amalga oshiradi va shunday kiritishgacha va undan keyingi tobe o'zgaruvchan mohiyatini qiyoslaydi.

Tadqiqot dasturini tanlash va validlikka tahdid soluvchi omillar

Dasturni ishlab chiqishda tadqiqotchilar 3 asosiy omilga asoslani-shadi: validlik zaruriyati, vositalar mavjudligi, professional etika. Bunda natijalar validligi kafolati dasturni ishlab chiqishda asosiy rolni o'ynashi lozim. Empirik tadqiqotlarda 2 asosiy validlik turi mavjud: ichki validlik va tashqi validlik. Ichki validlik mantiqiy bazis ishonchliligiga aloqador bo'lib, u mustaqil o'zgaruvchan tobe o'zgaruvchanni yuzaga keltirish-keltirmasligi haqidagi xulosani amalga oshirish dasturi bo'lib xizmat qiladi. **Ichki validlik** - nazariy validlik ko'rinishi bo'lib, bir tushuncha-niing bir qancha ko'rsatkichlari korrelyatsiyasini ifodalaydi. Tashqi validlik qo'lga kiritilgan natijalarni umumlashtirish imkoniyatiga aloqadordir. **Tashqi validlik** - nazariy validlik ko'rinishi bo'lib, dastlabki tushunchaning ayrim ko'rsatkichi boshka, nazariyaga ko'ra ilk tushuncha bilan bogliq bo'lgan, tushunchalarning ko'rsatkichlari (o'Ichovlari) korrelyatsiyasida ifodalanadi.

Tashqi va ichki validlikka tahdid soluvchi asosiy omillarga quyidagilar kiradi:

Ichki validlikka tahdid soluvchi omillar: tarix, taraqqiyot, beqarorlik, test olish, instrumentariy, artefaktlarning regrissiyasi, tanlov, eksperimentdagi o'lim, tanlash va taraqqiyotning o'zaro ta'siri.

Tashqi validlikka tahdid qiluvchi omillar.

Test olish natijalarining o'zaro ta'siri, tanlash va eksperimentni o'tkazishning o'zaro ta'siri, eksperiment sharoitining reaktiv ta'siri, bir necha tadqiqotlarning interferensiyasi, o'Ichovning norelevant ma'lumotlari, tadqiqotning norelevant takrorlanishi. Ideal tadqiqotlarda validlikka tahdid qiluvchi imkon qadar ko'proq omillarni cheklashga yordam beradigan dasturdan foydalanish kerak. Vaqt omili, pul zaxiralari mavjudligi, malakali kadrlarning borligi, uskunalar - bularning barchasi tadqiqot dasturining tanlanishiga cheklovlar qo'yadi.

SEMINAR

Ma'ruzalar mavzulari:

1. Dala eksperimentlari va noeksperimental dasturlar
2. Kvazieksperimental dasturlar
3. Tadqiqot dasturini tanlash
4. Tanlov muammosi

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Джарол Б.Мангейм, Ричард К.Рич. Политология. Методы исследования
2. <http://www.jahon.mfa.uz>

3. <http://www.uza.uz>
4. <http://www.cer.uz>

6 - Ma'ruza: XMni tadqiq qilishda tizimli yondashuv

Reja:

1. *Tizimli yondashuv mohiyati*
2. *XMni tahlil qilishda tizimli yondashuvning asosiy yo'nalishlari va xususiyatlari*
3. *Xalqaro tizimlarning tuzilishi va tiplari*
4. *Xalqaro tizimlar transformatsiyasi va funksionallashishi qonunlari*
5. *Davlatlararo munosabatlar tahlilining asosiy darajalari*

Tayanch so'z va iboralar:

Tahlil, tizim nazariyasi, tizimli tahlil, mintaqaviy kichik tizim, kuchlar munosabati konfiguratsiyasi, gomogenlik, geterogenlik, aktorlar ierarxiyasi.

Tizimli yondashuv mazmuni

Tadqiqot dasturi va maqsadini aniqlab olgach, XMga tizimli yondashuv xususiyatlarini bilish va tahlilni o'tkazish darajasini aniqlash zarur. **Tahlil** (*yunon.* analysis, ajratish, bo'lish) - ilmiy tadqiqot metodi bo'lib, yaxlitlik (predmet, voqea, jarayon)ni tarkibiy elementlarga ajratish; biror narsani tekshirish, ko'rib chiqish, predmet (predmetlar) tarkibini va xossalarini aniqlash, predmetlar (belgilar, xossalar) o'rtasidagi munosabatlarni aniqlashga asoslanadi.

Siyosatni o'rganish har doim hokimiyatning turli subyektlari o'rtasidagi sabab-natija aloqalarini aniqlashni talab qiladi. Shuningdek, o'zaro ta'sirni tashkil etish shakllari va usullarini, siyosiy munosabatlar, demak, XMni rivojlanishiga muvofiq tartibni aniqlashni talab qiladi. Shunday qilib, qismlardan tuzilgan yagona va yaxlit xalqaro muhitni o'rganadigan tizimli yondashuv paydo bo'lgan. Tizimli yondashuv uning aniq ko'rinishlaridan - tizimli nazariya va tizimli tahlildan farq qiladi. *Tizimli nazariya* quyidagi vazifalarni bajaradi: tizim va uning tarkibini yaratadi, tushuntiradi, ta'riflaydi; tizim va muhitning o'zaro ta'siri, tizim ichidagi jarayonlarni o'rganadi; bu jarayonlar ta'siri ostida tizimda ro'y beradigan o'zgarish va yoki buzilishni o'rganadi. *Tizimli tahlil* yanada aniqroq vazifalarni hal qiladi: u amaliy metodlar, usullar, yo'llar, jarayonlar majmuidan iborat bo'lib, obyekt (bu holatda XM)ni o'rganishga aniq tartibni joriy etadi. Tizimli yondashuvni muvaffaqiyatli

qo'llash uchun siyosiy fanlarda umum tomonidan qabul qilingan tizimli nazariyalarni bilish va kompleks tizimli tahlilni qo'llashni bilish lozim. Tizimli yondashuv elementlari mashhur yunon olimi Aristotel asarlarida uchraydi. Ma'lumki, u muayyan mamlakatlardagi boshqarish shakli tahlili bilan shug'ullangan va bunda "davlat qurilishi" tushunchasini ishlatgan. XIX asrda A.de. Tokvil ilmiy tilga davlat va siyosiy "tartib" tushunchasini kiritdi, bu tushuncha turli ijtimoiy subyektlarning o'zaro siyosiy munosabatlarining tartiblilik darajasini xarakterlaydi. Bu davrda bir qator olimlar jamiyat siyosiy hayotining tartibliliği va yaxlitligini elita serkuliatsiyasi mexanizmlari orqali (V.Pareto) ta'riflashga urinadi. Bunda davlat byurokratiyasining birlashtiruvchi roli (Maks Veber), partiyaning hokimiyat markaziy institutlarini mustahkamlovchi roli (V.I.Lenin) yoki turli davlat tuzilmalari to'plami (nemis konstitutsionalistlari), geopolitik va hududiy omillar ta'siri (R.Ratsel), shuningdek hokimiyatning ba'zi elementlari ham qo'llanadi. XIX asr o'rtalarida biologiyada tizimli (L.Fon Bertalanfi) va kibernetik (N.Viner) g'oyalarning faol qo'llanishi natijasida makropolitik aloqalar tavsifi *tizimli* tahlil prinsiplariga asoslana boshladi. Amerikalik olimlar T.Parsons va D.Iston asarlarida siyosiy-ijtimoiy fanlarga tizimli yondashuv samarali qo'llanildi. Tizimli yondashuvning umum tomonidan e'tirof etilgan ustunligi shuki, u obyektning bir butun va yaxlit tarzda tasavvur qilish imkoniyatini beradi. Demak, o'zaro ta'sirlanuvchi elementlar o'rtasidagi korrelyatsiyani topishga imkon yaratadi ekan, ana shunday o'zaro ta'sir "qoidalarini" yoki boshqacha aytganda, xalqaro tizim funksionallashishi qonuniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Tizimli yondashuv asosida bir qator olimlar xalqaro munosabatlarni xalqaro siyosatdan ajratadi: agar XMning tarkibiy qismlari uning ishtirokchilari (aktorlar) va ishtirokchilar "potentsialini" (kuch-kudratini) tashkil qilgan "faktorlar" ("mustaqil o'zgaruvchanlar" yoki "resurslari") bilan namoyon bo'lsa, xalqaro siyosat elementlari sifatida faqat mualliflar namoyon bo'ladi.

Uch amerikalik olimlar: D.Iston, G.Almond va K.Doychning tizimli nazariyalari keng tarqalgandir. D.Iston nazariyasiga batafsil to'xtalamiz, chunki u xalqaro tadqiqotlarda qo'llanadigan tizimli yondashuv xususiyatlarini yanada to'la ravishda ochib beradi.

D.Iston siyosiy tizimni rivojlanuvchi va o'z - o'zini tartibga soluvchi, tashqaridan keluvchi komanda impulsarga faol munosabat bildiruvchi organizm sifatida ko'rib chiqadi. U siyosiy tizimni o'zaro ta'sir (munosabat) sifatida ta'riflaydi, bunda ayni o'zaro ta'sir

yordamida jamiyatda moddiy va ma'naviy qadriyatlar avtoritar tarzda taqsimlanadi va shu asosda jamiyat a'zolari o'rtasidagi nizolar oldi olinadi. Istonning fikricha, tizimda "kirish" va "chiqish" bor. "Kirishda" tizim tashqaridan impuls, signallar, zaxiralar oladi, uning yaxlitligiga rahna soluvchi da'vatlarga duch keladi. D.Iston ularni ikki kategoriyaga ajratadi: "talab", u xavfsizlik, individual ozodlik va tenglik, ishtirok, faravonlik ehtiyoji bilan bog'liq; "qo'llab-quvvatlash", u ba'zi talablar va undan kelib chiqqan nizolarni tartibga solishga imkon beradi. "Talablar" manbai, bir tomondan, jamiyatning ekologik tizim, biologik tizim, shaxsiyat tizimi va ijtimoiy tizimlar kabi ichki muhit qismlari hisoblanadi. Ikkinchi tomondan, ekstra-sotsial muhit qismlari hisoblanadi: xalqaro siyosiy tizimlar, xalqaro ekologik tizimlar, xalqaro ijtimoiy tizimlar. Global atrof muhitdan "kirish"ga keluvchi barcha bu oqimlar siyosiy tizimlar ichida, uning barcha tarkibiy elementlari ta'sirlanishi yo'li bilan qayta ishlanadi va oxir-oqibatda tizimning muhitga moslanishiga yordam beruvchi umumiy javob reaksiyasini beradi. "Chiqish"da bunday reaksiyalar sifatida siyosiy harakatlar, hukumat aktlari, tadbirlar xizmat qiladi. O'z navbatida, tizimning bu orqa reaksiyasi atrof muhit bilan o'zaro ta'siri yangi siklining boshlanishi hisoblanadi va keyin yangi "talab" va "qo'llab-quvvatlashlar"ni yo'lga qo'yuvchi atrof muhitdagi muayyan o'zgarishlarni yuzaga kelishiga asos beradi. Shunday qilib, D.Iston konsepsiyasining bosh yutuqlaridan biri - bu siyosiy tizimni dinamikasida - huddi atrof-muhit bilan doimo o'zaro ta'sir munosabatida bo'lgan va uzluksiz ravishda o'z "javoblari"ni o'z elementlari holati va reaksiyasi bilan solishtiradigan yaxlit organizm sifatida ko'rib chiqishdir. Shunisi muhimki, D.Iston tomonidan taklif qilingan tizimli analiz siyosiy tizimning funkcionallashishi, uning boshqa tizimlar bilan munosabatlari qonuniyatlari, barqarorlikni saqlash shart-sharoitlari va b.ni qidirish va aniqlashni yengillashtiradi. Shunga qaramasdan, D.Istonning tahliliy yutuqlarini inkor qilmagan holda, XM sohasi mutaxassislarining hisoblashishicha, bu tahlil xalqaro tizimni o'rganishga to'g'ri kelmaydi. Birinchidan, chunki ular siyosiy tizimning spesifik tipini, aynan amerika siyosiy tizimini o'rganish asosida qilingan va boshqa siyosiy tizimlar xususiyatlarini kam hisobga oladi. Ikkinchidan, Istonning siyosatni "qadriyatlarining avtoritar taqsimlanishi" sifatidagi tavsifi xalqaro tizimning xususiyatlariga e'tibor qaratmaydi, XMni siyosiy munosa-

batlar sifatida ko'rib chiqishga imkon bermaydi. Va nihoyat uchinchidan, Iston sxemasi global xalqaro tizimga uning muhiti xususiyatlari sababli qo'llanilishi mumkin emas. Iston nazariyasi siyosiy o'zaro munosabatlarning ruhiy shaxsiy aspektlarini yuzaki hisobga olinganligi va siyosiy tizimning ichki hayoti tahlilining mavjud emasligi uchun tanqid qilingan. Lekin, hozirgi vaqtgacha XM tahlili tizimli metodining arzirli muqobili yo'q, chunki tizimli metod va XMning xaotik muhitini yagona va yaxlit tizimga keltirish uni tartibga solish, ularning qismlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni qisman tushuntirish qobiliyatiga ega. Shuning uchun, olimlar XM tahliliga tizimli yondashuvining samarali modellari izlashni davom ettirmoqda.

XM tahliliga tizimli yondashuvning asosiy yo'nalishlari va xususiyatlari

Mavjud tizimli yondashuvlari xilma-xill bo'lgani holda, asosiy, keng tarqalgan yo'nalishlarini ajratish mumkin. Ular XMning umumiy va spesifik xususiyatlaridan kelib chiqadi va shunga muvofiq xalqaro tizimlarning, eng avvalo, tahlil qilinayotgan obyektning spesifikasidan hosil bo'ladi. XMning umumiy xususiyatlaridan biri - xarakteri bo'yicha u *ijtimoiy* munosabatlardir, demak, xalqaro tizimlar ijtimoiy tizimlar tipiga taalluqlidir. Binobarin, ular murakkab *moslashuvchi tizim* sifatida k'orib chiqilishi shart, uning tahlilini mexanik tizim modellari tahlili bilan solishtirib bo'lmaydi. Bundan tashqari, ijtimoiy, shu bilan birga, xalqaro tizimlar, odatda, *ochiq* va *zaif tashkillashtirilgan* tizimning alohida tipiga tegishlidir. Boshqacha aytganda, bu tizimlarda o'rganilayotgan kompleks va uning tashqi muhiti o'rtasida hamisha ham aniq va qat'iy chegara o'tkazib bo'lmaydi. Bunda davlatlararo hamkorlik (masalan, iqtisodiy, siyosiy) yoki ana'naviy va yangi xalqaro mualliflarning o'zaro ta'siri tizimi misol bo'lishi mumkin. Bu tizimlar joriy, labil xarakterga ega, shuning uchun bu ularning tahlilini murakkablashtiradi. Lekin bu holatda xalqaro tizimlar o'z ichiga nafaqat ayrim tahliliy obyektlarni qamraydi, balki real ijtimoiy jamoalar o'rtasidagi aniq aloqalarni ifoda etadi. Bu aloqalar o'zaro ta'siri tizimli tashkilotning ma'lum chegarasini namoyon qiladiki, bu nazariy tahlil yo'li bilan aniqlanadi.

Tabiiy va biologik tipdagi tizimdan farqli ravishda xalqaro tizimlarning *makoniy chegaralari shartli xarakterga ega*. Bu ba'zi siyosiy

tizimlar (tizim osti) chegaralari deyarli ushbu tuzilmaning haqiqiy chegaralari doirasidan chiqib ketishini bildiradi.

Jumladan, xalqaro terrorizm va islom ekstremizmi muammosi, ijtimoiy o'zaro aloqalar harakatchanligi va ijtimoiy oqimlarni nazorat qilish qiyinligi sababli, Yaqin Sharq davlatlari hududiy chegarasi doirasidan ancha nariga chiqib ketmoqda. Shunga qaramasdan, xalqaro amaliyotda muhit bilan munosabat reallikda mavjud bo'lib, g'oyatda *nisbiy hududiy chegaralarga ega*. Bu ma'lum darajada regional (mintaqaviy) xalqaro tizimlar uchun to'g'ri hisoblanadi, (masalan, Yaqin Sharq va MO mintaqasi).

XMning yana bir umumiy xususiyati, uni o'rganishning tizimli yondashuviga ta'sir ko'rsatadi, zotan, *ijtimoiy birliklar, guruhlar va alohida individlar kabilar XMning asosiy elementlari sifatida namoyon bo'ladi*. Demak, xalqaro tizim o'zaro harakatlarni iroda, ong, qadriyatlar bilan boshqaruvchi odamlarning o'zaro harakatlari tizimidir. O'z navbatida bu, xalqaro tizimlarni belgilovchi omillar tanlov, motivatsiya, qabul qilish (idrok) kabi fenomenlar bilan bo'g'liqligini bildiradi.

XMni o'rganishning tizimli yondashuvida e'tibor beriladigan uchunchi umumiy xususiyat shundan iboratki, ular imtiyozli ravishda davlatlararo munosabatlar asosiy bo'g'in bo'lib hisoblangan *siyosiy munosabatlardir*. Shuning uchun, masalan, xalqaro munosabatlar tizimi global xalqaro tizim yadrosi hisoblanadi. XMning spetsifik xususiyatlari haqida gapirilsa, ular *yuqori hokimiyatning yo'qligi va "suverenitetlar plyuralizmi"* bilan xarakterlanadi. Tashqi va ichki markazlashishning past darajasi xalqaro tizimga xosligi shu bilan bo'g'liqdir. Boshqacha aytganda, xalqaro tizimlar- bu yaxlitlikdagi elementlar integratsiyasining zaif darajasi bilan farq qiluvchi ijtimoiy tizimlarning maxsus tipi bo'lib, undagi elementlar yirik avtonomiyaligi bilan ajralib turadi. Albatta, avtonomiyaning bunday darajasini mutlaqlashtirmaslik kerak: XM nafaqat manfaatlar to'qnashuvi bilan, balki aktorlarning o'zaro qaramligi bilan xarakterlanadi. Integratsiyalashgan jamiyat (jamiyatning ichki munosablari), o'z navbatida, nizoli mezondan xalos bo'lmagan bo'ladi, chunki ba'zi hollar nizoli mezon XM uchun xos bo'lgan, ma'lum anarxiya xususiyatlarini jo qilishi mumkin, Real dezintegrasiya, SSSR taqdiri bunga yaqqol misol bo'la oladi.

XM spetsifikatsiyasini va shunga muvofiq ravishda, xalqaro tizim xususiyatlarini anglashdagi farqlar, ularni o'rganishning turli yondashuvlari paydo bo'lishiga olib kelgan. Bunday yondashuvlarning bir qancha turi mavjud: **an'anaviy, tarixiy, tarixiy-ijtimoiy, evristik, aralash, empirik, tarkibiy-funksional, madaniy, institutsional va developmentalistik yondashuvlar**. Qayd etishimiz kerakki, bu bo'linish shartlidir va o'zaro istisno qiluvchi xarakterga ega emas, mazkur tasnif u yoki bu muallif pozitsiyasi ustuvorliklarini aks ettirgan, xolos.

Demak, **an'anaviy-tarixiy yondashuvda** "xalqaro tizim" tushunchasi u yoki bu mintaqadagi, u yoki bu davrdagi davlatlar o'rtasidagi diplomatik munosabatlarni belgilash uchun qo'llaniladi. Masalan, 1648 yilgi Vestfal shartnomasi prinsiplariga asoslangan XVII asrdagi Evropa tizimi, XIX asrda Evropa davlatlarining siyosiy muvozanat tizimi ("millatlarning Evropa konserti"); 1945-1989 yillardagi davlatlararo global ikki qutbli tizim. Bunday "panoram" yondashuvning asosiy kamchiligi shundaki, u xalqaro tizimlar (to'g'rirog'ini aytganda, davlatlararo) funksionallashuvi qonuniyatlarini qidirishga qaratilmaydi, odatda, bosh aktorlar - buyuk derjavalalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni bayon qilish bilan chegaralanadi. Bu kamchilik boshqa olimlar tomonidan to'ldirishga harakat qilingan. Masalan, **F.Aron** XMni o'rganishining **tarixiy-ijtimoiy yondashuv**ning asoschilaridan biri hisoblanadi, u o'z e'tiborini tarix saboqlari va zamonaviy davrni o'rganish asosida tasdiqlanadigan umumiy qonuniyatlarni topishga qaratgan.

Evristik yondashuv vakili amerikalik tadqiqotchi **M.Kaplan** *mavhum nazariy modellarni yaratgan* bo'lib, bu model vaziyat va shart-sharoitni o'rganishga mo'ljallangan, ya'ni mazkur modelga ko'ra XMning har bir tizimi boshqa tipdagi tizimda mavjud bo'lishi yoki unda transformallashishi mumkin. U shunday savollarga javobni o'rta qo'yadiki, nima uchun u yoki bu tizim rivojlanadi, bu tizim qanday ishlaydi, qaysi sabablarga ko'ra tushkunlikka uchraydi. M.Kaplan har bir tizimga xos besh o'zgaruvchanni ajratadi: *tizimning asosiy qoidalari, tizimning transformatsiyasi qoidalari, avtorlar klas-sifikatsiyasi qoidalari, ularning qobiliyatlari va axborotlari qoidalari*.

Siyosiy tizimga umuman boshqacha qarash K.Doych tomonidan bayon etilgan. U *axborot-kibernetik modelni* ishlab chiqqan bo'lib, unda siyosiy tizim, siyosiy agentlar tomonidan amalga oshiriladigan axborot

oqimlari va kommunikativ aloqalarning murakkab yig'indisi sifatida ko'rib chiqiladi. U bunda shaxsiy (personal, norasmiy) kommunikatsiya; tashkilot (hukumat, partiya, lobbistik tizimlar) vositachiligida amalga oshiriladigan kommunikatsiya; maxsus tuzilmalar-nashriy yoki elektron OAV orqali o'tuvchi kommunikatsiyani ajratadi.

Amerikalik olim R.Rouzkransning diqqat markazida *tizim barqarorligini saqlashga yoki aksincha, beqarorlashishiga ta'sir qiluvchi omillar* turadi. Shu maqsadda u tarixiy-ijtimoiy va evristik yondashuvlarni sintez qilishga urinishni amalga oshirgan, bunda u aniq tarixiy davrlarni o'rganishga asoslanib tarixiy davrlarga muvofiq ketma-ket izchillikda kelgan to'qqizta xalqaro tizimni ajratdi: 1740-1789, 1789-1814, 1814-1822, 1822-1848, 1848-1871, 1871-1888, 1888-1918, 1918-1945, 1945-1960. Shunday yondashuvdan **Dj.Frenkel** ham foydalangan, u *XM tarixiy evolyutsiyasini kuzatishga* urinib ko'rdi, bunda ularning tizimli xarakteristikasiga, xususan, *tuzilmaviy xususiyatlariga asoslangan*. Ingliz olimi E.Luard ham shunga yaqinroq yondashuvni ilgari suradi. U yetti tarixiy xalqaro tizimni ajratib chiqdi va ularni quyidagi konseptual qurollar (o'zgaruchan) yordamida tahlil qildi: *mafura, elitalar, motivatsiya, aktorlar foydalanuvchi vositalar, stratifikatsiya, tuzilma, me'yorlar, rollar, institutlar*. Ko'rsatilgan o'zgaruvchanlarga tayanib, muallif XMning har bir strukturasi va funksionallashuvini, xalqaro tizimning makon va zamonda o'zgarishiga qayd etilganlarning nisbiy ta'sirini kuzatdi. B.Koraning fikriga qaraganda, tasvirlangan kompleks yondashuv bir qator afzalliklarga ega: u M.Kaplan yondashuviga ko'ra, tushunarli va aniqdir; u mutaxassis tarixchilar tomonidan to'plangan yirik empirik materiallarga, politologiya va boshqa ijtimoiy fanlar yutuqlariga asoslanadi; u xulosalarni tekshirish nuqtai nazaridan qulay va oddiydir, xalqaro tizimni o'rganishning mustaqil metodi sifatida foydalanilishi bilan xarakterlanadi.

XMni tizimli o'rganishning boshqa yondashuvi **empirik** deb ataladi, zotan, u XM amaliyotidagi real mavjud aniq geografik mintaqalar doirasidagi o'zaro munosabatlarga tayanadi. An'anaviy-tarixiy yondashuvdan bu metodning farqi, u sayyoraning u yoki bu regionidagi xalqaro-siyosiy vaziyatlar xususiyatlarini bu yerda yuzaga kelgan tizimli aloqalarning spetsifikasi bilan tushuntirishga urinishi, umummintaqaviy kuchlar nisbati, sotsio-madaniy realiyalar, mintaqaviy xalqaro tashkilotlar kabi muallif harakatiga ta'sir qiluvchi

omillarning ta'sir darajasini ochib berishi bilan farqlanadi. Boshqacha aytganda, ushbu yondashuv xalqaro aktorlar xulq-atvorini tushuntiruvchi qonuniyatlarni qidirishi va shunday qonunlar mazmunini va mavjudligiga tegishli xulosalarning deduktivligini ko'rsatib berishi bilan farqlanadi.

G.Almondning diqqat markazida **tuzulmaviy-funksional yondashuv** yotadi. Siyosiy rollarni va ularning funksiyalarini taqsimlash hamda ixtisoslashtirish va aniq institutlar, siyosiy tizim elementlariga birliktirilishi orqali, Almondga ko'ra, jamiyat rivoji barqarorligini ta'minlash mumkin. Bunda hokimiyat qadriyatlarining taqsimoti asosiy masala emas, jamiyat va hokimiyatni barqarorlashtirishga yo'naltirilgan *qonuniy majburlovni ta'minlash* asosiy rolni o'ynaydi. Bu ma'noda Almond institutsional tizimlar bilan birga *norasmiy* (noinstitutsional) tuzilmalarni ham o'zaro ta'sir sifatida qayd etadi. Barcha bu elementlarni birgalikda birlashtirish va siyosiy tartibni barqarorlashtirish maqsadida ularning o'zaro munosabatlarini ta'minlash faqat *siyosiy madaniyat* tomonidan amalga oshiriladi, chunki siyosiy madaniyat siyosiy tizim tuzilishida markaziy o'rinni egallaydi. Almondning bu tezisi u yoki bu siyosiy madaniyat xususiyatlari bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'langan bo'lib, siyosatning hozirgi olamidagi o'zgarishlarni o'ziga jalb etadi.

U.Rozenbaum, D.Elazar, D.Divayn va boshqa **madaniy yondashuv** vakillari bu qarashlarga tutash fikrlarni bildiradilar, zero, ular siyosiy tizimni siyosiy madaniyatning moddiy gavdalanishi sifatida qabul qilishadi. Bir qator nazariyotchilar "**yangi institutsionalizm**" konsepsiyasini ilgari surishadi. Bu konsepsiyada jamiyatning, hokimiyatning davlat va boshqa institutlarning siyosiy tartibni tashkil etish va barqarorlashtirishda siyosiy o'yinning rasmiy va norasmiy qoidalari va me'yorlarining o'zaro bir-birini to'ldiruvchi, o'zaro ta'sirlanuvchi roli ta'kidlanadi. Bunda hokimiyatning davlat va boshqa institutlari qatoriga maqsad va me'yorlari siyosiy hayotning barcha tashkilotlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan korporatsiyalar, bosim guruhlar kiradi.

Ingliz olimi A.Giddens taklif qilgan "strukturalashtirish" g'oyasi shundan iboratki, makrosiyosatning tartiblangan ko'rinishi ikki jarayonning birga olib borilishi orqali amalga oshiriladi: strukturatsiyalash (ya'ni subyektlar tomonidan aniq belgilangan hududiy va zamon chegaralarida siyosiy o'zaro ta'sirning yuzaga kelgan me'yorlari va

qoidalarining namoyon bo'lishi) va institutsiyalashish (ya'ni muntazam paydo bo'layotgan individual va guruh shaklidagi amaliyotchilarning u yoki bu darajada hokimiyatni jo'natishning amaldagi qoidalariga moslashib mustahkamlashishi). Shunday qilib, ijtimoiy hududda subyektlar va tizimli talablar (me'yorlar) jamiyatdagi siyosiy tartibni namoyon qilib va yangilab, hokimiyat tuzilmasini birgalikda quradi.

So'nggi yillarda makrosiyosatning tizimli xossalarini barqaror sharoitda emas, o'tish davridagi jamiyat sharoitida ta'riflashga urinishlar bo'lgan. Bu **“developmentalistik** (development-rivojlanish) **yondashuv** vakillari” (masalan, siyosiy hokimiyatni tashkil etish uchun siyosatning “tobeliklari” xarakteriga ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot dinamikasiga tobelik), uning tuzilmaviy differentsiatsiyasi, shuningdek, “hokimiyatning yangilanishi”ga tayyorlikni nazarda tutuvchi tizim “imkoniyatlari” (davlatning zamon da'vatlariga ma'lum darajada adaptatsiyasini ta'minlash), “mobilizatsiya” (vaziflarni operativ yechish uchun hokimiyatga inson va moddiy resurlarni jalb etish), “o'z-o'zini saqlash” (hokimiyatga keskin muxolifatchilarni qo'ymaslik) va siyosiy ishtirokchilarda tenglik tendensiyasini ta'minlashga e'tibor qaratishadi. Demak, tizim nazariyasi zamonaviy jamiyatlarda yuz berayotgan jamoalar tashkil etilishidagi transformatsiya va o'zgarishlarni aks ettiradi. Ular siyosiy tartib, shu jumladan, xalqaro tizimni shakllantirishning turli manbalari va mexanizmlarini yanada aniq tavsiflash imkoniyatini kengaytirishadi.

Xalqaro tizimlarning tuzilishi va tiplari

XMni tizimli o'rganishning turli xil yondashuvlari xalqaro tizimlarning ko'p shakldagi tipologiyalari bilan belgilanadi. *Hududiy-geografik xarakteristikasiga ko'ra*, masalan, **umumsayyoraviy xalqaro tizim**, uning **regional tizim osti komponentlari** ajratiladiki, o'z navbatida, uning elementlari sifatida **submintaqaviy kichik tizimlar** chiqadi.

Shunday qilib, F.Brayar va M.R.Jalilining hisoblashishicha, SSSR va AQSH o'rtasidagi global qarama-qarshilik boshlanishi bilan, shubhasiz, siyosiy voqelikda sayyoraviy xalqaro tizim mavjud edi, dunyoning siyosiy xaritasida mustaqil xalqaro aktorlar sifatida postkolonial davlatlarning paydo bo'lishi natijasida yangi ahamiyatli

chegaralar paydo bo'ldi. Natijada 90-yillargacha bo'lgan sayyoraviy xalqaro tizim ikki bosh konflikt chiziqlari yoki "o'q"lari borligi bilan xarakterlanadi. Bu chiziqlar, bir tomondan, G'arb va Sharqni (mafkuraviy, siyosiy, harbiy-strategik kurash), boshqa tomondan, Janub va Shimolni (iqtisodiy qoloq va rivojlangan mamlakatlarga) ajratadi. Ammo, sayyoraviy xalqaro tizimning yaxlitligiga qaramasdan, o'zining avtonomiyasiga ega bir qator xalqaro o'zaro munosabatlar uning tarkibiga kirmagan. *Mintaqaviy kichik tizimlarning* "asosida umumiy geografik tegishlilik bo'lgan spetsifik o'zaro ta'sirlar yig'indisi"ning natijasi shunday. F.Brayar va M.R.Jalili Yevropa, Panamerika, Afrika, Osiyo (Janubiy Osiyo, J.S.H.O, Yaqin Sharq) kichik tizimlari, qariyb va qisman G'arbiy Yevropa submintaqaviy kichik tizimlaridagi shunday o'zaro ta'sir xususiyatlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va ta'riflashga harakat qilishgan.

"Zamonaviy xalqaro munosabatlar rivojlanishi jarayoni, strukturasi va tizimi" kitobi mualliflari davlatlar o'zaro munosabatlarning mintaqaviy (guruh va ikki tomonlama) jihatlarini davlatlararo tizimning strukturaviy darajasi sifatida ko'rib chiqishadi. Ushbu yondashuv nisbatan mantiqiydir, chunki XMning umumiy tizimida shunday turdagi tizimlar o'rni belgilaganda, davlatlararo tizim sifatida uni qo'shmaydi. Lekin, har qanday holatda mintaqaviy yondashuvning asosiy kamchiligi shundaki, unda u yoki bu mintaqani o'rganish obyekti sifatida belgilovchi aniq mezonlar yetarli emas. Bu vaziyat unda ro'y berayotgan xalqaro siyosiy jarayonlarni umumiy tushunishda salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Funksional nuqtai nazaridan XMning quyidagi ko'rinishlari bor: **iqtisodiy, siyosiy, harbiy-strategik** va boshqa tizimlar. Tadqiqot obyekti maqsadiga ko'ra tahlil obyekti sifatida xalqaro tizimning quyidagi tiplari qo'llanishi mumkin: **barqaror va beqaror** (yoki S.Xoffmanga ko'ra, inqilobiy), **nizoli va kooperativ, ochiq va yopiq xalqaro tizimlar**.

Shu bilan birga, deyarli xalqaro tizimning har qanday tipologiyasida siyosiy realizm nazariyasining g'oyalari sezilarli iz qoldirgani, ularning ajratilishida, qanday tashqi mezonlarga asoslanishiga qaramay, buyuk derjavalar yoki oliy derjavalar sonini aniqlash, hokimiyatni taqsimlash, davlatlararo konfliktlar va b. yotadi. F.Brayar va M.R. Jalili asariga qaytamiz. Uning mualliflari siyosiy realizm g'oyalarga qo'shilishsa ham ko'proq Fransuz tarixiy-sotsiologik maktabiga taalluqlidirlar. Asosiy

determinantlar sifatida, ular tanlangan xalqaro tizimning o'zgarishi va funksiyalashishini ajratishadi, va aynan zikr etilgan mezonlarni ko'rib chiqishadi. Xususan, Janubiy Sharqiy, Osiyoning submintaqaviy kichik tizim sifatida rivojlanishi mintaqaviy kvazi-yuqori derjava Yaponiya (iqtisodiy nuqtai nazaridan) va Xitoy (demografik salohiyat nuqtai nazaridan)ga bog'liq. Janubiy Osiyo submintaqasida xalqaro tizim shubxasiz Hindiston va bu mintaqaning boshqa qutiblari-Pokiston bilan raqobati orqali belgilanadi.

Aynan siyosiy realizm ikki qutbli, **ko'p qutbli, muvozanatli va imperik xalqaro tizimlar** tushunchalari qo'llanilishiga asos bo'ldi. Ikki qutbli tizimda ikkita o'ta qudratli davlat hukmronlik qiladi. Agar ularning qudratiga boshqa derjalar erishsa, bu tizim ko'p qutbli tizimga aylanadi. Muvozanatli tizimda yoki kuchlar balansi tizimida bir qancha yirik davlatlar voqealar borishida bir xil ta'sirni saqlab qoladi va bir-biriga nisbatan "o'ta keskin" noroziliklarini cheklaydi. Nihoyat, imperik tipdagi xalqaro tizimda boshqa davlatlarni o'zining qudrati bilan ancha orqada qoldirib ketgan o'ta qudratli yagona derjava (hudud o'lchami, qurollanish darajasi, iqtisodiy salohiyati, tabiiy resurslar zaxirasi va b.larga ko'ra) hukmronlik qiladi.

Xalqaro tizimlarning funkcionallashuvi va transformatsiyasi qonunlari

Xalqaro tizim qonunlarini anglashda asosiy rolni uning tuzilishi o'ynaydi. Nazariy nuqtai nazardan o'z manfaatlarini ko'zlagan suveren davlatlarning muvofiqlashmagan faoliyati xalqaro tizimni shakllantiradiki, uning bosh alomati cheklangan miqdordagi nisbatan kuchli davlatlarning hukmronligi hisoblanadi. XM tizimlari strukturasi barcha xalqaro aktorlarning xarakterini belgilaydi, u harbiy-siyosiy, iqtisodiy va ekologik sohada o'z shaxsiy manfaatlariga qarama-qarshi xatti-harakatlarni barcha mamlakatlarga o'tkazadi. Struktura jahon arenasidagi xalqaro munosabatlar xarakteristikalari tizimida turli kuchdagi davlatlarning harakatlari chizig'ini tushunish va bashorat qilish imkonini beradi. Iqtisodiyotda bozor holatini bir qancha yirik firmalar belgilagani kabi xalqaro siyosiy tuzilma buyuk derjalar va ularning kuchlari muvozanati konfiguratsiyasi bilan belgilanadi. Bu kuchlar muvozanatidagi o'zgarishlar xalqaro tizim strukturasi o'zgartirishi mumkin, ammo asosida nomuvofiq

keluvchi manfaatga ega buyuk derjavalarning cheklangan soni mavjudligi yotgan, tabiati o'zgarmasdan qoladi.

Shunday qilib, **aynan xalqaro tizimlar strukturasi holati uning mustahkamligi va barqarorligi, inqilobchiligining o'zgarishi tizimlar doirasida nizoliligi va hamkorligi ko'rsatgichi hisoblanadi: aynan unda tizimning funksionallashuvi va transformatsiyasi ifodalalanadi.** Shuning uchun xalqaro tizim tadqiqotiga bag'ishlangan asarlarda bu holat analiziga birinchi navbatda e'tibor qaratishadi.

Masalan, R.Aron xalqaro tizimning kamida uchta strukturaviy o'lchovini ajratadi: **kuchlar muvozanati konfiguratsiyasi; mualliflar ierarxiyasi; tarkibning gomogenligi (bir jinslik) yoki geterogenlik (turli jinslik).** Siyosiy realizim an'analarga mos keluvchi bosh o'lchov, uning hisoblashiga ko'ra, kuchlar muvozanati konfiguratsiyasidir. Kuchlar muvozanati konfiguratsiyasi xalqaro tizimdagi "hokimiyat markazlari" mavjudligini o'zida aks ettiradi. Bunda hokimiyat markazlari uning asosiy elementlari-suveren davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga ta'sir qiladi. Kuchlar muvozanati konfiguratsiyasi, yuqorida aytilganidek, bosh aktorlar soni va ular o'rtasidagi munosabatlar xarakteriga bog'liq bo'ladi. Bunday konfiguratsiyaning ikki asosiy tipi bor: ikki qutbli va ko'p qutbli. Mualliflar ierarxiyasi harbiy-siyosiy, iqtisodiy, resurs, sotsial-madaniy, mafkuraviy va boshqa jihatdan xalqaro tizimga ta'sir qiluvchi ehtimolliklar nuqtai nazaridan ularning deyarli notingligini qayd etishadi. Xalqaro tizimlarning gomogen va geterogen xarakteri aktorlar o'rtasidagi u yoki bu prinsiplar (masalan, siyosiy ligitimlik prinsipi) yoki qadriyatlar (bozor iqtisodiyoti, plyuralistik demokratiya) bo'yicha kelishuvi darajasini anglatadi: agar totuvlik qancha ko'p bo'lsa, bu tizim gomogen hisoblanadi. O'z navbatida, kancha u gomogen bo'lsa, me'yoriylik va barqarorlik shuncha ko'p bo'ladi. Gomogen tizimda davlatlar raqib bo'lishi mumkin, ammo siyosiy dushman hisoblanmaydi. Shunday tizimlar qatoriga MO mintaqasini kiritish mumkin, chunki bu mintaqada respublikalarning tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy yondashuvlari o'z siyosiy prinsiplari hamda umimiy madaniy-diniy va tarixiy qadriyatlariga asoslanadi. Aksincha, qadriyatlar va mafkuraviy antagonizm asosida parchalanayotgan geterogen tizim xaotik, beqaror va nizoli (masalan, Bolqon) xarakteriga ega.

Xalqaro tizimning yana bir strukturaviy xarakteristikasi uning "rejimi" hisoblanadi. *Rejim*, bu-XMni tartibga soluvchi rasmiy va norasmiy prinsiplar, me'yorlar, bitimlar va qaror qabul qilish jarayonlari

yig'indisidir. Masalan, 1945yildan keyin xalqaro iqtisodiy almashinuvda liberal konsepsiya hukmronlik qilgan qoidalar - XVF, Jahon banki, XST kabi xalqaro institutlar yig'indisiga hayot bag'ishladi.

J.P.Derrienikning fikriga ko'ra, xalqaro tizimning boshqa strukturaviy xarakteristikalarini sirasiga quyidagilar kiradi: **1) aktorlar soni, 2) ular o'rtasidagi kuchlar taqsimoti; 3) nizo va hukmronlik o'rtasidagi munosabat.** Tizim kooperativga nisbatan ko'proq nizoli yoki, aksincha nizoliga nisbatan yanada kooperativ bo'lishi mumkin. Agar tizimning ikkinchi tipi institutsionallashsa, u "uyushtirilgan xalqaro tizim"ga aylanishi mumkin. Bunda Aronning "tinchlikka qonun orqali" erishish gipotezasi tasdiqlanadi. Boshqa tomondan, Kaplanning nisbatan qudratli aktor nizo doirasini cheklaydigan "ier-arxik tizim" tipi, bu yerda uyushtirilgan xalqaro tizimga transformatsiya qilinishi mumkin va bunda R.Aronning "tinchlikka imperiya orqali" erishish gipotezasi oqlanadi; **4) ushbu tizim yo'l qo'yadigan u yoki bu vositalar (kuch, almashinuv, ishonitirish)ni qo'llash imkoniyati; 5) aktorlarning tashqi markazlashuvi darajasi, ya'ni ushbu xalqaro tizim xarakterining ular harakatiga ta'siri, shuningdek, aktorlar o'rtasidagi maqomlar tafovuti.**

Yuqoridagilar ko'rsatib turibdiki, **xalqaro tizimlarning nisbatan umumiy qonuni, mualliflar xulq-atvori tizimning strukturaviy xarakteriga bog'liqligi hisoblanadi.** Yanada umumiy qonun **xalqaro tizimlarning muvozanatliligi qonuni, yoki kuchlar balansi qonuni** hisoblanadiki, bu qonunlar xalqaro tizimlarning nisbiy barqarorligini saqlab turish imkonini beradi.

Xalqaro tizim funksionallashuvi va o'zgarishi qonunlari mazmunini to'g'risidagi baxslarning markazida ikki qutbli va ko'p qutbli tizimning qiyosiy ustunligi yotadi. Raymon Aronning hisoblashicha, ikki qutbli tizim beqarorlik tendensiyasiga ega, chunki o'zaro qo'rquvga asoslanadi va ikki qarama-qarshi tomonlar o'rtasida manfaatlar zidligi bo'yicha bir-biriga nisbatan shafqatsizlik tug'iladi. M.Kaplanning fikriga ko'ra, ko'p qutbli tizimda ma'lum xafvlar mavjud (masalan, yadro qurolining tarqalishi xafvi, mayda aktorlarning o'rtasida nizolarning boshlanishi, oxir-oqibatda buyuk derjavalarning o'rtasidagi ittifoqlarning o'zgarishiga olib kelishi mumkin bo'lgan kutilmagan natijalar). Ammo, ularni ikki qutbli tizim xafvi bilan taqqoslab bo'lmaydi. Ikki qutbli tizim yanada xavfli, chunki u ikki tomonning dunyo ekspansiyasiga intilishi bilan xarakterlanadi, ikki

blok o'rtasidagi doimiy kurash - o'z pozitsiyasini saqlab qolishni yoki dunyoni yangidan tuzishni mo'ljallaydigan kuzatishni taqazo etadi. Mulohazalarini bular bilan cheklab qo'ymagan **M.Kaplan ikki qutbli va ko'p qutbli tizimlarning barqarorlik "qoidalarini" ko'rib chiqadi.** Uning fikricha, ko'p qutbli tizimning har bir qutbini barqarorlashtiruvchi olti qoida mavjud:

1. O'z imkoniyatlarini imkon bolsa urush yo'li bilan emas, mu-zokaralar yo'li orqali kengaytirish.

2. O'z imkoniyatlarini kengaytirishning uddasidan chiqa ol-masa, yaxshisi, urushgan ma'qul.

3. Buyuk derjavani yo'q qilishdan ko'ra urushni to'xtatish yaxshiroqdir (zotan, davlatlararo hamjamiyatning optimal o'lchami bor, masalan, Yevropa dinastik rejimlariga binoan, ular o'rtasidagi qarama-qarshi harakat tabiiy chegaraga ega).

4. Tizimda hukmron mavqeni egallashga urinayotgan har qanday koalitsiya va alohida millatga qarshilik ko'rsatish.

5. U yoki bu milliy davlatning "millat usti xalqaro tashkilotlar prinsiplariga qo'shilish"ga urinishlari, ya'ni davlatni qandaydir oily hokimiyatga tobe qilish g'oyasining keng tarqalishiga qarshi turish.

6. Barcha buyuk derjavalarga maqbul hamkor sifatida aloqador bo'lish; mag'lubiyatga uchragan mamlakatlarga maqbul hamkor si-fatida tizimga kirishga ruxsat berish yoki uni boshqa, avval zaif bo'lgan, keyin kuchaygan davlat bilan almashtirish.

Moslashuvchan ikki qutbli tizimlar funktsionallashuvi qonunlari to'g'risida gapirar ekan, M.Kaplan ularni tashkil etuvchi bloklar ierarxik tizimga ega yoki ega emasligiga bog'liq holda foydalanishini ta'kid-laydi. Agar bloklar ierarxik munosabatda bo'lsa, tizim funktsiyo-nallashuvi qat'iy ikki qutbli tizim tipiga yaqinlashadi. Aksincha, agar ikkala blok ierarxik munosabatda bo'lmasa, u amalda ko'p qutbli tizim funktsionallashuvi qoidalari to'g'risida so'z ketadi. **Barcha bloklar uchun mos 4 umumiy qoidalar mavjud.**

1. Boshqa blok imkoniyatlariga qiyosan o'z imkoniyatlarini kengaytirishga urinish.

2. Raqib blokning hukmronlikka erishishiga imkon berishdan ko'ra har qanday holatda ham urushish afzal.

3. Universal aktorlar (MPO)ning maqsadini o'z maqsadiga, ra-qib blok maqsadini universal aktor maqsadiga bo'y sundirishga urinish.

4. O'z blokini kengaytirishga urinish, qo'shilmaganlarni bevosita yoki bilvosita raqib blokka moyillikka olib keladigan bo'lsa, bunda qo'shilmagan aktorlarga nisbatan sabrni saqlash.

Xalqaro tizim transformatsiyasining asosiy qonuniga kelsak, u xalqaro tizimning terslik (karama-karshi bolishi) va barqarorlik o'rtasidagi korrelyatsia (o'zaro alokadorlik) konuni hisoblanadi.

M.Kaplan, moslashuvchan ikki qutbli tizimning beqaror xarakterini qayd qiladi. Agar u noierarxik bloklarga asoslansa, ko'p qutbli tizimga tadrijiy rivojlanib o'tadi, agar ikki blok ierarxiyasiga moyil bo'lsa yoki qat'iy ikki qutbli yoki ierarxik xalqaro tizimga transformatsiya bo'lish tendensiyasiga ega. Moslanuvchan ikki qutbli tizimga qo'shilmaganlarning qo'shilish xavfi mavjud, ya'ni bir blokning boshqa blokka bo'ysunish xavfi; ierarxik tizim yoki anarxiyaga olib boradigan total urush xavfi bor. Bunda ichki blok disfunktsiyasi bostirilgan, ammo bloklararo qarama-qarshilik keskinlashgan. Ikki qutbli tizim barqarorligining asosiy sharti, M. Kaplanning fikricha, bu qudrat muvozanatidir. Agar 3-blok paydo bo'lsa, bu jiddiy balansizlashish va tizimning buzilishi xavfiga olib keladi. Shunday qilib, davlatning xalqaro maydondagi harakati ularni shakllantiradigan xalqaro tizimlar, ularning strukturaviy xarakteristikasiga, diplomatiyadagi tizimni shakllantiruvchi omillarni hisobga olish zaruratiga, va davlatlararo nizolarning aloqasi, son jihati va xarakteriga bog'liq. XMda tizimli qonunlar mavjudligi to'g'risidagi fikrlarning o'zi xalqaro tizimlarni xalqaro maydonda, umumsayyora, mintaqaviy va submintaqaviy darajada bir qator davlatlarning siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy, kvo-statusini qabul qilishi natijasi sifatida ko'rib chiqish imkoniyatini beradi. Shu nuqtai nazardan, har bir xalqaro tizim davlat o'rtasidagi kuchlarning muvofiq hududiy zamon kontekstidagi muvozanatining norasmiy institutsiyalizatsiyasi hisoblanadi. Shu vaqtning o'zida XM to'g'risidagi fanlarda mavjud xalqaro tizim funkcionallashuvi va transformatsiyasi, ular asosida xatosiz prognoz qilish imkonini beradigan darajada qat'iy deyish soddalik bo'lar edi. Ular, mazmunan xalqaro nizolar sababining asosiy tadqiqotlari "doirasi ichida" qolmoqda. Xalqaro munosabatlarni davlatlararo o'zaro munosabatlarga olib borar ekan, ular asossiz tarzda xalqaro tizim tushunchasi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri doimiy munosabatlar va harbiy kuchlarni o'zaro hisobga olinishi mavjud davlatlar bilan chegaralanadi. Shunday bo'lsa-da, qatnashuvchilar tomonidan doimo

ham anglanmaydigan bilvosita bog‘liqliklarning keng doirasi mavjud bo‘lib, ularsiz tizim haqidagi tasavvur noto‘liq bo‘lib qoladi.

Davlatlararo munosabatlar tahlilining asosiy darajalari

Yuqorida qayd etilganidek, tizimli yondashuvning aniq ko‘rinishidan biri bu tizimli tahlildir. Tizimli tahlilning instrumentlari har bir konkret vaziyatda turli xarakterga ega bo‘lishi mumkin, u tahlil obyekti va predmeti, tadqiqot maqsadi va vazifalariga bog‘liq bo‘ladi. Ammo XM tadqiqotlarida, shuningdek tahlilning ma‘lum darajalari mavjud bo‘lib, ularning tanlovi ma‘lumotlarning mavjudligi va tadqiqotchining nazariy yondashuviga bog‘liq. Ularning keng tarqalgan ko‘rinishlarini ko‘rib chiqamiz. Masalan, R.Aronning nuqtai nazariga ko‘ra, “xalqaro tizim siyosiy birliklardan iborat, ular o‘rtasida doimiy munosabatlar mavjud bo‘lib, ularni umumiy urishga jalb etish mumkin”. R.Aron uchun xalqaro tizimdagi o‘zaro munosabatdagilarning asosiy birliklari (deyarli yagona siyosiy birliklar) davlatlar hisoblanadi, shu bois, ilk qarashda, u xalqaro munosabatlarni jahon siyosati bilan tenglashtirayotganday tasavvur uyg‘onadi. Ammo, mohiyatan, xalqaro munosabatlarni davlatlararo o‘zaro munosabatlar tizimi sifatida chegaralar ekan, R.Aron ayni vaqtning o‘zida o‘z e‘tiborini nafaqat xalqaro maydondagi davlatlarning harakatlarini belgilovchi potentsial resurslar bahosiga qaratadi, balki bu bahoni XM sotsiologiyasining mazmuni va asosiy vazifalaridan biri deb hisoblaydi. Bunda uning tasavvuriga ko‘ra, davlat salohiyati (qudrati) bu – geografik muhit, moddiy va inson resurslari, jamoa bo‘lib harakatlanish qobiliyati yig‘indisidir. Shunday qilib, Aron tizimli yondashuvidan kelib chiqib, **xalqaro davlatlararo munosabatlarni o‘rganishning uch darajasi borligini tasvirlaydi: davlatlararo tizim darajasi, davlat darajasi va uning qudrati, salohiyati (potentsial) darajasi.**

1971 yilda D.Rozenau o‘z ichiga tahlilning olti darajasini olgan boshqa sxemani taklif qildi.

1. Siyosatning “yaratuvchi” individlari va ularning xarakteristikasi.

2. Ular egallagan lavozimlar va bajarayotgan rollari.

3. Ular harakat qilayotgan hukumat tuzilishi.

4. Ular yashayotgan va boshqarayotgan jamiyat.

5. Milliy davlatlar va XMning boshqa ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlar tizimi.

6. Jahon tizimi.

Tahlilning turli darajalarini aks ettirgan tizimli yondashuvni xarakterlar ekan, B.Rasset va X.Starr u yoki bu darajaning tanlanishi ma'lumotlar mavjudligi va nazariy yondashuv bilan belgilanishini ta'kidlaydi. Shuning uchun bu metodni qo'llashning har bir vaziyatida bir qancha turli darajalarni topish va aniqlash zarur. Bunda turli darajalardagi tushuntirishda, darajalar bir-birini inkor qilishi shart emas, ular bir-birini o'zaro to'ldirishi, shu yo'l bilan bizning tushunishimizni chuqurlashtirishi mumkin.

"XM nazariyasi asoslari" o'quv qo'llanmasi mualliflarining hisoblashishicha, "XM nazariyasi metodi xalqaro voqealar, jarayonlar, muammolar, vaziyatlarning rivoji va harakatning tizimli tahlili bo'lib, u tashqi siyosiy ma'lumotlar va habarlar, tadqiqot usullari va maxsus usullar, mavjud bilimlar yordami bilan amalga oshiriladi". Ularning nuqtai nazariga ko'ra, bunday tahlilning boshlang'ich nuqtasi bolib uchta tizim tadqiqi darajasi hisoblanadi:

1. Tarkib darajasi - uni shakllantiruvchi elementlarining ko'p sonliligi.

2. Ichki tuzilish darajasi - elementlar o'rtasidagi qonuniy o'zaro aloqalar yig'indisi.

3. Tashqi tuzilish darajasi - tizimning muhit bilan yaxlitlikdagi o'zaro aloqalari yig'indisi.

Yuqorida ko'rsatilgan tizimli yondashuvning afzalliklariga qaramasdan, bu yondashuv ko'pgina voqealarning ilk sabablarini tushuntirib bera olmaydi. Bu XMni tushunish uchun juda muhim, zotan, XMda doimo o'zaro munosabatdagi turli voqeliklar, hodisalar, vaziyatlar va jarayonlar sababiylikning ko'p darajali asosiga ega, unda tizimli nazariyaga to'la muvofiq holda yaxlitlik miqdoran va sifatatan har doim o'z tarkibidagi elementlaridan farq qiladi.

Tizimli tahlil ijobiy natijaga erishgan ikki sohani aytish mumkin: *bu-strategiya va xalqaro-siyosiy qarorlarni qabul qilish jarayoni*. Uning qolgan sohadagi xizmatlari hozircha anchagina kam. Gnoseologik jihatdan bu holat shunday izohlanadi, murakkablikning ma'lum darajasiga erishgan hech bir tizim to'liq anglanishi mumkin emas. Bu yerda B.Badi va M.K.Smuts e'tibor qaratgan qarama-qarshilik kelib chiqadi: tizimli yondashuv - tizim holatini, uning elementlar biriku-

vining turli usullari orqali aniqlash metodi, ammo tadqiqotchi oddiy tizimlarga tegishli doiradan chiqishi bilan uning xulosalari to'g'riligini ko'rsatuvchi asoslar kamayadi.

Bundan tashqari, XM fanida hozirgacha xalqaro tizim tuzilmasi-ning umum qabul qilingan izohi yo'q. Xalqaro hayotning zamonaviy realiyalari yaqqol siyosiy realism metodologiyasiga asoslangan "kuchlar muvozanati konfiguratsiyasi", "ikki qutblilik" yoki "ko'p qutblilik" kabi cheklangan miqdordagi tushunchalarda ifodalanmoqda. Sovet blokining qulashi va global ikki qutbli tizimning halokati "kuchlar balansi", "qutblar" kabi an'anaviy atamalar bilan hal qilinmaydigan savollarni oldingi o'ringa olib chiqmoqda. "O'zimizniki" va "begona", ittifoqchilar va raqiblarni ajratishning qat'iy liniyasi yo'qoldi, kichik davlatlar, mintaqaviy o'rta va buyuk derjavalar harakatlarini oldindan aytish imkoniyati kamaydi. Davlat mavjudligiga raxna soluvchi xilma-xil xavflar va tahdidlar soni ortdi, yadro, kimyoviy, bakteriologik qurollar va yangi qurollarning boshqa ko'rinishlarini tarqatishning davom etishi bu vaziyatni keskinlashtirdi. Global xalqaro tizim o'z struktura transformatsiyasi va o'zgaruvchan muhitning o'zaro ta'siri bilan aloqador chuqur qalqishlarni boshdan kechirmoqda.

Lekin XMni tadqiq qilishda yanada samarali metodologik yondashuvning yo'qligi sharoitida xalqaro siyosatga tizimli yondashuvni qo'llash, uning yutuqlari va globalizatsiyalashayotgan dunyo hususiyatlari, jahon hamjamiyatining global siyosiy tizim bilan o'xshashligi hisobga olinganida o'zini oqlaydi. Ayni paytda ushbu yondashuvning sanab o'tilgan kamchiliklarini hisobga olishda ehtiyotkorlik talab qilinadi. Ayrim hollarda bu, xalqaro tizimlar elementlarining sezilarli avtonomlashishiga tegishli bo'lib, buning natijasida tizimning bir darajasida qilingan umumlashmalarning boshqa darajaga o'tkazib bo'lmashligiga ham oid. Umuman olganda, uni qo'llashning bir qator keng tarqalgan qoidalarini ajratish mumkin. Odatda, tizimli yondashuvdan davlatlararo munosabatlarni o'rganishda foydalaniladi. Ushbu yondashuv o'rganilayotgan obyekt (davlat, ittifoqlar yoki davlatlar bloki) mintaqaviy va submintaqaviy kichik tizim, umumsayyoraviy (global) xalqaro tizim bilan o'zaro aloqada ko'rib chiqishni mo'ljallaydi.

XM taraqqiyotidagi yangi tendensiyalarni hisobga olgan tizimli yondashuv, shunday bo'lsa-da, siyosiy realizmning asosiy holatlariga asoslanishni davom ettirmoqda. Bu holatga ko'ra, buyuk derjavalar

yoki oliy super derjavalarda sonini aniqlash, hokimiyat taqsimoti tahlili, davlatlararo nizolar tahlili va boshqalar talab qilinadi. Ko'pgina vaziyatlarda kuchlar munosabati konfiguratsiyasi, aktorlar ierarxiyasi, tarkibning gomogenligi yoki geterogenligi, xalqaro tizim "rejimi"ning aniqlanishi tahlil asosi hisoblanadi.

Tizimli yondashuvning u yoki bu darajasining tanlovi mavjud ma'lumotlar va nazariy yondashuv, analiz obyekti va predmeti bilan belgilanadi.

Xalqaro siyosiy hayotning murakkabligi va biryoqlama emasligi hamda bu holat bilan bog'liq holda chegaralangan tizimli yondashuvni XM tahlilining boshqa yondashuvlari bilan birgalikda qo'llashni talab qiladi. Bu yerdan uning boshqa quyidagi metodologik yondashuvlar bilan faol o'zaro munosabat (tadqiqot vazifalari va tadqiqot obyektiga bog'liq holda)ga kirishishi nazarda tutiladi: ijtimoiy, iqtisodiy, an'anaviy-tarixiy, strukturaviy-funksional, madaniy, institutsional, harbiy-strategik va developmentalistik yondashuvlar. Bu yo'l bilan tadqiqot xulosalarining ishonchliligi va validlik darajasi o'ttiriladi.

SEMINAR

Ma'ruzalar uchun mavzular:

1. XMni tahlil qilishda tizimli yondashuvning asosiy yo'nalishlari va xususiyatlari
2. Xalqaro tizim tuzulishi va tiplari
3. Xalqaro tizim funkcionallashuvi va transformatsiyasi
4. Davlatlararo munosabatlar tahlilining asosiy darajalari

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Цыганков П.А. Теория международных отношений. –М., 2003.
2. <http://www.auditorium.ru>
3. <http://www.intertrends.ru/four/002/htm>
4. <http://www.jahon.mfa.uz>
5. <http://www.globalresearch.ca>

7- Ma'ruza: Situatsiya tahlili metodlari

Reja:

1. *Siyosiy tahlil mazmuni va xususiyati*
2. *Kuzatish*
3. *Hujjatlarni o'rganish*
4. *Qiyoslash*
5. *Senariylar metodlari*

Tayanch so'z va iboralar:

Siyosiy tahlil, amaliy tadqiqot, fundamental tadqiqot, situatsion ilmiy tadqiqot, kuzatish, qiyoslash, hujjatlarni o'rganish, senariy metodi.

Siyosiy tahlil mazmuni va xususiyatlari

Xalqaro siyosatni o'rganish ko'plab aniq siyosiy vaziyatlarning tahlili va tadqiqiga olib keladi, zotan, bunda joriy tendensiyalar, harakatlantiruvchi kuchlar, undovchi motivlar, sabablar va boshqa analitikni qiziqtiruvchi real siyosiy ahvol masalalari aniqlanadi. Amaliy masalalarni yechishga mo'ljallangan tadqiqotlar *amaliy tadqiqotlar* deyiladi (*Tatbiq etmoq* so'zidan olingan). Ularning natijalari amaliyotga tatbiq etilishi mumkin. Kanadalik politolog L.Palning qayd etishicha, fundamental (akademik) tadqiqodlar amaliy tadqiqodlardan, eng avvalo, maqsadlari bilan farq qiladi: agar birinchisi o'z oldiga asosiy vazifa qilib siyosiy hayotni anglash va yaxshiroq tushunishni qo'ygan bo'lsa, ikkinchisi joriy siyosatni pragmatik vazifalari bilan o'zgartirish va unda ta'sir ko'rsatishni maqsad qiladi. Siyosiy fanlarning fundamental va amaliy tomonlari (yoki komponentlari)ni yanada aniqroq farqlash uchun, ularning nisbiy chegaralanishi va farqlanishini quyidagi jadvalda keltirilgan shaklda qo'llash mumkin.

**Politologiyada fundamental va amaliy tadqiqotlarni
chegaralash mezonlari**

№	Kriteriyalar	Fundamental tadqiqotlar	Amaliy tadqiqotlar
1	Maqsad (vazi- fa)	Anglash (mexanizmlar va qonuniyatlarni bilish)	Tubdan o'zgartirish (anglangan mexani- zmlardan foydalanish)
2	Tahlil subyek- tining roli	Obyektivlangan (chet- lashgan-neytral)	Subyektivlangan (faol-manfaatdor)
3	Nazariyaning amaliyot bilan aloqasi	Bilvosita	Bevosita
4	Anglash si- klining fazasi	Empirik-konkret ma'lumotlardan mavhum -nazariy mod- elgacha to'plash va ta'riflash	Mavhum-nazariy mod- eldan ularning amaliy texnologiyadagi aniq sintezigacha
5	Makon va zamon konti- num	Asosan vaqtning uzoq davri va qat'iy chega- ralanmagan makon	Makonning loka- lizatsiyashuvi (ma'lum bir joiga bog'lik bolish- ligi) va vaqtning chega- ralanganligi

Nazariy politologiyadan farqli ravishda aniq vaziyatning siyosiy tahlili o'z spetsifikasiga ega va siyosiy makonda amaliy va aniq vazifalarni hal qilishda mavjud ilmiy-nazariy salohiyatdan amaliy foydalanishga yo'naltirilgan. Nazariy g'oyalar bilan bir qatorda, vaziyatni anglash va baholashning muhim komponenti insonlar tomonidan to'plangan amaliy tajriba, o'xshash vazifalarni hal qilish ko'nikmasi va malakasi, intuitsiya va insonning boshqa tasavvurlaridir.

Siyosiy tahlilni olib borishda tadqiqotchi qandaydir keng nazariy umumlashmadan foydalanmay o'z xulosalarini berishi mumkin. Bu ma'noda amaliy fanlarning predmet sohasi nazariy, fundamental fanlarga ko'ra tordir. Amaliy fanlarni masalan, davlat va hokimiyat mohiyati emas, balki uning yuzaga keladigan anik holati va uning by yoki boshqa vaziyatda insonlar harakatiga ta'siri qiziqtiradi. Lekin vaziyatlar tahlili natijalari fundamental nazariya boyishiga yangi gi-potezalar, paradigmalarni yaratib zamin yaratadi.

Siyosatning amaliy tadqiqotlari siyosiy hayotning faqatgina davlat hokimiyati funkcionallashuvi jarayoni uchun amaliy ahamiyatga ega tarmoqlarni qamrab oladi, bu eng avvalo, nizolarni tartibga solish va hal etish jarayonlari, qaror qabul qilish, muzokoralar olib borish, saylov va axborot kompaniyalarini tashkil-lashtirish va boshqalar. Shunday sohalar atrofida tarixan subdissipli-nalar shakllandi. Ular quyidagilarni qamrab oladi: qaror qabul qilish masalalari (Policy making), siyosiy loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish (Policy management), siyosiy konfliktlarni tartibga solish va hal qilish (conflict management) va boshqalar. Ularning orasida aniq siyosiy muammolarni tadqiq usullari va jarayonini ta'riflaydigan siyosiy tahlil (policy analysis) alohida o'rin tutadi.

Siyosiy tahlil o'zining predmet maydoni va xususiyatlariga ko'ra o'ziga xos amaliy dissiplina hisoblanadi. Shu bilan birga, u barcha ama-liy dissiplinalarning yagona tadqiqot asosi sifatida maydonga chiqadi.

Shunday qilib, agar keng ma'noda bu so'z birikmasi siyosatning barcha ilmiy tadqiqotlarini ifodalash uchun ishlatilsa, tor ma'noda **siyosiy tahlil aniq muammolarni o'rganishning erkinligi va subyektivizmga to'sqinlik qiluvchi asosiy talablarni shakllanti-radigan, ularning nisbatan maqbul yechimlarini izlaydigan va buning uchun zarur texnologik vositalar, faoliyat, usullarni aniqlashga qaratilgan amaliy fan** sifatida o'rganiladi.

Ilmiy bilimlarning amaliy sohasi sifatida siyosiy tahlilni ishlab chi-qish bilan maxsus mutaxassislar guruhi shug'ullanadi: texnologlar, tahlilchilar, ekspertlar, maslahatchilar, piarmentlar, partiya apparati hodimlari va boshqalar. Siyosiy tahlil amaliy bilim sifatida avvalo subyekt oldida turgan aniq muammoni o'rganish va ta'riflashga yo'naltiriladi, ya'ni voqelikning siyosiy makondagi turli sohalariga taalluqli bo'lgan va qat'iy aniq, bir tipdagi manbalar, aloqalar va boshqa analogik parametrlarga ega bo'lmagan unsurlarini o'rganishga qaratiladi. Siyosiy tahlil obyektning ratsional - soddalashgan anglashni ishlab chiqadi va subyektning aniq maqsadi realizatsiyasi uchun minimal dara-jada yetarli axborotni talab qiladi. Agar fan obyektning mantiqiy nushasini shakllantirsa, siyosiy tahlil uning amaliy nushasini shakllanti-radi, ya'ni subyekttni aniq maqsad realizatsiyasi shemasiga kiritish uchun yetarli obrazga ega. Shu bilan birga, siyosiy tahlil talab muammo sifatida hokimiyat doirasida insonlarning vazifasi va rolini amalga

oshirishiga ta'sir qiladigan har qanday sotsial nizo va kelishmozhiliklar maydonga chiqmaydi.

Faqatgina ularning orasidan jamiyat uchun ahamiyatli bo'lgan, aholining keng qatlami manfaatlariga taalluqli bo'lgan, bevosita va bilvosita boshqaruv organlari faoliyatiga ta'sir qiladigan ijtimoiy ishonch va qadriyatlar, ommaviy xarakterga ega va ma'lum darajadagi muhimlikka ega nizo va qarama-qarshiliklar siyosiy tahlil masalalari hisoblanadi. Bunday sohaga yo'naltirilganlik amaliy siyosiy tahlilning *strukturaviy xususiyatlarini* belgilab beradi. Shuningdek, siyosiy sohaning raqobatli tabiati sababli, u yoki bu vaziyatning raqobatlashuvchi kuch vakillari tomonidan turlicha qabul qilinishi muqarrarlari natijasida yuzaga keladi, ayni voqealarning interpretatsiyasi bir yoqlama bo'lmagan xarakterga ega bo'ladi. Ya'ni aniq vaziyat bahosini nafaqat analitik va ekspert beradi, balki siyosiy jarayondagi o'z o'rni va roliga muvofiq ko'rsatilgan kolliziani hal qilishi kerak bo'lgan shaxs ham baho beradi. Aynan u status, pozitsiya va shu kabi uning voqelikka munosabatining ahamiyatli jihatlari nuqtai nazaridan o'z manfaatlaridan kelib chiqib, hodisalarni baholaydi, interpretatsiya qiladi, shu yo'l bilan muammoli vaziyat yig'indisini yuzaga keltiradigan faktlarni ilgari suradi. Ushbu ma'noda mavjud vaziyatda yuzaga kelgan u yoki bu muammoning hal qilinishi buyurtmachisi sifatida chiqadi. Boshqacha aytganda, siyosiy tahlilning ma'nosi va tuzilishi avval boshda subyektning tahliliy ta'rifi natijasida shakllanmaydi, "buyurtmachi"ning yaqqol yoki yaqqol bo'lmagan ta'siri ostida, ya'ni ushbu situatsiani hal qilinishi maqsadini beruvchi subyekt ta'sirida shakllanadi. Demak, texnolog-analitik vaziyatni izohlaydigan va alohida maqsadli yo'naltirilgan shaxs va shaxslar guruhi ehtiyojiga muvofiq amaliy tavsiyalarni shakllantiradigan mutaxassis sifatida chiqadi. Ayniqsa, texnologik bilimning ijtimoiy buyurtmaga bog'liqligi diagnostika va tavsiyalarni ifodalash bosqichida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, aynan bir siyosiy vaziyat tahlili turli muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu bilan bog'liq ravishda analitiklar vaziyatni turli nuqtai nazarlardan ko'rib chiqishi mumkin, bunda bi-ryoqlama masalalarni o'z oldiga ko'ndalang qo'yadi, oqibatda u yoki bu masalalarning turli yechimlarini taklif qiladi. Shunday bo'lsa-da, siyosiy tahlil tuzilishida buyurtmachining manfaati va pozitsiyasi muqarrar mavjud bo'ladiki, unda tashkiliy ravishda vaziyatni baholash baza tarkibiga kiradi va ma'lum darajada ekspert harakati

yo'nalishini oldindan belgilaydi. Mijoz manfaatiga bunday qaramlik siyosiy tahlil konyunkturligi emas, balki raqobatlashuvchi guruhlarining manfaatlarini qamrab oluvchi siyosiy vaziyatning bir yoqlama emasligidan kelib chiquvchi uning murakkabliligi va ko'p qirraliligi to'g'risida guvohlik beradi. Aynan analitik baholashning ilmiyligini va mijoz manfaatlarini xolis tarzda birlashtirish zarur. Real murakkab situatsiya doirasida shakklangan muammoni aniqlashga qaratilgan oriyentatsiya (ma'lum bir tomonga o'z harakatini yonaltirish) mohiyatan siyosiy tahlilni situatsion ilmiy tadqiqot shaqliga aylantiradi. Boshqacha aytganda, aniq siyosiy vaziyat uni tashkil etuvchi barcha aloqalari va hodisalar bilan birgalikda amaliy siyosat tahlilining bosh predmeti bo'lib chiqadi.

Siyosiy tahlil doirasida situatsiya (hodisa) o'z-o'zining mantiqi'ga, harakati manbalariga, o'sish chegaralari va boshqa parametrlariga ega yaxlitlik sifatida ko'rib chiqiladi. Bu ma'noda siyosiy tahlil minimum darajada kundalik voqeaning qaytarilmas stixiyali mantiqi'ning bayon va ratsionalizatsiyasini amalga oshirishi shart. Aynan aniq vaziyat (voqea) qo'yilgan vazifalar uchun talab qilinuvchi gipotetik, baholovchi, nazariy, tajribaviy, intuiativ, va boshqa bilim ko'rinishlarining munosabatlarini belgilaydi.

Siyosiy tahlilda bilim doimo ham universal ishonchlilikka egalik qilavermaydi, umuman olganda, umumlashgan xarakterga da'vogarlik qilmaydi, ammo mazmunan u qisman fan doirasidan chetga chiqishi mumkin.

Siyosiy tahlilning amaliy oriyentatsiyasi *vaziyatni tahlil qilishda ba'zi universal vazifalarni hal qilishni mo'ljallaydi*, ya'ni tashqi kontekst va voqealar chegarasida yuzaga kelgan shartlarning taqsimoti harakatdagi aktorlarning asosiy cheklovlarini ko'rsatuvchi situatsiyaning makon va zamon parametrlarini aniqlash, bu subyektlarning kuch munosabatlarinig bahosi; muhim aksiya va interaksiyalar; subyekt harakatiga ta'sir qiluvchi aniq fikrlar, sabablar va omillar, sodir bo'lgan voqealar oqibatlarini o'rganishni maqsad qiladi.

Siyosiy makonda yuzaga keladigan har qanday aniq vaziyatning o'ta murakkabliligi, unda turli aloqalar va munosabatlar mavjudligi, uni o'rganishda qo'llaniladigan usullar disiplinaryalararo xarakterga ega. Bunga bog'liq holda vaziyatning siyosiy bahosi odatda, subyekt harakatining turli jihatlarini tahlilining ruhiy, sotsiologik, antropologik

va madaniy hamda boshqa usullarini qo'llash, ular yordamida o'z qarashlari, asosiy o'zaro ta'sirlarni ishlab chiqarish va amalga oshirish orqali to'ldiriladi. Shining uchun vaziyatning amaliy tadqiqoti aniq vazifalar yechimi atrofida shakllanadigan *tizimli tahlilni* qo'llash asosida amalga oshiriladi. Siyosiy tahlilni qo'llashning asosiy qiyinchiliklari turli yondashuvlar va vaziyat tadqiqi texnikasini o'zaro bog'lash, sifat jihatdan turli metodikalarni tatbiq etish natijasida qo'lga kiritilgan xulosalar va axborotni birlashtira olish malakasiga bog'liq. Bundan tashqari, o'rganilayotgan masalaning izohiga oid aniq mezonlardan chetga chiqmaslik kerak. Muammo tadqiqining alohida murakkabliklari quyidagi holat bilan bog'langan: real fizik vaqt doirasida amalga oshiriladigan amaliy tahlilga ko'pincha ma'lum muammo yechimining qat'iy vaqt cheklovlari va vaziyatni boshqaradigan optimal texnologiyalarni tanlash ham ta'sir ko'rsatadi.

Ba'zan, muammoning analitik tahlili tezligi uning yechimida hal qiluvchi omil bo'ladi. Situatsiyani tahlil qilishda muvofiq metod va metodikalar ba'zida "tadqiqot texnikasi" deb ataladi. Hozirgi vaqtda mingdan ortiq bunday metodikalar ma'lum - oddiydan (masalan, kuzatish) ma'lumotlarning anchagina murakkab bazasi (masalan, ma'lumotlar bankini shakllantirish, ko'p mezonli shkalalarni yaratish, oddiy (check LISTS) va qiyin (indices) ko'rstakichlarni tuzish tipologiyasini (omil tahlili Q) yaratish va boshqalar. Quyida vaziyat tahlilining eng oddiy va imkoniy metodlari bilan tanishamiz.

Kuzatish

Axborot to'plashning eng oddiy va oson usuli kuzatish hisoblanadi. **Kuzatish** (fanda) tahlil qilinayotgan holatga muayyan ko'rsatkich ifodasini qayd qilish uchun instrumentni qo'llashdir. Kuzatish deyilganda, shuningdek, sotsial voqealar va jarayonlarning guvohlar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri registratsiyasi tushuniladi.

Kuzatish ko'rinishlari: bevosita, bilvosita (instrumental). Bevosita kuzatish tadqiqotchining qandaydir guruh faoliyatida ishtirokchi sifatidagi qatnashishini mo'ljallaydi. Ushbu metod elementlari kuzatish subyekti, obykti va kuzatish vositasi hisoblanadi. Bevosita kuzatish tashqi (parlament jurnalistlari va horijiy davlatlardagi jurnalistlar) va ichki (kuzatuvchi - voqeaning to'g'ridan-to'g'ri ishtirokchisi) bo'ladi.

Bilvosita kuzatish intervyu va anketalar o'tkazish yordamida qo'lga kiritilgan axborotlar asosida o'tkaziladi. Ushbu metodning kamchiligi

subyektivizm, kuzatuvchining mafkuraviy tarafdorligi va kuzatish vositalarining nomukammalligida ko‘rinadi.

Hujjatlarni o‘rganish

Hujjatlar tahlili birlamchi axborot to‘plash uchun keng ishlatiladigan metod. Olimlar har qanday qayd etilgan axborotni hujjat deb hisoblashadi. Axborot manbasidan kelib chiqib, hujjatlar birlamchi va ikkilamchi hujjatlarga bo‘linadi. Birlamchi hujjatlarda voqea bevosita qayd etiladi (qaydlar, kuzatish natijalari) va ikkilamchi hujjatlarda birlamchi hujjatlar yordamida qo‘lga kiritilgan axborotlar umumlashtiriladi (hisobotlar, xulosalar, statistik habarlar va boshqalar).

XM sohasidagi tadqiqotlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, “norasmiy” tadqiqotchida obyektiv axborot manbalaridan erkin foydalanish imkoniyati yo‘q (masalan, shtab tahlilchilari, xalqaro idoralar ekspertlari va havfsizlik organlari xodimlarida va boshqalarda).

Bunda bosh rolni u yoki bu rejimdagi davlat siri va xavfsizligi to‘g‘risidagi tasavvurlar o‘ynaydi. Boshqa muammolar sirasiga hujjatlarni qo‘lga kiritish, qayta ishlash va saqlash bilan bog‘liq mablag‘ yetishmasligi kiradi. Rasmiy hujjatlarni qo‘lga kiritish imkoniyati nisbatan osondir. Lekin norasmiy yozma, audio va vizual manbalar ham keng qo‘llaniladi. Ikonografik hujjatlar ham muhim rol o‘ynaydi (kartinalar, fotografiyalar, kinofilmlar, ko‘rgazmalar, shiorlar).

Qiyoslash

Qiyoslash metodi obyektning tafovuti yoki o‘xshashligi to‘g‘risidagi mulohazalarga asoslangan bilish jarayonidir. Qiyoslash yordamida ularning sifat va miqdor xarakteristikasi ochib beriladi. Metoddan foydalanishning bosh sharti – o‘rganilayotgan obyektning qiyosi uchun umumiy asosi (belgisi)ning mavjudligidir. Qiyosiy metodning yana bir turi qiyosiy-tarixiy metoddir. Uning yordamida bir hodisaning (masalan, davlat) yoki ma’lum umumiy asosga ega birgalikda mavjud voqeliklar taraqqiyotining turli bosqichlari anglanadi. Ushbu metod yordamida o‘rganilayotgan voqelik rivojlanishi tendensiyasini aniqlash mumkin.

XM fanida ushbu metod faqatgina 1960 - yillar o‘rtalarida jahondagi davlatlar va boshqa xalqaro aktorlar miqdorining o‘sishi natijasida qo‘llana boshlangan. Ushbu metodning asosiy yutug‘i XM

sohasida umumiy takrorlanuvchi umumiyliklarni qidirishga yo'naltirilganligidir. Davlatlar va ularning alohida belgilari (hudud, aholi, iqtisodiy taraqqiyot darajasi, harbiy salohiyat, chegaralar uzunligi va b.) XM fanidagi miqdoriy metodlar rivojini rag'batlantiradi. Qiyosiy tahlil hodisalarining noo'xshashligi va vaziyatlarning qaytarilmasligi asosida ilmiy ahamiyatga ega xulosalarni qo'lga kiritish imkoniyatini beradi. Politologiyaga qiyosiy metodni ilk marotaba Aristotel kiritgan. U 50 ga yaqin siyosiy qurilmalarning umumiy va farqli belgilarini ajratar ekan, ushbu metodni qo'llagan. Olim bevosita o'zi ishtirok etib yaratgan, turli davlatlar qurilishi va rivojlanishi ocherklari o'z ifodasini topgan 158 ta tarixiy monografiyalarning osha zamonning siyosiy holatini va rivojlanish hususiyatlari aks etgan hakikiy materiallarini tahlil qilgan.

Bugungi kunda siyosatshunoslar siyosat fenomenlarini qiyosiy tahlil qilishda o'xshashlik va farq tamoyillari, siyosiy institutlarning deduktiv nazariy modellari va ularning har doim ham batavsil bo'lmagan diaxron- tarixiy va sinxron funksional ma'lumot yig'ish usullari yordamidagi verifikratsiyasi induktiv metodlariga tayanadigan metodologik instrumentlarni qo'llaydi (masalan, S.Verba rahbarligida rivojlangan demokraytiyaning siyosiy elitalari tadqiq qilingan bo'lib, u faqatgina 3 mamlakat - AQSH, Shvetsiya va Yaponiyadan to'plangan ma'lumotlarga asoslangan).

60-yillar boshida bir vaqtning o'zida katta EHM, keyin PEHM va kompyuter setlarining paydo bo'lishi bilan amaliy jihatdan hammasini total ta'riflash uchun qiyoslanayotgan obyektlar yig'indisining deyarli, istisnosiz umumiy qayd etishga yo'naltirilgan statistik va boshqa ishonchli ma'lumotlarning sxematik qayta ishlanishiga asoslangan bir necha urinishlar amalga oshirildi. 1962-yil jahon politologiyasida o'ziga xos nom qoldirdi, shu yili AQSHda (bugungi kunda o'ziga xos transnatsional turdagi siyosatshunoslar "Makka"siga aylangan) siyosiy va ijtimoiy tadqiqotlar univrsitetlararo konsorsiumi jahon ma'lumotlar bazasi arxivi tuzildi (Enn-Arbor shahari, Michigan universiteti). Shu vaqtda jahondahi davlat va ijtimoiy-siyosoiy tizimlar komparativ tahlili bo'yicha 3 yirik loyiha ishi boshlandi.

1. Davlatlarning qiyosiy tahlili (rahbarlar A.Benks va R.Tekstor, Massachusetstexnologiya instituti va boshqalar);

2. Millatlar o'lchovlilik (T.Getskov va R.Rammel, Shimoliy-g'arbiy universitet va boshqalar);

3. Siyosiy ma'lumotlar to'plamining Yel dasturi (B.Rasset va X.Apker va boshqalar. Yel universiteti).

Miqdoriy hajmlar o'lchovi uchun indikatorlar tizimini qayta ishlash asosida sifat yondashuvlari yotadi. Masalan, Yel loyihasida 133 davlatning 50-yillar oxiri 60-yillar boshidagi ichki va tashqi siyosiy xulqining 75 o'lchov parametrlari amerikalik yirik nazariyotchi siyosatshunoslar - D.Dal, G.Lassuel, K.Doych va D.Lapalamba va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan, sifat modellari, strukturalari va konseptlari asosida tanlangan. Siyosiy ma'lumotlar bazasini yaratuvchilar doimo tadqiqotning bosh vazifasi "faktlarning o'lik arxivi"ni emas, eng avvalo, "harakatdagi laboratoriyani yaratish ekanini ta'kidlashgan. Rossiyada ham siyosat bo'yicha ilk ma'lumotlar bazasi paydo bo'ldi. Masalan, AQSH siyosiy elitasi, AQSH va Kanada institutlarida "Aelita" ma'lumotlar bazasini yaratish bo'yicha ish olib borildi. Rossiya Federatsiyasida "Siyosiy partiyalar" (Rossiya siyosiy partiyalari) bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratish yuzasidan ish olib borildi. Ammo G'arbdagi siyosiy tizim axborotlarini ishlab chiqish holati bilan qiyoslansa, rus tadqiqotlari hali boshlang'ich bosqichda ekanligi kuzatiladi.

Senariylar metodi

Senariylar metodi - miqdoriy va sifat yondashuvlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tashkil etish va ko'rib chiqilgan bashorat qilish metodlarini birlashtirish uchun yaxshi vositadir. Senariylar metodi faktorlar o'zgarishidan ta'sirlanuvchi bashorat qilinayotgan voqealar rivojining muqobil variantlarini oldindan ko'rishga imkon beradi. Senariylar metodini qo'llashda ekspert (sifat) va tahliliy metodlar ishlatiladi. Shuning uchun senariylar metodini prognozlashda tahliliy metodlarni qo'llashning davomi va rivoji deb hisoblash mumkin (nisbatan yuqori bosqichi). Ma'lumki, tasavvur va intuitsiya turbulentlik muhiti sharoitida reallikni sezishning kuzatilgan faktlarga asoslangan miqdoriy yondashuvlarni to'ldiradigan asosiy instrumenti bo'lishi mumkin. Boshqa tomondan, tushunarli, sifat metodi uchun anchagina xavflar xos va intuitsiya imkonini boricha fakt va bilimlar yordamida tekshirilishi kerak. Shunday qilib, ikki yondashuvlarning taqqosini ta'minlash kerak, zotan, ular senariylar metodida ko'zda tutilgan.

Senariy quyidagi tarzda aniqlanishi mumkin: e'tiborga molik asosiy kalit sababiy omillar namoyishi va dastlabki so'rovga ta'sur qilishi mumkin bo'lgan bu omillarning aniqlanish usullari. Amalda prognozlashning senariy metodi hodisalar rivojining alternativ yo'llarini aniqlash va har bir oqibatning realizatsiyasi imkoniyatini aniqlashdan iborat bo'ladi.

Senariyni ishlab chiqish quyidagi algoritm asosida olib boriladi:

1. O'tmishdagi voqealar evolyutsiyasini o'rganish va voqealar rivoji qonuniyatlarini topish.

2. Prognoz obyektiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash (sifat tahlili orqali). Prognoz obyekti va prognoz fonining umumiy o'zaro aloqadorligini aks ettiradigan konseptual prognoz modelini yaratish.

3. Ushbu obyekt va omillar o'rtasidagi aloqa zichgili va shaklini aniqlash (korrelyatsion-regressiv tahlil orqali). Prognoz modelini aniqlashtirish. (Prognozlash obyektining o'zgarishi jarayonini miqdor va sifat jihatdan tasvirlash (ta'riflash) omillar o'zgarishiga (qaysi yo'nalishda, qanday templar bilan, qanchalik o'zgaryapti) bog'liq ravishda.

4. Omillar o'zgarishining muqobil variantlarini (o'zgarish ehtimolligini aniqlash bilan birga) va unga muvofiq prognoz obyekti o'zgarishini ko'rib chiqish.

5. Voqealar rivojining turli senariylarini kompleks tavsiflash (optimistik, pessimistik, ko'proq ishonarli va kamroq ishonarli). Senariylar metodi murakkab va ko'p omilli voqealarni (masalan, raqobatchilar harakatini prognozlash) o'rganishdagi prognozlashning amaldagi yagona metodi (agar sifat metodini hisobga olmasa) hisoblanadi.

SEMINAR

Ma'ruza va munozaralar uchun mavzular:

1. Siyosiy tahlil
2. Kuzatish
3. Hujjatlarni o'rganish
4. Qiyoslash
5. Senariylar metodi

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Дегтярев А.А. Основы политической теории: Учеб. пособие / Ин-т "Открытое о-во". - М.: Высш. шк., 1998.
2. Соловьев А. И. Политология. Политическая теория. Политические технологии – М.: Аспект пресс, 2005.

3. *Цыганков П.А. Теория международных отношений – М.: Гардарики, 2003.*
4. *Политология. Под ред. М. Н. Марченко – Изд. «Зерцало», 1999.*
5. <http://www.auditorium.ru>
6. <http://www.intertrends.ru/four/002/htm>
7. <http://www/jahon.mfa.uz>
8. <http://www.uza.uz>

8- Ma'ruza: So'rov ma'lumotlarni to'plash metodi sifatida

Reja:

1. *Ijtimoiy fanlar metodologiyasida "so'rov" tushunchasining mazmuni*
2. *So'rovni o'tkazish bosqichlari*
3. *So'rov konseptualizatsiyasi va sxematizatsiyasi*
4. *Instrumentariyani tayyorlash va so'rovni rejalashtirish*
5. *Ma'lumotlarning ikkilamchi tahlili*

Tayanch so'z va iboralar:

So'rov, respondent, kesishuvchi tekshiruv, longityud so'rovi, trend so'rov, kogort tekshirish, yo'lka tekshiruvi, instrumentariy, anketa, intervyu blankasi, ikkilamchi tahlil.

Ijtimoiy fanlar metodologiyasida "so'rov" tushunchasining mazmuni

Siyosiy jarayon va vaziyatlarni o'rganishda ba'zan biz fuqarolar, manfaatdor shaxslar, ishtirokchilardan bevosita olingan axborotlarni to'plash zaruriyatiga to'qnash kelamiz. Ko'pincha insonlarning nima haqida o'ylashi, qanday harakat qilishi to'g'risida ma'lumot olishning eng yaxshi (ba'zan yagona) usuli oddiygina qilib ulardan bu haqda so'rashdan iborat. Ushbu fakti tan olish natijasida ijtimoiy fanlarda so'rov metodi keng tarqaldi.

So'rov-ma'lumotlar to'plash metodi bo'lib, bunda tadqiqotchi aholining saralangan vakillaridan bevosita axborotga ega bo'ladi. Bunda insonlar shunday saralanishi kerakki, ularning javoblariga asoslanib, yetarli ishonch bilan butun aholi yoki uning qandaydir qismi haqida xulosa qilish mumkin bo'ladi. Bunday axborot yuzmayuz yoki telefon intervyusi, yohud anketa-so'rovnomanini to'ldirish yordamida qo'lga kiritilishi mumkin, bunda anketalar ularga pochta yoki so'rovni o'tkazuvchi shaxs tomonidan yetkazib beriladi. Bu usullar umumiy metod sifatidagi so'rovning tarkibiy qismidir. Savollarga javob beruvchi shaxslar **respondent** deyiladi.

So'rov tadqiqotchiga besh tipdagi ma'lumotni yetkazib beradi: faktlar, bilim, fikr, munosabat va respondentlarning xulqi hisoboti. So'rovda tushunchalar operatsionalizatsiyasi vositasi sifatida savollar xizmat qiladi, kuzatuv esa respondentning bu savollarga javobini

qayd etishdan iborat. Shuning uchun bu metod unda tahlil birliklari individ bo'lgan va asosiy tushunchalari individ bilan bog'liq bo'lgan tadqiqotlarga to'g'ri keladi.

So'rovni o'tkazish bosqichlari

So'rov tadqiqoti 14 asosiy jarayonlardan iborat. Amaliyotda bir qator jarayonlar bir vaqtning o'zida birdan o'tkazilishi mumkin va tadqiqotchi so'rov chog'ida zaruriyatga qarab u yoki bu jarayonga qaytishga yoki aksincha, oldingi bosqichga sakrab o'tishga haqqi bor. So'rov bosqichlari quyidagicha tavsiflanishi mumkin:

1. Konseptualizatsiya- tadqiqot maqsadini aniqlash, farazni ilgari surish, tushunchani aniqlash, ushbu so'rovda (operatsionalizatsiya) ularning operatsional muvofiqligini topish.

2. Sxematizatsiya-so'rov chog'ida qo'llanishi shart bo'lgan jarayonlarni o'rnatish, talab qilingan tanlov xarakteri haqida qaror qabul qilish.

3. Instrumentariyani tayyorlash-anketa yoki intervyu blankalarini tuzish, savollar tartibi va sonini aniqlash zarur, ko'rsatmali qurollar va boshqa yordamchi vositalarni tayyorlash.

4. Rejalashtirish-so'rov o'tkazish bilan bog'liq moliyaviy, ma'muriy, moddiy-texnik va kadr muammolarini ko'rib chiqish.

5. Tanlovni tuzish-ushbu tadqiqot maqsadi va vositalari uchun to'g'ri keluvchi metodlarga muvofiq mo'ljallangan respondentlarni saralab olish.

6. Instruktar-respondent bilan ishlash va ma'limotlarni qayta ishlash uchun shaxs so'roviga xizmat qiluvchi intervyu oluvchilar, kodirovkalovchilar va boshqa xizmatchilarni tayyorlash, personalni zarur moddiy vositalar bilan ta'minlash.

7. Dastlabki testni o'tkazish-respondentlarni instruksiya va savolni to'g'ri anglaganini hamda ular javoblarini kutilayotgan javoblar tiplariga mosligini tekshirish maqsadida kichik o'lchovli tanlovlarda saralangan instrumentariyani sinash.

8. So'rov-tajribaga oid instrumentariyalarni qo'llash bilan tanlov ishtirokchilari bilan pochta, telefonli va yuzma-yuz so'rov o'tkazish.

9. So'rovni kuzatish (monitoring) - so'rayotganlarda metodikasi to'g'ri qo'llanishini tekshirish, shuningdek faqat tanlov ishtirokchilarida so'rov o'tkazishni nazorat qilish (respondent so'rovni rad

qilgan taqdirda intervyu qaydlarini tekshirish, telefon intervyularini eshitish).

10. Nazorat tekshiruvi (respondent bilan qo'shimcha aloqa orqali) tanlov a'zolari haqiqatda so'rovga qatnashganini va ularning barchasi anketani qaytib berganini tekshirish.

11. Kodlashtirish-to'plangan ma'lumotlarni raqamli shaklga aylantirish.

12. Qayta ishlash-ma'lumotlarni tahlil uchun tayyorlash.

13. Tahlil-mazmunli xulosalarni qo'lga kiritish maqsadida statistik va boshqa vositalar yordamida ma'lumotlarni qayta ishlash.

14. Hisobotni tuzish-tadqiqot hisoboti shaklida tahlil natijalarini bayon qilish.

So'rov konseptualizatsiyasi va sxematizatsiyasi

Bu bosqichda empirik o'rganish uchun oson erishish imkoniyati bo'lgan umumiy tadqiqot masalasidan aniq masala to'plamiga o'tish jarayoni yuz beradi. Bunda muhokama qilingan jarayonlardan konseptualizatsiya jarayoni shu bilan farqlanadiki, so'rov holatida tushuncha operatsionalizatsiyasi ma'limotlar to'plashning aniq metodikasi bilan bog'liq bo'lishi kerak. Konseptualizatsiya bosqichida qabul qilingan qarorlar keyingi bosqichlar: so'rov sxematizatsiyasi va tanlovni yaratish uchun ham g'oyatda ahamiyatlidir. Masalan, aholining qaysi guruhiga mos kelishi haqida qaror qabul qilar ekanmiz, bu yo'l bilan biz bo'lajak tanlovimizning taxminiy chegaralarini belgilaymiz. Maqsadlariga ko'ra, so'rov qidiruv, tavsiflovchi, izohlovchi turlarga bo'linadi. Bu turlardagi ma'lumotlar yuzma-yuz intervyu, pochta va ommaviy anketa yordamida qo'lga kiritiladi. So'rovni tayyorlashdagi ilk qadamlar so'rov maqsadi to'g'risida qaror qabul qilish va bu maqsad uchun to'g'ri keluvchi ma'lumotlarni tanlashdan iborat.

Navbatdagi qadam sifatida so'rovni uyushtirish usulini tanlab olishdir. Bunda oldimizda turgan asosiy dilemma-tekshiruvning kesishuvchi yoki uzunlik sxemalaridan afzalini tanlashdan iborat. **Kesishuvchi tekshiruv** turli voqealarning bir vaqtda olingan ma'lumotlarni taqqoslashga asoslangan tekshiruv. Unda ma'lumotlar to'plami faqat bir marta o'tkaziladi. Reprezentativ saralash sharoitida u aholi guruhi va bu guruhlardagi o'zgaruvchanlar o'rtasidagi munosabatlarni *qat'iy belgilangan vaqt momentida* tavsiflashga imkon beradi, ammo bizni bu guruhlar rivojini vaqt mobaynida

ko'rish imkoniyatidan mahrum qiladi. Kesishuvchi so'rov bizga go'yoki harakatlanuvchi obyektning lahzalik rasmini beradi.

Uzunlik longityud so'rovida ma'limotlarni to'plash bir martadan ko'p o'tkaziladi. **Longityud so'rov** - turli vaqt lahzalarida olingan bir harakatning elementlari yoki berilgan ko'plik voqealarning belgilarini qiyoslashga imkon beradigan so'rov. Uzunlik so'rovining asosiy ko'rinishlari - *trend, kogort va panel tekshirish*.

Trend tekshirish ayni bir tarkibdagi jamoa vakillaridan iborat har xil tanlov guruhleri turli vaqtlarda tanlovdan o'tkaziladi (masalan, Kanzas shtati saylovchilari orasidan). Bunday so'rovda har gal *turli* shaxslar ishtirok etishi mumkin, ammo jami tekshiruv natijalari *umuman* ayni bir majmua rivoji tendensiyasini reprezentativ ravishda aks ettiradi, chunki har bir to'g'ri tuzilgan tanlov ushbu majmuaning har qanday boshqa tanloviga ekvivalent bo'ladi.

Kogort tekshiruv - aholining ma'lum guruhlarida turli vaqtlarda takrorlanadigan so'rov o'tkazish turi (masalan, ma'lum yilda tug'ilgan insonlar). Bu tekshiruv trend tekshiruvdan shu bilan farqlanadiki, trend tekshiruv aholining yirik guruhleri yoki umuman aholi bo'yi-cha reprezentativdir (masalan, Amerika ayollari, fransuz saylovchilari, Jazoir talabalari majmui), kogort tekshiruv *xususiy spesifik guruhleri*ni o'rganishga mo'ljallangan.

Panel tekshiruv o'rganilayotgan obyektlarning *ayni bir guruhi* ustidan *turli* vaqt lahzalarida kuzatishlar seriyasini o'tkazadigan tekshiruv.

Panel tekshiruvda vaqtning turli lahzalarida taftish qilinadigan aynan bir saralov guruhidan foydalaniladi. Bu holat guruhning qaysi a'zosiga o'zgarishlar ta'sir qilganini ko'rishga va bu o'zgarish bilan bog'liq tarzda shaxs xususiyatlari va respondent tajribasini aniqlashga imkon beradi.

Longityud tekshiruvning maxsus tipi *eksperimental tekshiruv* hisoblanadi, unda tadqiqotchi birinchi va ikkinchi so'rovlar o'rtasidagi vaqt oralig'ida bir yoki bir necha o'zgaruvchanelardagi o'zgarishlarni yuzaga keltiradi yohud mustaqil o'zgaruvchanelarning ba'zi kutilayotgan o'zgarishigacha yoki undan keyingi vaqtda so'rovni jadallashtiradi (masalan, mamlakatning yangi prezidendi saylovigacha va undan keyingi davr).

Bunday tekshirishdan maydon eksperimenti sifatida foydalanish mumkin va u yoki bu hukumat siyosatini baholashda ayniqsa foydali bo'lishi mumkin.

Instrumentariyani tayyorlash va so'rovni rejalashtirish

So'rovninig qaysi sxemasini tanlashimizga qaramay, har qanday holatda zarur o'lvhovlarni qo'lg'a kiritish uchun ishchi vosita sifatida ishlatiladigan savollar tizimini ishlab chiqishimiz kerak. Bu jarayon konseptualizatsiya bosqichida boshlangan tushunchalar operatsionalizatsiyasi jarayonining davomi bo'lib, uning maqsadi so'rov *instrumentariyasini*, ya'ni respondent mustaqil to'ldiradigan **anketa** blankasi yohud intervyu oluvchi tomonidan intervyu jarayonida to'ldiriladigan **intervyu blankasidan** iborat.

Instrumentariyani ishlab chiqishda tadqiqotchi a) mazmun; b) tip; c) shakl ; d) og'zaki ifoda ; e) savollar tartibiga e'tibor qaratishi kerak. Anketa nisbatan qisqa bo'lishi kerak. Yuzma-yuz intervyu qoidaga ko'ra 45 minutdan, telefon intervyu esa 20 minutdan ko'p bo'lmasligi shart. Pochta orqali jo'natiladigan intervyu esa 4 sahifadan oshmasligi shart. Qisqalikka intilish, savolni ifodalash zaruriyatidan ustun bo'lmasligi shart, chunki bu, ma'lumotlarni tahlil qilishda paydo bo'luvchi raqobatlashuvchi gipotezalarni inkor qilishda zarur bo'ladi. Ushbu muammoni yechish uchun ikki umumiy qoidaga rioya qilish mumkin. Birinchidan, so'rov orqali o'rganilayotgan gipoteza yoki tadqiqot savollari sonini minimumga yetkazish kerak, bu axborotni qo'lg'a kiritishda zarur o'zgaruvchanlar sonini cheklashga imkon beradi. Ikkinchidan, savollarni tanlashda avval, ma'lumotlarning rejalashtirilayotgan tahlilda ahamiyati noaniq bo'lganlarini chiqarib tashlash zarur.

Savol tipi ehtimoliy javoblarning ochiq yoki yopiq to'plamli ekanligi bilan belgilanadi. **Ochiq imkoniyatli savollar** yoki **ochiq savolda** respondent o'z so'zlari bilan javob beradi, tashqaridan hech qanday javob varianti yuklanmaydi. Masalan, fikringizcha, bu yilgi mahalliy saylovlarda eng muhim muammo nima bo'ladi? Ehtimoliy javobli yopiq to'plamdagi savolga yoki yopiq savolga javob berishda respondent anketada keltirilgan cheklangan variantlardan birini tanlashi shart. Bu tipdagi savollar qiyoslash va keyingi qayta ishlash uchun qulaydir. Ular ishga taalluqli bo'lmagan javoblarning paydo bo'lish imkoniyatini inkor qiladi. Masalan, o'zingizni kim deb hisoblaysiz?

1) konservator; 2) mo'tadil; 3) liberal.

Javob variantlari *to'la* (barcha taxmin qilinishi mumkin bo'lgan javoblarni o'z ichiga olishi shart) va *o'zaro istisno qiluvchi* (har bir savolda birdan ko'p bo'lmagan javob variantiga yo'l qo'yiladi)

savollar yig'indisidan iborat bo'lishi shart. Bundan tashqari, respondentga muhim bo'lgan holatlarda javoblarida o'z bahosi *darajasini* aks ettirish imkonini berish kerak, yuqorida bayon qilingan ikki tipdagi savollar o'rtasidagi tanlov biz uchun qulay ma'lumotlar ishlanmasi vositalari (ochiq savolllar yanada murakkab ishlanmani talab qiladi), predmet haqida ham nazariy, ham amaliy bilimlar hisobga olinib amalga oshiriladi (yopiq savollar predmet haqida yaxshi ma'lumotga egalikni talab etadi).

Savol *shakli* uning namoyishi usuliga oiddir. So'rovning «og'zaki (yozma) savol og'zaki (yozma) javob» nisbatan oddiy shaklidan tashqari bir qator usullar mavjud bo'lib, ular respondentga nima haqida so'ralayotganini tushunishga va javob berishda *ongli* tanlovni amalga oshirishga yordam beradi. Ko'p usullar sxemalar, yozuvli fotografiyalar va tasvirli rasmlar kabi ko'rgazmali qurollarni qo'llash bilan bo'g'liq. Misol – “sezgi termometri”.

Savolni to'g'ri so'z bilan shakllantirish so'rovninig muvaffaqiyatida hal qiluvchi omil bo'lib chiqadi. Sizni qiziqtirgan savolni aniq shakllantira olmasangiz, qo'lga kiritilgan javob farazingizni tekshirish uchun terilgan kerakli ma'lumotlarga to'g'ri kelmaydi.

Biz ishonchli va aniq natijalarni ta'minlashga qodir so'rov bandlarini tuzishninig ba'zi umumiy qoidalarini taklif qilishimiz mumkin.

Birinchidan, tadqiqot mazmuniga zarar etkazmaydigan barcha holatlarda, avvalgi tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishlatilgan tushuncha va savollarni kiritishga harakat qiling.

Ikkinchidan, so'rov ro'yhatiga biror savolni kiritishdan oldin respondent bu savolga javob berishi uchun zarur bilimlarga egaligini tekshirib ko'ring.

Uchinchidan, ko'pincha savoldan ko'ra predmet to'g'risidagi tasdiqlar foydaliroq bo'ladi. Bunda tadqiqotchi respondentning tasdiqlar seriyasi bilan kaisi darajada rozi yoki rozi emasligini so'raydi, unda tadqiqotchini qiziqtiruvchi savol bo'yicha turli nuqtai nazarlarni aks ettirgan shaklda saralangan tasdiqlar mavjud bo'ladi.

To'rtinchidan, tasdiqlarni savollar o'rni ga ishlatar ekanmiz, shuni bilingki, respondentlar ko'pincha tadqiqotchi tasdiqlariga o'zining shaxsiy nuqtai nazariga qaramasdan qo'shilish odatiga ega bo'ladi. Bu qonuniyat *javob tendensiyasi* deb ataladi, u hisobga olinmagan so'rov bandlarida javob tendensiyasiga siljish paydo bo'ladi.

Beshinchidan, so'rovning yagona bandi yordami bilan o'zgaruvchan o'lchovi natijalarning aralashib ketishiga olib kelishi mumkin. Umu- man, harakatlar uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan munosabatlar mezonida so'rovning bir qancha bandlaridan birdaniga foydalanish va indeks yoki shkalani shakllantirish yanada maqsadga muvofiq. Tadqiqotchi so'rovning alohida bandlarini tuzishdan tashdaqi so'rov instrumentariyasini tashkil etish to'g'risida ham o'ylashi shart. Haqiqiy anketa va intervyu blankalari odatda, 4 asosiy qismdan iborat bo'ladi: kirish qismi, mashq uchun bir necha savollar, asosiy savollar, biografik savollar. Keyingi navbatda *instrumentariya formati* juda mi- him. Qog'ozga anketa yoki intervyu blankasini joylashtirishning ma'lum qoidalari mavjud.

Birinchi qoidaga ko'ra, sahifada *so'rov bandlari zich joylashmasligi kerak*. So'rov instrumentariyasining har bir sahifasida iloji boricha ko'proq bo'sh joy qoldiring. Bunda birinchi duch keladigan asosiy ma- sala *oldindan kodlashtirilgan instrumentdan* foydalanish masalasidir. Kodlashtirish asosida so'z shaklida qayd qilingan javoblarni son orqali berilishi yotadi. Dastlabki kodlashtirilgan so'rov instrumentida har bir savolga allaqachon o'zining son belgisi qo'yilgan. Instrumentariyaga tayyorgarlik ko'rishning tugashi intervyu oluvchining so'rov instrumen- tini aniq va tartibli to'ldirilishini ta'minlaydigan dastlabki instruksiyani tuzish bilan amalga oshiriladi.

So'rovning navbatdagi bosqichi, tanlovni yaratish va rejalashtirish. Rejalashtirish bosqichi birinchidan, kelgusi so'rov tipi to'g'risida qaror qabul qilish, ikkinchidan, so'rovning moddiy-texnik ta'minot masala- larini ishlab chiqish, uchinchidan, so'rovni moliyalashtirish masala- larini ishlab chiqishlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqot muammosi xarak- teri so'rovning qaysi tipi zarurligi bilan aniqlanadi, ammo qaysi tipni qo'llash mumkinligi muvofiq moddiy vositalarning borligi yoki qo'lga kiritilishi osonligi bilan belgilanadi. So'rov amaliyoti bizga 4 asosiy tipni tanlash imkoniyatini beradi: *yuzma-yuz intervyu, telefon intervyu- si, pochta anketasi va matbuot orqali so'rov*.

Ma'lumotlarning ikkilamchi tahlili

Ko'pgina siyosatshunoslarning o'zlari so'rovni o'tkazishmaydi, chunki ko'pincha moliyaviy qo'llab-quvvatlashni topish qiyin kechadi, shuningdek, boshqalar tomonidan to'plangan so'rov ma'lumotlarini qo'llab, u yoki bu tadqiqot savollariga javob berish- ning to'la imkoniyati yo'q. Boshqalar tomonidan to'plangan ma'lumotlarni o'rganish **ikkilamchi tahlil** deb ataladi. So'rovlarning

katta mablag‘talabligi sababli bunday so‘rov odatiy bo‘lib, hattoki, ba‘zan bir qator sabablar tufayli istalgan so‘rov turidir. Deyarli har qanday so‘rov natijalari avvalboshdanoq tadqiqotchi hech qayerda foydalanmagan ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi, ular o‘rganilayotgan masalaga bilvosita aloqador bo‘ladi. Qandaydir boshqa tadqiqotchi mazkur ma‘lumotlar u shug‘ullanayotgan masala uchun to‘g‘ri keladi, degan xulosaga kelishi mumkin.

Shunday qilib, ikkilamchi tahlil ma‘lumotlardan yanada to‘la foydalanishni ta‘minlaydi va axborot yetarli bo‘lgani uchun mablag‘larni tejashga yordam beradi. Ikkinchidan, so‘rovlar o‘zida aholi kontaminatsiyasi xavfini olib yuradi. Buning ma‘nosi ayni bir aholi guruhi o‘rtasida ayni bir voqeani qayta-qayta tadqiq qilish bu voqelikdagi o‘zgarishni yuzaga keltirishi mumkin yoki odamlarning kelgusi so‘rovda ishtirok etmaslik istagi paydo bo‘lishiga olib keladi.

Qo‘shimcha tadqiqotlarni talab qilmasdan, ikkilamchi tahlil bunday kontaminatsiyaga olib kelish imkoniyatini yo‘qotadi. Uchinchidan, ikkilamchi tahlilda tadqiqotchi ushbu ma‘lumotlarni o‘rganishda bo‘lak yoki yangi metodlarni tatbiq qilishi mumkin, bu balki uning predmetni anglash imkoniyatini kengaytirishi yoki hattoki dastlabki tadqiqot savollariga boshqacha javob berishiga olib keladi. Ikkilamchi tahlilning eng samarali yondashuvi shundan iboratki, avval, tadqiqot savolini tanlash uchun gipoteza verifikatsiyasini ishlab chiqish, keyin esa bu gipotezalarni verifikatsiyasi uchun zarur ma‘lumotlarga ega yakunlangan tadqiqotni izlash bilan shug‘ullanadi.

Ma‘lumotlar korpusiga qo‘yilgan ilk talab shundan iboratki, aholi guruhlarining *ayni vazifalari uchun relevant tanloviga asoslangan* bo‘lishi kerak, ikkinchi talab shuki, so‘rovlar instrumenti verifikatsiya qilishi zarur bo‘lgan gipotezalarga kiruvchi hal qiluvchi o‘zgaruvchanliklar operatsionalizatsiyasining ushbu vazifasi uchun relevantlikka ega bo‘ladi. Agar, masalan, tadqiqotda asosiy o‘rinni oq tanlilar va negrlar o‘rtasidagi farq muammosi egallasa, ma‘lumotlarning birlamchi korpusida irqiy tavofutni oq tanli va oq tanli bo‘lmaganlar o‘rtasidagi farq sifatida qayd qilinadi, bu korpusni mazkur tadqiqot doirasida o‘rganish hech qanday natija bermaydi, chunki oq tanli bo‘lmaganlar guruhiga negrlardan tashqari boshqa irqiy guruhlar ham kiradi (meksikaliklar, hindular va boshqalar).

U yoki bu tadqiqot bizga mos kelishi-kelmasligini qanday aniqlash mumkin?

Avvalo, yaxshi tadqiqot hisobotlarida asosiy o‘zgaruvchanlar operatsionalizatsiyasi tavsiflanadi va tadqiqotda qaysi tanlovdan foydala-

nilganligi ko'rsatiladi. Keyin, kitob va jurnal maqolalarida ba'zan tadqiqot maqsadlari uchun ma'lumotlar korpusi yaroqliligini muhokama qilishadi. Shuning uchun adabiyotlarni o'rganish ikkilamchi tahlil uchun muhim manbalardan biri hisoblanadi va nihoyat, bizni qiziqtirayotgan tadqiqot muallifiga bevosita murojaat qilishimiz mumkin.

Ikkilamchi tahlildagi ma'lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo'lish va aniqlashning yanada tizimli va ishonchli yo'li, ma'lumotlarni to'plovchi muassasalardan iboratdir, ya'ni masalan, kutubxonalar kitob yig'ish bilan shug'ullanadi. Bunday muassasalar *ma'lumotlar arxivi* deb ataladi. Bu muassasalar keyingi qidiruvni osonlashtirish maqsadida ma'lumotlarni tasniflash bilan shug'ullanadi, shuningdek, ma'lumotlarni to'plash doirasida birlamchi tadqiqotga aloqasi yo'q ma'lumotlarni tadqiqotchilar uchun qulay shaklga o'tkazadi. Har bir muassasalarda mavjud qo'lga kiritilayotgan so'rov ma'lumotlarining umumiy tavsifi va ro'yhatini nashr etadi. Agar bu ro'yhatlardan bizni qiziqtiruvchi tadqiqotni topsak, kodlar kitobi bo'yicha ularning biz uchun ahamiyatlilik darajasini aniqlasak bo'ladi. Unda so'rov chog'ida berilgan barcha savollar ko'rsatiladi va javobni kodlash usuli sharhlanadi. Bu esa gipotezalarimiz bilan mazkur tadqiqot operatsionalizatsiyasining muvofiqligi darajasini baholashga imkon beradi.

Lekin so'rov salohiyatini to'la ahglash uchun asosan so'rovning negizlarini tashkil etuvchi intervyu jarayoni bilan, shuningdek, shkala texnikasi bilan ta'minlanuvchi ma'lumotlarning paydo bo'lishi imkoniyati bilan yaqindan tanishish zarur.

SEMINAR

Ma'ruzalar uchun mavzular:

1. "So'rov" tushunchasining mohiyati
2. So'rovni o'tkazish bosqichlari
3. So'rov konseptualizatsiyasi va sxematizatsiyasi
4. Instrumentariyani tayyorlash va so'rovni rejalashtirish

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Джарол Б.Мангейм, Ричард К.Рич. Политология. Методы исследования.
2. <http://www.auditorium.ru>
3. <http://www.intertrends.ru/four/002/htm>
4. <http://www.globalresearch.ca>
5. <http://www.cer.uz>

9- Ma'ruza: Intervyu jarayoni

Reja:

1. *Intervyu haqida tushuncha*
2. *Savollar tuzish*
3. *Intervyu oluvchilar tanlovi*
4. *Yo'naltirilgan intervyu*
5. *Maxsus intervyu jarayoni*

Tayanch so'z va iboralar:

Intervyu, yo'naltirilgan intervyu, maxsus intervyu.

Intervyu haqida tushuncha

Yuzma-yuz olib borilgan intervyu bir vaqtning o'zida siyosatshunos-olim uchun zarur ma'lumot to'plashning eng yaxshi va yomon usulidir. Uning eng katta kamchiligi tadqiqot natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi respondentning javob reaksiyasi uchun intervyu olish vaziyatining haddan ziyod imkoniyatlari ko'pligi bilan bog'liq. Biroq tadqiqotchi kutilayotgan reaktivlik paydo bo'lishi darajasini minimumga tushirishi va so'rovning ishonchliligini oshirish uchun ma'lum ishlarni amalga oshirishi kerak.

Kundalik amaliyotda asosan politolog yo'naltirilgan va saralangan intervyu turidan foydalanadi. Intervyuning bu ikki turi kuzatuvchidan har xil ko'nikmalar va har xil metodikalarni talab qiladi. Ammo tavsiyalar uning amaliy tajribasi o'rnini bosa olmaydi, chunki so'rovning olib borilishi, xuddi ijtimoiy fanlardagi boshqa narsalar kabi san'at hisoblanadi.

Ixtiyoriy so'rovda effektiv bo'lgan metodlar va so'rov texnikasi tadqiqot turi va respondentlar xarakteriga bog'liq ravishda o'zgarishi mumkin. Shuning uchun ko'p holatlarda qo'llash mumkin bo'lgan intervyuning ba'zi umumiy qoidalarini taklif etish mumkin.

Asosan boshida bo'lajak respondentga pochta orqali otkritka yuborish va unga muhim ilmiy tadqiqot munosabati bilan intervyu o'tkazilishini xabar qilish zarur. Bunday usul respondentda ishonch uyg'otadi va uning intervyuga rozilik berishi imkoniyatini oshiradi.

Tadqiqot so'rov boshlanishidan avval quyidagilarni tekshirib ko'rish kerak:

a) so‘rov boshlanishidan oldin har bir intervyu oluvchi shaxs respondentga tadqiqot mazmunini oddiy shaklda tushuntirib beradigan va darhol so‘rovga olishga imkon beradigan standart “kirish so‘zi”ga ega bo‘lishi kerak;

b) har bir intervyu oluvchi shaxsda tavsiyanoma va hujjat bo‘lishi kerak, u respondent istaganda intervyu oluvchining shaxsini va kelish maqsadini tekshirish uchun zarur bo‘ladi;

c) bu masala yuzasidan bo‘lishi mumkin bo‘lgan telefon go‘ng‘roqlariga nima deb javob berishni bilishlari kerak. Mahalliy xavfsizlik xodimlari bu intervyudan ogohlantirilib qo‘yilgan bo‘lishlari kerak. Bunda intervyu davomida intervyu oluvchi shaxsdan quyidagi qoidalarga amal qilish so‘raladi:

1. Har bir intervyuning boshlanishi va tugashi vaqti albatta blankada belgilangan bo‘lishi shart.

2. Barcha to‘ldirilgan blankalar intervyu oluvchi shaxs tomonidan imzolangan bo‘lishi kerak, agar intervyu oluvchi shaxsning kodi bo‘lsa, blankaga kod qo‘yilgan bo‘lishi shart.

3. O‘rtada ishonch paydo bo‘lishi uchun respondentning ko‘ziga tik qarashga harakat qilish kerak.

4. Intervyu tempini sekinlashtirmaslik uchun, keyingi savol berilayotganda avvalgi savolning javobi qayd qilinishi kerak.

5. Javoblarni iloji boricha respondentga bildirmagan holatda qayd qilib borish.

6. Barcha savollarni intervyu oluvchi shaxsning o‘zi o‘qishi va barcha javoblarni o‘zi qayd qilishi kerak. Respondentning shaxsan o‘ziga savol varaqasini to‘ldirishga ruxsat bermaslik kerak.

7. Agarda javoblarning qo‘shimcha izohlarini yozib olish kerak bo‘lsa, unda uni qisqacha shaklda emas, balki respondent qo‘l-layotgan so‘zlar bilan yozib qo‘yish kerak.

8. Agar respondent noaniq javob berayotgan bo‘lsa, undan aniq javob olishga harakat qilish kerak.

9. Agar respondent javob berish jarayonida har xil oldi-qochdi so‘zlar, masalan, “ha, lekin...” kabilarni qo‘llasa, unda respondentning bunday bahosi javob kabi qayd etilishi kerak.

10. Agar savolga loyiq, mos javobni olish uchun oldindan hozirlanishga zarurat tug‘ilsa, unda intervyu oluvchi shaxs bunda yordam beruvchi savollarni blankaga kiritishi kerak. Yaxshi ishlab chiqilgan

intervyularda bunday holatlar kerak bo'lgan har bir savol uchun ko'rsatiladi (masalan, "nima uchun quyidagicha bo'ladi...?").

11. Bir vaqtning o'zida bir kishidan ortiq shaxsdan intervyu olishga harakat qilmaslik kerak.

12. Intervyuni respondent bilan yuzma-yuz bo'lgan holda olib borish zarur. Agar shu vaqtda yana birov ishtirok etish fikrida turib olsa, unda oldindan aralashmaslikni shart qilib qo'yish kerak. Agarda kimdir respondentning dastlabki fikrini o'zgartirsa, bu, respondentning oldingi bergan javobini o'zgartirishga sabab bo'la olmaydi.

13. Intervyu oluvchi shaxs respondentga tadqiqot predmetini muhokama qilishga bo'lgan da'vatiga amal qilmasligi kerak, chunki bu, respondentning berilayotgan javoblariga ta'sir qilishi mumkin.

14. Agar savol shakli yoki javob varianti respondentda biron-bir qarshilik tug'ilshiga olib kelsa, unda intervyur oluvchi respondentga bunday savollar blankada berilganligini va intervyu savollarini o'zgartirishga haqli emasligini tushuntirishi kerak.

15. Respondent qarshilik bildirgan savollar blanka chekkasida belgilanib borilishi kerak, chunki ular keyinchalik asqotishi mumkin.

16. Faqatgina boshlang'ich javoblar qayd qilinishi kerak. Respondent keyingi savolni eshita turib, qayd qilingan avvalgi javobning o'zgartirilishini so'ragan taqdirda ham, bu mumkin emasligini aytish kerak.

17. Agar respondent "Men bilmayman..." degan javobni bersa ham, ikkinchi savolni berishga shoshilmang, chunki bu gap javobning kirish qismida bo'lishi mumkin (masalan, "Bilmayman, ..., menimcha...").

18. Hech qachon savol tartibi yoki shakli o'zgartirilmaydi.

19. Hech qachon respondentga berilgan savolga boshqa respondentlar (agar buni uning o'zi so'rasa ham) qanday javob berganini ma'lum qilmaslik kerak.

20. Hech qachon xotirangizga asoslanib so'rov olib bormang. So'rov blankasi intervyu oluvchi ko'z oldida bo'lishi kerak va savolni esga solish uchun bir qarab olish zarur bo'lganda ham blankaga murojaat qilish darkor.

21. Intervyu tugatilib, respondentga javob berishdan oldin, barcha savollarga to'liq javob olindimi yoki yo'qmi, amin bo'lish uchun yana bir bor intervyu varaqasiga ko'z yugurtiriladi. Varaqada javobsiz bo'sh joy qolmasligi uchun respondentdan yuqorida qolib ketgan savollarga to'liq javob olish kerak.

Savollarni tuzish

Agar tadqiqotchi intervyuni aniq ko'rsatmalar bilan ta'minlab, savollarni puxta tuzgan bo'lsa, ish intervyu oluvchi uchun anchagina oson ko'chadi. To'g'ri berilgan savol intervyu oluvchini ko'pincha ortiqcha muammolardan xalos qiladi. Savollarning qaysi ifodalanishlari to'g'ri, qaysilari noto'g'ri ekanligini aniq ko'rsatmalar bilan belgilab olish mumkin emas. Ammo qochish mumkin bo'lgan ba'zi tipik xatolarni ko'rsatish kerak.

1. *Haddan ortiq uzunlik.* Agar savolni ifodalashning o'ziga xos qoidasi mavjud bo'lsa, unda bu kommunikativ aloqada foydaliroq bo'lgan savolning qisqaroq shaklidan foydalanishdan iborat.

2. *Noaniqlilik.* Savolni qisqartirishga intilish noaniqlilik va to'liqsiz ifodaga olib kelmasligi zarur. Savol axborotlarni to'la ifodalaganligiga amin bo'lish uchun, respondentdan aniq va to'liq javob olish uchun siz o'z-o'zingizga savol berib ko'ring: Respondent savolga savol bilan javob bermasmikan?

3. Ikki yoqlama fikr. Noaniqlilikning eng xavfli shakli ikki yoqlama savolda yashiringan. Bunday savolga esa ko'pincha kerakli javobni olish qiyin kechadi. Chunki bunday savollar o'z ichida ikkita mustaqil savollarni mujassamlashtiradi.

4. *Tarafkashlilik.* Savol shunday tuzilgan bo'lishi mumkinki, unga berilgan javob boshqa bir savolga zarar yetkazishi mumkin. Odatda bunday savollar ta'sirli savollar deyiladi. Tarafkashlikdan qochish uchun esa neytral so'zlar tanlash muhim o'rin tutadi.

5. *Inkoriy xarakterdagi tasdiqlar.* So'rov o'tkazish tajribalarida shular ma'lum bo'ldiki, respondent ko'p hollarda ularning asl fikrini aks ettirmagan holda tasdiqlovchi javobni beradilar. Masalan, "Sizningcha AQSH Vetnamning reparatsiyasini to'lamasligi kerak, deb o'ylaysizmi?" kabi savollar.

6. *Ishonchlilik.* Gohida savolni oldindan tushuntirish talab qilinadi, unda muayyan nuqtai nazarda turib olish xato hisoblanadi.

7. *Dabdabalilik bo'g'ini.* Respondentga noma'lum bo'lgan atamalar kerakli axborotni olishga xalaqit qiladi.

8. *Jargonli uslub.* Norasmiy shaklni ifodalash uchun, gohida chegaradan chiqib ketish mumkin. Birinchidan, so'rov respondentga malakasiz tuzilgandek tuyulishi mumkin. Ikkinchidan, jargondan foydalanish respondentni (agar u jargonni yoqtirmasa) ranjitishi

mumkin. Bundan tashqari, agar respondent va intervyu oluvchi jar-
gonni har xil tushunishsa, bu ular o'rtasida o'zaro tushunmovchilikni
keltirib chiqaradi.

9. *Standart javoblarga moyillik.* Qaltis mavzuda savol berilgan-
da, ayrim hollarda ifoda vaqtida qiyinchiliklar tug'ilishi mumkin.
Agar savolga tanqidiy va negativ javoblar kutiladigan bo'lsa, unda
bunday savollarni pozitiv javob kutiladigan savollar bilan aralash-
tirishga harakat qiling.

10. *Qiyinchilik tug'diradigan javob.*

Ko'pchilik odamlar ijtimoiy jihatdan siyosiy masalalarda o'z fikriga
ega bo'lmalik aybli ish deb o'ylaganliklari sababli, avval hech qachon
o'ylab ko'rmagan mavzu yuzasidan o'z fikrini bayon qilishadi. Bunga
yo'l qo'ymaslik uchun ehtimoliy javoblar orasida "aniq fikrga ega
emasman" degan shakldagi javobni kiritish yoki shaxsiy fikrning
yo'qligi mumkin ko'ringan shakldagi savollarni tuzish kerak.

Intervyu oluvchilar tanlovi

Malakali politologlar nafaqat o'zlari so'rov o'tkazishadi, balki
ko'pincha so'rov o'tkazishga boshqa insonlarni ham jalb qilishga
majbur bo'lishadi. Intervyu oluvchilarni tanlash va tayyorlashning
avvalombor, ko'zda tutilmagan ta'sirchanliklarning oldini olishga
mo'ljallangan ikkita asosiy prinsipi mavjud.

1. So'rovchi o'zini kamtar tutishi va respondentda hech qanaqa
qo'rquv hissini uyg'otmasligi kerak. So'rovchining tashqi ko'rinishi
uning shaxsiy moyilligi va ijtimoiy tegishliligini ko'rsatmasligi kerak.

2. So'rov paytida intervyu oluvchi o'zini sovuqqon, shu bilan
birga, ochiq va muloyim tutishi kerak.

3. Idealdagi intervyu oluvchi ishda vijdonli, ishonchli, puxta va
shaxsiy muloqotda mulozamatli va tinch bo'lishi kerak.

Bu sifatlarni keyingi intervyu ustida olib boriladigan ishda
hisobga olish zarurdir.

Biroq, shunday holatlar ham mavjudki, zo'r malakaga ega bo'l-
gan intervyu oluvchi ham tadqiqotchiga zarur bo'lgan ma'lumotlarni
to'play olmasligi mumkin.

Bu holatda tadqiqotchi o'zi so'rovni boshqarishi va o'ziga xos
metodlarni qo'llanishi zarur bo'ladi.

Yo'naltirilgan intervyular

Politologiyada ko'pgina muhim ilmiy savollar mavjudki, ularga faqatgina aniq bir odamlar va odam tiplari (tor doiradagi mutaxassislar) muvofiq vaziyatlarda qanday yo'l tutishlarini aniqlabgina javob olish mumkin. Bunday savollarga javob topish uchun odatda aholida om-maviy tekshiruv o'tkazilmasdan, balki orasida guruh-elitaga mo'ljal-langan intervyu o'tkaziladi. Bunda so'z yuritilayotgan odamlar ilmiy ishimiz maqsadlari uchun muhim bo'lgan ma'lumotlarga egadirlar. Bunday intervyuni olishda individual yondashuv talab qilinadi. Ularning elitaga oidlik mavqeini ularning jamiyatdagi ro'li emas, balki tadqiqot uchun zarur ma'lumotlarga egaliklari belgilaydi (ular odatda siyosatda, jamiyat hayotida va iqtisodiy hayotda muhim ro'l o'ynashadi). **Yo'naltirilgan intervyu** olish - respondentdan spesifik ma'lumot olishni maqsad qiluvchi intervyu olish yo'li orqali ma'lumotlar to'plash turidir.

Saralangan intervyu va yo'naltirilgan intervyu orasidagi asosiy farq so'rov jarayonini standartlashtirish darajasiga bog'liq bo'ladi. Saralangan tekshiruv har bir respondentga bir xil munosabatda bo'lishni taqazo etadi. Yo'naltirilgan so'rovda esa har bir respondent alohida e'tiborni talab qiladi. Bu so'rovning maqsadi oldindan xoslangan ma'lumotni olish emas, balki ba'zi bir voqeani qayta tiklash yoki alohida tipdagi harakatning qonuniyatlarini aniqlashga yordam beruvchi ma'lumotni qo'lga kiritishdan iborat.

Yo'naltirilgan va saralangan, aniq rejalashtirilgan, so'rovga asoslangan intervyu. Yo'naltirilgan intervyu o'rtasidagi ikkinchi asosiy farq shundaki, saralangan intervyuda oldindan belgilangan reja bo'ladi, yo'naltirilgan intervyuda esa ko'pincha reja bo'lmaydi. Intervyuning qat'iy o'rnatilgan rejasi respondentga beriladigan savollar va ularning tartibi belgilangan bo'lib, ular o'zgarishi mumkin emas. Umuman rejalashtirilmagan intervyuda so'rovchi umumiy vazifalar bo'yicha savollar beradi. Unda oldindan tayyorlab qo'yilgan savollar ro'yxati bo'lmaydi. Reja asosida olingan intervyu yuqori darajada standartlashtirilgan natijalarni olish afzalligiga ega. Bu, har xil respondentlarning javoblarini taqqoslash va ularni keyingi qayta ishlanishiga yordam beradi. Biroq intervyuni batafsil rejalashtirishning o'ziga xos kamchiliklari ham bor: u o'rganilayotgan hodisani tushunishda zarur bo'lgan, ammo tadqiqotchi fikriga ko'ra oldindan shakllangan ma'lumotlar orqali olinayotgan ma'lumotlarni chegaralaydi. Rejalashtirish tadqiqotchining nazariy fikrlashi

imkoniyatlarini va respondent nimani muhim va ahamiyatli deb hisoblashini chegaralaydi.

Rejalashtirilmagan intervyu, aksincha, ko'proq qiyin qiyoslana-digan, qisqa bayon qilinadigan va qiyinchilik bilan jamlanadigan natijalarni keltirib chiqaradi. Biroq bunday intervyu uyushtirilganda, respondentdan o'rganilayotgan voqea haqida rejalashtirilmagan (kutil-magan) ma'lumotlarni olish imkoniyati borki, natijada qarashlarimiz butunlay o'zgarib ketishi mumkin. Rejasiz metod alohida spesifik guruhlardan intervyu olish uchun mos hisoblanadi, chunki bunday so'rovda tadqiqotchini respondent tadqiqotning bu predmeti uchun muhim va relevant deb hisoblagan ma'lumotlari qiziqtiradi. Va aynan respondentning mulohazasi tadqiqotchi uchun kerakli bo'lgan ma'lu-motlarni olishda yordam beradigan keyingi savollarni berishga yetak-laydi. Intervyu oluvchi uchun faktlarning va qonuniyatlarning aniqlanishi oldindan voqealarning o'lehoviga qaraganda muhimdir.

Yo'naltirilgan intervyu aniq bir siyosiy voqeani tushunishda katta yordam beradigan va boshqacha yo'l bilan olib bo'lmaydigan muhim ma'lumotni tadqiqotchiga yetkazib beradi. Shu bilan birga, yo'nal-tirilgan intervyu natijasida ilmiy jihatdan real havf tug'iladi. U biror bir siyosiy jarayon haqidagi tadqiqotchi fikrini jarayonga bevosita bog'liq bo'lgan insonlar fikri asosida shakllantirishini nazarda tutadi.

Bu yo'l orqali olingan ma'lumot quyidagi holda shubha uyg'o-tadi, agar respondent:

1) ko'rilayotgan voqeaga shunday tor ma'noda qaraydiki, uning izohida nima muhim yoki muhim emasligini baholash imkoniga ega bo'lmaydi;

2) noaniq ma'lumotga ega (voqeaning biror-bir jihatini tushunmaganligi yoki muhim detallarni unutganligi sababli);

3) o'zining harakatini ratsionallashtirishga harakat qilib, aslida boshqacha vaziyat bo'lgani holda hamma narsa o'zi aytayotganday ekanligiga o'z-o'zini ishonitiradi;

4) o'zini yoki boshqalarni himoya qilish uchun qastdan aldash.

Yo'naltirilgan intervyu davomida asossiz xulosa qilishdan qochish uchun bir qancha qoidalarga amal qilish kerak.

Birinchidan, intervyu olinayotgan shaxsga hech qachon faktning mazmunini qo'shimcha qilib aytmang, ko'proq uning aytgan gapi fakt bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, hech qachon bir respondent berayotgan ma'lumotlarga suyanmang, xulosa qilishdan oldin har bir voqea haqida imkon qadar ko'p respondentlardan ma'lumot to'plashga harakat qiling.

Uchinchidan, elita so'rovidan olingan ma'lumotni tekshirib ko'rish uchun barcha imkoniyatlarni qidiring, ularni boshqa manbalardan olingan ma'lumotlar bilan solishtiring.

To'rtinchidan, predmetni shu qadar yaxshi bilingki, uning muhokamasi vaqtida noto'g'ri mulohazalarni darhol aniqlash va javoblarda ma'lumotning burilishi uchun sabab bo'ladigan ehtimoliy manbalarni aniqlash malakasiga ega bo'ling va nihoyat, intervyuda qatnashuvchi shaxs qo'llash mumkin bo'lgan "spetsifik leksikon yuzasidan ehtiyot bo'lish kerak, chunki turli "so'zchalar" gapning aniq ko'rinib turgan ma'nosini o'zgartirishi mumkin.

Intervyu natijalariga asoslanib, projektzni to'liq planlashtirib, yoki oldindan mablag' bilan ta'minlash xavfli. Intervyu ma'lumotlari faqatgina muhim yordamchi metodlarning biri bo'lishi mumkin, lekin eng asosiylaridan biri emas. Mazkur metod kamchiligini kamaytirish uchun yo'naltirilgan intervyu ma'lumotlariga asoslangan, istalgan tadqiqot rejasi yonida yordamchi plan tayyor turishi kerak. Ya'ni yo'naltirilgan intervyu ma'lumotlari umuman noinformativ bo'lib chiqsa, qo'llash uchun qo'shimcha metodika zarur bo'ladi.

Bu kamchiliklarga qaramasdan, yo'naltirilgan intervyu orqali katta salohiyatga ega predmetni yaxshi biladigan odamlardan kelayotgan ma'lumotlar bu predmetni hushyor nazariy tushunish o'rnini bosmasligini yodda tutish kerak.

Intervyuda respondent tanlash ham bir muammo hisoblanadi. Yo'naltirilgan so'rov davomida potensial respondent bu tadqiqot uchun qanchalik foydali ekaniga va ularning qo'lidagi ma'lumotlar qanchalik muhimligiga asoslanish kerak. Potensial respondentlar tanlangach ulardan intervyu olish tartibi haqida savol ko'ndalang turadi.

Birinchidan, intervyuda bizni qiziqtirgan bir qancha hodisalar uchun javob berishi nisbatan afzal ko'rilgan shaxslarni so'rov dan o'tkazish kerak.

Birinchi o'rinda, o'rganilayotgan hodisaga nisbatan tarfakash bo'lgan respondentlarni va neytral qarashli respondentlarni so'rovdan o'tkazish kerak. Bu respondentlarga mazkur so'rov dastlabki, qidiruv xarakteriga ega ekanligini va siz keyinchalik - barcha savollarni aniqlab,

javoblarni qanday izohlash kerakligini aniqlaganing izdan so'ng bu savolga qaytishingiz ehtimoldan yiroq emasligini ayting.

Ikkinchidan, so'rovning birinchi bosqichlari keyingi tekshiruvga zarar yetkazmasligiga e'tibor qaratish muhim. Imkon qadar birinchi navbatda dissidentlar, muxolifat yo'lboshchilari, ekstremistlar yoki dominant koalitsiya vakillarini so'rovdan o'tkazishdan qochish kerak, chunki bu holat boshqa respondentlar qulog'iga yetib borsa, ularni cho'chitib qo'yishi yoki so'rovga dushmanona qarashiga sabab bo'lishi mumkin.

Intervyuni tashkil etishda quyidagi tavsiyalar asqotishi mumkin:

1) so'rovdan oldin albatta (telefon orqali yoki pochta orqali) so'rov vaqtini kelishib oling. Saralangan so'rovdagi kabi to'satdan paydo bo'lmang;

2) intervyu respondentini ko'ndirish uchun, uning sekretari yoki yordamchisi bilan emas, balki shaxsan o'zi bilan gaplashing;

3) intervyuning maqsadini batafsil izohlashdan o'zingizni tiying, bu sizning respondentingizda sizni o'zining ekspert xodimlaridan biriga jo'natish istagini uyg'otishi mumkin;

4) har doimo rad javobining sababini aniqlash va imkon qadar ularni bartaraf etishga harakat qiling;

5) doimo o'zingiz bilan so'rov homiysi va sizning shaxsingizni tasdiqlovchi hujjatlaringizni oling (ehtimoliy tushunmovchiliklar oldini olish uchun).

Yo'naltirilgan so'rovni olib borishda saralov so'rovidan farqli ravishda ko'proq rang-baranglik va moslanuvchanlikni namoyon qilish kerak. Biroq ko'p hollarda mos keladigan bir necha umumiy maslahatlarni taklif qilish mumkin.

1) Intervyu boshida albatta o'zingizni tanishtiring va tadqiqotingiz vazifalari haqida qisqacha tushuntirish olib boring.

2) Intervyu olinayotgan joy hal qiluvchi o'rinni tutadi. Imkon qadar chalg'ituvchi omillarni istisno qilish kerak. Biroq intervyuni odatdan tashqarida bo'lgan joylarda o'tkazish (park, avtobus, muzey) foydaliroqdir. Bu holat respondentga erkin atmosferani his qilish va o'tmishdagi voqealarni eslashga yordam beradi.

3) Guruh bilan o'tkazilgan intervyu, ba'zi faktlarni baholashda konsensusga erishishga hamda guruhdagi shaxsiy munosabatlarni aniqlashga imkoniyat yaratsa-da, bir vaqtning o'zida faqat bir respondent bilan interviyu o'tkazgan ma'qul.

4) Intervyuni o‘ylab, do‘stona (ohangda) o‘tkazishga harakat qiling. Savollarning hammasini birdaniga ketma-ket berib tashlamang. Tanaffus qilishdan qo‘rqmang, o‘zingizga ham, respondentga ham fikrlarni to‘plab olishga sharoit yarating.

5) Qaysi savolni birinchi bo‘lib berishingiz haqida puxta o‘ylang. Intervyuning asosiy qismi rejaga asoslanmaganligi sababli birlamchi bir necha savollar o‘ta muhim, chunki ular respondent diqqatini jamlaydi, uning xotirasini rag‘batlantiradi va undan aynan nimani istayotganligingizni namoyon qiladi. Boshlang‘ich savollar quyidagicha bo‘lishi kerak: a) tadqiqotingiz vazifalariga bevosita bog‘liq; b) respondent hech qanday xavfsiz javob bera oladigan darajada neytral; c) savol shunday shakllantirilgan bo‘lishi kerakki, respondent intervyu oluvchi tadqiqot predmeti bilan yaxshi tanishligini ko‘rishi kerak; d) quruq emas, balki erkin va bemalol javoblarni taqozo etadigan shaklda (agar sizga respondent haqida haqiqiy ma‘lumotlar kerak bo‘lsa, siz intervyu davomida keyinroq bu ma‘lumotlarni olishga ulgirasiz. Kirish savollari sifatida, ayniqsa, respondentning o‘rganilayotgan hodisaga munosabati yoki bu hodisani tushunish holatiga qaratilgan savollar foydali bo‘ladi.

6) Saralangan intervyudan farqli ravishda yo‘naltirilgan intervyu ko‘p sonli sharhlarga yo‘l qo‘yishi kerak. Bir narsani doimo yodingizga tuting. Sizning vazifangiz - respondentlar hodisa haqida nimani o‘ylashadi; u bilan bog‘liq nimani his qilishadi - shularni aniqlashingiz kerak.

7) Kerakli javobni olish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri savoldan tashqari biror-bir izohdan foydalanish mumkin.

8) Doim respondent ko‘ziga tik qarashga urining: (agarda unda bu noxushlik uyg‘otmasa, albatta). Bu, sizning respondentga nisbatan e‘tiborsiz emasligingizni bildiradi. Respondent uning ma‘lumoti sizga haqiqatan yordam berayotganini bildirishga harakat qiling.

9) Respondentlarning izohlari qanaqa bo‘lishidan qat‘iy nazar fikriga qo‘shilgan ma‘qul. Uning fikriga qo‘shilmasligingizni yoki u keltirgan faktlardan shubhalanayotganingizni ko‘rsatmang.

10) Respondent sizga xabardor bo‘lgani holda ma‘lumotni berishni istamagan hollar 9-qoidadan istisnoli yuzaga keltiradi. Bunda “Nadelya” metodikasini qo‘llash mumkin. Unda so‘rov o‘tkazuvchi respondentning tanqidchisi yoki taqrizchisi rolini o‘ynaydi va uni gapirtirish maqsadida respondentning tezislari shubha bildiradi va inkor etishga harakat qiladi. Kerakli ma‘lumotni olish uchun hattoki ma‘lum miqdordagi dushmanona munosabat ham yordam beradi.

11) Respondent bir xil hollarda axborot berishdan qochishga urinadi. Bunday vaziyatda unga so'rov qat'iy konfidensial xarakterga egaligini eslatish va tadqiqotchi yuzaga kelgan vaziyatga ta'sir o'tkazishga qodir emasligini aytib, ba'zan respondentni qo'rqudan xalos qilishi mumkin.

12) Intervyu jarayonida qayd qilib borish, uning natijaviyligini yanada oshiradi.

13) Respondentning o'zini tutish uslubiga va xulq-atvoriga moslanishga harakat qiling. Intervyuni oldindan qanaqa uslubda olib borishni qat'y belgilab bo'lmaydi. Bu respondent bilan aloqaga kirishilgandan keyin ma'lum bo'ladi.

14) Intervyudan so'ng albatta, darhol o'z qaydlaringizni ko'rib chiqing. Bu sizga umumiy to'xtab o'tilgan bandlarni qayta ishlab, ularga o'z izohlaringizni yozib olish uchun kerak.

15) O'z qo'lyozmangizni iloji boricha tezroq mashinkada bosib chiqing. Bir nechta nusxaga ko'paytirib, ularni yo'qotib qo'ymaslik uchun alohida joylarda saqlang.

So'roq vaqtida magnitofondan foydalanishning ijobiy tomoni ham, salbiy tomoni ham mavjud. Tadqiqotchi magnitofon ishlatishi yoki ishlatmasligi haqida qaror qilishdan oldin, respondentning xulq-atvorini va qanaqa savol turidan foydalanayotganini nazarda tutgan holda ish tutish zarur. Magnitofon ishlatilayotganda uni yashirmang va shunday joylashtiringki, respondentning ko'z oldida bo'lsin. Uni oldindan tekshirib, ayni ishga mos kelishiga ishonch hosil qiling. Hech qachon faqat magnitofonga ishonmang. Doimo so'rov davomida magnitofon bilan birgalikda qo'lingizda yozib boring. Nihoyat, yo'naltirilgan so'rovdagi muhim muammo - bu uning konfidensialligidir. Saralangan so'rovga qaraganda yo'naltirilgan so'rovda konfidensiallikning o'rni, ro'li muhim hisoblanadi. Tadqiqotchi intervyyuning konfidensialligiga kafolat bergan holda butun kuchini axborotning sirliligini saqlashga sarflashi kerak. Begona shaxslarga so'rov materialari bilan tanishishga yo'l qo'yilmaydi.

Maxsus intervyu

Tadqiqotlarning ba'zi turlarida politologlar anchagina tor doira-ning tipik vakillaridan olingan ma'lumotga muhtoj bo'ladilar. Bu esa maxsus intervyu o'tkazish zaruratini ko'rsatadi. Respondentlarning ma'lum o'ziga xosliklari sababli biron-bir boshqa so'rov texnikasini talab etuvchi har qanday so'rov **maxsus intervyu** hisoblanadi. Bolalarni so'rovdan o'tkazish, savodsiz yoshi ulug'lar, sudlanganlar,

daydilar, ingliz tilida gapira olmaydigan immigrant-ishchilar – bularning barchasi maxsus so‘rovga misol bo‘la oladi. Bu so‘rov sara-
langan so‘rov usulidan bir qancha xususiyatlariga ko‘ra farq qiladi.

Birinchidan, maxsus so‘rov davomida respondent va tadqiqotchi turli xil tillarda gaplashishlari mumkin. Tadqiqotchi tomonidan ishlatilayotgan ba’zi so‘zlar respondentga tushunarsiz bo‘lishi mumkin.

Maxsus so‘rovning farqlanadigan ikkinchi bir tomoni shundaki, tadqiqotchi respondentdan o‘qish, mulohaza qilish yoki boshqa bir fikrning rivojlanishini kuzatib borish malakalarini, ya’ni oddiy madaniy kishiga xos ko‘nikmalarni kutishga haqli emas.

Maxsus intervyu davomida tadqiqotchi bilan respondent o‘rta-
sidagi muloqot jarayoniga maxsus so‘rovning o‘zi alohida o‘ziga xoslik baxsh etadi. Respondent so‘rovchini hukumat vakili deb qabul qilib, ishonchsizlik bildirishi, hatto dushmanona munosabatda bo‘lishi mumkin. Bunday sharoitlarda muloqot qiyinchilik bilan kecha-
di, javoblar ishonchliligi darajasi ham pasayadi.

Shu sababli tadqiqotchi maxsus so‘rovda respondent bilan me’yoriy muloqot o‘z-o‘zidan o‘rnatiladi, deb o‘ylamasligi kerak. Aksincha, respondent bilan muloqot asta-sekin o‘rnatilishi kerak va faqatgina muloqot o‘rnatilganiga ishonch hosil qilingach, so‘rovga o‘tishi mumkin. Intervyu sotsiyolog uchun ma’lumotlarning boy manbai bo‘lishi mumkin. Ammo effektiv bo‘lishi uchun intervyu olish tadqiqotchidan artistlik mahoratini talab etadi. Hech qanday adabiyot bunda amaliy tajriba o‘rnini bosa olmaydi.

SEMINAR

Ma’ruzalar mavzusi:

1. Intervyu haqida tushuncha: tanlangan intervyular
2. Savollar ifodasi
3. Yo‘naltirilgan intervyu
4. Maxsus intervyu

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Джарол Б.Мангейм, Ричард К.Рич. Политология. Методы исследования.
2. <http://www.intertrends.ru/four/002/htm>
3. <http://www.transatlantictrens.org>
4. <http://www/jahon.mfa.uz>

10- Ma'ruza: Manbalar va yig'ma ma'lumotlarni qo'llash

Reja:

1. *Ma'lumot manbalari haqida asosiy tushunchalar*
2. *Yig'ma ma'lumotlarning turlari va ulardan foydalanishdagi muammolar*
3. *Jamlanma ma'lumotlarning manbalari*

Tayanch so'z va iboralar:

Yig'ma manbalar, jami ko'rsatkichlar, sistemali ko'rsatkichlar, hududiy guruhlar, demografik guruhlar, qayta ishlanmagan ma'lumotlar, indeks, additiv indeks, multiplikativ indeks, hisoblangan indeks, standartlashtirish, ma'lumotlarni qayta shakllantirish.

Ma'lumotlar manbalari haqida asosiy tushunchalar

Xalqaro aloqalarga oid tadqiqotlarda alohida individlar obyekt bo'lib xizmat qila olmaydi, politologga guruhlar yoki odamlar jamoalarini o'rganishga to'g'ri keladi. Masalan, amerikalik saylovchilar majmui, Markaziy Osiyodagi fermer xo'jaligi, Yapon byurokratiyasi va shunga o'xshash yana bir qancha misollar singari.

Bu guruhlarini o'rganib chiqish uchun biz ularning alohida a'zolaridan yoki ularning tanlangan reprezentativ vakillari haqida ma'lumot to'plashimiz va keyin *guruh haqida* to'liq axborotga ega bo'lishimiz uchun ularni *birlashtirishimiz* yoki *jamlashimiz* kerak. Biroq guruh haqida ko'pincha umumiy ma'lumot allaqachon mavjud bo'ladi. Guruh yoki individlar jamoasi haqida xarakteristika beruvchi ma'lumotlar **yig'ma ma'lumotlar** to'plami deb aytiladi.

Yig'ma ma'lumotlarning ikki turi mavjud. Bularidan birinchisi **miqdorli ko'rsatkichlardir**. Bunga guruhning barcha a'zolari haqida ma'lumot to'plab, uni umumiy lashtirib (masalan, davlat aholisi haqida) hosil qilinadigan guruh belgilarining o'lchovlari yig'indisi kiradi. Tug'ilish ko'rsatkichi, o'lim, jinoyat, savodxonlik, bularning barchasi alohida mutanosib hodisalarni (o'lim, tug'ilish, jinoyat va b.) birlashtirish va ularni standartlashtirilgan birliklarda ifodalash (masalan, aholining ming kishiga hisobiga nisbatan) orqali olinadigan yig'ma ko'rsatkichlardir. Har gal yig'ma ma'lumotlar qandaydir *guruh belgisi* miqdorini aks ettiradiki, bunda guruh a'zolari alohida olinganida bu belgiga ega bo'lishmaydi.

Yig'ma ma'lumotlarning ikkinchi turiga quyidagi o'lchovlar kiradi. Bular guruh belgisining miqdor belgisini ko'rsatadi, ammo bunda alohida guruh a'zolarining belgilari birlashtirilmaydi, balki guruhning tizim xususiyatidan kelib chiqadigan guruh belgisining miqdori nazarda tutiladi. Bunday o'lchovlar ko'pincha tizim ko'rsatkichlar deb nomlanadi. **Tizim ko'rsatkich** – guruhning yaxlitlikdagi biror belgisi yoki xususiyatining o'lchovidir. Masalan, boshqaruv shakli – tizim o'zgaruvchanliklaridir.

Qayd etilgan va turli tipdagi guruhlariga oid bo'lgan yig'ma ma'lumotlar turlarini bir qator manbalardan olish mumkin. Guruhlarni ikki kategoriyaga bo'lish mumkin: **hududiy guruhlar** (muayyan geografik rayon chegaralarida guruh a'zolarining yashashi bilan aniqlanadi) va **demografik guruhlar** (guruh a'zolarining shaxsiy belgilari bilan, masalan, irqiga yoki kasbiga qarab belgilanadi).

Yig'ma ma'lumotlarning qo'llanishi individual ma'lumotlar (ya'ni individual holatlarga oid bo'lgan)ni qo'lga kiritish mumkin bo'lmasa yoki juda qimmatlik qilganida zarur yoki muvofiq deb topilishi mumkin.

Yig'ma ma'lumotlarning turlari va ulardan foylanishdagi muammolar

Siyosatchilar q'ollaetgan yigma ma'lumotlarning k'opismi odatda siyosatchilar tomonidan emas va tadqiqot maksadi uchun yigilmagan. K'opincha ular anik siyosiy tadqiqotga fakat bilvosita munosabatda. Yigma ma'lumotlar tahlilini olib boraetganda eng qiyini mavjud ma'lumotlardan tadqiqotchini bevosita qiziqtiradigan tushunchalarning ko'rsatkichlari sifatida foydalana bilishdadir.

Yig'mama'lumotlar ko'pincha alohida qiziqish o'yg'otmaydi, shu sababli tadqiqotda foydali tarzda qo'llanilishi uchun ularning ustida ishlash kerak bo'ladi. Validligi va ishonchligini kamayib borishi tartibida quyida keltirilgan yig'ma ma'lumotlarning oltita tipi mavjud:

1. *Ro'yxat ma'lumotlari* (senz ma'lumotlari). Senz ma'lumotlarining bir qator xususiyatlari mavjud bo'lib, ular shu sababli politologik tahlil uchun qimmatlidir.

A) ularda xatolar uchrasa-da, umuman olganda, ro'yxat ma'lumotlari ishonchlidir.

B) ro'yxat bilan o'lchanadigan o'zgaruvchanlik odatda oddiy bo'ladi. Shuning uchun ma'lumotlari yuqori validli hisoblanadi.

C) ba'zi davlatlarda nisbatan standartlashtirilgan ma'lumotlarni to'plash ko'p yillardan beri davom etyapti. Shunday qilib, ro'yxat ma'lumotlari tarixiy tendensiyalarni aniqlash va gipotezalarni vaqtlardagi turli o'zgarishlarni tekshirish imkoniyatini beradi.

D) senz ma'lumotlari o'zaro qiyoslanishi mumkin va shu sababli davlatlar, shaharlar yoki regionlarni taqqoslashda anchagina foydali bo'ladi. Bundan tashqari, ularni qo'lga kiritish oson.

2. *Rasmiy doiraga tegishli statistika* (har xil davlat boshqaruv organlari statistikasi, korxonalar, kasaba uyushmalari va boshqa statistikalar). Agar bunday ma'lumotlar ma'lum siyosiy tadqiqot talablariga javob bersa, ular katta foyda keltirishi mumkin. Ammo turli muammolar tug'ilishi mumkin. Birlamchi va eng muhim muammo ma'lumotga erishish imkoniyati muammosidir. Ayrim uyushmalar o'z muammolarini sirli deb bilishadi va ularni istar-istamas berishadi. Yana bir narsada muammo bo'lishi mumkin: ma'lumotlarning mazmun va sifatini taqqoslashni hamda umumlashtirishni qiyinlashishida. Va nihoyat, ma'lumotlar qayta ishlash uchun noq'ulay formada bo'lishi mumkin. Shunday bo'lsa-da, yig'ma ma'lumotlardan foydalanish unga sarflangan harakatlarga arziydi.

3. *Tanlov so'rovlari*. Yig'ma ma'lumotlarning afzalligi - agar ular savodli to'plangan bo'lsa, yuqori darajada ishonchli va validlidir, bunda validlik darajasi tadqiqotchining yangi ko'rsatkichlarni qo'lga kiritish malakasiga bog'liq bo'ladi. so'rov ma'lumotlari, umuman olganda, foydalanish uchun qulay shaklda qo'lga kiritish oson (ularni ma'lum miqdordagi mablag' evaziga olish mumkin).

4. *Nashrlar mundariyasi*. Yig'ma ma'lumotlarni biror tashkilot tomonidan moliyalashtiriladigan yoki uning a'zolari orasida tarqatiladigan nashrlar va o'rganilayotgan mamlakatlarning asosiy gazetolari kontent-tahlilini o'tkazib yig'ish mumkin. Nashrlarning kontent-tahlilidan to'plangan ma'lumotlar har qanday uyushmaning yoki uning a'zolari orasida tarqalgan moliyaviy mablag' va tadqiqot uchun foydali bo'lishi mumkin. Lekin ular yordami bilan olingan tayanch tushuncha ko'rsatkichlari har doim ham mukammal bo'lmasligi mumkin.

5. *Hodisaviy axborot*. Politolog ko'pincha ro'yxat natijalari hisobotlarida ham, idoraviy statistikaga oid hisobotlarda ham uchramaydigan ma'lumotlar bilan qiziqadi. Chunki bunday voqeliklar noyob, yoki bular statistika doirasidan umuman o'rin egallamaydi.

Bunday turdagi voqeliklarga qo'zg'olon, inqilob, diplomatik aloqalarga darz ketish va boshqalar misol bo'lishi mumkin. Biron-bir guruh xususiyatlari ko'rsatkichlarini tuzish uchun bunday voqeliklar haqidagi axborot foydali ham bo'lishi mumkin. Hodisaviy axborot yig'ilishi jarayoni kontent-tahlilni eslatadi. Bunday axborotning nisbiy ishonchliligi tadqiqotchining puxta tayyorgarligi va manbalarni muntazam o'qiydiganlar nazorati evaziga ta'minlanadi. Lekin bu axborotlarni validli qilish juda qiyin. Bosh muammolardan biri taqdim etilayotgan hisobotning to'liqligiga bog'liq, ikkinchisi esa, birinchisidan kelib chiqadi, ya'ni xabarlarida noaniqliklar, maqsadli yoki maqsadsiz ravishdagi buzilishlar bo'lishi mumkin.

6. *Ekspert ma'lumotlari* (tadqiqot predmetlari bilan tanish ekspert yoki shaxs fikri). Bunday ma'lumotlarning aniqlik darajasi shaxsan ekspertlar tajribasi bilan chegaralangan. Noto'g'ri bahodan qochish uchun albatta bir necha ekspertlar yordamiga tayanish kerak va ular bergan ko'rsatmalarni solishtirish kerak. Va hattoki ekspertdan olingan ma'lumot mutlaqo ishonchli bo'lgan taqdirda ham umuman anchagina tarqoq ko'rinishga ega bo'lishi mumkin.

Yig'ma ma'lumotlardan foydalanganda doimiy ravishda uchraydigan umumiy muammolar ham mavjud.

1) *Ekologik xatolar muammosi*. Bu xatolarni o'zgaruvchanliklarni tadqiq qilish spetsifikatsiyasi, operatsionalizatsiyasi rejasini tuzushda va yig'ma ma'lumotlarni ma'lum tadqiq masalasiga nisbatan qo'llash haqida qaror qabul qilishda hisobga olishi kerak.

2) *Muammolarning ikkinchi guruhi valid ko'rsatkichlarining yig'ma ma'lumotlari tahlili* paytida tez-tez uchraydi. Bu hol yig'ma ma'lumotlar asosida valid ko'rsatkichlarni ishlab chiqishga bog'liq. Kamdan-kam hollarda yig'ma ma'lumotlar politolog uchun qiziq bo'lgan biror bir tushunchani bevosita o'lchash vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Ko'pincha biz biron-bir nisbatan yirik va bizning asos tushunchamizga bog'liq o'zgaruvchanlikni ifodalovchi sonlar bilan ishlaymiz. Bunday raqamlarni qayta ishlanmagan ma'lumotlar deb atashadi. Qayta ishlanmagan ma'lumotlar, bu – nostandart yoki qayta ishlanmagan kuzatuvlar natijalaridir.

Tadqiqotchi tahlilning bir bosqichida to'plangan ma'lumotlarni boshqa bosqichda natijalarni umumlashtirishga har uringanida ekologik xatoga yo'l qo'yadi. Tadqiqotchi ma'lumotlari talabga javob

berishi uchun, shunday metodlardan biri yoki bir nechtasini qo‘llashni rejalashtirishi kerak.

Tadqiqotchi oldida qayta ishlanmagan ma’lumotlarni o‘lchovni qo‘llash uchun mos holda keltirishni nazariy va metodologik jihatdan asoslab berish mumkin bo‘lgan usullarini topish vazifasi turadi. Buning asosiy ikkita turi bor – indekslarni ifodalash orqali va ma’lumotlarni qayta shakllantirish orqali. **Indeks** bu – ikki va undan ortiq ko‘rsatkichlarning bir hajman yirik ko‘rsatkich shaklida birlashishidir.

Indeks tuzilishi murakkab ma’lumotlarni yagona ko‘rsatkichga keltirishdan iborat bo‘lib, u o‘z komponentlarining har biriga qaraganda tushunchani to‘liqroq ifodalaydi. Indeksning 3 turi keng qo‘llaniladi: Additiv, multiplikativ va o‘lchangan indekslar.

Additiv indeks – tadqiqotchi oson qo‘lga kiritgan ma’lumotlari bir asos o‘zgaruvchanning turli o‘lchovlarini ifoda ettirganida qo‘llaniladi (makkajo‘xori, don, dukkaklilar).

Lekin, ko‘pincha jamlanma ma’lumotlar o‘zida bir hodisani har tomonlama o‘lchovlarini aks ettiradi va u umumiy lashtirishga yo‘l qo‘ymaydi. Agar ta’kidlaganidek, bunda ko‘rib chiqilayotgan ikki element bir-biriga o‘zaro ta’sir ko‘rsatadi, deb ta’kidlasak, unda biz bu elementlar bilan matematik amallarni bajara olishimiz mumkin bo‘ladi. Shu yo‘l orqali olingan ko‘rsatkich - multiplikativ indeks deyiladi. **Multiplikativ indeks** o‘zaro har xil, ammo bir-biriga bog‘liq o‘lchovlar kombinatsiyasidan tuzilgan o‘lchov birligi. Bunday indekslar bizga faqat ma’lum tushunchaning har xil aspektlarini o‘lchaganimizda kerak bo‘ladi.

Muayyan holatlarda, qayta ishlanmagan ma’lumotlar – tushunchaning asoslangan ko‘rsatkichi bo‘lishi uchun bazi bir namunalar (etalonlar) yordamida o‘lchanishga muhtojdir. Masalan, antihukumat manifestatsiyasi ishtirokchilari sonining qo‘llanilishi. O‘lchangan indeksni olish uchun, biz bir o‘zgaruvchanni (antihukumat manifestatsiyasi ishtirokchilarining soni) boshqasi bilan (aholining soni) o‘lchashimiz zarur. Bunda o‘lchangan indeks bir o‘zgaruvchan doirasida qo‘yilgan baholar boshqa o‘zgaruvchan darajasida qo‘yilgan baholarga nisbatan standartlashadiki, bu mazkur indeksning har xil vaziyatlardagi baholarining asosli qiyosini o‘tkazishga imkon beradi.

Etalon o‘zgaruvchan vaqt (masalan, bir yilda davlatga qarshi siyosiy 10 ta antihukumat namoishlari davlatning siyosiy beqarorligi ko‘rsatkichidir) bilan antihukumat namoishlari soni o‘lchanishi bir

yilda boʻladigan namoishlar sonining indeksini beradi. Bunday aniq oʻlchov turiga *standartlashtirish* deyiladi. Maʼlumotlarning qayta shakllantirilishi ularning muayyan statistik jarayonlari talablariga javob berishi uchun kerak.

Tadqiqotchi bunday maʼlumotlarni oʻzining tahlilida istagan paytida qoʻllay oladi. Misol uchun, logarifmik qayta shakllanish. Baʼzi hollarda, tadqiqotchi jamlanma maʼlumotlarni qoʻllaganida bir oʻlchovni boshqa oʻlchovlar bilan oddiy birlashtirish yoʻli orqali maʼlum tadqiqotning maqsadlariga mos qilish mumkin boʻlmagan oʻlchovlarga duch keladi. Natijada ularni alohida koʻrib chiqish va tashqi jihatdan oʻzgartirish lozim boʻladi. Baʼzan indekslar ham shakli oʻzgarishi natijasida nisbatan yaroqliroq boʻladi. Odatda, bunday tashqi oʻzgarishlar – maʼlumotning qayta shakllanishi deb ataladi. Yoʻnaltirilgan maʼlumotlarning qayta shakllanishi tahlilning aniq bir usuli talab etadigan shartlarni bajarishga yoʻnaltirilgan maʼlumotlarning shakli oʻzgarishidir.

Maʼlumotlar quyidagi maqsadlar uchun qayta shakllantiriladi: tadqiqotchi olib borayotgan tahlili jarayonida qoʻllaydigan aniq statistik jarayonlar talabiga javob berishi kerak; qayta *ishlanmagan maʼlumotlarni* taqsimlashning maʼlum xossalriga bogʻliq boʻlgan statistik tahlil natijalarining bunday notoʻgʻri boʻlishidan qochish uchun kerak.

Tadqiqot chogʻida tushunchaning *koʻp sonli koʻrsatkichlari* bilan ishlash juda qulay, bu ularning har biri validligini batafsil tekshirishni amalga oshirishga imkon beradi.

Jamlanma maʼlumotlar birliklar oʻrtasida katta qiyosga imkon bermaydigan shaklda koʻp ishlatiladi. Bunday holatlar qaysidir yoʻl orqali oʻzimizning oʻlchovlarimizni standartlashtirishga majbur qiladi. Standartlashtirish yagona birlikda yoki oʻlchovlarning qiyosiy birliklarida oʻlchash demakdir.

Oʻlchov unda aslidan farqlanuvchi oʻzgaruvchanlar darajasida alohida holatlar oʻrtasidagi imkoniy farqlarni ifodalaydigan koʻrinishda shakllantirilgan boʻlsa, standartlashtirilgan boʻladi.

Odatda **standartlashtirish** boshqa biror oʻzgaruvchan birligiga nisbatan birliklarning maʼlum soni shaklida oʻlchovni ifodalash yoki boshqa bir oʻzgaruvchanga nisbatan foizli munosabat shakliga bogʻliq boʻladi.

Jamlanma ma'lumotlarning manbalari

Jamlanma ma'lumotlarining manbalari:

1. Demografik manbalar va u bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar.
2. Demografik va u bilan bog'liq bo'lgan boshqa davlatlar bo'yicha ma'lumotlar (XM va davlatlar bo'yicha ma'lumotlar).
3. Hukumat muassasalari bo'yicha ma'lumotlar.
4. Voqeaviy axborot.
5. So'rovnoma ma'lumotlari.

Avvalo, tadqiqot ish rejasini va ma'lumotlar tahlili, tartibini puxta o'ylab olish va birlamchi holatlar va o'zgaruvchanlar ro'yxatini tuzish kerak. Buning uchun 2 xil ma'lumot yig'imi vositasi kerak: Spetsifik ma'lumotlar to'plami va ma'lumotlarni qayd qilish varaqasi.

Ma'lumotlarni spetsifikatsiyalashtirish – har bir holat va har bir o'zgaruvchan, xususan, har xil kodlashtirishning ko'rsatmalarini qayd qilish zarur bo'lgan ma'lumotlarning shunchaki batafsil tavsifidir.

Qayd qilish varaqasi ma'lumotlarni yig'ish jarayonini osonlashtirishga mo'ljallangan. Bu intervyu varaqasi analogi bo'lib, tadqiqot so'rovnomasi qo'llaniladi, chunki qayd qilish varaqasi intervyu varaqasi singari kuzatuvlarni tizimlashtirish va kodlashtirish vositasidir.

SEMINAR

Ma'ruza va muhokamalar mavzulari:

1. Ma'lumotlar manbasi
2. Yig'ma ma'lumotlarning turlari
3. Yig'ma ma'lumotlar manbasi

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Джарол Б.Мангейм, Ричард К.Рич. Политология. Методы исследования.
2. <http://www/jahon.mfa.uz>
3. <http://www.un.org>
4. <http://www.cer.uz>

11- Ma'ruza: Ma'lumotlarni tayyorlash va qayta ishlash, axborotlarni kodlashtirish

Reja:

- 1. Politologik tadqiqotlarda kodlashtirishning mohiyati va ahamiyati*
- 2. Kodlar kitobi va kodlashtirish varaqasi*
- 3. Ma'lumotlarni qayta ishlash*

Tayanch so'z va iboralar:


Kodlashtirish, kod, kodlar kitobi, kodlashtirish varaqasi.

Politologik tadqiqotlarda kodlashtirishning mohiyati va ahamiyati

Biz shunday ilmiy jarayon bosqichiga yetib keldikki, endilikda qo'limizda anchagina ma'lumotlar mavjud, endi qayta ishlashning nisbatan eng ommabop va samarali usullarini tanlash lozim, xolos. Agar biz ma'lumotlarimizdan yanada to'liq axborotga ega bo'lishni istasak, kodlashtirishdan foydalanishimiz kerak. Kodlashtirish deganda biz nimani tushunamiz?

Bizda mavjud bo'lgan axborotlarga miqdoriy mazmunni jo qilish **kodlashtirish** jarayoni demakdir. O'lchovni kodlashtirish bu nutq uchun alifbo, deganidek, ya'ni axborotga vositachilik shakli va davomli xabar shaklini berishga yordamlashuvchi vositadir. Alifbodagi har bir xarf yoki harflar kombinatsiyasi aniq bir tovushlarni ifodalaydi, har bir son yoki sonlar kombinatsiyasi o'rganilayotgan obyektning ma'lum holatini yoki tavsifini ifodalaydi. Alifbo harflarini biluvchilar, o'z fikrlarini muammosiz ifodalay olganlariday kodni biluvchilar ham, raqamlar yordamida murakkab tushunchalarni qisqa shaklda bayon eta oladilar. Kodlashtirilgan raqamli ma'lumotlar matematik metodlarni qo'llashga imkon beradi, bunda olingan ma'lumotlar raqamli interpretatsiyasiz yashirin bo'lib qolishi mumkin. Boshqa so'z bilan aytganda, kodlashtirish yanada chuqurroq tadqiqotlarga yo'l ochadi. Misol uchun, telegraflarda ishlatiladigan Morze alifbosi kodlashtirish hisoblanadi.

Jo'natuvchi



SOS



ТИ ТИ ТИ Та Та Та ТИ ТИ ТИ



SOS



Qabul qiluvchi

11.1- rasm Telegrafda kodlashtirish

Tadqiqotchi



Manbalar



Raqamli kodlar



Ma'lumotlarni qayta ishlash



Raqamli kodlar



Hulosalar



Tadqiqotchi



11.2 - rasm. Tadqiqotda kodlashtirish

Har bir kod raqami berilgan o'zgaruvchanning ma'lum gradatsiyasini bildiradi. Muhimi, raqamlarni *kodlashtirish tizimini ishlab chiqishda kodlashtirish prinsipi doim o'rganilayotgan o'zgaruvchan o'lchovining xarakteri bilan belgilanadi*. Shunday qilib, nominal shkalalar bilan o'lchanadigan o'zgaruvchanlar nominal kodlar bilan, tartib shkalalari bilan o'lchanuvchi o'zgaruvchanlar tartib kodlari bilan, interval shkalalar bilan o'lchanuvchi o'zgaruvchanlar intervalli kodlar bilan o'lchanadi. Tashqi ko'rinishdan barcha bu raqamlar bir xil ko'rinishi mumkin, biroq har bir vaziyatda ular bir-biridan farqlanadi.

Ma'lumotlarni kodlashtirish mexanizmi (yoki aksincha kodni ma'lumotga aylantirish) haqiqatan ham juda oson. Biz tadqiqotimizdagi har bir o'zgaruvchan turini uning o'lchovi shkalalari nuqtai nazaridan aniqlashni boshlaymiz. Agar kod raqamlarini ularning joylashish tartibiga qaramay, o'zaro istisno qiluvchi kategoriyalar orasida ajratishimiz kerak bo'lgan nominal o'zgaruvchan bo'lsa, biz bu ishni o'zimizga qulay shaklda bajaramiz. Misol uchun, kodlarning din e'tiqodi bo'yicha kategoriyalarga bo'linishi:

- | | | |
|----------------|----------------|----------------|
| 1. Musulmonlar | 1. Xristianlar | 1. Yahudiylar |
| 2. Yahudiylar | 2. Musulmonlar | 2. Musulmonlar |
| 3. Xristianlar | 3. Yahudiylar | 3. Xristianlar |

To'liq axborotni ifodalash uchun nominal kodlashtirishning bundan ham qiyin sxemasini ishlatish mumkin. Masalan, biz o'zimizning tadqiqotimizda musulmonlar va xristianlar to'g'risida nisbatan to'liq axborotni bermoqchimiz. Unda biz ikki sonli kodlar tizimini ishlatishimiz mumkin. Birinchi raqam avval boshda olingan ma'lumotni bildirsa, ikkinchisi yangi axborotni bildiradi. Keyingi sxemaga qarang:

- | | |
|-----------------|----------------------------|
| 10. Musulmonlar | 20. Xristianlar |
| 11. Sunnitlar | 22. Pravoslav xristianlar. |
| 12. Shialar | 23. Katoliklar. |

Biz tartibli o'zgaruvchanni kodlashtirganimizda, bizning imkoniyatlarimiz sal cheklanadi. Bunday olganda, tartibli o'lchovlar bizga tanish bo'lgan yoki mos keladigan oraliqlarni nazarda tutmaydi, shu sababli biz istalgan kattalikdagi raqamni tanlashda erkin bo'lib qolavermiz. Lekin bunday hollarda tartibli o'lchovlar kodlarimizda saqlab qolishni talab etadi, bizning raqamlarimiz kamida muayyan tartibda joylashishi haqida qayg'urishimiz zarur. Masalan, *siyosiy rivojlanish darajasi* o'zgaruvchan yoki boshqa bir o'zgaruvchan darajalanish farqini

yoki o'xshashlik gradatsiyasini saqlasa, taqdim etilgan har qanday kodlashtirish tizimi to'g'ri (va bir xil ahamiyati) bo'lishi mumkin.

1. eng past	1. eng past	1. eng past
2. past	6. past	17. past
3. baland	7. baland	24. baland
4. yuqori	9. yuqori	3027. yuqori

Ularning har biri o'zgaruvchan tomonidan berilgan tartibni saqlaydi. Va bularning birortasi boshqalariga nisbatan aniqroq bo'la olmaydi, chunki aniqlik bu yerdagi raqamlarga emas, balki ular ortidagi tartibli o'lchovning vazifasidir.

Agar nisbiy kattalik yoki raqamli kodlarning joylashish tartibi (demak, ularning o'zgarishlari, yo'nalishlari) nominal o'lchovlar uchun muhim ahamiyat kasb etmasa, tartibli ma'lumotlar uchun ular juda muhim.

Oraliqli o'lchovlar uchun kodlarni ishlab chiqarish, bir tomondan, juda mashaqqatli jarayon, biroq ikkinchi tomondan, u juda oson bo'lishi mumkin. Bunda raqamlar yanada aniq ahamiyat kasb etadi va bizning kodlashtirishdagi imkoniyatlarimiz cheklangandir. Dollar - bu dollar, yil - bu yil, 47% va 43% o'rtasidagi farq ham 73% va 69% o'rtasidagi kabi. Oraliqli o'lchovlarda nafaqat kattaliklar o'zaro istisno qilinadi va joylashish tartibini aniqlaydi, balki ikki qo'shni mazmunlar o'rtasidagi oraliq ham bir xil o'zgarib qoladi. Oraliqli ma'lumotlarni kodlashtirish mana shu xususiyatlarni o'zida saqlashi kerak.

Oraliqli o'zgaruvchanni kodlashtirish uchun shunday kodlarning tizimini topish kerakki, unda har biri boshqasini rad etadi, har bir muayyan kattalikdagi o'zgaruvchanlarga mos bo'ladi, har biri yonidagi qo'shnisidan bir xil miqdordagi o'lchovlar birligiga ega va bu ikki qo'shni kattalik o'rtasidagi masofa ma'lum. Oraliq o'zgaruvchanlar gradatsiyasi avvalboshdan raqamli shaklga ega bo'lib, maxsus tarjimani talab qilmaydi. Uning natijasi shuki, oraliq ma'lumotlarni kodlashtirishda asosiy e'tibor ma'noli kodlarni yaratishga emas, balki ularni tanish va saqlashga qaratiladi.

Ba'zan shunday vaziyatlar bo'lishi mumkinki, tadqiqotchi o'z ma'lumotlarini qayta ishlash va informatsiya berish imkoniyatlarini oshirish, oraliq ma'lumotlarni tartibli kategoriyalarga keltirishni xohlaydi. Bunday holatlarda ma'lumotlarning birlamchi kodlashtirilishida

ularning oraliqlik xarakterini saqlab qo'yish, keyin esa olingan kategoriyalarni tadqiqotchi ehtiyojiga mos holda o'zgartirish mumkin.

Shunday qilib, *kodlar bu-bizning operatsional ta'riflarimizning raqamli ifodasidir.*

Kodlar kitobi va kodlashtirish varaqasi

Kodlarning haqiqiy qiymati ma'lumotlar tahlili bosqichida aniqlanadi. Aynan shunda kodlar – sharhdan ma'lumotlarni qayta ishlashga o'tishga va undan keyin qayta ishlashdan interpretatsiyaga o'tishga imkon beradi.

Bu vaziyatni tushunish uchun kodlashtirishning ba'zi bir texnik aspektlarini ko'rib chiqamiz. Birinchi navbatda, kodlar kitobini ko'rib chiqamiz. **Kodlar kitobi** – bu tadqiqotlarda uchraydigan barcha o'zgaruvchanlar, ularning bildirishi mumkin bo'lgan hamma ma'nolar hamda ular tomonidan qayd qilingan barcha raqamli ma'nolari ro'yxatidir. Kodlashtirish maketi tadqiqotda qo'llaniladigan o'zgaruvchanlar va ularga beriladigan ma'nolarni jamlaydi. Bunday olganda, bu barcha tadqiqotlar boshlanadigan rasmiy tasnifdan biroz yuqori turadi. Bu yerda mazkur tasnif izohlarga ko'rsatmalar bilan birga barcha tafsilotlarda namoyon etilgan. Uning strukturasi bizning gipotezamizga mos ravishda emas, axborot yig'imini osonlashtiradigan shaklda tuzilgan. Kodlar kitobi biz izlayotgan narsamizni topishga va topganimizda uni ta'riflashga ko'mak beradi.

Bu "Kodlar kitobi" ma'lumotlarni saqlaydigan kompyuter ustunlariga o'xshaydi hamda ma'lum joydan topiladigan axborotlarni tasvirlaydi. U hatto raqamli bo'lmagan ma'lumotlar uchun qaysi kodlar ishlatilganligini aniqlashtirib beradi.

Kodlar kitobining ishlab chiqilishi ma'lumot tayyorlashning keyingi bosqichiga-kodlashtirish varaqasini yaratish bosqichiga o'tishni osonlashtiradi. **Kodlashtirish varaqasi** – bu, ma'lumotlarni qayd qilish varag'i bo'lib, undagi ma'lumotlar kodlar kitobiga asoslangan holda yig'ilgan ma'lumotlarni kompyuterda qayta ishlash maqsadida qulay shaklda bo'ladi. Har bir kod raqamiga alohida ustun ajratiladi, masalan, ikki tartibli kod xuddi "nashrlar oyi" o'zgaruvchan kabi kodlashtirish varaqasida 2 ta ustunni talab qiladi. Xuddi shunday har bir qator alohida voqelikni bildiradi va har bir raqam alohida voqelikning o'zgaruvchan ma'nosini yoritib beradi. Bir voqelikka tegishli bo'lgan turli holatlar ma'lumotlari kodlashtirish varaqasining bir ustunida yoziladi. Va niho-

yat, barcha kodlashtirish varaqalari raqamlanishi, sana va kodlovchining to'liq ismi yoki initsiallari qo'yilishi zarur. Agar har bir hodisaga birdan ortiq kodlashtirish varaqasi zarur bo'lsa, misol uchun, o'lchanadigan o'zgaruvchanlar soni ancha ko'p bo'lsa, shu guruhga tegishli bo'ladigan varaqalarni birga birlashtirib, bir shaklda raqamlab qo'yish kerak. Bu ularni aralashib ketishdan saqlaydi. Shuningdek, har bir holatning tartib raqamini alohida kodlashtirish varaqasiga kiritib qo'yish kerak.

Ma'lumotlarni qayta ishlash

Kodlashtirishdan so'ng xulosaga kelish uchun, ularni qayta ishlash zarur. Katta miqdordagi o'zgaruvchan va holatlar bilan ishlashda qiyinchilik va chalkashlik bo'lishi mumkinligi bizga ayondir. Agar biz bu qiyinchiliklarni yengib o'tishini va tahlilning maksimal darajasidagi oddiyligi, aniqligi va keng qamrovligiga erishmoqchi bo'lsak, unda biz kompyuterga tayanishimiz zarur.

Ma'lumotlarni zamonaviy dasturlarga kiritish uchun "elektron jadval" deb nomlanadigan oddiy format qo'llaniladi. Elektron jadvallarni qo'llash uchun, avvalo, ustun va qator o'lchamlarini aniqlashtirish kerak. Keyin esa, har bir voqeilik alohida qatorga kiritilishi lozim. Ustunlar tegishli raqam yoki harflar bilan to'ldiriladi. Kompyuterga kiritilgan ma'lumotlar qayta ishlanishi zarur. Kompyuter dasturidan foydalana bilish juda foydali, lekin keltirilgan politologik tadqiqotlarning ma'lumotlarini tahlil qilish uchun yangi dastur yaratish shart emas. Kompyuterimizdagi mavjud dasturdan foydalanish mumkin. Odatda undan foydalanish uchun kerakli ko'rsatmalar bo'ladi. Ko'rsatmalarning shakli va mazmunining o'zgarishi paketga bog'liq bo'ladi, lekin umuman olganda, ularning vazifasi bir xil.

SEMINAR

Muhokama uchun mavzular:

1. Politologik tadqiqotlarda kodlashtirish
2. Kodlar kitobi va kodlashtirish varaqasi
3. Ma'lumotlarni qayta ishlash

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Джарол Б.Мангейм, Ричард К.Рич. Политология. Методы исследования.
2. <http://www.intertrends.ru>
3. <http://www.jahon.mfa.uz>
4. <http://www.cer.uz>

12- Ma'ruza: XMda siyosiy bashorat

Reja:

1. *Siyosiy bashoratning mohiyati*
2. *Bashorat usulining tasnifi*
3. *XM bashoratida metod tanlovi va uni amalga oshirish bosqichlari*

Tayanch so'z va iboralar

Bashorat, verifikatsiya, XMning strategiyasi, tashqi siyosatning bashorati, metodlar tizimi, XM ning metodikasi, sodda metodlar, strategik tahlil, analitik usullar, ekstrapolyatsiya

Siyosiy bashoratning mohiyati

Istalgan siyosiy voqea va hodisa yoki jarayonning tahlili, ularning ehtimoliy keyingi rivojlanishi va bunga muvofiq siyosiy qarorlarni qabul qilishni bashorat qilishga yo'naltirilgan "prognoz" atamasini (yunonchadan "prognosis") – oldindan ko'rib bilish, oldindan aytish demakdir. **Bashoratlashtirish** - bu bashoratning ishlab chiqilishidir.

Kundalik hayotimizda biz tez-tez bunday bashorat elementlari bilan to'qnashamiz. A voqea B natijaning oqibatidir, chunki A bo'l-maganida B ham bo'lmas edi. Bunday xulosani bizni qiziqtirayotgan obyektlar o'rtasidagi sabab-natija munosabatlarini to'g'ri aniqlash orqali olish mumkin. Shunday qilib, bashorat deganda, u yoki bu voqea, hodisa va jarayonning kelgusi oqibatlarini oldindan ko'ra bilish imkoniyati tushuniladiki, bu, biz qabul qilayotgan qarorlar uchun muhim rol o'ynaydi.

Odatda bashorat diniy e'tiqodga, astrologik bilimlarga, hayotiy tajribaga va ilmiy ma'lumotga asoslanadi. Biroq hech qaysi diniy e'tiqod, astrologik bilim yoki hayotiy tajriba bizga aniq tasdiqlangan va isbotlangan faktlarni berolmaydi. Shuning uchun bular ichidan eng ishonarlisi ilmiy bashoratdir, chunki u har tomonlama holatlarni inobatga olgan holatda ilmiy ma'lumotlarga tayangan bashoratni mujassamlashtirgan.

Bunda asosan alternativlik va verifikatsiya prinsiplariga tayaniladi. Alternativlik prinsiplari, bu - bashorat obyektiv rivojining barcha imkoniy yo'nalishlari haqiqatga aylanishining barcha variant-

larining oldindan ko'rilgan va asoslanganligini bildiradi. Verifikatsiya (tekshiruv) prinsipi bashoratning tasdiq yoki inkor etish imkoniyatini anglatadi. Tasdiqlanmagan yoki inkor qilinmagan bashorat foydasizdir. **Verifikatsiya** - bu nazariy hollarni kuzatilayotgan obyektlar bilan qiyoslash orqali empirik tekshirishdir.

Bashorat politologlar tomonidan keng va tor ma'noda tushuniladi. Keng ma'noda, bu - biror bir voqeaning kelajakdagi holati haqidagi ehtimollii mulohazaning ishlab chiqilishidir. Tor ma'noda biror-bir voqeaning rivojlanishi istiqbollarini maxsus ilmiy tadqiqi bo'lib, unda ko'proq miqdoriy baholar va ushbu voqea o'zgari-shining nisbatan aniq muddatlarining ko'rsatilishi afzal ko'riladi.

Har bir bashorat hodisa rivojining istalmagan natijalaridan qochish va istalgan ehtimolliklarga yo'naltirish hamda muqarrar narsaga moslashish maqsadida ishlab chiqiladi. Shuning uchun bashorat ilmiy oldindan ko'ra bilish shakli sifatida maqsadni belgilash, rejalashtirish, dasturlash, loyihalash va boshqarish bilan o'zaro aloqada ijtimoiy doirada joylashgan. Ob'yektlar boshqarilmaydigan joyda, ayniqsa, tabiatda bashorat harakatni obyektning kutilayotgan holatga moslashtirishni maqsad qiladi.

Sotsial sohada, xuddi ilmiy bashorat kabi obyektning bo'lg'usi holati haqidagi bashorat, bu, obyektning o'tmishi va hozirgi holati va rivojlanish tendentsiyasi haqidagi axborotni talab etadi. Lekin biz bu ma'lumotlarga tayangan holda, jarayon obykti, hodisa ichidagi ijtimoiy va iqtisodiy o'zaro aloqadorliklarni tushunmasak, bashorat qilolmaymiz. Shuning uchun ijtimoiy hodisalar va jarayonlarning bashorati tarix, sotsiologiya, statistika, demografiya, siyosat, falsafa va boshqa fanlarga tayyanadi.

Shu bilan birga, bashorat aniq nazariyotga asoslanishi kerak. Nazariyasiz u shunchaki axborotlar jamlanmasi yoki turli taxminlar majmuasidir.

Bashoratning yo'nalishlaridan biri bu siyosiy bashoratdir. Siyosiy bashorat o'zining spetsifikasiga ega, chunki u taraqqiyotning o'z qonuniyatlari va ichki mantig'iga ega siyosat bilan bog'langan.

Siyosatda asosiy ro'lni manfaat o'ynaydi. Har bir davlat spetsifik siyosiy organizm sifatida o'z ichki va tashqi manfaatlariga ega. Ichki manfaatlar jamiyatning stabillashuvi, ya'ni fuqarolarning ruhiy va jismoniy salohiyatini namoyon qilish uchun mos sharoitlarni yaratish zarurati bilan bog'liqdir. Tashqi manfaatlar esa milliy suvirinitetning

himoyasi, o'z siyosiy ta'sirini kengaytirish va boshqalar bilan bog'liq. Shunga binoan tashqi va ichki siyosat, ichki siyosiy va tashqi siyosiy bashorat ajratiladi. Ichki va tashqi manfaatlar o'zaro bog'liq bo'lib, birgalikda ular davlatning rivojlanish strategiyasini belgilaydi. **XM strategiyasi** tashqi siyosat harakatlarining katta o'lchamli tizimi bo'lib, uning maqsadi xalqaro aloqalar muammosini hal etishga yo'naltirilgandir. Shuning uchun xalqaro siyosatning istalgan muammosi, eng avvalo, davlatning tashqi siyosati strategiyasining tahliliga taalluqlidir. Siyosiy bashoratning spetsifikasi bashorati obyektning o'ziga xosligi, uning bashoratni ishlab chiqish maqsadi va vazifalari, xususiyatlari bashorat usullarining tanloviga yondashuvlarda namoyon bo'ladi.

Siyosiy bashoratning obyekti – tarkiban juda keng va murakkabdir. Shuning uchun “siyosiy bashorat” tushunchasi maxsus ilmiy tadqiqotlarni olib borishda va siyosatning ko'p sonli usullarining turli o'zaro aloqalari va o'zaro ta'sirlari doirasida, shuningdek jamiyatning boshqa faoliyatlari-iqtisodiy, ijtimoiy, ruhiy sohalar bilan o'zaro aloqada bashoratlarni ishlab chiqish bo'yicha ko'p aspektli va ko'p qirrali faoliyatni anglatadi. Siyosiy bashorat qabul qilinayotgan qarorlarning natijaviyligi va effektivligini oshirish, siyosiy hayotning turli sohalar va siyosatning iqtisod, ijtimoiy va ruhiy doiralarga ta'siri bo'lgan o'rinlarida voqealar rivojining istalmagan yo'nalishidan qochish maqsadida ishlab chiqiladi.

XMda bashoratning *asosiy vasifasi* istiqbolli siyosiy muammolarni aniqlash va siyosiy jarayonlarni boshqarishni optimallashtirish, ijobiy yoki salbiy siyosiy voqealarni oldindan ko'ra bilish nuqtau nazaridan bu masalalarni hal etishning eng maqbul yo'llarini topishdan iborat.

Shunday qilib, **bashorat** – bu tashqi siyosatning kompleks analitik usuli bo'lib, u oldindan ko'rish maqsadida qo'llaniladi va tahlildan avval turadi. Bashorat istiqbolga aylantirilgan strategik balanslar tizimini ifoda etadi.

Tashqi siyosat bashorati strategik tahlilning maqsadli mahsuli va qat'iy vazifasi bo'lib, u aniq davlatlar yoki ularning ittifoqchilari tashqi siyosati istiqbollarning kompleks tahliliga qaratilgan analitik harakatlarining yaxlit tizimini namoyon etadi.

Bashorat metodlarining tasnifi

Siyosiy bashoratlarning tipologizatsiyasi maqsadlar va vazifalarga, obyektlarga metodlar va boshqa omillarga bog'liq turli mezonlarga asoslanadi.

Muammoviy maqsad mezoniga qarab bashoratning qidiruv va normativ turlari ajratiladi. Bashorat mo'ljallangan vaqt oraligi davriga ko'ra bashorat tezkor (1 oygacha), qisqa muddatli (1 yilgacha), o'rta muddatli (5 yilgacha), uzoq muddatli (15-20 yilgacha) va o'ta uzoq muddatliga (uzoq muddatdan keyingi davrga) bo'linadi.

Siyosiy bashorat usullari obyektiv va spekuliyativ guruhlariga bo'linadi. Obyektiv metodlar - tajribalari bilan aniqlangan an'analarga asoslangan metodlardir. Bu holatda shu asosda qaror qabul qilinadi. Bunday usullarga ekstrapolyatsiya, modellashtirish, ekspertiza va boshqalar misol bo'la oladi. Spekuliyativ metodlar, bu fan va madaniyat asosida intuitiv mulohazalarga tayanadigan metodlardir. Shunday usullarga fikrlarning jamoaviy generatsiyasi ("aqliy hujum"), senariylar yozish, bashorat ustunlari va boshqalar kiradi.

XM strategiyasi bashoratining metodlarini ikki o'lchov asosida tasniflash mumkin: sub'yektivizm darajasi va tahlil tizimining formalizatsiya darajasidir. Bundan metodlarning ikkita qutbiy sinfi – sub'yektiv va obyektiv hamda sodda va natija - sabab metodlari yuzaga keladi. Bu metodlar tipologiyasi (J.P. Lambenga ko'ra) rasmda ko'rsatilgan (pastga qarang).

Analitik metodlar

<i>Sifat sohasi</i>	<i>Miqdoriy soha</i>
<i>II Ekspert metodlari</i>	<i>IV Eksplikativ metodlar</i>
Sub'yektivlik	Obyektivlik
<i>I. Intuitiv yondashuvlar</i>	<i>III. Evristik va ekstrapolyatsion metodlar</i>
Sodda metodlar	

12.1- rasm. J.P. Lambenga ko'ra metodlar tipologiyasi.

Rasmda ajratilgan har bir qismni batafsil ko'rib chiqamiz. Agarda bashoratga "bir bosh" kerak bo'lsa, bashoratning nisbatan oddiy metodlari sub'yektiv yondashuvga asoslangan bo'ladi. Sub'yektivizm va bu hodisalar bilan bog'liq barcha metodlar (12.1.-rasmda: ekspert va oddiy metodlar) aniq shakl va algoritmgaga ega bo'lmagan bashorat jarayonining qo'llanilishini taqazo qiladilar. Bu metodlar bevosita bashorat qiluvchi shaxs bilan bog'liq. Masalan, tashqi ishlar vaziri bashorati yoki tashqi ishlar vazirligining strategik tahlil boshqarmasi boshlig'i bashorati. Bularga qarama-qarshi obyektiv metodlar mavjud. (12.1.rasmga qarang: eksplikativ, evristik va ekstrapolyatsion metodlar).

Obyektiv metodlar avvalambor, matematik statistika metodlari bilan bog'liq. Matematik statistikada kuzatuv obyektlarining tavsiflangan va isbotlangan qonun-qoidalar mavjud bo'lib, aynan shulardan bashorat qilishning umumiy modellari yaratiladi. Zaruriyat bo'lganida, bashoratni deyarli inson ishtirokisiz EHM amalga oshirishi mumkin. Obyektivizm va subyektivizm tushunchalari bashoratning barcha metodlari maydonini bo'lajak hodisalarning sifat va miqdoriy baholari sohalariga bo'ladi. Qayd etish kerakki, qo'llanilayotgan metodlar (sifat va miqdoriy) xususiyatiga qaramasdan, natija yagona bo'lishi lozim - kelgusi davrlar uchun dolzarb masalalarni yechish maqsadida vaziyatning hayotiy muhim ahamiyatga ega milliy manfaatlaridan kelib chiquvchi milliy xavfsizlikning ilmiy yondashilgan bashorati.

XM nazariyasida **metodlar tizimi**, ya'ni spetsifik harakatlar bilan birga, boshqa ijtimoiy fanlardan olingan kompleks, xususiy, alohida harakatlarning yig'indisi – **XM metodikasi** asosiy o'rin egallaydi. XM metodikasiga quyidagilar kiradi:

I. "Sodda" metodlar. Bu metodlar guruhi XM bashoratining shakllanishida vizial hech qanday chizmalar qo'llanilmagani uchun shu shartli atamani olgan. Bu kontekstda "sodda" so'zi bashoratning oddiy yo'li ma'nosini ifodalaydi. Lekin bundan ushbu bashoratni qilayotgan ham, "oddiy", "sodda" degani emas. Sodda metodlar bu - ekspert metodlarning quyi darajasi bo'lib, ularning 2 asosiy xususiyati mavjud: bashoratning yuqori tezligi va natijaning bashoratchi – XM sohasidagi mutaxassis shaxsiyatiga butunlay bog'liqligi. Albatta, bunday metodlar, ma'lumot jamlashga vaqt yo'qligida yoki ma'lumotga erkin erishish yo'li yo'qligida qo'llaniladi. Ushbu bashoratlarning xavfi shundaki, yuqori va ehtimoliy xatolarni baholash deyarli mumkin emas (bashorat to'g'riligining ehtimoli 50x50).

Quyidagi sanab o'tilgan metodlar ushbu guruhga kiradi.

Intuitiv bashorat. Tashqi siyosat sohasidagi yuqori malakasi yoki o'z tajribasi va intuitsiyasi asosida qaror qabul qiluvchi shaxslar ishlab chiqqan bashorat. *Introspeksiya metodi.* Analitik o'zini bashorat qilinyotgan subyekt o'rniga qo'yib, uning xatti-harakatini tasavvur qilishga urinadi. Ushbu metod qo'llanilganida aslida boshqacha qarashga ega sub'yektga o'zining shaxsiy nuqtai nazarlarini singdirish ehtimoli bor.

Analoglarning turli ko'rinishlari. Boshqa tarixiy davrlarda sodir bo'lgan o'xshash voqealar tahlili asosida qilingan bashorat yoki tarixiy analogiya. Boshqa geografik regionda sodir bo'layotgan o'xshash voqealar tahlili asosida bashorat yoki geopolitik analogiya (siyosiy- makoniy). Geoiqtisodiy, bozor, tovar va boshqa shu kabi analogiyalar turlari. Aniq tashqi siyosiy vaziyat namunaviy marketing ma'lumotlari asosidagi bashorat. Geosiyosiy kuchlarning o'xshash joylashuvda ro'y bergan voqealar tahlili asosidagi bashorat.

Maqsadlar tadqiqoti. Xatti-harakatlari bashorat qilinayotgan tashqi siyosat sub'yektlari taxminiy maqsadlarining o'rganilishi. Nostrukturaviy so'rov, nashrlar tahlili va boshqa metodlar orqali. Bunda mamlakatlar maqsadlari, davlatlar kelishuv maqsadi, davlat hukumati boshliqlarining va siyosatning yetakchi vakillari chiqishlari, milliy matbuot va boshqalar o'rganilishi mumkin. XM subyektlari maqsadlarini o'rganishda hayotiy muhim milliy manfaatlar asosidagi bashorat nisbatan ishonchli, chunki ular ratsional asoslangan ehtiyojlar va ongli maqsadlar muvofiqligida harakat qiladi.

Fikrlar tadqiqoti. Bashorat ob'yekti bilan bog'liq, u yoki bu masalada ma'lumoti bo'lgan subyektlar fikrining tizimli o'rganilishi, bunda barcha muammolarni analiz qilish imkonsiz. Shu bilan birgalikda diplomatik xizmatchilar va siyosatchilar, ekspertlar fikrlari ham o'rganiladi. Ta'sir o'tkazuvchi ma'lum guruhlar (ziyolilar, ma'muriy xizmatchilar, yoshlar, ayollar)ni diplomat yashayotgan mamlakatda yoki tahlil predmeti bo'lgan mamlakatdagi jamoatchilik fikrini tadqiq etish yoki uning tahlilidan foydalanish yaxshi natija beradi.

Aytib o'tilgan metodlardan faqat 1 va 2si to'la sub'yektivdir va agar ularni 12.1 rasmga joylashtirsak, ular eng quyi va chap tomondagi o'rinni egallaydilar. Boshqa barcha metodlar maxsus sxemaga ko'ra muammoli ma'lumotni to'plash yoki maxsus tuzilgan materialdan foydalanishni taqozo etadi. Shunday bo'lsa-da, ular oddiy metod hisoblanadi, chunki natija butunlay bashoratchining tahliliy qobiliyatlari hamda uning tashqi siyosiy faoliyatdagi bilimdonligiga bog'liq bo'ladi.

Evristik va ekstrapolyatsion metodlar. Agar bashorat jarayonining analitik tuzilishi zaif bo'lsa, lekin bashorat mamlakat haqidagi obyektiv ma'lumotlarga asoslansa, (masalan, milliy iqtisod statistikasi), unda evristik metodlar qo'llaniladi. Bu o'tgan davr ma'lumotlarini kelajakka o'tkazish, ya'ni ekstrapolyatsiya qilishdir.

Hodisaning dekompozitsiyalash metodi. Bu metod asosida ma'lum bir hodisaning determinantlari yotadi. Biz hayotiy muhim milliy maqsadlarning shakllanishi va xalqaro munosabatlar sub'yektlarining strategiyasi determinantlari haqida so'z yurita olamiz. Bu metodga milliy xavfsizlikni ta'minlashning ma'lum bir yo'nalishi bo'yicha strategik salohiyat bahosi misol bo'lishi mumkin.

Stoxastik metodlar. Stoxastik tamoyillarga asoslangan xalqaro strategiya subyektlari, harakatlarini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab ishlar bor. Bu, xalqaro jarayon ishtirokchilarining xatti-harakatining ehtimoliy baholar asosida bashorat qilinishini bildiradi. Ayniqsa, bu xalqaro vaziyatga oid deyarli barcha tadqiqotlarning asosiy jihati-sitiativ xulqni bashorat qilish va ta'riflashga bog'liq. Bashorat qilish ma'lum hodisa qismlarining ehtimoliy baholari asosida olib boriladi. Stoxastik metod turiga mukammallashgan *Markov metodi* yoki *Markov zanjiri* metodi kiradi. Bu iqtisodiy metod iste'molchilarning mahsulotlarning boshqa turiga o'tishi, namunaviy va qayta sotib olish hissasi hisob-kitobi uchun qo'llaniladi va muvofiq ravishda xalqaro munosabatlarga tatbiq etiladi.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy bashoratning muhim usullaridan biri *ekstrapolyatsiya*dir. Uning mohiyati shundan iboratki, biror hodisaning ma'lum bir qismi bo'yicha chiqarilgan xulosalar boshqa qismlariga, hodisaning o'ziga, bu hodisaning kelajagiga ta'sir qiladi. Ekstrapolyatsiya -bu, mavjud, amaldagi tendensiyalar asosida bashorat qilishning yetakchi metodidir. Ekstrapolyatsiya metodi qiziqarli ko'rsatkichlar sifatida tarixiy ma'lumotlarni qo'llashadi. Bu, bashoratning eng keng tarqalgan usullaridan biridir. Uning afzalligi shundaki, ekstrapolyatsiya ishonchli ichki ma'lumotlarga asoslanadi, ayni paytda faqat shu metodni tatbiq etish xavfi vaziyatning tubdan o'zgarishi onini hisobga olishni imkonsiz qiladi. Ekstrapolyatsiya metodi vaqt siralariga ta'sir qiluvchi sababkor omillar bashoratda namoyon bo'ladi, deb taxmin qiladi. So'nggi taxmin har doim ham amalga oshavermaydi. Sababkor omillar vaqt siralariga qarama-qarshi kelganida bashoratlarda anchagina ko'p xatolar yuzaga chiqadi. Bunday muammolar alohida tashqi siyosiy aksiyalar bashoratining ayrim hollarida uchrar ekan, uning natijalari halokatli bo'lmaydi.

Ekstrapolyatsiyaning nisbatan mashhur metodlari *eksponentsial tekislovga* asoslanadi. U: “Nisbatan yangi axborot ustunlikka ega” tamoyilini ro’yobga chiqaradi. Qisqa muddatli bashoratlar uchun qo’llaniladi va davrlarning ma’lum miqdori bo’yicha harakatlarning o’rtacha o’rganilgan mazmunlariga asoslanadi.

Ekonometrik metodlar - turli cheklovlarda parametrlar bashorati uchun axborotlardan foydalanadi. Har doim bir muammo mavjud: oldingi tadqiqotdagi nimani qo’llash mumkin? Bilvosita (egri) talabning hisob-kitobi bu metodga misol bo’la oladi. Bu holatda munosabatlar bahosi ekspert axboroti va vaqt siralari ma’lumotlari asosida o’zgarishi mumkin. Bu yerda yana ishonchli axborot kerak. Ekonometrik metodlar nazariy (ekspert) va statistik manbalarni effektiv tarzda birlashtirish imkonini beradi. Ekonometrik metodlar quyidagi vaziyatlarda tatbiq etilishi mumkin:

- aniq sababiy o’zaro aloqalar mavjudligida;
- bu aloqalar miqdoriy parametrlari tavsiflanganida;
- bashoratlarda sababiy aloqalardagi o’zgarishlarni hisobga olish kerak (masalan, bozor narxlarida va iste’molchilar talablarida o’zgarishlar ro’y berishi mumkin);
- bu o’zgarishlar bashorat qilingan yoki nazoratga olingan bo’lishi mumkin.

Agar bu shartlarning birortasi bajarilmasa, zero, bu holat kichik “gorizontli” bashoratlar uchun tipikdir, ekonometrik metodlar ishonchli natija bermaydi.

Metodlarning bu guruhi bashorat qilishda anchagina mashhur, chunki ular oddiy metodlar tezligini miqdoriy baholarning obyektivligi bilan birlashtirish imkonini beradi. Bunda ikki asosiy muammo - muhitning ko’p omilligi va muhitning noaniqligi hisobga olinadi.

II. Analitik metodlar. Ilmiy nuqtai nazardan, analitik metodlar eng kuchli metod hisoblanadi. Analitik metodlar o’z konseptual asosiga ko’ra, ekspert metodlariga o’xshab ketadi: har ikkala holda ham, xulosalar hodisaning sababiy tuzilmasi tahliliga asoslanadi (bashorat obyektiga qanday omillar ta’sir qiladi). Analitik metodning farqi shundaki, sababiy tuzilma obyektiv kuzatiladigan va o’lchanadigan sharoitlarda eksperimental jihatdan aniqlanadi va tekshiriladi.

Aniqlangan qonuniyatlar (bashorat obyekti va unga ta’sir qiluvchi omillar o’rtasidagi o’zaro ta’sirlar) tenglama tizimida ifodilangan matematik modelni yaratish imkonini beradi. Bu model asosida omillarining u yoki bu birlashmalarida o’rganilayotgan hodisan-

ing (masalan, talab darajasi) bashorati hisoblab chiqiladi. Analitik metodlarni obyektiv, eksplikativ va kazual metodlar deb ham atashadi. Ularga quyidagilar kiradi:

1. *Strategik tahlil*. XMni o'rganishning kompleks va sistemali tahlil metodi bo'lib, davlatlar va ularning hamjamiyatlari uchun hayotiy muhim manfaatlar hamda ularni amalga oshirish yo'llarini aniqlashga qaratilgan, shuningdek, bu metod XMni o'rganishning boshqa metodlarini o'z ichiga oladi. XMga muammoviy-maqсадli yondashuviga asoslanadi. Bu mavzu alohida ma'ruzada ko'rib chiqiladi.

2. *Ekspert metodlar*. Tashqi siyosiy problematika bilan shug'ullanuvchi har qanday analitik bashorat qilishda sodda metodlardan foydalangani holda, ekspert metodlari katta diplomatik tajribaga va bashorat obyekti haqida mintaqaviy bilimga ega ekspertlar fikrini o'rganishga asoslanadi.

Ekspert metodlar. Ekspert metodlarni ishlab chiqishda tadqiqotchilar analitik apparatni qo'llashga harakat qiladilar. Bu ularga ekspertlar fikrini "o'lchashga" yordam beradi. Bu uchun ekspertlar fikrlarini sharhlovchi maxsus jadvallar, matritsalar va boshqalar mavjud. Ekspertlar baholari qiymati ularning malakalariga bog'liq tarzda har xil bo'lishi mumkin, shuning uchun ba'zan ekspertlar fikri qiyoslanadi.

Shunday qilib, tadqiqotni yakunlash va bashoratni ishlab chiqishda tadqiqotchida bashoratni qanday qilib shakllantirish bo'yicha, ayniqsa, uni ekspertlar taqdim etayotgan bo'lsa, tanlov imkoni bor. O'tkazilgan so'rovnomadan bashoratning aniqligini taxmin qilish juda murakkab, bunda faqat ekspertning qobiliyatiga tayanish mumkin. Matematik nuqtai nazardan ekspert metodlarida aniqlik yo'q, ammo bir necha turda guruh shaklidagi ekspert so'rovlari qo'llansa, bashoratning to'g'riligi darajasini orttirish mumkin. To'g'ri baholarning ehtimoli qanchalik yuqori bo'lsa, fikrlarning tarqoqligi shunchalik past bo'ladi (bu, o'rtakvadrat cheklanishni hisoblash yo'li bilan aniqlanadi). Ba'zi hollarda nisbatan ishonchli bashorat beradigan mutaxassislar kamchilikni tashkil etadi. Bashoratning so'nggi bahosi quyidagicha chiqariladi:

- o'rta arifmetik oddiy yoki o'lchangan (agar ekspertlar turli malakalarga ega bo'lsa);
- "diktator" qoidasi, agar bir kishi butun guruh fikrini bildirsas;
- demokratik yondashuv, ekspertlar bir yoki bir necha turda mustaqil ravishda umumiy to'xtamga mustaqil kelsa (Delfi metodi);
- ekspertlar ovoz berishi metodi orqali, bunda anchagina tarqoq fikrlar bildiriladi. Asosiy ekspert metodlariga quyidagilar kiradi.

Individual ekspert tahlili. Ekspert o'z tajribasi, bilimi, intuitsiya-siga asoslanib tahlil qiladi. Tahlil paytida ekspert marketing tahlilining u yoki bu, formal yoki noformal metodlarini qo'llashi mumkin.

"Aqliy hujum", bu metod analitiklar guruhi tomonidan ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqich "fikrlar konferensiya-si" deb nomlanadi. U 1-1.5 soat davom etadi. Mutaxassislar tahlil etilayotgan vaziyatlar sharhiga bog'liq har xil fikrlar bildiradilar. Fikrlar protokollashtiriladi, ammo tanqid qilinmaydi, muhokama etilmaydi. Tanaffusdan keyin, 2-bosqichda fikrlar muhokama qilinadi va eng to'g'rilari tanlanadi.

Guruh muhokamasi metodi. Bashoratlarni tuzish yo'li – bu, ekspertlardan mamlakatlar, siyosatchilarning, u yoki bu vaziyatda o'zini qanday tutishini bashorat qilishini so'rashdir. Bashoratlarning aniqligini strukturaviy metodlar (Delfi jarayoni) yordamida bilish mumkin.

Delfi metodi - tadqiqotning interaktiv jarayoni bo'lib, unda ekspertlar bashoratlarni muammo sifatida o'rganib chiqishadi, boshqa ekspertlar tomonidan qilingan bashoratlarga anonim javob olishadi va boshqa bashoratlarni qilishadi. Bu bashoratning asosiy tamoyili ekspertlar bashorati bir-biridan mustaqil bo'lishi kerak.

Morfologik tahlil. Metod 2 bosqichdan iborat. Birinchisida, obyektning tuzilishi aniqlanadi va bu tuzilishni aks ettiruvchi morfologik matritsa ishlab chiqiladi. Ikkinchi bosqichda analitik obyekt parametrlarining barcha imkoniy birlashmalarini ketma-ketlik asosida o'rganib chiqadi. Bunday tipdagi eng mashhur metodlar quyidagilar: Mak Kinsi tahlili, "TS", "SWOT-tahlil, GAP –tahlil, PIMS-tahlil va boshqalar.

Muammoli yondashuv metodi XMning o'rganilayotgan vaziyatdagi qarama-qarshiliklarni (tizim savolni qo'yish masalasi) aniqlashdir.

Ekspert metodlar guruhi vaziyatga demokratik yondashuvga asoslangani sababli keng tarqalgan. Albatta, ekspertlar guruhini tanlashning maxsus qoidalari bor, ammo tahlil usullari va metodlarini analitik modellashtirish ijodiy erkinlik beradi. Mamlakatlarni, ular tashqi siyosatining ma'lum bir vaziyatlarga ta'siri, geosiyosat va geoiqtisodiyotning tashqi siyosiy faoliyat natijalariga ta'siri va boshqa masalalarni o'rganar ekan, ekspertlar vaziyat bashorati va tahlilining ko'plab original shemalarini, masalan, morfologik tahlil doirasida ishlab chiqishadi. Bashorat metodlarini ishlab chiqish nafaqat ekspress-metod orqali natijani qo'lga kiritishga imkon beradi (albatta, natijaning ishonchliligi baribir statistik ma'lumotlar bilan

ta'minlanadi), balki muammoga turli tomondan yondashuvga imkon beradiki, buni, masalan, matematik statistikaning qat'iy tuzilmaviy metodlarida qo'llab bo'lmaydi. Ekspert metodlarini, agar bashorat qilinayotgan hodisada muhim o'zgarishlar bo'lishi kutilayotgan bo'lsa, boshqa biror metod bilan almashtirish mumkin emas.

3. *Kombinator metodlar: senariylar metodi.* Bashoratning kombinator metodi obyektidagi (mamlakatdagi yoki mamlakat tashkilotidagi) o'zgarishlar qonuniyatlarining bashorat fonini belgilovchi omillar ta'siriga bog'liq ravishda aniqlashga asoslanadi. Kombinator metodlar analitik va senariy metodlariga bo'linadi. Senariylar metodi ko'p hollarda murakkab va ko'p omilli hodisalarni o'rganishda bashoratning yagona usuli, agar sifat metodlarini hisobga olmasa, hisoblanadi (masalan, raqobatchilar xatt-harakati bashorati).

4. *Eksplikativ metodlar* (bu haqda alohida ma'ruzada to'xtalamiz).

XM bashoratida metod tanlovi va uni amalga oshirish bosqichlari

XM bashorati metodlari tanlovi quyidagi mezonlar bilan aniqlanadi:

1. Bashorat obyektining spetsifikasi.
 - predmet sohasi;
 - bashorat qilinayotgan jarayonlar xarakteri;
 - ilk ma'lumot xarakteri (miqdoriy, sifat);
 - natijaviy axborotning xususiyati;
2. O'tish davri (bashorat gorizonti).
3. Avvalgi tajriba qiymati (muhit turbulentligi darajasiga bog'liq bo'ladi).
4. Qo'yilayotgan vazifaning yangiligi.
5. Analoglarni jalb qilish imkoniyati.
6. Vaziyat qarama-qarshiligi.
7. Zarur ilk ma'lumotni qo'lga kiritishning murakkabligi va qiymati.

XM bashorati metodini quyidagi algoritm ko'rinishida tasavvur qilish mumkin.

1. *Bashorat vazifasining shakllantirilishi* yoki natijada qanday xarakteristikani olishni xohlashimiz. Tashqi siyosiy marketing uchun bu - asosan milliy manfaatlar, tashqi iqtisodiy aksiyalar, motivlar, ularning effektivligi, xalqaro hamkorlar reaksiyasi, geopolitik va geoiqtisodiy oqibatlarining ko'rsatkichlaridir.

2. *Bashoratni amalga oshirish vaqti.* Ma'lumki, obyektni o'rganishga qancha ko'p vaqt ajratilsa, bashorat natijalari shunchalik aniq bo'lishi mumkin. Lekin "Xalqaro aloqalar dinamikasi" degan omil mavjud. Ular tashqi siyosat sub'yekti aniqroq bashorat tayyorlamagunicha "kutib" turmaydi. Ishonchli va aniq, lekin kechikib qilingan bashorat hech kimga kerak emas. Shuning uchun ba'zan xalqaro vaziyatlarning real dinamikasidan ortda qolmaslik uchun tavakkal qilish kerak.

3. *Bashoratning ma'lumot bahosi.* Bashorat metodining tatbiq etilishi ko'pincha ma'lumotning ko'rinishi, to'liqligi, ishonchligiga bog'liq bo'ladi. U yoki bu vaziyatlarda axborotni qo'llash bo'yicha ba'zi cheklovlar bor. Masalan, bashoratning ko'plab statistik metodlarini qo'llash uchun me'yoriy taqsimlangan kattalikning borligi zarur shart hisoblanadi, bo'lmasa, umumlashmalarning tatbig'i asossiz bo'ladi.

4. *Tashqi siyosat imperativlari* (qurilmalari) - globalizatsiya imperativlari. MDH davlatlaridagi o'zgarish jarayonlarining murakkabligi sababli har doim ham ichki va tashqi siyosat orasida aniq metodologik chegarani o'rnatish mumkin emas.

Mamlakat ichidagi muammolar, cheklovlar va aktorlar tashqi faoliyatning yo'nalishlarini ko'pincha belgilab bermoqda, tashqi muhitning sharoitlari, masalan, O'zbekistondagi o'zligini anglash va javob reaksiyalarining shakllanishiga borgan sari ko'proq ta'sir qilmoqda. Shuning uchun bashoratda mintaqaviy va global yondashuvlarni, iqtisodiy, geosiyosiy va geoiqtisodiy tahlil usullarini effektiv birikuvlaridan foydalanish zarurati yuzaga keladiki, bunda ularning tanlanishi aniq tanlangan tadqiqot spetsifikasiga bog'liq bo'ladi.

5. *Dasturiy ta'minlash va texnik vositalarning mavjudligi.* Maxsus amaliy dasturlarsiz hal qilinmaydigan bir qator muammolari mavjud. Gap bashoratning ko'p qamrovli metodlari haqida ketayapti. Agar real tashqi iqtisodiy aksiyalar bir qancha omillarga bog'liq bo'lsa, unda maxsus kompyuter dasturisiz bu omillar orasidagi o'zaro aloqani hisoblash va funksional munosabatni qurish mumkin emas. Tahlilning repressiv, faktor va boshqa metodlari ancha avval ishlab chiqilgan (asosan, XX asr boshlarida), ammo xalqaro vaziyat tahlili uchun faqat mos kompyuter vositalarining paydo bo'lishi bilan tatbiq etiladi.

6. *Malakali bashoratchilarning* yoki tashqi siyosat bo'yicha bashorat qilish metodlari va har bir metodning imkoniyatlari haqida ta'savvurga ega shaxsning *borligi*. Bashorat metodlari qo'llanilishi bashorat qilish malakasi va tajribasining yo'qligi bilan to'xtatilishi mumkin.

Bashoratning analitik metodlarini amalga oshirish o'z ichiga quyidagi bosqichlarni oladi.

Birinchi bosqich – hodisaning sababiy strukturasi aniqlash. Bashorat obyektiga ta'sir qiluvchi omillarni belgilash, yoki parametrlar orasidagi bog'liqlikni qidirish. Matematik modellashirishning birlamchi nuqtasi, ya'ni o'rganilayotgan hodisaning sababli (kazual) tuzilmasini aniqlash predmet sohasidagi bilimlar asosidagi mantiqiy tahlil orqali aniqlanadi, keyin kuzatuvlar asosida tasdiqlanadi (sababli strukturani aniqlashning teskari jarayoni ham bo'lishi mumkin-avval empirik bog'liqlik aniqlanadi, keyin hodisalar o'rtasidagi o'zaro aloqa nazariy tahlil asosida tasdiqlanadi yoki inkor qilinadi). Sabab strukturasi yaxshi mantiqiy tahlil asosida tasdiqlanadi.

Ikkinchi bosqich parametrlar orasidagi aloqalarning shakllari va zichligini aniqlash. Mutaxassislar aloqa xarakteriga ko'ra aloqaning ikki turini ajratganlar: Funksional (to'liq) va korrelyatsion (noto'liq). Funksional aloqada bir parametrning (yoki parametrlar yig'indisining) ma'lum mazmuniga boshqa parametrning mazmuni to'la mos keladi. Bu bog'liqlik analitik funksiya orqali ifodalanishi mumkin. Korrelyatsion aloqada har bir aniq holatda ikki (bir necha) parametrlar mazmunlari o'rtasida qat'iy muvofiqlik mavjud bo'lmaydi. Parametrning bir mazmuniga boshqa parametrning (ba'zi diapozonda) bir necha mazmunlari mos keladi. Aloqa ko'p holatlarda tavsiflanishi mumkin. Umuman olganda, korrelyatsion aloqa faqat o'rganilayotgan hodisaning ko'p sonli kuzatuvlari o'rganilishi natijasida aniqlanadi va uning aniq va kuzatuvda tasdiqlanishi shart emas. Korrelyatsion tahlil uchun birlamchi ma'lumot kuzatuv yo'li bilan olingan empirik ma'lumotlar hisoblanadi.

Uchinchi bosqich aloqaning analitik ifodasini aniqlash, muvofiq matematik tenglamani tuzish (tenglama tizimi).

To'rtinchi bosqich ishlab chilgan model asosida o'rganilayotgan hodisaning bashorati.

Bashorat modellarining ishonchligini va asoslanganligi avvalambor foydalaniladigan o'zgaruvchanlarga bog'liq tashqi siyosat rivojining ko'rsatkichi sifatida mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, harbiy salohiyati, boshqa davlatlar bilan savdo-sotiq aloqalari va boshqalar xizmat qilishi mumkin. Ayniqsa, sifat belgilari muhim ahamiyat kasb etadi: davlatning ijtimoiy-siyosiy yo'nalishi, uning dunyoviy geosiyosiy jarayondagi o'rni va ro'li. Ko'rsatilgan "makroomillardan" tashqari, siyosiy vaziyatlarning yuzaga kelishi va rivojlanishida ularning u yoki bu mintaqadagi spetsifikasini aks et-

tiruvchi ko'rsatkichlar muhim rol o'ynaydi. Masalan, islom an'analari tarafdorlari bo'lgan diniy guruhlar o'rtasidagi ziddiyatning kuchayishi chuqur iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy sabablar tufayli Eronda yuzaga kelgan inqilobiy o'zgarishlarning jadallashuvida muhim rol o'ynadi. Bunday faktorlarning sezilarli ahamiyati qaltis vaziyatlarda namoyon bo'ladi. Qaltis vaziyat kutilmaganda yuzaga kelgani uchun, ularning vaqtini va xususiyatini bashorat qilish qiyin. Qaltis vaziyatni yuzaga keltiruvchi sabablar o'z ahamiyati darajasini o'zgartirishi, siyosiy jarayonning xarakteri va tempiga ta'sir qilishi mumkin, bunda ular o'zaro ta'sirning dinamikasini, siyosiy jarayon xarakterini ifoda etadi. Siyosiy jarayonlardagi sifat o'zgarishlar, notinch rivojlanayotgan muhit onlari mutloq aniqlik bilan bashorat qilinishi mumkin emas, ammo "beqarorlik"ning paydo bo'lish o'rinlari mutanosib tizimlarning tahlili orqali bashorat qilinishi mumkin. Siyosiy dinamika tushunchasi bu borada juda katta ahamiyatga ega, zotan, u siyosiy aloqalarning barcha usullari evolyutsiyasi tempini baholashga, bo'lajak voqeaning katalizatori sifatida o'rtaga chiqadigan omillarni "tanish"ga yordam beradi.

XM regionidagi integratsion jarayonlar va XA tizimidagi global o'zgarishlar o'zaro aloqasi bashoratning yangi zamonaviy va an'anaviy metod va usullarini, xususan, avval yetarlicha e'tibor qilinmagan tanqidiy gepopolitika usullarining faol qo'llanilishini talab qiladi. Bunda hozirda eng ko'p tarqalgan yondashuvlar iqtisodiy, geosiyosiy, sotsiologik va madaniy-diniy yondashuvlar hisoblanadi.

Bashoratning maxsus usullari va vositalari bilan bu yondashuvlarni o'zaro bog'lash va to'ldirish tadqiqotning obyekti va predmeti, aniq maqsadi va vazifalari bilan belgilanadi.

Ayni paytda siyosiy hayot xuddi insonlar va jamiyatning boshqa hayotiy faoliyatlari doirasi kabi ahamiyatli, barqaror, takrorlanuvchi va zarur aloqalar, munosabatlarga, ya'ni obyektiv qonuniyatlarga ega, ijtimoiy-siyosiy soha qonuniyatlari har doim ham voqelanmaydigan an'ana yoki imkoniyat sifatida namoyon bo'ladi. Bu, albatta, siyosiy bashoratlarni ishlab chiqishni qiyinlashtiradi.

Bashoratning obyekt asosi jamiyatning siyosiy sohasi tizim qurilmasini tashkil etadi. Har qanday tizim-ma'lum yaxlitlikni hosil qiluvchi o'zaro aloqador va o'zaro ta'sirlanuvchi unsurlar yig'indisidir. Tizimning xususiyati uning qismlari xususiyatlari jami bilan belgilanmaydi. Tizim o'z qismlariga faol ta'sir ko'rsatadi va o'z tabiatiga mos ravishda o'zgartiradi. Ayni paytda ayrim unsurlarning o'zgarishi butun tizimning ma'lum o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Tizim mohiyatan ierarxikdir,

uning har bir unsuri o'z navbatida alohida tizim sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. o'rganiluvchi tizimning o'zi nisbatan keng tizimning faqat bir bo'lagini tashkil etadi. Bularning hammasini siyosiy bashorat maqsadi va vazifalarini belgilashda, bashoratni ishlab chiqish, ularni amaliy siyosatda qo'llashda hisobga olish kerak.

SEMINAR

Ma'ruzalar va muhokamalar uchun mavzular:

1. XM ning siyosiy bashorati
2. Bashorat metodining tasnifi
3. XM bashoratida metod tanlash muammosi

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Цыганков П.А. Теория международных отношений. –М. 2003.
2. Бестужев-Лада И.В. Нормативное социальное прогнозирование: возможные пути реализации целей. –М., 1987.
3. Горелова В., Мельникова Е. Основы прогнозирования систем. –М., 1986.
4. Григорьев В. Прогноз в управлении. –М., 1985.
5. Игнатьева О. Основы прогнозирования. –М., 1982.
6. Лисичкин В. Теория и практика прогностики: методологические аспекты. –М., 1972.
7. Политический риск: анализ, оценка, прогнозирование, управление / Под ред. Ш.З.Султанова. –М., 1992.
8. Социальное прогнозирование и моделирование. –М., 1995.
9. Краснов Б.И. Политическое прогнозирование. Анализ политической ситуации. Метод сценариев // Общая и прикладная политология / Под общ. ред. В.И.Жукова, Б.И.Краснова. –М., 1997. –С. 783–797, 805–816.
10. Нецадин А., Малютин М. 1999: Попытка политического прогноза // Вопросы экономики. 1999. № 3. –С. 4–20.
11. Сидельников Ю.В. Теория и организация экспертного прогнозирования. –М., 1990.
12. <http://www/intertrends.ru>
13. <http://www/jahon.mfa.uz>

13- Ma'ruza: Eskplikativ metodlar

Reja:

1. *Kontent – tahlil*
2. *Ivent – tahlil, kognitiv kartirlash metodi va eskplikativ metodning boshqa turlari*

Tayanch soʻz va iboralar:

kontent-tahlil, oʻlchov birligi interkodlashtirishning ishonchliligi, ivalent tahlil, kognitiv kartalash metodi, regressiv tahlil, omil faktori, dispersion tahlil, korreksion tahlil, klaster tahlil, diskriminant tahlil.

Keng tarqalgan eskplikativ metodlarga kontent-tahlil, ivalent-tahlil, kognitiv kartalash metodi va ularning koʻp sonli turlari kiradi.

Kontent-tahlil

Tadqiqotchining savollariga eng yaxshi javobni turli axborot manbalarini oʻrganish beradi. Umuman bu manbalarni 3 kategoriya-larga boʻlish mumkin: ichki kelib chiqish manbalari (oʻrganilayotgan individ, muassasa yoki hukumat tarkibi) va ichki yoʻnaltirilganlik (masalan, qaror qabul qilish jarayonini aks ettiruvchi ichki sirkulyar-lar) tashqi yoʻnaltirilgan ichki kelib chiqish manbalari va nihoyat ichki yoʻnaltirilgan tashqi kelib chiqish manbalari (masalan, resi-pientga qaror qabul qilish uchun birlamchi material yetkazib beruv-chi saylovoldi tashviqot).

Ularining barchasi siyosiy harakat mohiyatini yanada chuqurroq oʻrganishga imkon yaratadi. Bu imkoniyatning eng maʼqul metodi bu kontent-tahlil, yaʼni information manba mazmuni va shakllari bahosi va interpretatsiyasi (tushuntirish), tizimiy sonli qayta ishlov hisoblanadi. Ilk bor bu metod amerikalik tadqiqotchi G.Lassuel va uning hamkasblari tomonidan siyosiy matnlarni siyosiy yoʻnaltirilganligini oʻrganishda qoʻllagan va 1949 yilda bu metodni tavsiflab berishgan.

Kontent-tahlil - yozma yoki ogʻzaki matnlarning rasmiy va neytral matn mazmunini tizimli oʻrganilishi. Bunda matnlarda koʻp qaytariladigan soʻzlar va syujetlarni qayd etish orqali oʻrganilayot-gan matnning siyosiy yoʻnaltirilganligi aniqlanadi.

Qoʻllash bosqichlari: 1. Birlamchi ishlovdan oʻtgan axborot ma-teriali bilan bogʻliq holda matn tuzilmasini chizish. 2. Axborot yi-

g'indisini matritsa jadvallari yordamida qayta ishlash. 3. Axborot materiallari kvantifikatsiyalashtirish.

Kontent-tahlilga tayyorlanish quyidagi amaliy bosqichlardan iborat:

1. O'rganiladigan xabarlarining yig'indisini aniqlash. O'rganilishi kerak bo'lgan ma'lumotlar berilgan mezonlar yordamida aniqlanadi. Bunda xabarlar mazkur mezonlarga to'g'ri kelishi kerak (xabarlar tipi, xabarlarining produsent tipi, kommunikatsiyada ishtirok etivchi taraflar, xabarlarining tarqalish joyi, paydo bo'lish tezligi, minimal hajmi yoki uzunligi, xabar tarqalishining vaqti va tarqalish usuli). Kontent-tahlilga tayyorlanishning asosiy vazifasi bu mezonlardan ma'lum bir tadqiqot masalasiga bevosita doir bo'lganlarini tanlashdan iborat.

2. Qaysi ma'lumotlarni nisbatan batafsil o'rganilishini hal qilish kerak. Bu tahlilda asosan oddiy tasodifiy tanlov va tizimli tasodifiy tanlov metodi ko'proq qo'llaniladi.

3. O'lchov birligi, agar umum iste'moldagi atamani qo'llasak - **tahlil birligi** haqida qaror qabul qilish. Kontent-analitik tahlilda tahlil birligi biz o'rganadigan, hisoblaydigan yoki baholaydigan xabarning alohida unsuri yoki xususiyati. Axborotning eng oddiy unsuri so'zdir. U kontent-tahlilda bevosita ishlatilishi mumkin.

Shunday qilib, metodning mohiyati shundan iboratki, aniq bir kalit so'zlar belgilanadi va ularning xabarda qancha ko'p ishlatilgani ham hisoblaniladi. Ammo bu oddiy jarayonda ham ikki asosiy xatoga yo'l qo'ymaslikka urinish kerak. Birinchidan, nostandart o'lchovlarni qo'llash natijalarning aralash ketishiga olib keladi. Masalan, "talaffuz etilgan kalit so'zlar soni" kabi aniq ko'rsatkichdan foydalanish ham ikki ma'nolilikni yuzaga keltirishi mumkin va tadqiqotchi buni ko'ra olishi va bartaraf eta olishi kerak. Chunki bunga bog'liq ravishda qabul qilingan (yoki qo'ldan chiqarilgan) qarorlar umumiy xulosaga kuchli ta'sir etishi mumkin. Ikkinchi ehtimoliy xato so'zlarning qo'pol hisob-kitobida ko'rinadi, chunki bitta so'z har xil kontekstlarda qo'llanilib turli xil ma'nolarni berishi mumkin. Shuning uchun so'zlarni sanayotganimizda kontekstni hisobga olish kerak. Bunda eng kamida ikki imkoniyatimiz bor. Bir tomondan, biz arbitrlar yoki kodlovchilar, ya'ni tadqiqot guruhi a'zolari fikrini qo'llashimiz mumkin. Tadqiqot guruhi a'zolari vazifasiga kalit so'zlar kontekstini o'qish va pozitivlik, negativlik yoki neytrallik nuqtai nazaridan baholash kiradi. Kontekstdagi alohida so'zlar interpretatsiyasining boshqa ehtimoliy yo'li (bu muammoni qisman hal qilish imkonini bersa-da) ko'rib chiqilayotgan

tahlil birligiga ikkinchi birlik – *mavzuni* qo‘shishdan iborat. Mavzu – bu, frazada, gapda, hattoki abzasda aks etgan so‘z yoki tushunchalarning ma’lum bir birikmasi. Ammo bir mavzu turli shaklda, turli so‘z birikmalari yordamida eslatilishi mumkin. Ba’zida bu, berilgan mavzuni tanishimiz uchun kerak bo‘lgan eksplitsit belgilardan butunlay yoki qisman xoli bo‘lgan nozik ishora.

Tadqiqotlarda kontent-tahlil bilan birga qo‘llaniladigan uchinchi unsur bu, yaxlitlikda ko‘riladigan predmet. 1935 yilda AQShda nashr qilingan, sotsializmni targ‘ib qiluvchi kitoblarning foizi qancha? 1932 yilda prezidentlikka nomzodlardan qaysi biriga ko‘proq gazetalar yon bosishgan?

Umuman tahlilning natijalari ko‘p jihatdan komponent tahlil natijalaridan kam emas. Qaysi fakt muhimroq: misrliklarning BMTdagi chiqishlarida yetti marta “tinchlik” so‘zini ishlanganlarimi yoki ular tomonidan tinchlikparvarlik ruhidagi nutq so‘zlanganimi? Yoki qurollsizlantirishga qobiliyatsizlikka ishora qiluvchi uchta yashirin, harbiy ekspansiyaga ishora qiluvchi ikkita tanqidiy ifodani bildiruvchi AQShning Iroqqa intervensiya to‘g‘risidagi to‘rtta ochiq eslatmasimi yoki AQShning yozilishiga ko‘ra ahmoqxona deb baholanuvchi nota yuborganimi? Kontent tahlilda ba’zida har doim tahlil vositalarning yetishmasligi sababli-biz daraxtlar ortidan o‘rmonni ko‘rmasligimiz kabi, qismlari ortidan axborotni ko‘rmasligimiz mumkin. Shuning uchun o‘lchov birligini tanlashda juda ehtiyot bo‘lish kerak va iloji boricha tadqiqotni o‘tkazish uchun nisbatan istiqbolli va mutanosib birlikni tanlash muhim.

So‘z, mavzu, xabarlar tadqiqotiga asoslangan kontent-tahlil tadqiqotchining e’tiborini xabarning mazmun mohiyatiga yo‘naltiradi. Shunday qilib, bu unsurlarni tahlil etmoqchi bo‘lganimizda, ularning *mazmunini* ko‘ra bilish va bizning kutishlarimizga mos ehtimoliy kuzatuvni belgilashni bilishimiz kerak. Bu shuni anglatadiki, kontent-tahlilni o‘tkazishning birinchi bosqichida o‘ziga xos lug‘atni yaratishimiz kerak. Bu lug‘atda bizning har bir kuzatuvimiz ta’riflanishi va mutanosib guruhga kiritilishi kerak. Tahlilni boshlashdan avval, bu vaziyatda qaysi so‘z (yoki so‘z birikmasi) kalit so‘z ekanligini aniqlashimiz kerak. Muammo shundaki, biz nafaqat uchratishimiz mumkin bo‘lgan eslatmalarni yoki ularning kontekstual qo‘llanilishi unsurlarini oldindan ko‘ra bilishimiz kerak.

**Ilg'or g'arb gazetalarining ayrim nomzodlarni
qo'llab-quvvatlashdagi ba'zi iboralar namunalari**
(tasodifiy tartibda)

Eng yomonlarning eng yaxshisi.
Mavjud bo'lganlarning eng yaxshisi.
Raqibiga qaraganda yaxshiroq.
Bizning asosiy tanlaganimiz.
Ko'pchilik kandidatlar orasidagi eng yaxshi kandidat.
Orzu qilingan kandidant.
Mashhur arbob.
Istiqbolli arbob.
Millatning eng yaxshi o'g'loni.
Ikki yovuzlikning eng kichigi.
Tanlash jarayonini ko'rsatkichiga ko'ra eng yaxshi ko'rsatkich.
Bizning o'zgarmas suyukligimiz.
Bugungi kundagi kerakli odam.
Ma'qul kandidat.
Anchagina ma'qul kandidat.
Ayrim shartlar bilan tavsiya etamiz.
So'zsiz tavsiya etamiz.
Gap-so'zsiz qo'llab-quvvatlaymiz.
Chin dildan tavsiya etamiz.
Qo'llab-quvvatlaymiz.
Bajonidil sizning e'tiboringizga tavsiya etamiz.
Uning "uchun" ovoz berishga da'vat etamiz.

Eng qiyin vazifa, asosiy eslatmalarda aniq baholarni qayd etish zaruratidir. Ushbu vazifa ayni eslatmaning bizni qiziqtirayotgan obyektning ijobiy yoki salbiy taraflarida pozitiv yoki negativ ma'noda qo'llangani haqida qaror qabul qilganimizda yoki eslatmalarni ular bahosi asosida ketma-ket joylashtirganimizda kerak bo'ladi (ulardan qaysi biri eng ijobiy va yana qaysi biri ulardan keyin ijobiylikda turishi). Bunda biz o'ta nozik ko'rsatkichlarga muhtoj bo'lamiz, biz ular bilan nafaqat siyosiy sub'yektlarning kayfiyatini, balki ular kayfiyatining kuchini ham o'lchay olishimiz mumkin. Bunga oid holat 13.1 jadvalda tasvirlangan. Shunga o'xshash qarorlarni qabul qilishning bir necha usullari mavjud. Ro'yxatga olishning 2 ta mashhur usuli mavjud: Q- saralash metodi va juft taqqoslashni shkalalashtirish yo'li.

Xabarlarining mazmuniy qismini anglatuvchi soʻzlar, mavzular va boshqa unsurlardan tashqari shakliy kontent-tahlilni oʻtkazishning boshqa birliklari ham mavjud. Bu holatda bizni nima gapirilishi emas, balki qanday va qancha gapirilishi qiziqtiradi. Bizni mazmunning maʼno qirralari emas, balki xabarni taqdim etish usuli qiziqtiradi. Biz mavzuning mazmunidagi nozik farqlarini emas, balki mavzuga oid materialning mavjudligi yoki yoʻqligi, uning ajratilganligi darajasi, uning oʻlchamini kuzatib boramiz. Buning oqibatida biz, koʻpincha mazmunga yoʻnaltirilgan tadqiqotga qaraganda ishonchli oʻlchamdagi, lekin oʻta muhim boʻlmagan tahlillarni qoʻlga kiritamiz. Shuni taʼkidlab oʻtish lozimki, bunday turdagi oʻlchov har bir xabarning mazmuniy qismiga yuzaki taʼsir koʻrsatadi. Shakliy kontent-tahlil amalga oshirish va qayta ishlashda juda qulay, shuning uchun mazmuniy kontent-tahlilga qaraganda arzon va ishonchliroq, struktur kontent-tahlil aniq ilmiy savolga javob berishda koʻpincha ancha adekvat boʻlishi mumkin.

Xabarlarni tahlil qilayotgan paytda biz ularning mazmuniy qismini aniq maqsadlari kontekstida asoslab berishimiz kerak. Axborotni muomalaga kiritish maqsadi kontekstning mohiyatini tushunishda omil sifatida qayta koʻrilib chiqiladiki, biz imkon qadar uni kontekstdan chiqarib olishga harakat qilishimiz zarur.

U yoki bu xabarning tarqalish xarakterida uning maʼnosidagi koʻp narsani noaniq koʻrsatib berish mumkin. Agar biz baʼzi bir xabarga ayni bahoni berishimiz kerak boʻlsa, biz u kimga yuborilishini va qanday tarqalishini bilishimiz kerak. Biz xabarning tarqalish doirasini oʻlchashimiz yoki baholashimiz zarur. Bu maʼlumot bizga tahlil qilinayotgan materialning ahamiyatini muhokama qilishda yordam beradi.

Bizni qiziqtirayotgan xabarlarga erishish darajasini toʻgʻri baholay olishimiz zarur. Bunda biz natijalarning umumlashtirilishi muammosiga duch kelamiz: muammo tadqiqot qilinayotgan xabarlar yigʻindisining undan tanlab olishni hisobga olmaganida, reprezentativligidadir. Agar yigʻindi taqdimotga arzimasa, tadqiqotchida xushyorlik yetarli boʻlmasa, u eng kamida adashishi mumkin, yoki undan ham yomonroqʻi, ongli manipulyatsiyaning obyekti boʻlishi mumkin. Bunday holatlarning har birida asosiy muammo shundaki, loyiq baho uchun muhim boʻlgan axborotni biz ololmasligimiz mumkin.

Va nihoyat, **interkodlashtirish ishonchliligi** haqida gapirib oʻtish joiz. Tadqiqotchilar oʻrtasida oʻlchovlarning mazmuni haqida maʼlum

darajada konsensusga erishsa, o'lovlar yetarlicha ishonchli hisoblanadi. Politologiyada konsensusning bunday darajasini ifodalashda interkodlashtirishning ishonchliligi atamasi qo'llaniladi. U qanchalik yuqori bo'lsa, shunchalik yaxshi. Interkodlashtirishning ishonchliligini oshirish uchun quyidagi qoidalaridan foydalanishimiz mumkin.

1. Har qanday o'zgaruvchanlikning operatsionalizatsiyasiga ehtiyotkorlik bilan va puxta yondashish kerak.

2. Imkon qadar ko'p sonli kuzatuvchilarning kodlovchilik xizmatidan foydalaning.

3. Kuzatuvchilarning o'zaro bir-biriga ta'sir ko'rsatishiga imkon yarating.

Kontent-tahlil keng miqyosdagi tatbiq doirasi arzonligi, tanlovning o'rta hajmi, ma'lumotlarga erishishning osonligi bilan xarakterlanadigan metodikadir.

Biroq u boshqa usullarga qaraganda kuzatuv jarayonining barcha doimiy monitoringini va barcha o'zgaruvchanliklarning puxta operatsion tahlilini talab qiladi. Bunga ko'ra biz faqat kontent-tahlil bilan erishib bo'lmaydigan, kontekstda izohlanadigan yuqori informatik natijalarni olishimiz mumkin. Shu sababga ko'ra, ko'pincha bu metod ma'lumot to'plashning boshqa metodlari bilan birgalikda qo'llaniladi (so'rov, bevosita kuzatuv).

Invent-tahlil, kognitiv kartalash metodi va eksplikativ metodning boshqa turlari

Eksplikativ usullar guruhiga quyidagi usullar kiradi:

Ivent-tahlil. Bu usul ommaviy axborotni qayta ishlashga qaratilgan bo'lib, "*kim, nimani, kimga nisbatan, qachon* gapiryapti yoki qilyapti" savoliga javob beradi.

Ma'lumotlarni sistemalashtirish va qayta ishlash quyidagi belgilarlarga binoan o'tkaziladi.

1. Subyekt-tashabbuskor (kim); 2. Syujet yoki "issue area" (nima); 3. sub'yekt nishon (kimga nisbatan); 4. voqea sanasi (qachon).

Bu yo'l orqali sistemalashtirishda voqea jadvashtiriladi, ro'y-xatga olinadi va EHM yordamida o'lchanadi.

Kognitiv kartalash usuli. U yoki bu siyosatchi muayyan siyosiy muammoni qanday qabul qilishi tahliliga yo'naltirilgan (bu usulning asoschilari amerikalik olimlar R.Snayder, H.Bruk, B.Sepin, 1954y).

R.Jervis 1976 yilda o'zining "To'g'ri va noto'g'ri qabul qilish" (misperception) nomli ishida u yoki bu rahbarning qaror qabul qili-

shida hissiy faktorlar bilan bir qatorda kognitiv faktorlar ham ta'sir qilishini ko'rsatib bergan. Shu nuqtai nazardan LPR qabul qilayotgan axborot ularning tashqi dunyoga shaxsiy qarashlari asosida o'zlash-tiriladi va tartibga solinadi.

Dispersion tahlil. Dispersion-tahlilning asosiy maqsadi o'rta katta taliklar orasidagi farqning ahamiyatini tadqiq qilish hisoblanadi. Xalqaro vaziyatning tadqiqini o'z-kazishda natijalarning qiyoslanishi to'g'risidagi savol ko'pincha ko'ndalang qo'yiladi. Masalan, ikki yoki undan ortiq davlatlarning tashqi siyosiy aksiyalari natijalarini taqqoslashda tahlillar ma'lumotlari bir-biridan qanchalik farq qilishi yoki farq qilmasligi haqida xulosa chiqarishimiz zarur. Alohida ko'rsatkichlarni qiyoslashning hech qanday ahamiyati yo'q, shuning uchun taqqoslash jarayoni va keyingi baholash ba'zi bir o'rtacha qiymat va bu o'rtacha qiymatdan chetlanishga ko'ra belgilangan variatsiyasi o'rganiladi. Variatsiya o'lchovi sifatida dispersiya qabul qilinishi mumkin.

Korrelyatsion tahlil. Statistik tahlil metodi bo'lib, ba'zi bir o'zgaruvchanlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash va ular orasidagi yaqinlikni belgilashda qo'llaniladi. Voqelikni o'rganish har bir o'rganilayotgan belgining variatsiyasi tadqiq qilinayotgan birliklarning yig'indisini xarakterlovchi boshqa belgilarning variatsiyasi bilan yaqin aloqada bo'lishini ko'rsatadi. Davlatlarning tashqi siyosiy faoliyatini ro'yobga chiqarish uchun so'nggi natijaga turlicha ta'sir ko'rsatadigan har xil omillarni hisobga olish kerak. Korrelyatsion tahlilni o'tkazishda quyidagi ketma-ketlikka rioya qilinadi:

- tadqiq qilinayotgan hodisaga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning yig'indisini aniqlash (mantiqiy sifat tahlili yordamida);

- hodisa va faktorlar orasidagi aloqa shakllarini belgilash (grafik usul qo'llanilishi mumkin, bunda aloqani tavsiflovchi to'g'ri yoki egri ko'rinish belgilanadi).

- aloqalar yaqinligining o'lchovi - korrelyatsiya koeffitsientining aniqlanishi.

Kuzatilayotgan parametrlarning empirik ahamiyatiga ko'ra grafik qurilishi aloqa shakllarini o'rnatishga yo'l qo'yadi. O'rta chiziqlar atrofidagi tarqoq nuqtalarga ko'ra aloqaning yaqinligi haqida gapirish mumkin.

Regression-tahlil. Ba'zi o'zgaruvchanning analitikka ma'lum boshqa o'zgaruvchanlarga bog'liqligini aks ettiruvchi tenglama tuzishga imkon beruvchi statistik tahlil metodi hisoblanadi. Masalan,

mamlakat tashqi siyosiy harakatining iqtisodga bogʻliqligi aloqa shaklini tasvirlayotgan tenglamaning topilishi. *Regression-tahlilning asosiy maʼnosi bu, oʻrganilayotgan obyektning bashoratli mazmunini aniqlashga yordam beradigan tenglama belgilashdir.*

Faktor tahlil. Baʼzi bir tadqiq qilinayotgan oʻzgaruvchanga taʼsir koʻrsatuvchi oʻzgaruvchanlar (omil) yigʻindisini namoyon qiladigan statistik tahlil metodi hisoblanadi. Geosiyosiy sharoitlar va xalqaro aloqalar hodisalarining turli-tumanligi holatida oxir-oqibat ularning asosiy vazifalari roʻyxatini tuzish mumkin. Analitik vazifaning qoʻyilishi, oʻrganilayotgan holatni xarakterlovchi koʻrsatkichlar orasidagi oʻzaro bogʻliqlikni tasvirlovchi mos modelni izlash hisoblanadi. Boshqa soʻz bilan aytganda, tashqi va ichki siyosiy omillarning, xususan, davlatning tashqi siyosiy faolligiga taʼsir koʻrsatuvchi iqtisodiy va madaniy-ruhiy omillarni tanlash va ularning bir-biriga taʼsiri hamda ahamiyatini baholash kerak. Umuman olganda, tashqi siyosat marketingdagi barcha tahliliy vazifalarni faktor- tahlil doirasida koʻrib chiqish mumkin.

Marketing maʼlumotlarini guruhlariga ajratish metodlari: klaster tahlil va diskriminant tahlil. *A.Klaster tahlil.* Koʻpchilik obyektlarni bir turdagi obyektlarga nisbatan oʻzaro toʻqnashmaydigan koʻpgina obyektlarga ajratishga imkon beradigan statistik tahlil metodi hisoblanadi. Bunda eng muhim vazifa – *aniqlangan belgilarning klassifikatsiyasidir.*

Odatga koʻra, bu vazifa quyidagicha hal qilinadi. Tadqiqotchi nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda tasvirlanilayotgan obyektlarning koʻpchilik belgilaridan biri - eng informativi tanlab olinadi. Agar bir necha belgilariga koʻra, klassifikatsiya qilish talab qilinsa, u holda muhimlik darajasiga koʻra roʻyxat tuziladi va birinchi belgisiga koʻra klassifikatsiya qilinadi. Keyin qoʻlga kiritilgan kichik sinflar ikkinchi belgisiga va boshqa belgilariga koʻra kichik sinflarga boʻlinadi.

Bu yoʻl orqali koʻpchilik kombinatson statistik guruhlar tuziladi.

B.Diskriminant tahlil. Obyektlarning ikki yoki undan ortiq kategoriyalarining farqlanishi belgilarini aniqlash uchun qoʻllaniladigan statistik tahlil metodi. Tadqiqotchi allaqachon “oʻqituvchi” tanlovlariga ega boʻlganida, diskriminant tahlil vaziyatning kuzatuvlari klassifikatsiyasining statistik metodlarini oʻzida mujassam etadi. Diskriminatsiya qoidalari, umumiy yigʻindi ichidan olingan tanlo-

vimizdagi ma'lumot asosida aniq tanlov haqidagi aprior ma'lumot optimizatsiya tamoyiliga muvofiq tanlanadi. Bunda optimizatsiyaning aprior imkoniyatlari berilishi ham, berilmasligi ham mumkin.

Berilgan metodlar guruhining afzalligi tashqi siyosatning voqeasi yoki hodisasining modeli insonning aqli va tasavvuri tahlil qila olish qobiliyatiga ega bo'lmagan ko'pgina o'zgaruvchanlarni va holatlarini aniqlash va tadqiq etish asbobi sifatida namoyon bo'ladi.

Biroq shuni ta'kidlab o'tish joizki, biz bu yo'lni faqatgina voqeaning sababiy qurilishi barqaror bo'lgan paytdagina qo'llashimiz mumkin. Demak, eksplikativ modellar asosidagi bashorat ikkinchi tartibdagi ekstropolyatsiyani nazarda tutadi.

SEMINAR

Muhokama uchun mavzular:

1. Kontent-tahlil
2. Kognitiv kartirlash
3. Ivent-tahlil
4. Faktor-tahlil
5. Korrelyatsion tahlil
6. Dispersion tahlil
7. Marketing ma'lumotlarni guruhlash metodlari

Adabiyotlar ro'yxati:

1. *Цыганков П.А. Теория международных отношений. –М. 2003.*
2. *Джарол Б.Мангейм, Ричард К.Рич. Политология. Методы исследования.*
3. *<http://www.intertrends.ru>*
4. *<http://www.cer.uz>*
5. *<http://www/jahon.mfa.uz>*
6. *<http://www.uza.uz>*

14 - Ma'ruza: Xalqaro munosabatlarda qiyosiy metod

Reja:

1. *Qiyosiy tahlili haqida tushuncha*
2. *"Ko'chmanchi" savollarning aniqlanishi*
3. *Ekvivalent o'lchovni axtarish*
4. *Tadqiq uchun davlatlar tanlovi*
5. *Mustaqil kuzatuvlar tanlovi*

Tayanch so'z va iboralar:

Qiyosiy tahlil, ko'chmanchi savollar, ekvivalent o'lchov, maksimal o'xshashlik tamoyili, maksimal farq tamoyili, diffuziya, Galton muammosi.

Qiyosiy tahlil haqida tushuncha

Agar biz siyosiy hodisalarni oldindan bashorat qilishni va ularni yaxshiroq tushuntirishni o'rganishni xohlasak, bunda biz qiyosiy tahlilga murojaat qilganimiz ma'qulroq. Bu yo'l bizga keng miqyosdagi ma'lumotlarni amalda qo'llash imkoniyatini beradi va shu bilan bir qatorda, alohida bir davlat bo'yicha olingan ma'lumotlar javob bera olmaydigan savollarini kun tartibiga qo'yadi. Bu siyosiy zo'ra-vonlik motivlariga oid bo'ladimi yoki aholining hukumatdan begonalashuvi sabablariga oid bo'ladimi yoki turli xil siyosiy tashkilotlarning davlat siyosatiga ta'siri natijasida yoki boshqa muammolarga tegishli bo'ladimi hamma vaziyatlarda qiyosiy tahlil xulosalarimiz ishonchliligini oshiradi.

Faqatgina bir davlatni o'rganish bilan chegaralanish *madaniy jihatdan shartlangan* natijalarni beradi. Har bir davlat tadqiqot natijalarida siljishni yuzaga keltirishi mumkin bo'ladigan o'ziga xosliklarga egadir.

Faqat bir davlatgagina e'tiborimizni qaratishimiz *tizimli darajadagi* hodisani tahlil qilishga xalaqit beradi. Boshqacha aytganda, davlatni bir butunlikda tavsiflaydigan va o'zaro ikki yoki undan ortiq davlatlarni taqqoslagandagina o'rganish mumkin bo'lgan o'zgaruvchanlar mavjud. Masalan, siyosiy tizim turlari yoki ma'muriy hududiy o'zgaruvchanlar mavjud (siyosiy tizimlar yoki ma'muriy-hududiy tashkilotlar turi).

Qiyosiy tahlil alohida bir madaniyatning tor doirasi ustidan umumlashmalar qilishga imkon yaratibgina qolmay, balki ba'zi tizim xususiyatlarini tekshirishga yordam ham bera oladi. O'z-o'zidan

kelib chiqadiki, bunday tahlil oldingi ma'ruzalarda aytilgan sifat tadqiqotlarining barcha standartlarini qondira olishi zarur. Bundan tashqari keyingi qoidalariga ham rioya qilish kerak.

Birinchi qoida tadqiq etilishi taxmin qilinayotgan obyekt kontseptualizatsiyasiga aloqador hisoblanadi: *biz qo'yayotgan savollar haqiqatan ham qiyosiy tahlilga yo'l qo'yishiga ishonch hosil qilishimiz zarur.*

Ikkinchi qoida, operatsiyonalashtirishni o'z ichiga oladi. *biz foydalanilayotgan har bir o'zgaruvchan bizning tanlovimizdagi har bir madaniyatga muvofiq keladigan tushunchalarga ekvivalent bo'lishi kerak.*

Tanlash jarayoni o'z-o'zidan uchinchi qoidani keltirib chiqaradi: *davlatlarni tahlil qilish uchun tanlaganimizda, natijalarning noto'g'ri chiqishiga sabab bo'luvchi madaniyatning ta'sirini iloji boricha kamaytirishimiz lozim.* Va nihoyat, tanlov yana bir qoidaga mos kelishi muhim: *har bir davlatning kuzatuvlari mustaqil bo'lmog'i shart.*

Endi bu shartlarning qanday qilib olingan natijalarga ta'sir ko'rsatishini tushunish maqsadida har birini alohida ko'rib chiqamiz.

“Ko'chmanchi” savollarni aniqlanishi

Qiyosiy tadqiqotga qo'yilgan birinchi talab bu, faqatgina *har xil* madaniyatga oid savollarni qo'yishdan iborat. Bu qoidaning bunday ifodasi ehtimol oddiy ko'rinishi va sharhga muhtoj emasday tuyulishi mumkin. Biroq uning oddiyligi yuzaki, chunki politologiyada ko'tarilgan ko'pgina savollar davlatning juda ham tor spektrida qo'llanishi mumkin.

Masalan, insonlar nima uchun va qanday ovoz beradilar (odamlarning saylovlarga qatnashishi masalasi) degan savol yomon “ko'chmanchi”dir, chunki faqatgina doimiy saylovlar musobaqa sifatida o'tkaziladigan davlatlardagina tadqiq qilinadi, bu shart dunyoning yarmidan ko'p davlatlarini o'z-o'zidan istisno etadi.

Saylov muammosini tahlil qilish uchun tanlab, biz tadqiq qilinayotgan vazifani davlatning faqatgina *bir qismiga* tatbiq qiladigan atamalar bilan shakllantirdik. Bizning tanlovimiz *ko'pgina* davlatlarni o'zida mujassam etganligi sababli bu, ehtimol, unchalik katta kamchilik bo'lib ko'zga tashlanmaydi.

Lekin yana boshqa muammo ham mavjud, bu ham bo'lsa, saylovning materiallariga ko'ra, nisbatan umumiy xarakterdagi xulosalarni chiqarish muammosidir. Agar biz yanada umumiyroq muammo haqida savollar bera boshlasak, masalan, odamlar siyosat sohasida

biror narsani ma'qullash yoki ma'qullamasliklarini qanday qilib ifodalashlarini bilish uchun savol bersak, oddiy fuqarolar raqobat asosida saylov o'tkazilmaydigan davlatlarda o'z xohish-istaklarini hukumatga boshqa vositalar orqali yetkazish imkoniyatiga egalar. Ya'ni har bir davlatda hukumat faoliyatiga nisbatan fuqarolar o'z noroziliklarini yoki roziliklarini bildirish imkoniyatini beruvchi turli vositalar bo'lishi mumkin. Agar biz raqobat asosida saylov o'tkaziladigan davlatlardagi elektorat faoliyatini o'rganishga tadqiqotimizni yo'naltirganimizda, aynan shuni o'rganishimiz kerak bo'ladi.

Agar biz u yoki bu madaniyatga bog'liq bo'lmagan ishonchli xulosalarni olishni xohlasak, unda biz tadqiqotimizning birlamchi vazifasini shunday shakllantirishimiz kerakki, u bir yoki bir necha davlatlar doirasida umumlasmalar qilish imkoniyatini bera oladigan bo'lishi lozim.

Birlamchi savol biz o'rganayotgan davlatlarga nisbatan qo'llanganda *boadab* bo'lmog'i kerak. Faraz qilaylik, biz AQSh, G'arbiy Evropa va MDH davlatlaridagi ayollar huquqi muammosini o'rganaymiz. Bu davlatlardagi ayollar va erkaklar mavqei orasidagi farqlar va avvalgi sovet mamlakatlaridagi keskin o'zgarishlarni hisobga olganda, so'nggi tahrir qilingan savol shunday yangragan bo'lardi. "Har bir davlatning kun tartibida ayollar huquqiga oid nechta muammoni savol turadi?". Bizning birlamchi savolimiz o'rganilayotgan barcha davlatlarda qo'llanishi mumkin bo'lgan atamalarda qaytadan tuzilishi zarur.

Ekvivalent o'lchovni axtarish

Biz taqqoslashga yo'l qo'yadigan savollarni aniqlab olganimizdan so'ng, barcha o'rganilayotgan davlatlar uchun, **ekvivalent o'lchovni** topishimiz zarur bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, qiyosiy tadqiqot har xil madaniyatlarda bir xil tushunchani anglatishi kerak. Bunga faqat ikki yo'l bilan erishish mumkin: hamma yoqda bir o'zgaruvchanni qo'llash orqali yoki har bitta davlatning spetsifikasiga mos o'zgaruvchanlarni tanlash orqali.

Masalan, biz jamiyatda kamchilik bo'lgan odamlar guruhi huquqiga nisbatan chidamlilik darajalarini solishtirishga qaror qildik, deylik. Bunda ikki yondashuv mavjud.

Birinchidan, har xil davlatlarda insonlar muayyan guruhlariga, masalan, diniy sektalarning siyosiy huquqlari ta'minlashini istash darajasini taqqoslashimiz mumkin. Biroq, agar o'rganilayotgan millatdagi insonlar bunday guruhlariga nisbatan adovat bilan yoki ado-

vatsiz qarasa, bizning o'ldovlarimiz shuni ko'rsatadiki, har xil davlatlardagi insonlarning kamchiliklar huquqiga nisbatan beg'arazligini emas, balki guruhlarining o'zini qabul qilishini bildiradi. Bu bizning beg'arazlik o'ldovimizning har xil davlatlarda ayni bir xil emasligini ko'rsatadi.

Boshqa yo'lni qo'llashimiz mumkin. Odamlar kamchilikni tashkil etuvchi guruhlarining ularga yoqmaydigan siyosiy huquqlarini tan olishni xohlashini bilish orqali. Bunda odamlar mazkur guruhlarining siyosiy huquqini tan olishi darajasi guruhning millatning ko'pchiligi uchun tahdid darajasini ko'rsatishi mumkin. Bunda bizning o'ldov odamlarining siyosiy beg'arazligi darajasiga qaraganda, fuqarolarning qo'rquvi darajasini aks etiradi.

Shunday qilib, bizning taqqoslashimiz muhum bo'lishi uchun *biz qaysi bir davlatni tanlamasak, barchasida ayni bir tushunchani beradigan o'ldov kerak bo'ladi*. Agar bizning o'zgaruvchanlarimiz mazmuni har xil davlatlarda farqli bo'lsa, unda barcha davlatlar uchun bir xil o'ldovlarning qo'llanilishi jiddiy xatolarni keltirib chiqarishi mumkin. Alternativ qaror sifatida har bir o'rganilayotgan davlatlarda muayyan madaniyatga bog'liq ravishda tanlanadigan o'ziga xos o'zgaruvchanni qo'llashimiz mumkin. Bu holda biz bunday o'zgaruvchan ayni bir tayanch tushunchani ifodalayotganiga ishonch hosil qilishimiz kerak.

O'zgaruvchanlar tanlovining oldimizda turgan har ikki imkoniyatlari, ayni bir madaniy chegaralangan ko'rsatkichlarning qo'llanilishi bo'lsa ham o'zining cheklovlariga ega. Ulardan hech biri o'zgaruvchanning ekvivalentligini kafolatlamaydi. Shu bilan birga, bu muammolarni yechishning bir necha yo'llarini tavsiya etish mumkin.

Birinchidan, har bir o'rganilayotgan davlatning madaniyati bo'yicha kuchli bilimlar zarur bo'ladi, zotan, bu, unga nizbatan qo'llanadigan aniq o'ldovni aniqlashga imkon beradi.

Ikkinchidan, murakkab o'ldovlar yoki ko'rsatkichlardan foydalanish zarur. Masalan, agar biz qarshilik o'ldovlarining bir necha usullarini aniqlay olish imkoniga ega bo'lsak, agar ular bizni bir xil xulosalar chiqarishga yo'naltirsa, unda biz o'ldovlarimizni ma'lum darajada ishonchli deb aytishimiz mumkin. Bu strategiyalarga amal qilish barcha o'rganilayotgan davlatlar uchun ekvivalent yoki qiyoslanadigan ma'lumotlarni olishimizga yordam beradi.

Tadqiq uchun davlatlar tanlovi

Keyin tadqiqotchi tanlovning amalga oshirilishi muammosiga duch keladi. Ko'pgina ilmiy savollar borasida mumkin qadar xatoliklarni minimumlashtirish uchun bir necha davlatlardan maxsus tanlangan davlatlarning tanlov guruhi bilan ishlashimizga to'g'ri keladi. Tanlovni imkon qadar ehtiyotkorlik bilan qilish kerak, chunki u natijalarimizga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin. Biz qiyosiy tadqiqotlarda qabul qilingan 2 ta strategiyadan faqat birini tanlash huquqiga egamiz. Birinchisi, **tizimlarning maksimal o'xshashligi prinsipi** bo'lib, o'zaro o'xshash mamlakatlarga diqqat qaratadi. Bunda ular o'rtasidagi umumiy xususiyatlarni tahlil etish davomida konstant sifatida izohlash va keyinchalik ehtimoliy taffovutlar sababli bu konstantlar emas, degan asosnomaga rioya qilinadi. Alternativ sifatida o'zaro maksimal darajada farqlanadigan mamlakatlarni tanlashdan iborat bo'lgan diametral jihatdan butunlay boshqa strategiyadan foydalanish mumkin.

Bu **tizimlarning maksimal farqlash prinsipi** deb ataladi. Agar tanlovimizga kiruvchi davlatlar orasida qandaydir umumiy o'xshashliklarni topsak, unda davlatlar orasidagi farqni izohlarimiz ro'yxatidan chiqaramiz. Bir qator parametrlar jihatidan farq qiluvchi davlatlarning tanlanishi, ular uchun *umumiy o'ziga* xosliklarni tushuntirishdagi *farqlarni* e'tiborga olmasligimizga imkon beradi.

Ikkala strategiyadan qaysi birini tanlash kerak? Javob biz olib borayotgan tadqiqot nazariyasi qay darajada yaxshi ishlanganligiga bog'liq bo'ladi.

Tizimlarning maksimal o'xshashligi prinsipi faqatgina quyidagi hollarda o'rinli bo'ladi: a) bizning natijalarimizga ta'sir ko'rsata oladigan barcha asosiy omillarni belgilash; b) qaysi davlatlarda ularning amalda bo'lishini aniqlash.

Ammo bunday davlatlar doirasiga odatda kam davlat kirganligi sababli, muhim parametrlari jihatidan farq qiladigan misollarni topish oson. Va bu holatda, tizimlarning maksimal farqi tamoyili ko'proq qo'l keladi.

Mustaqil kuzatuvlar tanlovi

Biz qanchalik ko'p davlatni tanlovimizga kiritsak, natijalarimiz shunchalik asosli bo'ladi. Tanlovning katta hajmi asosiy o'zgaruvchanlar bildiradigan tushunchalarning salmoqli guruhi tanlangani ehtimolini orttirar ekan, qo'llanayotgan statistik metodlarga salmoq

beradi. Bu faqatgina har bir kuzatuvning natijasi *mustaqil* bo'lgan-dagina to'g'ridir. Agar bir davlatda ro'y bergan hodisa boshqa bir davlatdagi voqea ta'sirida sodir bo'lmagan bo'lsa, katta tanlov o'z ustunliklarini saqlab qoladi. Agar bu voqealar *mustaqil bo'lmasa*, unda haqiqatdan ham, natijalarimiz ortida 2 ta emas, balki 1 ta ma'lumot yotadi.

Biror davlatda ro'y bergan va boshqa bir davlat hayotiga ta'sir ko'rsatadigan voqealar **diffuziya** deb ataladi. Uning qiyosiy tadqiqot natijalariga ta'sirini tekshirish esa **Galton muammolari** nomini olgan. Bu nom uni birinchi marta izohlab bergan olim nomiga qo'yilgan.

Barcha ma'lumotlar umuman mustaqil bo'lgan tanlovni tuzish anchagina qiyin. Qiyosiy tahlil vositasida o'rganilayotgan deyarli hamma narsada diffuziyaning ayrim darajasi bo'lishi muqarrardir. Agar shunday bo'lsa, uning ta'sirini kamaytirish metodlari kerak bo'ladi. O'z-o'zidan kelib chiqadiki, bunday metodlardan biri, tanlov guruhidagi bir davlatning ikkinchi boshqa bir davlatga ta'sirining belgilarini namoyon etishi va bundan keyin esa, bu belgilarni tahlildan chiqarib tashlashdan iborat.

Ikkinchi usul – bu tizimlarning maksimal farqlari prinsipini qo'llashdir. Bunda maksimal belgilarning soni darajasi b'oyicha farqlanadigan davlatlar va turli davrlarga taalluqli kuzatuvlar tanlab olinadi. Agar diffuziya vaqt o'tishi bilan va masofaga ko'ra ta'sirini kamaytirib borishini hisobga olsak, unda bunday strategiya tanlovimizdagi ma'lumotlarning mustaqil bo'lish imkoniyatlarini oshiradi.

SEMINAR

Ma'ruza va muhokamalar uchun mavzular:

1. Qiyoslash tahlili va unda madaniy omilning o'rni
2. Ekvivalent o'lchov qidiruvi
3. Tadqiq qilish uchun davlatlarning tanlanishi
4. Mustaqil kuzatuvlarni tanlash

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Джарол Б. Мангейм, Ричард К.Рич. Политология. Методы исследования.
2. <http://www/intertrends.ru>
3. <http://www/jahon.mfa.uz>

15- Ma'ruza: XMni tadqiq qilishda modellashtirish

Reja:

1. *Muammoning konseptualizatsiyasi va modellashtirish*
2. *Siyosiy hudud (makon), mikro, makro va mega-siyosat*
3. *M.A Xrustalev bo'yicha xalqaro munosabatlarni tizimli modellashtirish*
4. *XMni modellashtirishning yutuqlari va kamchiliklari*

Tayanch so'z va iboralar:

Modellashtirish, siyosiy makon, mikro-siyosat, makro-siyosat, mega-siyosat, ichki siyosat sohasi, tashqi siyosat sohasi, ma'muriy davlat makoni.

Muammoning konseptualizatsiyasi va modellashtirishi

Modellashtirish anglash obyektlarini, ya'ni voqealar, jarayonlar, tizimlarni modellari asosida tadqiq etish metodi. Modellashtirish, ya'ni modelni yaratish va tadqiq qilish chog'ida qo'lga kiritilgan natijalarni aslyatga ko'chirish imkoniyati, model ma'lum ma'noda uning qaysidir tomonini tasvirlashi, qayta tiklashi, modellashtirishiga asoslanadi. Modellashtirish metodi asosida bashorat qilish model nazariy asosga ega, degan fikrga asoslanadi. Kelajak munosabatlar to'g'risidagi farazni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan nazariya mavjud bo'lmasa, hozirgi kun to'g'risidagi yolg'iz axborotning o'zi buning uchun yetarli emas.

Siyosiy jarayonlarni modellashtirish XX asrning birinchi choragida L.Richard sonning "Urushning matematik psixologiyasi" (1919) asarida boshlangan bo'lib, unda ikki milliy davlat o'rtasidagi qurollanish poygasi modelini yaratish bo'yicha birinchi urinishlar amalga oshirilgan. Ayniqsa, politologiyada 1950-1960 yillardagi "bixevioralistik ko'tarilish" davrida matematik modellar faol qo'llana boshlandi. Bugungi kunda EHM va dasturiy vositalarning takomillashuvi munosabati bilan makro va mikro siyosiy jarayonlarni modellashtirish siyosiy fanlar metodologiyasi taraqqiyotining iqtisqibolli yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqdaki, o'z navbatida ular kichik tarmoqlarga bo'linadi. Masalan, siyosatni tizim shaklida modellashtirishni o'laylik, u siyosiy hayotda davriy shaklda takrorlanuvchi saylov jarayoni

va kompaniyalarini tahlil qilish va taftish etishda, shuningdek, parlament saylovlari natijalarini bashorat etishda faol qo'llaniladigan dinamik va stoxastik modellarni qamrab oladi.

Har qanday ilmiy tadqiqotni o'tkazish ichki mantiqiy o'zaro bog'langan ketma-ket bosqichlarni ko'zda tutadi.

Birinchi bosqich, muammoning konseptualizatsiyasi bosqichi. Muammo konseptualizatsiyasi konkret vaziyatlarda muhim siyosiy subyektlarning manfaatlari ro'yobga chiqishida, davlat boshqaruvi organlari faoliyati, ularning xorijiy hamkorlar bilan o'zaro munosabatlari umuman siyosiy kontekstning ahamiyatli o'zgarishi ta'siri nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi. Ikkinchi bosqich, muammoni modellashtirish bosqichi bo'lib, u biroz soddalashtiruvchi, ammo bir vaqtning o'zida uning nisbatan muhim unsurlari, tuzilishi, ichki va tashqi shakllarining yaxlit qabul qilinishini nazarda tutishga mo'ljallangan tasavvurlarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Boshqacha aytganda, ushbu metod real xalqaro fenomenlar va jarayonlarning unsurlari va munosabatlariga mos keladigan tizimlar, unsurlar va munosabatlarni ifoda etuvchi, su'niy, ideal, xayoliy obyektlarni yaratish bilan bo'g'liq.

Siyosiy hudud (makon), mikro-, makro-, mega-siyosat

Modellashtirish metodini qo'llashda uning *siyosiy hudud*, *mikro-*, *makro-*, va *mega-siyosat* kabi tatbiq etish darajalarini aniqlash zarur. "**Siyosiy hudud (makon)**" kategoriyasi davlat hududi yoki *legitim boshqaruv sohasi* va *davlat hokimyatining turli institutlari nazorati* joriy bo'lgan davlatning alohida ma'muriy birliklari bilan bog'liq, shuningdek, nodavlat *tuzilma bosimi* va *ta'siri zo'nasi*, ya'ni turli ijtimoiy kuchlarning alohida shaxslar va partiyalardan "Grinpis" tipidagi xalqaro ijtimoiy harakatlar va geosiyosiy ta'sirdagi transmilliy korporatsiyalargacha "siyosiy gravitatsiya" maydoni bilan bog'liq bo'ladi. Bunda, avvalo, ko'pincha *ichki siyosat sohasi* ajratiladi va davlat yurisdiksiyasi va legitim nazorati ostidagi hududiy makon sifatida ta'riflanadi, xususan, *tashqi yoki xalqaro siyosat sohasiga* e'tibor qaratiladi, bu soha doirasida xalqaro maydondagi davlatlar va xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga solish vazifasi amalga oshiriladi.

So'nggi vaqtlarda *ichki va xalqaro siyosat makonining o'zaro bir-biriga kirishuvi va birikuvi* yuz bermoqda. Eng avvalo, bu holat

milliy parlamentdagi saylovda ovoz berish okruglari hududining Yevroparlamentdagi saylov kurashi hududi bilan qo'shilishidan yuzaga kelgan Yevropa Ittifoqi kabi millatlararo tuzilmalar sababli vujudga kelmoqda. Shunisi qiziqki, agar XIX asr boshida G.Gegel xalqaro siyosatni ichki siyosatdan aniq ajratib bergan bo'lsa, XX asr oxiridayoq politolog D.Rozenau "post xalqaro siyosat" (post international politics) makonining paydo bo'lishi haqidagi xulosaga keldi. Bu xulosaga ko'ra, post xalqaro siyosatda allaqachon "millat usti" yoki "supra milliy" (supranational) aktorlar faol harakat qilmoqda, va bu aktorlarning milliy davlatlar hamda bu davlatlarda yashovchi xalqlarning to'g'ridan-to'g'ri jalb etilishini taqozo etmaydigan kuch ta'sirining yaxlit zonalar mavjud (masalan, TMK). Siyosiy hayot ishtirokchilarining roli nuqtai nazardan uning makoniy kontinuumi quyidagicha tasniflanishi mumkin: 1) *mahalliy*, 2) *mintaqaviy*, 3) *global* daraja. Ularning aniq mazmuni tahlili tanlangan koordinatlar tizimiga bog'liqdir. Agar global siyosiy makonning hisob nuqtasi sifatida planitar miqyos qabul qilinsa, mintaqaviy siyosat mintaqaviy va submintaqaviy darajadagi (G'arbiy Yevropadagi YEI, Shimoliy va Lotin Amerikasidagi NAFTA va ADI), hatto yanada tor mintaqadagi (ASEAN, Mag'rib mamlakatlari) davlatlar va boshqa ijtimoiy siyosiy agentlarning o'zaro siyosiy munosabatlari doirasi bilan bog'liq bo'ladi, mahalliy siyosat esa milliy davlat darajasidagi siyosiy subyektlar faoliyati bilan bog'langan bo'ladi. Bu holatda e'tibor xalqaro siyosatning davlat ichki hududi ikkilamchi komponent hisoblanadigan makoni xarakteristikasiga berilgan. U yerda, zero, tahlilning boshqa variantida milliy davlat makonida xalqaro munosabatlar faqat tashqi muhit omillari darajasiga ega "global kontinuum" sifatida maydonga chiqishi mumkin.

Mega va mikro-siyosat darajalarini belgilash uchun politalogiyada "makro", "mega" va "mikro" siyosat tushunchalaridan foydalaniladiki, ular siyosiy makonning turli o'lchovlarini va siyosiy munosabatlarning darajalari bilan xarakterlanadi. **Makrosiyosat** (makrosotsiologiya va makroiqtisodiyot kabi) zamonaviy siyosiy hayotning asosiy agenti bo'lgan legitim matbuot hokimiyati tarqalishining ma'muriy - huquqiy chegaralar bilan limitlangan "davlat-millat" funktsionallashuvining makoniy xarakteristikasi bilan bog'langan.

Megapolitika tahlilining yanada yuqori darajasini aks ettiradi, uning mazmuni jahon siyosati mexanizmi va global - planetar darajadagi munosabatga daxildor milliy - davlat va millat usti subyektlarining tashqi o'zaro munosabatlari, aloqalarini qamrab oladi. Va nihoyat, mikrosiyosat go'yoki makrodarajadan keyingi pog'onada individlar va guruhlar o'zaro munosabatlarini tahlil qilish, *guruh dinamikasi va individual xulqning* ichki mexanizmlarini o'rganishga tushadi, yoki mikrosiyosiy jarayonlarga e'tibor qaratadi, ulardan esa, o'z navbatida, makrosiyosiy jarayonlar makoni hosil bo'ladi.

Bunday chegaralashdan turli ijtimoiy darajadagi siyosiy makon spetsifikasi kelib chiqadi. Makrosiyosatning nisbatan yirikroq obyekti hokimiyat vakolati tomonidan chegaralangan *ma'muriy-davlat makonidir*. Aynan davlat ommaviy hokimiyati institutlari harakatlarining rasmiy makoni, konstitutsion-huquqiy va mamuriy-boshqaruv maydoni, davlat konfiguratsiyasi va uning tuzilmaviy birikmalari joylashishi, hudud va o'lcham, shakl va chegaralar siyosiy makonni tahlil qilishda dastlabki zamin sifatida foydalanadi. Global siyosiy muammolarni o'rganishda rasmiy-ma'muriy chegaralar doirasidagi obyektlar bilan birga, "hayotiy manfaatlar zonasi", xalqaro munosabatlarning subyektlari ta'siri, "gravitatsion maydon", geosiyosiy makonda "kuchlar balansi" va boshqa shu kabi konstruktlar ham tadqiq qilinadi. Mikrosiyosatga kelsak, turli darajadagi (federal va mahalliy) ma'muriy-davlat institutlarining hokimiyat kompetensiyasi makoni bilan birga, partiyalar va lobbistik guruhlar, liderlar va saylovchilar guruhlarining "nazorat sohasi" va "bosim o'rni", "manfaatlari va ta'siri zonasi" kabilar qo'llaniladi.

M.A.Xrustalev bo'yicha xalqaro munosabatlarni tizimli modellashtirish

M.A.Xrustalevning "XMni tizimli modellashtirish" asari misolida kompleks modellashtirish metodi ko'rinishini ko'rib chiqamiz. Olim tomonidan yaratilgan nazariy model metodologik (ongning falsafiy nazariyasi), umummilliy (tizimning umummilliy nazariyasi) va qisman ilmiy (XM nazariyasi) yondashuvlar sinteziga tayanadi.

Nazariy modelni yaratish 3 bosqichda amalga oshiriladi. 1-bosqichda "baholash", "operatsional" ikki blokda birlashgan "modeldan avvalgi vazifalar" ifodalanadi. Muallif shu munosabat bilan

“vaziyat”lar va “jarayonlar” kabi tushunchalarni tahlil qiladi. Ular asosida matritsa yaratiladi. Matritsa axborot ta’minoti darajasini hisobga olgan, tadqiqotchiga obyektни tanlashga imkon beruvchi o’ziga xos “xotira”dan iboratdir.

Operatsional blokda, bosh vazifa “umumiy-maxsus-yagona” uchligi xarakteridagi (tipdagi) modellarni (konseptual, nazariy va aniq) va ularning shakllarini (verbal yoki mazmunli, formal, kvantlashgan) ajratishdan iborat. Ajratilgan modellar uning asosiy pallalari (shakl), bosqichlari (xarakter)lari va ularning munosabatlarini aks ettiruvchi modellashtririshning nazariy modelini ifoda etuvchi matritsa shaklida namayon bo’ladi.

2-bosqichda, so’z tadqiqotning umumiy vazifasi yechimining dastlabki nuqtasi sifatida mazmuniy konseptual modelni barpo etish haqida ketmoqda. Matritsa ko’rinishida tasvirlangan ikki tushunchalar guruhi asosida “tahliliy” (mohiyat – hodisa, mazmun - shakl, son - sifat) va “sintetik” (materiya, harakat, makon, vaqt) tadqiqotning umumiy doirasini belgilab beruvchi “universal bilish tuzilmasi - konfigurator” yaratiladi. Keyin, yuqorida ko’rsatilgan har qanday tizim tadqiqotining mantiqiy darajalarini ajratish asosida qayd qilingan tushunchalar reduksiyaga duchor qilinadi, natijada tahliliy (mohiyatli, mazmunli, strukturali, xulqiy) va sintetik (substratli, dinamik, makonli va vaqtli) obyektlar xarakteristikalarini ajratiladi. Shunday qilib, “tizimli mo’ljallangan matrik konfigurator” tuzilmasiga tayanib, XM tizimi evolyutsiyasining spetsifik hususiyatlari va ba’zi tendensiyalari aniqlanadi.

3-bosqichda, XM tarkibi va ichki tuzilishning batafsil tahlili o’tkaziladi, ya’ni uning modellari yaratiladi. Bu yerda XM tizimining tarkibi va tizilishi (elementlar, kichik tizimlar, aloqalar, jarayonlar), shuningdek, XM tizimining dasturlari (manfaatlar, zaxiralar, maqsadlar, harakatlar tarzi, manfaatlar munosabati, kuchlar munosabati, munosabatlar) ajratiladi. Manfaatlar, zaxiralar, maqsadlar, harakatlar tarzi tizimosti “dasturlar” elementlarini tashkil etadi. Tizimni yuzaga keltirmaydigan elementlar sifatida xarakterlanuvchi zaxiralarni muallif vosita zaxiralari (ashyoviy-energetik va axborot) va sharoit zaxiralari (makon va vaqt)ga ajratadi. “XM tizimi dasturi” tizim osti va dasturi elementlari”ga nisbatan hosila hisoblanadi. Uning “tizimni shakllantiruvchi unsuri”, “kuchlar nisbati” tushunchasi hisoblanadi.

Ko'rib o'tilgan dasturning uchinchi hosila elementi muallif tomonidan tizimning o'zi va muhit haqidagi baholovchi tasavvuri deb qabul qilinadigan "munosabat" hisoblanadi. M.A.Xrustalev ana shunday qurilgan nazariy modelga tayanib, jahon taraqqiyotining zamonaviy bosqichi uchun xarakterli real jarayonlarni tahlil qiladi.

XMni modellashtirishning yutuqlari va kamchiliklari

XM tahlilida qo'llanadigan tizimli modellashtirish metodini mufassal ko'rib chiqish, bu metodning va umuman tizimli yondashuvning afzalliklari va kamchiliklarini ko'rishga imkon beradi. Uning afzal jihatlarga tizimli yondashuvning umumlashtiruvchi, sintezlovchi xarakterini kiritish mumkin. Bu metod o'rganilayotgan obyekt yaxlitligini va uni hosil qiluvchi turli-tuman elementlar (tizim osti)ni aniqlashga imkon beradiki, bunda bu unsurlar sifatida xalqaro o'zaro aloqalar ishtirokchilari, ular o'rtasidagi munosabatlar, vaqt-makon omillari, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy yoki diniy xarakteristikalar namayon bo'ladi. Tizimli yondashuv nafaqat XM funksionallashuvidagi u yoki bu o'zgarishni qayd etish imkoniyatini, balki xalqaro tizim evolyutsiyasidagi shunday o'zgarishlarning sababiy aloqasini va davlat harakatiga ta'sir qiluvchi determinantlarini aniqlash imkonini beradi. Tizimli modellashtirish XM to'g'risidagi fanda nazariy tajriba o'tkazish imkoniyati, amaliy metodlar va tahlil texnikasini, ularning turli birikmalarida kompleks qo'llash imkoniyatini beradi, bu yo'l bilan u tadqiqot istiqbollarini va XM hamda jahon siyosatini bashorat qilish va tushuntirishning amaliy ahamiyatini kengaytiradi. Shu bilan birga, ushbu metodning zaif tomonlarini va kamchiliklarini hech qachon e'tiborsiz qoldirmaslik kerak. Eng asosiysi shuki, hech qanday model, hatto o'z mantiqiy asoslanishida benuqson hisoblangan model, uning asosida chiqarilgan xulosalarning to'g'riligiga ishontirmaydi. Doimo u yoki bu muallif tomonidan yaratilgan model va o'rganilayotgan obyekt haqidagi xulosalarning haqiqiy manbasi o'rtasida ma'lum farq mavjud. Tadqiqot modeli natijasi sifatida paydo bo'lgan xulosalar, modelsiz ham ifodalanishi mumkin, deb hisoblanadi. Xalqaro munosabatlar bo'yicha ba'zi mutaxassislar uchun, shunday bo'lsa ham, "xalqaro tizim" tushunchasining afzalliklari shunchalik ravshan-ki, XM fanidagi barcha nazariy maktab va yo'nalishlar vakillari, ayrim istisnolarni hisobga olmaganda, undan foydalanadi.

Tizimli yondashuvning aniq namayondalari tizimli nazariya va tizimli tahlil hisoblanadi.

Tizimli tahlil va modellash tirish tahliliy metodlar ichida nisbatan umumiy hisoblanadi, u ma'lumotlar bayoni, sharhi va tasnifi hamda ularni qayta ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan kompleks tadqiqot usullari, jarayonlar va dissiplinaryalararo xarakterli texnikalar majmuidan iborat, ular asosida va ulardan foydalanish natijasida xususiy xarakterga ega boshqa ko'pgina tahliliy metodlar paydo bolgan va keng tarqala boshlagan.

SEMINAR

Ma'ruzalar uchun mavzular

1. XMda modellash tirish
2. Siyosiy makon, mikro-, makro- va mega-siyosat
3. XMni tizim modellash tirish
4. XMni modellash tirishning afzalliklari va kamchiliklari

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Дегтярев А.А. Основы политической теории: Учеб. Пособие / Ин-т "Открытое о-во". -М.: Высш. шк., 1998.
2. Цыганков П.А. Теория международных отношений. –М. 2003.
3. Джарол Б.Мангейм, Ричард К.Рич. Политология. Методы исследования.
4. [http://www/intertrends.ru](http://www.intertrends.ru)
5. <http://www/jahon.mfa.uz>

16- Ma'ruza: Matematik modellashirish

Reja:

1. *Matematik modellashirish tushunchasi va jarayoni*
2. *Modellashirishni qo'llash sabablari*
3. *Modellarning boshqa tiplari*
4. *Modellashirish bilan bog'liq murakkabliklar*

Tayanch so'z va iboralar:

Model, matematik model, modellashirish

Matematik modellashirish tushunchasi va jarayoni

Model-voqeliklarning soddalashgan ko'rinishi. **Matematik-model** vaziyat yoki jarayonning matematik ifodalarda soddalashgan bayoni. Charls Leyv va Jeyms March modelga shunday ta'rif beradi:

“Model - bu haqiqiy dunyoning soddalashgan manzarasi. U haqiqiy dunyoning ba'zi hossalari o'zida jamlaydi, ammo model real dunyoning barcha xossalari ega. Model ko'pgina o'zaro bog'liq bo'lgan dunyo to'g'risidagi farazlardan iborat. Har qanday manzara kabi model o'zi aks ettirgan hodisadan sodda ko'rinishga ega.”

Ilk bor matematik modellashirish ijtimoiy fanlardan iqtisodiy fanlarga tatbiq etilgan. Aynan o'sha vaqtda psixologiya biologiyaning ba'zi metodlarini o'zlashtirib oldi, o'z navbatida, biologiya bu metodlarni matematik fizika va kimyadan olgan edi. Politologiya bu ikki ilmiy fan izidan borib, 50-60 yillar davomida asta-sekin miqdoriy metodika tomoniga o'tdi. Hozirgi vaqtda ijtimoiy xulq modelidan foydalanish nuqtai nazarida u faqat iqtisodiyotdan ortda qolmoqda.

Bu hayratlanarli bo'lib ko'rinishi mumkin, ammo siyosiy jarayonlar, haqiqatan ham, matematik qayta ishlovga yon bosuvchi qator husisiatlarga ega.

Ko'pgina siyosiy qararlarda sezilarli darajada iqtisodiy komponent bo'ladi. Ham iqtisodiy, ham siyosiy jarayonlar noaniqlik, shuningdek, aniq chegaralov va raqobat sharoitida ratsional (maqsadga yo'nalganlik) qaror qabul qilishni muhim tarkibiy qismi sifatida o'z ichiga oladi. Matematik shaklda aks ettirsa bo'ladigan o'zgaruvchanlar sirasiga saylovlardagi ovoz berish natijalari, harbiy tayyorgarliklar (raketalar, tanklar va b. soni), so'rov chog'idagi siyosiy fikrlar kiradi. Umuman olganda, politalogiyada statistikadan foydalanish matematik fundamentga

tayanadi. Bu sohada miqdoriy tadqiqotlardan matematik modelga o'tishning orasi unchalik katta emas. Nihoyat, matematik model-lashtirish miqdoriy operatsiyalar bilan cheklanmaydi, u siyosiy jarayon-larning sifat xarakteristikalariga ham oid bo'lishi mumkin (saylovlarda qaror qabul qilish yoki saylovchilar ovozining taqsimoti va boshqalar).

Matematik modellar politaloglarga siyosiy jarayonlar xususiyatlarini osonlik bilan o'rganishga yordam beradi. Matematik modelning bir necha tenglamalarida ko'pincha axborotning ulkan hajmi jamlangan bo'lishi mumkin. Ko'p vaziyatlarda siyosiy ja-rayonlarning kompyuteridagi imitatsiyasini qilishga imkoniyat bor. Matematik vositalardan foydalanib, politolog mantiq, statistika, fizi-ka, iqtisodiyot va fanning boshqa tarmoqlarida ishlab chiqilgan ko'pgina metodlardan foydalanishi va ularni siyosiy xulqni o'rganishda qo'llashi mumkin va nihoyat, matematik modellar shakliga ko'ra, aniq va eksplisit bo'lib, voqealar o'rtasidagi taxmin qilingan aloqalarga tegishli noaniqlikka yo'l qo'ymaydi.

Model yaratishning umimiy jarayonini muhokama qilaylik. Model yaratishdagi ilk qadam-indiktuv qadam bo'lib, u modellashtirishi ke-rak bo'lgan jarayonga oid kuzatuvlarni tanlab olishdan iborat. Ushbu boshlang'ich qadamning tasavvur qilishning imkoniy yo'llaridan biri muammoni shakllantirishdan iborat, ya'ni nimani e'tiborga olish ke-rak, nimaga e'tibor bermasa bo'ladi, degan masalani hal etish lozim. Modellashtirish, gipotezani tekshirishga ko'ra, odatda o'zgaruvchan-larning kam miqdorini taqozo etadi, chunki gipoteza o'zgaruvchanning katta miqdoriga oid oddiy jarayonlarni (masalan, chiziqli regressiya) tahlil qiladi, modellarda esa o'zgaruvchanlarning kam miqdoriga oid murakkab jarayonlardan foydalaniladi.

Ikkinchi qadamda, muammoni aniqlashdan noformal modelni yarat-ishga o'tish nazarda tutiladi. Formal model saralab olingan kuzatishlarni tushuntira oluvchi, ammo ayni paytda yetarli darajada qat'iy ajratil-magan va ularning mantiqiy bog'liqligi darajasini aniq tekshirib bo'lmaydigan instrumntlar to'plamidir. Mazkur bosqichda modellarni ishlab chiquvchilarning ko'pchiligi, ayni ma'lumotlarni tushuntirishga yaraydigan bir qator noformal farazlarni ko'rib chiqadi, bu yo'l bilan bir necha potensial modellarni tahlil etishadi va ulardan qaysi biri o'rganilayotgan muammoni to'la aks ettirishini hal qilishga urinishadi. Agar model asosidagi noformal nazariya asossiz bo'lsa, unda uni hech qanday matematik usullar saqlab qola qolmaydi.

Modellashtirish bo'yicha muayyan tajribani qo'lga kiritgan tadqiqotchi odatda noformal modeldan uning kuzatuvlariga nisbatan mos keladiganini mavjud formal modellar orasidan izlashga o'tadi. Formal model noformal modeldan shunisi bilan farqlanadiki, unda farazlarning hammasi matematik shaklda ifodalangan bo'ladi. Tajribali chiquvchi ishlov berilgan modellarni "Bu vazifani hal qilish uchun tekislikka qator sifatida joylashgan mayda metal tishlar kerak bo'lib, ularning borib-kelish harakatida taxtaning hujayraviy tuzilmasini buzish qobiliyatiga ega bolishi kerak" shaklidagi fikrdan "bu yerda arra zarur" degan fikrga o'tishda qo'llaydi.

Uchinchi qadam noformal modeldan matematik modelga o'tish. Bunday o'tish formal modelning bayoni va ayni g'oya, jarayonlarni tasvirlashga qodir to'g'ri keluvchi matematik strukturalarni izlashni o'z ichiga oladi. O'tish bosqichi o'zida ikki xavfni jo etadi.

Birinchi, noformal modellar ko'p ma'nolilik tendensiyasiga ega va odatda, noformal modeldan matematik modelga o'tishning bir qancha usullari mavjud, ammo bunda muqobil matematik modellar umuman o'zgacha mazmunga ega bo'lishi mumkin.

Ikkinchi, xavf aniq matematik metodlardan foydalanishda kuza-tiladigan implisit farazlarni noformal modelga qo'shishda ko'rinadi. Bu, statistik metodika va differensial hisob bor joyda ahamiyatli bo'ladi. Ehtimollik, differensial va integral hisob nazariyasining muhim formulalari, matematik nuqtai nazardan o'ta foydali bo'lgan, ammo siyosiy va ijtimoiy hayot sharoitlariga muvofiq kelishi shart bo'lmagan bir necha oddiy farazlarga tayanadi. Ijtimoiy xulqqa kelsak, ularni doimo ham teng darajada tatbiq etib bo'lmalik mumkin. Hatto, agar ba'zi aniq model avvaldan, ijtimoiy vaziyatlarni tasvirlashga chamalangan bo'lsa-da, ularga ehtiyotkorlik bilan murojaat qilish kerak.

Matematik model xususiyatlari tadqiqotchini formal nazariyaning ba'zi farazlarini unga yaqinlashtirishga sabab bo'ladi. Boshqa tomondan, agar noformal nazariya fahmlangandek ko'rinsa, matematik model esa aksincha, anglangandek ko'rinsa, ushbu modelning qandaydir boshqa matematik versiyasini sinab ko'rish darkor.

Navbatdagi bosqich, formal modelning matematik ishlanmasi bosqichi bo'lib, u matematik modellashtirishda hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Aynan shu yerda modelning dastlabki farazlari notrivial oqibatlarining formal rasmiy xulosasi uchun matematik modellarning barcha mantiqiy, algebraik, geometrik, differensial, ehtimoliy,

kompyuterli shakllari qo'llaniladi. Bu bosqich modellashtirishning deduktiv yadrosi hisoblanib, haqiqatga yaqin farazlardan notrivial va kutilmagan xulosalarni izlaydi. Qo'lga kiritilgan xulosalar yana bir jarayonidan o'tadi – bu gal matematik tildan tabiiy tilga qayta o'tadi. O'tish muayyan axborotlarni va farazlarni qo'shish va yo'qotish orqali amalga oshadi. Modellashtirish ko'pincha kutilmagan natijalarni hosil qiladiki, ular avval kutilgandan ham qiziqroq bo'lishi mumkin. Keyin tadqiqotchi modelga muayyan aniqlikni kiritish maqsadida modellashtirishning dastlabki bosqichiga qaytmog'i lozim.

Modelning asoslanganligi darajasini aniqlash uchun zarur bo'ladigan, modellashtirishning yakuniy bosqichi sifatida maydonga chiqadigan imperik tekshiruvdan oldin formal taqqoslash va modelni aniqlashtirishga ko'p marotaba qaytish mumkin. Impirik tekshiruv doimo ham kerak bo'lavermaydi, ba'zi vaziyatlarda dastlabki farazlar jarayonni batafsil bayon qiladi (masalan, saylov jarayonining qoidalari) va model xulosalarini tekshirishga hojat bo'lmaydi.

Ijtimoiy jarayonlarning barcha modellari tasodifning sezilarli elementlarini e'tiborda tutilganligi sababli, empeirik testlar modelning bashorat qiluvchi kuchini aniqlashga yordam beradi.

Modellashtirishni qo'llash sabablari

Modellashtirish – deduktiv xulosa va soddalashtirish jarayoni. Soddalashtirish hodisa to'g'risidagi axborotni yo'qotilishiga olib keladi. Deduktiv xulosa murakkab matematik ishlovni o'z ichiga oladi, u esa, avvalboshda, model bilan ishlashni qiyinlashtiradi. Shuning uchun, modellashtirishga bog'liq asosli savol tug'iladi: barcha bu murakkabliklar nima uchun kerak? Siyosiy xulqni modellashtirishga undovchi birinchi sabab shundan iboratki, model jamiyatda sodir bo'layotgan voqealarni formal ifodalashga yordam beradi. Bizning miyamizda siyosiy tizimlarning funksionallashtirishining o'ziga xos mental modellari mavjud, hatto biz, ularni eksplisit ravishda ifodalab berishga bir marotaba ham urinmagan bo'lsak-da, matematik modellar huddi shunday noformal modellarni oydinlashtirishga yordam beradi.

Matematik modellashtirishni qo'llashning boshqa sababi noformal bashoratlarni izohlovchi mexanizmlarni ravon bayon qilish zaruriyati hisoblanadi. Formal model noformal model farazlarining o'ta erkin ifodalarini bartaraf qilishga va aniq, gohida tekshiriladigan bashoratni berishga yordam beradi Model farazlari va bashoratlari

yetarli darajada aniq bo'lib qoladiki, ularni tekshirish, shuningdek, qaysi yerda va qanday xato sodir bo'lganligini ko'rsatish mumkin bo'ladi. Model faqat, uning xatolarini ko'rsatish imkoniyatini berganida foydali boladi. Formal modelning uchinchi afzalligi ularning nisbatan yuqori darajadagi murakkabliklar mohiyatlari bilan tizimli operatsiya qilish qobiliyati hisoblanadi. Matematika dastlab, mantiqiy xulosa va tushunchalarining tizimli tahlil qilish vositasi sifatida o'ylab topilgan. Va nihoyat, matematik modellash tirishning afzalliklaridan biri shundaki, u turli ilmiy fanlar bilan o'z tadqiqot vositalari va usullarini almashtirishga imkon beradi. Matematik modellar ilk qarashda o'zaro umumiylikka ega bo'lmagan voqealarning chuqur ichki ayniligini ko'rishga imkon berishi bilan foydalidir.

Demak, matematik modellar tabiiy-til modellari bilan taqqoslaganda, 4 potentsial ustunlikka ega.

Birinchidan, ular biz odatda foydalanadigan mental modellarni tartibga soladi.

Ikkinchidan, ular noaniqlik va ko'pma'nolilikdan mahrum.

Uchinchidan, matematik qaydlar tabiiy til bilan ifodalangan modellardan farqli ravishda juda yuqori darajadagi deduktiv murakkablikni operatsiya qilishga imkon beradi va nihoyat, ilk qarashda turli ko'rinadigan muammolar uchun umumiy yechim topishga imkon beradi.

1-misol. Qurollanish poygasi. Siyosiy xulqning matematik modellari namunalari (Richardson modeli).

Birinchi jahon urushi ishtirokchisi, ingliz meteorologi Lyuis F.Richardson qurollanish poygasi sabablarini ko'rib chiqishga e'tibor qaratdi. Uning nisbatan oddiy modeli, bor-yo'g'i uch omil harakatini hisobga olgan. Ularning birinchisi shundan iboratki, X davlat raqib Y davlat tomonidan harbiy tahdidni his qiladi. Y davlatda qurol-yaroq miqdori qanchalik ko'p bo'lsa, X davlat unga bo'layotgan tahdidga javoban shuncha ko'p qurolga ega bo'lishni istaydi. Ammo ayni vaqtning o'zida X davlat eng muhim ijtimoiy vazifalarni bajarishga majbur, o'zining iqtisodiyotini harbiy ishlab chiqarishga yo'naltira olmaydi. Binobarin, X davlat qancha ko'p qurol-yaroqqa ega bo'lsa, harajatlar ko'pligidan u shunchalik kam qo'shimcha qurol-yaroqni qo'lga kirita oladi. Va nihoyat, Richardsonning mulohazasi bo'yicha, qurollanishning umumiy darajasiga ta'sir qiluvchi eski xafagarchiliklar mavjud. X davlat uchun qo'llanadigan mantiq Y davlatga nisbatan

ham amalda bo‘ladi va ular uchun o‘xshash tenglama tuziladi. Matematik nuqtai nazardan bu mulohazalar ikki tenglamaga olib keladi:

$$X_{t+1} = kY_t - aX_t + g$$

$$Y_{t+1} = mX_t - bY_t + b$$

Tenglamalar a‘zolaridan X_t va Y_t t vaqt momentidagi qurol-yaroq darajasi miqdorini bildiradi, X_{t+1} va Y_{t+1} $t+1$ vaqt momentidagi qurol-yaroq darajasi miqdorini ifoda etadi. k , t , a va b ijobiy miqdor hisoblanadi, g va h koeffitsientlari X va Y davlatlarning bir-biriga nisbatan qanchalik dushmanona yoki do‘stona kayfiyatda bo‘lishiga bog‘liq holda ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin. Tahdid hajmi kY_t va mX_t hadlarida aks etadi, chunki bu miqdor qanchalik ko‘p bo‘lsa, raqib tomonda qurol-yaroq miqdori shunchalik ko‘p bo‘ladi. Xarajatlar miqdori aX_t va bY_t hadlarida aks etgan, chunki bu hadlar hisobida keyingi yilda qurollanish darajasi pasayadi. Nihoyat, d va h konstantlar ushbu model doirasida o‘zgarmas hisoblanadigan o‘tgan zamondagi xafagarchiliklar miqdorini aks ettiradi.

Richardson modelining ajoyibligi uning avtonomligida kuzatiladi: agar sizga X va Y davlatlarning ma‘lum bir yildagi qurollanish darajasi va koeffitsientlar qiymati ma‘lum bo‘lsa, bu model yordamida har qanday keyingi yildagi qurollanish darajasi miqdorini oldindan aytishingiz mumkin. Bu modelga qobiliyat, nazariyaga kelajakni bashorat qilish imkoniyatini beradi. Model umuman qisqa muddatli muddatlar uchun samaralidir va muhimi shundaki, undan boshqa hech qanday avtonom model yaxshi ishlamaydi.

Richardson modeli zamonda ba‘zi jarayonlar rivojini model-lashtiruvchi k‘opgina dinamik modellar guruhidan atigi biri. Yaqin vaqtlargacha politologiyada o‘rganilgan ko‘pgina dinamik modellar tizimli, “to‘g‘ri” jarayonlarni aks ettirgan. So‘nggi o‘n yilliklarda Richardson modeliga ko‘ra murakkab hisoblangan talay ishlar “xaotik (betartib) model” bo‘yicha qilingan xaotik model tasodifiy komponentlarga ega emas, ammo vaqt munosabatlarida tasodifday ko‘rinadigan xulqlarni generatsiya qiladi. Dinamik xaos doimiy siyosiy jarayonning oliy darajadagi nostandart, “noto‘g‘ri” xulqini, masalan, fuqarolik urushi yoki parlament nobarqarorligining vujudga kelishini izohlashga xizmat qiladi.

2-misol. “Mahkumlar dilemmasi” o‘yini.

Siyosiy vaziyatlarning katta qismi nol bo‘lmagan miqdorga ega o‘yin yoki kooperativ o‘yin hisoblanadi, bunda har ikki o‘yinchi

ma'lum shartlarda g'olib bo'lishi mumkin (o'yinchilardan birining g'olib bo'lishi, boshqasining mag'lub bo'lganligini bildirmaydi). Kooperativ o'yinlardan "mahkumlar dilemmasi" o'yini yaxshiroq o'rganilgan. "Mahkumlar dilemmiyasi"da ikkala tomon ("birinchi jahon urushidagi raqib tomonlar bir-biriga qarshi handaqlarda o'tirishibdi) tanlov oldida turadi: yoki bir-biri bilan hamkorlik qilish yoki bir-birini aldash. Quyidagi jadvalda pozitsion urush olib borishda to'lov matritsasi keltirilgan. To'lov shunday tartibda o'tkaziladi: Britaniya tomoni, Germaniya tomoni va har kun o'ldirilgan askarlarning o'rtacha sonini bildiradi.

Jadval 16.1

Pozitsion urush namunasi uchun to'lov matritsasi

Britaniya tomoni	Germaniya tomoni	
	Hamkorlik Aldov	
Hamkorlik	katak 1 -1, - 1	katak 2 -10, 0
Aldov	katak 3 0, -10	katak 4 -3, -3

Hamkorlik strategiyasi dushman tomon askarlarini qastdan o'ldirish niyati yo'qligini bildiradi: aldash strategiyasi shunday urinishlar mavjudligini bildiradi. Agar ikkala tomon hamkorlik qilsa (1-katak), biz yo'qotishlarni tasodif miqdori deb qabul qilamiz, bu o'rta hisobda har bir tomondan kuniga bir askar halok bo'lishi bilan belgilanadi. Agar ikkala tomon qastdan snayper otishuvini olib borsa, (4-katak) o'lim ko'proq bo'ladi, ammo juda ham ko'p emas, chunki har ikkala tomon handaqlarga yashirinishadi va nishon bo'lib qolishmaydi. Va nihoyat, agar bir tomon snayper otishmasi boshlasa, shu vaqtning o'zida boshqa tomon hamkorlik bilan shug'ullanayotgan bo'lsa (2,3 kataklar), hamkorlik qilishga urinayotgan tomon yirik yo'qotishlarga uchraydi, boshqa tomon esa, taxminan zarba berishga tayyor bo'ladi va umuman hech qanday yo'qotishlarga uchramaydi. "Mahkumlar dilemmasi"da diqqatni jalb etadigan narsa shuki, tomonlarning har biri boshqa tomon to'g'risida qanchalik yomonroq o'ylasa, ular shunchalik tez aldov strategiyasini qabul qilishadi. Agar tomonlarning biri hamkorlikni tanlasa, boshqa tomon javob sifatida aldovni tanlasa, shunda eng yomon oqibat (10 ta o'lim) kuzatilishi mumkin. Agar bir tomon aldovni tanlasa, javob sifatida boshqa tomon ham aldovni tanlagan vaqtda, yoqimsiz natija kutiladi, bu bor-yo'g'i uchta o'limga olib ke-

ladi. Shuning uchun bashorat yomon natijalar ichidan eng yaxshisi tanlansa (bu minimaks qaror deb nomlanadi), unda aldash kerak. Ammo bunda shuni hisobga olish lozimki, agar ikkala tomon hamkorlik qilganida edi, o'zaro aldov holatiga nisbatan ikkala tomon ham katta yutuqqa erishgan bo'lardi (har bir tomon kuniga bir askar yo'qotar edi). Tanlov dilenmasi shundan iborat boladi. Keltirilgan misol - "mahkumlar dilenmasi" o'yinini qo'llasa bo'ladigan juda katta miqdordagi vaziyatlarning bor-yo'g'i bir holatidir. Boshqa standart misollar bu: qurollanish ustidan ikki tomonlama nazorat, tadbirkorlik shartnomalarini bajarish ustidan nazorat, oddiy tipdagi urush boshlash to'g'risida qaror qabul qilish va boshqalar.

Modellarning boshqa tiplari

U yoki bu olchovlarning kutilayotgan foydasiga oid qaror qabul qilish bo'yicha ko'p sonli adabiyotlar mavjud, ushbu qarorni qabul qilish xavf va noaniqlik bilan tutash bo'lgan muvofiq vaziyatni model-lashtirish usuli hisoblanadi. Ushbu modellardan u yoki bu davlat siyosatini tanlash maqsadida o'tkaziladigan tahlilda keng foydalaniladi. Bunday modellar siyosiy amaliyotda preskriptiv model (qaysi choralarni ishlab chiqish kerakligini hal qilishda yordam beradi) sifatida ko'p qo'llaniladi, ammo deskriptiv modellashtirishda (aslida odamlar nima qilishini bashorat qiluvchi) ular deyarli foydasiz bo'lib chiqadi, chunki ko'pchilik individlarning qaror qabul qilishida bu modellarga amal qilinmaydi. Kutilayotgan foydali modellariga optimizatsiya modellari yaqin turadi, bu modellarning kattagina qismi politologiyaga iqtisodiy fanlar va injenerlik ishidan o'zlashtirilgan. Deyarli barcha ratsional harakat o'ziga xos minimizatsiya va maksimizatsiya jarayonidan iborat. Optimal xulqni aniqlash uchun murakkab matematik usullarning yaxlit to'plami mavjud bo'lib, ular "tabiat bilan kurash" holatida o'z foydaliligini ko'rsatgan, bunda "raqib" sifatida bashorat qilib bo'lmaydigan kelajak maydonga chiqadi. Bundan tashkari, kam sonli ishtirokchilarning raqobati holatlarida va bozor sharoitidagi katta miqdordagi ishtirokchilar bilan aniqlanadigan holatlarida ham ular o'z foydaliligini isbotladi.

Matematik modellashtirishning tamomila yangi sohasi kompyuter modellari bilan suniy intellektning kompyuterda model-lashtirishning yanada keng sohasi bilan bog'liq.

Kompyuter modellari tenglamalardan foydalanish orqali emas, balki algoritmlar yordamida dasturlashga asoslanadi (ketma-ketlikdagi ko'rsatmalarning qat'iy ifodasi) va axborotning ulkan hajmini qayta ishlashda, tutash vaziyatlarni o'rganishda samaralidir. Kompyuter modellarining nisbatan keng qo'llanadigan shakli ekspert tizimi hisoblanadi. Unda "agar... u holda" tipidagi qurilmalarning katta miqdoridan foydalaniladi.

Modellashtirish bilan bog'liq murakkabliklar

Birinchi va eng umumiy ogohlantirish "nimani eksang, shuni o'rasan" maqolidan kelib chiqadi. Model unga qo'yilgan dastlabki farazlardan yaxshiroq bo'lishi mumkin emas. Doimo shuni esda saqlash muhimki, matematika dastlabki farazlardan mantiqiy xulosalarga ega bolish vositasi sifatida samaralidir, bunda model validligi matematik apparatga emas, bu farazlarga bog'liq, degan fikr kelib chiqadi. Modellarda eng ko'p uchraydigan kamchilik - juda soddalashtirilgan dastlabki farazlardir. Bu holatda modelni ishlab chiquvchi model qo'llanilishining kutilayotgan chegarasini ko'rsatishi muhim ahamiyatga ega.

Agar model o'zining dastlabki farazlari yordamida mukammal berilgan bo'lmasa, model eksperimental tekshiruvdan o'tishi shart.

Nihoyat, modelning bergan natijalari tabiiy tilga to'g'ri ko'chirilishi shart. Modellashtirishdagi odatiy xato shundan iboratki, tadqiqotchi yetarlicha tor modeldan olingan xulosalarni to'g'ridan-to'g'ri izohlay boshlaydi va bu yo'l bilan uning xulosalari umumiylikiga haddan ziyod yuqori baho beradi. Bu keng tarqalgan insoniy zaiflik - o'z ijodiga haddan tashqari berilib ketish, haqiqatda qodir bo'lmagan xususiyatlarni qayd etish matematiklar orasida "Pigmalion sindromi" sifatida ma'lumdur. Aytilganlarni jamlab shuni qayd etish mumkinki, matematik modellar tabiiy tilga nisbatan katta darajada ko'pgina dastlabki farazlardan murakkab xulosalarni qo'lga kiritishda ilgari harakatlanishga yordam beradi. Siyosiy va ijtimoiy hodisalarni modellashtirish murakkab vazifa bo'lib, bu murakkablik siyosiy xulqni modellashtirish bilan bog'liq quyidagi ikki implikatsiyada namayon bo'ladi.

Birinchidan, modellashtirish nisbatan oddiy va muntazam kuzaatiladigan xatti-harakatlardan boshlanadi va keyingina nisbatan murakkab tiplarga o'tadi. Natijada, ba'zi modellashtirish bilan bog'liq voqealar arzi-

mas ko‘rinadiki, bu vaqtda “yirik masalalar”ga birdan kirishish qiyin bo‘ladi yoki mumkin bo‘lmaydi.

Ikkinchidan, siyosiy muammolar tahlili uchun zarur bo‘lgan matematik vositalar, ehtimol, an’anaviy tabiiy-ilmiy muammolarni yechishda qo‘llanadigan vositalarga qaraganda rang-barang va murakkab bo‘lishi shart.

SEMINAR

Ma‘ruzalar mavzulari:

1. XMda matematik modellashtirish
2. Richardson modeli
3. Dauns modeli
4. Modellashtirishning boshqa tiplari
5. Modellashtirish bilan bog‘liq qiyinchiliklar

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Джарол Б.Мангейм, Ричард К.Рич. Политология. Методы исследования.*
2. <http://www.intertrends.ru/>
3. <http://www.uza.uz>
4. <http://www.cer.uz>

17- Ma'ruza: Strategik tahlil tashqi siyosatning tizimli metodi sifatida

Reja:

1. *Strategik tahlilning asosiy tushunchalari va kategoriyalari*
2. *Davlat tashqi siyosatini o'rganishda qo'llaniladigan tizimli tahlil metodi*

Tayanch so'z va iboralar:

Maqsad, hayotiy muhim maqsadlar, manfaat, milliy manfaat, hayotiy muhim milliy manfaatlar, vosita, strategiya, strategik tahlil, tuzilmaviy yondashuv, kompleks yondashuv, maqsadli tahmin, muommoviy-maqsadli yondashuv.

Strategik tahlilning asosiy tushunchalari va kategoriyalari

Davlat tashqi siyosati tahlilidagi asosiy metod strategik tahlil hisoblanadi. Ushbu metod konsentrlangan shaklda xalqaro siyosatning barcha asosiy kategoriyalari va tushunchalarini o'z ichiga oladi, unga e'tibor qaratmasdan tashqi siyosiy tahlilni amalga oshirib bo'lmaydi. Ularni qisqa shaklda takrorlab o'tamiz.

Davlat tashqi siyosatini tahlil qilishning asosiy muhim elementlaridan biri uning tashqi siyosiy maqsadlari, manfaatlari va vositalarini aniqlash hisoblanadi.

XMning ko'pchilik tadqiqotchilari maqsadni harakatning mo'l-jallangan (istalgan) natijasi, deb ta'riflashadiki, bunda ayni natija maqsadning sabablari (undovchi motivi) sifatida maydonga chiqadi.

Hayotiy muhim maqsadlar xalqaro aktorlarning mavjudligini ta'minlovchi maqsadlardir. Ikkinchi darajali maqsadlar aktorning o'z-o'zini himoya qilishi bilan bog'liq emas. Real maqsadlar, ularning amalga oshirilish muddatlaridan kelib chiqib, quyidagilarga bo'linadi: **qisqa muddatli, o'rta muddatli, uzoq muddatli, istiqbolli maqsadlar**. Hududiy qamrov asosida **mahalliy, submintaqaviy, mintaqaviy, kontinental va global** maqsadlarga bo'linadi.

Manfaat maqsad sifatida shakllantiruvchi ehtiyojlarni ifodalaydi, va ular tahdidli inqirozli vaziyatlarda kuchayishi bilan bog'liq holda alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun milliy manfaatning belgilanishi u yoki bu holatda havfsizlik muammosi, milliy davlatning funksionallashuvi yoki uning mavjudligiga tahdidlarning identifikatsiyasi va tahdidlarga qarshi harakat va ularni bartaraf etish

vositalarini izlash bilan bog'liq. Hududiy yaxlitlik va suverenitetga asosiy tahdidlarni aniqlash, tahsqi siyosat prioritetlarini belgilash, mudofaa strategiyasini ishlab chiqish va iqtisodiy ravnaqning asosiy va dastlabki tamoyili sifatida milliy manfaatlar hizmat qiladi.

Milliy manfaat - davlat rahbarlari faoliyatida davlat ehtiyojini anglash va aks ettirish. Milliy manfaat deyilganda milliy davlat manfaatlari tushuniladi.

Milliy davlat manfaatlari quyidagi asosiy elementlardan iborat: davlat suvereniteti (milliy mustaqillik va havfsizlik), konstitutsiyaviy tuzum va qadriyatlar tizimini himoya qilishni nazarda tutuvchi harbiy havfsizlik: mintaqada va uning tashqarisidagi erkin aloqalar, almashinuvlar va hamkorlikka mo'ljallangan qulay va havfsiz xalqaro muhit.

Manfaatning uch asosiy kategoriyasi mavjud:

1. **Hayotiy muhim milliy manfaatlar** (XMMM) - davlatning yashashi havfsizlik va yashovchanlik uchun birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan manfaatlar bo'lib, ularning himoyasi davlatning barcha vositalarni qo'llashga, hatto kuch ishlatishga ham tayyor turish kerak.

2. **Muhim milliy manfaatlar** bizning millat sifatida yashab qolishimizni belgilamaydi, ammo bizning milliy farovonligimizga va yashayotgan dunyomiz xarakteriga ta'sir qiladigan manfaatlardir.

3. **Unchalik muhim bo'lmagan manfaatlar** - gumanitar va boshqa sohalarni qamrab oladigan manfaatlar.

Vositalar - maqsadga erishish yo'llari, usullari, metodlari va qurollari.

Srategiya - a) davlat, jamiyat, ularning strukturasi, shuningdek, davlat va siyosiy arboblarning barcha qonuniy vositalar bilan ustuvor maqsad va vazifalarga erishishi ta'minlanadigan yaxlit faoliyat; b) tahlil, umumlashtirish, bashorat, vositalar tanlovi va tilga olingan subyektlar harakatlarini amalga oshirish tizimi, bu tizim hayotiy muhim (milliy) manfaatlarning aniq ustuvor sohasiga yo'naltirilgan bo'ladi; c) davlat, jamiyat, ularning institutlari va liderlari faoliyatining modeli va mahsuli; d) falsafa - siyosatning mazmuniy asosi.

Umuman olganda, strategiya istiqbolli maqsadga erishish uchun san'at va fanni birlashtiradigan uzoq muddatli harakatlar liniyasi sifatida ta'riflanishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, xalqaro aktor strategiyasi yagona doktrinadan iborat emas, u vaziyat tahlili metodi, uning ehtimoliy taraqqiyoti yo'nalishlari bahosi, qo'lga kiritilgan manzarani shaxsiy manfaatlar bilan qiyoslash, uning asosida qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun yanada to'g'ri keladigan

moment va yanada samarali vositalarni topishni qamrab oladi. Vaziyatning o'zgarishi strategiyaning o'zgarishiga olib keladi, uning prioritetlarining aniqlanishi va unga tuzatishlar kiritilishidan tortib, uning barcha asosiy elementlarining almashinuvigacha, ya'ni *strategik paradigmaning* o'zgarishi ro'y beradi (masalan, kommunizmni tutib turish strategiyasi, ommaviy qasos strategiyasi, moslanuvchan ta'sirlanish va boshqa).

Davlatning milliy va asosiy strategiyasi o'zida tinchlik davrida va urush vaziyatida milliy manfaatlarni ta'minlashning barcha mavjud vositalarini birlashtiradi. Bu ma'noda "*katta strategiya*" tushunchasi mazmunan "tahsqi siyosat" tushunchasiga sinonimdir. Bu kontekstda strategiya bir qancha sohalarga bo'linadi, ularning har biri milliy havfsizlik bilan bilvosita yoki bevosita munosabatlarga ega: davlatning ichki va xalqaro ishlarini idora qiluvchi siyosiy strategiya; ichki va tahsqi ishlarni idora qiluvchi iqtisodiy strategiya; harbiy strategiya va hokazolar.

Katta strategiya va harbiy strategiya o'zaro bog'langan bo'lsa-da, aynan bir tushunchalar emas. Harbiy strategiya asosiy strategiyaning bir elementi holos. Katta (milliy) strategiyaning ikki zaruriy sharti bor. Birinchisi, strategik vaziyatni to'g'ri baholash, ushbu momentda yuzaga kelgan xalqaro muhitning o'ziga xosliklari bahosi. Ikkinchisi, strategik tahlil, ya'ni boshqa muhim yirik xalqaro aktorlarni o'rganish va ular haqida imkon boricha to'liq tasavvur berish. Strategik tahlilning dastlabki vazifasi XMMMni, natijada XM subyektlari bo'lgan davlatlar strategiyasini mutanosibligini aniqlash va ularning, masalan, O'zbekiston Respublikasi manfaatlariga mos kelishini o'rganish. Analiz asosida strategik rejalashtirish ishlab chiqiladi, uning vazifasi O'zR XMMMni amalga oshirish bo'yicha harakatlar ketma-ketligini va tizimlarini aniqlashdan iborat, bu ish O'zbekiston Respublikasi va davlatning o'zaro munosabatlarida mamlakat ijobiy salohiyatidan foydalanish, ular o'rtasidagi tahdid va xavflarni ogohlantirish va neytrallashtirish orqali yuzaga chiqadi. Strategik tahlil va strategik rejalashtirishning birligi tashqi va ichki siyosat, milliy havfsizlikning ichki va tashqi omillari birligini ta'minlaydi.

Strategik tahlil tashqi siyosatning metodologik yondashuvining amaldagi ilovasi hisoblanadi. Uning natijasi tahsqi siyosat strategiyasi shaklidagi XM bashorati va tizimli tahlili sifatida namoyon bo'ladi. Xalqaro muhitni barqaror va beqaror, qulay va noqulay, do'stona va dushmanona baholanishiga muvofiq ravishda qabul qilinayotgan strategiya u yoki bu afzallikka ega bo'ladi, vositalarni tan-

laydi va ko'zlangan maqsadlarga tuzatishlar kiritadi. Strategik tahlilning dastlabki va aniqlovchi bosqichi bo'lg'usi hamkor va raqib to'g'risida ma'lumotni o'rgansih va to'plashdan iborat. Navbatdagi bosqich hamkor yoki raqib o'zining manfaatlarini, ayniqsa, o'z havfsizligi manfaatlarini ifodalashidan iborat.

Nihoyat, strategik tahlilning yana bir bosqichida tahdid va xavflarni o'rganish va ta'riflash bilan shug'ullaniladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov¹ ta'kidlaganidek, xalqaro jaryonlarni yetarli darajada tushunmaslik, bir qator mamlakatlarda havfsizlikka tahdidlarga yetarli darajada jiddiy munosabatda bo'lmaslik va bashoratning zaifligi u yoki bu mamlakatning iqtisodiy va siyosiy tanlovi realizatsiyasida muammo tug'diradi.

Strategik tahlilni olib borishda qo'llanadigan metodlar va usullar yig'indisiga *strategik metodlar* deyiladi. Strategik metodlar baho beradi, havfsizlik va barqarorlikka tahdidlarni bashorat qiladi, global va mintaqaviy darajadagi tashqi aloqalarning so'nggi yillardagi holatini tanqidiy tahlil qiladi.

Strategik tahlilning metodoligik asosini unga tuzilmaviy, tizimli va kompleks yondashuvlar tashkil qiladi. Ularning realizatsiyasi mahsuli nazariy va metodik aspektlardir. Nazariy aspektlar davlatlar va ularning ittifoqlari tashqi siyosatining realizatsiyasi tendensiyalari va qonuniyatlarini ochib beradi. Metodik aspekt - ushbu faoliyatning usullari va vositalarini izohlaydi.

Strategik tahlildagi **tuzilmaviy yondashuv** tashqi siyosiy harakatlarining muayyan aspektlari bo'yicha tashkil qiluvchi elementlarning o'zaro aloqadorligi birligini ajratishga yo'naltirilgan.

Strategik tahlildagi **tizimli yondashuv** tashqi siyosat aktortlari harakatidagi majburiy tasodifiy bo'lmagan o'zaro ta'sir va o'zaro aloqadorlikni hamda maqsadlarni aniqlashga mo'ljallangan.

Tizim - bir-biri bilan o'zaro ta'sirda bo'lgan elementlar yig'indisi (bu holatda –XMning davlatlari aktorlari). Tizim uning elementlari tarkibi, ular orasidagi spetsifik o'zaro aloqa strukturasi va muhitining mavjudligini nazarda tutadi. Elementlar – tizimning eng oddiy tarkibiy qismlari. Struktura bu a) tizim elementlarining munosabati; b) tizimdagi elementlarni tashkil etish usuli; c) elementlar uchun tizim mavjudligidan kelib chiqadigan majburlovlar va cheklovlar majmui. Muhit - tizim bilan aloqada bo'ladigan va tizimga ta'sir qiladigan

¹ Q.: I.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –Toshkent: O'zbekiston, 1997 yil.

voqelik. Muhitning ikki ko‘rinishi mavjud: tashqi muhit (tizimning atrofi) va ichki muhit (kontekst).

Tizim vazifasi - tashqi siyosat muhit ta‘siriga reaksiyasi, u tizimning elementlari o‘rtasidagi munosabatlarning ma‘lum tipini, ya‘ni bu tizimning “barqarorligini” saqlashga yo‘naltirilgan.

Prof. Y.S.Umanskiyning ta‘kidlashicha, tashqi siyosat sohasida milliy havfsizlik ta‘minlanishiga qaratilgan tahlilning asosi **maqsadli taxmin** (maqsadni ifodalash) bo‘ladi. Maqsadni ifodalash algoritmi quyidagi bosqichlardan iborat.

Qarama – qarshilikdan hayotiy muhim milliy manfaatlar umumiyli va ularni amalga oshirish vositalari tanqisligiga - tahdidni aniqlashga - tanqislikni kamaytirish va tahdidga qarshi kurash g‘oyalari - harakatlarning bosh yo‘nalishi to‘g‘risidagi farazni so‘roq shaklida ifodalash – maqsad harakatni ta‘minlovchi qurilma sifatida (masalan, tashqi siyosat sohasida O‘zbekiston Respublikasining hayotiy muhim manfaatlari).

Bu strategik tahlilning tizimli yondashuvi bo‘lgan muammo-viy maqsad yondashuvi hisoblanadi.

Kompleks yondashuv davlatlar va ularning bloklari tashqi siyosatini mavjud da‘vatlar va tahdidlar tizimidagi maqbul, dinamik va o‘zgaruvchan voqealar sifatida yaxlit tushunishni o‘rganishga yo‘naltirilgan. Strategik tahlilning vazifalari maqsadga muvofiq va o‘zaro bog‘langan, boshqacha aytganda, barcha tahliliy metodlarni tizimli qo‘llash orqali hal etiladi.

Davlat tashqi siyosatini o‘rganishda qo‘llaniladigan tizimli tahlil metodi

Tizimli tahlil metodini uning davlat tashqi siyosatini o‘rganishida qo‘llanadigan statik (o‘zgarmas) va dinamik o‘lchovlarida ko‘rib chiqamiz.

Statik o‘lchov “determinant”, “omillar” va “o‘zgaruvchan”lar tahlilini qamrab oladi.

R. Aronning davomchisi, R. Bosk, “Dunyo sosiologiasi” degan ishida davlat potentsialini (salohiyati) o‘z maqsadlariga erishish uchun qo‘llaniladigan resurslar majmui deb ko‘rsatadi. Davlat salohiyati ikki – jismoniy va ruhiy omildan iborat zaxiralar majmui sifatida izohlanadi: Fizik (jismoniy) omil quyidagi elementlardan iborat:

1.1. Hudud (geografik holat, uning afzalliklari va ustunliklari).

1.2. Aholi (demografik qudrat).

1.3. Iqtisodiyotning ko‘rinishlari: a) iqtisodiy resurslar; b) sanoat va qishloq ho‘jaligi salohiyati; c) harbiy qudrat.

O‘z navbatida ma’naviy (ruhiy yoki ijtimoiy) omillarga quyidagilar kiradi:


2.1. Siyosiy rejim tipi va uning mafkurasi.

2.2. Aholining umumiy va texnik ma’lumoti darajasi.

2.3. “Milliy axloq”, jamiyatning ahloqiy tonusi.


2.4. Xalqaro tizimdagi strategik holat (masalan, hamjamiyat, ittifoq va boshqalar doirasida).

Ko‘rsatilgan omillar davlat tashqi siyosatiga ta’sir ko‘rsatuvchi mustaqil o‘zgaruvchanlar majmuini tashkil etadi, ularni o‘rganish orqali o‘zgaruvchanlarning o‘rganishini bashorat qilish mumkin. Ushbu konsepsiya grafik shaklda quyidagi sxemada namoyon bo‘ladi:



17.1- rasm.

Sxema ushbu konsepsiyaning afzalliklari va kamchiliklari to‘g‘risida to‘liq tasavvur beradi. Uning afzalliklari sirasiga uning operatsionalligi, ma’lumotlar bazasini hisobga olgan holda omillarning kelgusi tasnifi imkoni, ularning kompyuter texnikasi yordamida o‘lchash va tahlil qilish kiradi. Uning kamchiliklari sirasiga ushbu sxemada (2.4 punktni istisno qilganda) davlat tashqi siyosatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan tashqi muhit omillarining yo‘qligini kiritish mumkin. Bu ma’noda F.Brayar va M.R.Jaliliy taklif qilgan konsepsiya yanada to‘liq tasavvur beradi, u quyidagi shemada o‘z ifodasini topgan.



17.2- rasm.

Shartli belgilar

Jismoniy omillar

- A.1- Geografik holat
- A.2- Tabiiy resurslar
- A.3- Demografik vaziyat

Tuzilmaviy omillar

- B.1- Siyosiy institutlar
- B.2- Iqtisodiy institutlar
- B.3- Fizik va sotsial muhitdan foydalanish qobiliyati, texnologik, iqtisodiy va inson salohiyati
- B.4 - Siyosiy partiyalar
- B.5- Bosim guruhlar
- B.6- Etnik guruhlar
- B.7- Konfessional guruhlar
- B.8-Til guruhlar
- B.9- Ijtimoiy mobillik
- B.10- Hududiy tuzulish:shahar va qishloq aholisi ulushi
- B.11-Milliy totuvlik darajasi

Madaniy va insoniy omillari.

- C.1-(Madaniyat):
 - C.1.1- Qadriyatlar tizimi
 - C.1.2-Til
 - C.1.3- Din
- C.2-(Mafkura)
 - C.2.1- Hokimiyatning o'z rolini o'zi baholashi
 - C.2.2 - O'z-o'zini idrok etishi
 - C.2.3- Dunyoni idrok etishi
 - C.2.4- Bosimning asosiy vositalari
- C.3 (Jamoaviy mentalitet)
 - C.3.1-Tarixiy xotira
 - C.3.2-“Boshqalar”obrazi
 - C.3.3- Xalqaro burchlar doirasidagi harakatlar tizimi
 - C.3.4- Milliy xavfsizlik muammosiga nisbatan alohida se-zuvchanlik
 - C.3.5- Messian an'analar

- C.4-QQSH sifati(qaror qabul qiluvchi shahs)
 - C.4.1- O'z atrof muhitini idrok qilish
 - C.4.2- Fizik (jismoniy) sifat
 - C.4.3- Ma'naviy sifat

Sxemadan ko'rinib turibdiki, ushbu konsepsiya avvalgi konsepsiyaga qaraganda ko'pgina ustunliklarga ega va undagi asosiy kamchiliklar bartaraf etilgan. Uning bosh g'oyasi - davlatning xorijiy siyosatiga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillarning o'zaro yaqin aloqasi, ularning o'zaro ta'siri va o'zaro bog'liqligi. Bundan tashqari, ichki mustaqil o'zgaruvchanlar doirasida bu omillar nisbatan to'liq tasvirlangan, bu esa, tahlildagi qandaydir muhim narsani o'tkazib yuborish ehtimolini kamaytiradi. Ayni vaqtda sxema, unda faqatgina qayd etilgan, ammo tuzilmaga aylantirilmagan tashqi mustaqil o'zgaruvchanliklarga kamroq aloqador tushunchalarni aniqlaydi. Ushbu ahvol ichki va tashqi omillar "tengligi"da muallif yaqqol ravishda birinchisini afzal ko'rishidan dalolat beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, har ikki holatda ham mualliflar tashqi siyosatga ta'sir qiluvchi omillar ahamiyatini hech qachon mutlaqlashtirishmagan. R.Boskning ko'rsatishicha, 1954 yilda Jazoir Fransiyaga qarshi urushda, yuqorida ko'rsatilgan omillarning ko'pchiligiga ega emas edi, shunga qaramasdan, u qo'yilgan maqsadiga erishishga muvaffaq bo'ldi. Shuni esda tutish lozimki, nomukammal, ba'zida xato konsepsiyalar, tashqi siyosat strategik tahlili metodlarining kam samarali, hatto xato qo'llanishiga olib keldi. Masalan, Iroq va Afg'oniston munosabatlaridagi deyarli oqlanmagan harbiy aralashuv roli. Shu bilan bog'liq yuzaga kelgan vaziyatning sabablari va manbalariga qarab emas, ko'pincha amaldagi natijalarga qarab ish ko'riladi, zotan, ularning bashorat etilishi mamlakatni inqirozdan olib chiqishga qodir hisoblanadi. Strategik tahlil uchun sabab-oqibat aloqalarini aniqlash va shu asosda inqirozdan chiqish (maqsadli metodlar va vosita tizimlar) yo'llarini modellashtirish belgilovchi ahamiyatga ega. Vaziyat yetukligi, ya'ni uning u yoki bu metodni qo'llash uchun tayyor bo'lish jarayoni ancha uzoq vaqtni talab etadi. XM ma'lum barqarorlikka ega bo'lib, bu barqarorlikning u yoki bu subyektga ta'siri hamma vaqt ham tezda natijaga olib kelmaydi. Demak, strategik bardosh, ya'ni vaziyatning yetilishi uchun vaqt lozim.

Tizimli strategik tahlilni amalga oshirilishining ko'pgina algoritmlari mavjud bo'lib, u tadqiqot predmeti, obyekti, maqsad va vazi-

falariga bog‘liqdir. Rus politologlari xalqaro siyosiy ahvol va davlat tashqi siyosatini tahlil qilishning quyidagi izchillikdagi harakatlarini taklif qiladi².

1. Dunyo (mintaqa)dagi kuch qutblarini aniqlash;
2. Qutbdagi kuch markazlarini aniqlash;
3. Kuch markazlarida iqtisodiy qudratni tahlil qilish;
4. Kuch markazlarining harbiy qudratini tahlil qilish va baholash;
5. Kuch markazlarida ichki siyosiy vaziyatni tahlil qilish va baholash.
6. Xalqaro (mintaqaviy) ahvolni baholash.
7. Xalqaro (mintaqaviy) siyosiy vaziyat rivoji bashoratini ishlab chiqish.

Agar ushbu metod global mintaqaviy xalqaro-siyosiy vaziyatni tahlil qilishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, davlatlararo darajada ayrim politologlar, shu jumladan, prof.YA.S.Umanskiy taklif qilgan metod (asosiy global omillarni hisobga olganda) nisbatan mahsuldor ko‘rinadi.

1. Davlatning XMMMlarini aniqlash;
2. Bu manfaatlariga tahdidni aniqlash;
3. Davlatning asosiy subyektlar bilan o‘zaro munosabatlari va hamkorligi xarakteristikasi.
4. Strategik vaziyatni ta’riflash.
5. Bashorat senariylarini ishlab chiqish.
6. O‘zbekiston Respublikasi rahbariyati uchun harakatlar dasturini ishlab chiqish.

Ichki vaziyat tahlili algoritmini YA.S.Umanskiy quyidagi bosqichlarga bo‘ldi.

1. XMMM muholifatini va bu manfaatlariga tahdidni aniqlash;
2. XMMMni tuzilmasini tuzish (O‘zbekiston Respublikasi Tashqi siyosati birlamchiligini XMMMni amalga oshirishning vositalariga nomuvofiqligini bartaraf etish);
3. Ushbu prioritet bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi imidji (idroki) – korreksiya vositalarini shakllantirish bo‘yicha kelishish – hamkorlik masalalari;

² Q.: Siyosatshunoslikka oid sxemalar al‘bomi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Krasnodar: “Zakonadatelnaya initsiativa” Kuban’ siyosiy va huquqiy tadqiqotlar ilmiy markazi, 1995. –B. 140-141.

4. Korreksiya vositalarini shakllantirish shart-sharoitlari - ikki tomonlama muzokaralar jarayoni - o'zgarish bosqishi - strategik vaziyat;

5. Birlamchi sohadagi harakatlar kelishuvi - muzokaralar, bashorat senariylari, harakatlar dasturi.

SEMINAR

Munozaralar uchun mavzu:

1. Strategik tahlil
2. Davlatlararo munosabatlarda tizimli tahlil

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Цыганков П.А. Теория международных отношений. –М., 2003.
2. <http://www.auditorium.ru>
3. <http://www.intertrends.ru>
4. <http://www.marshallcenter.org/>
5. <http://www.jahon.mfa.uz>
6. <http://www.uza.uz>

18- Ma'ruza: Strategik tahlil tayyorlash metodikasi³

Reja:

1. *Strategik ma'ruzani rasmiylashtirish*
2. *Tendensiyalarni aniqlash*
3. *Tahlilning omil metodi*
4. *Matnni tashkil etish*
5. *Tahliliy ma'ruzaning xulosalari va tavsiyalari*

Tayanch so'z va iboralar:

Strategik tahlil tendensiya, barqaror tendensiya, ijobiy tendensiya, salbiy tendensiya, geosiyosiy omillar, geoiqtisodiy omillar, xususiy omillar, omillar monopolizatsiyasi, omillar neytralizatsiyasi, xulosa, prognozlash, tavsiyalar.

Strategik ma'ruzani rasmiylashtirish

Umuman olganda, tahliliy ma'ruza matni, ilovasi va bibliografiyasini rasmiylashtirish O'zR OAKning ilmiy izlanishlar uchun qo'yilgan asosiy talablariga mos kelishi kerak.

Ammo bu ma'ruzalar tayyorlanadigan analitik tuzulmalar spetsifikasi bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlar bor. Ma'ruza hajmi tadqiq qilinayotgan muammolar (operativ aralashuvni talab qiluvchi vaziyat yoki muammoning ko'p omilli fundament tahlili) va analitik muasasalar talablariga ko'ra, 1-3dan 15-20 sahifagacha va undan ko'p bo'lishi mumkin.

Tahliliy ma'ruzalarning ko'pligi va xalqaro siyosat tahlili bilan shug'ullanuvchi institutlar faoliyatining zamonaviy ritmlari strategik ma'ruzalarni rasmiylashtirish uchun maxsus qoidalarini ilgari suradi.

Operativ ma'lumotlarni tezda o'zlashtirish va ularni amalda qo'llash maqsadida kichik ma'ruzalar va tahliliy qaydlar ilmiy ishning reja, ilova va tadqiqot bibliografiyasi kabi zaruriy atributlariga ega emas. Ilk qatordan muallif tadqiqot qilinayotgan muammoni belgilaydi va faollashtiradi hamda dolzarbligini asoslaydi va bevosita uning tahliliga o'tadi. Har qanday ma'ruzada eng qimmatli qism un-

³ Ma'ruza O'zbekiston Respublikasi huzuridagi Strategik va Mintakararo Tadqiqotlar Institutining etakchi ilmiy hodimi prof. Y.S. Umansky materiallari bo'icha tuzulgan.

ing xulosa qismi hisoblanadi. Unda muallif shaxsiy xulosalarini chiqaradi va mamlakatning siyosatini shakllantiruvchi siyosiy institutlar uchun tavsiyalar beradi.

Biroq, ma'ruzani nashr qilishga tayyorlashda, u barcha talablarga javob berishi kerak, unda reja, iqtibos, ilova (agar kerak bo'lsa) hamda bibliografiya bo'lishi kerak. G'arbda, odatda, tahliliy maqola boshida qisqa rezyume beriladi, unda ma'ruza muallifining asosiy g'oyalari va tavsiyalari aks etadi. Har qanday holatda strategik ma'ruza tili aniq, ixcham bo'lishi kerak, ikki ma'noli va aylanma gaplardan chetda bo'lishi kerak, muammoning ortiqcha tavsilotlarini takrorlamaslik kerak. Umuman olganda, bu, bayon qilishning qat'iy ilmiy uslubi bo'lishi kerakki, tahliliy material jurnalistik ocherk va maqolalar hamda boshqa adabiy nashrlardan shunisi bilan farq qiladi.

Ma'ruza nomlanishida tadqiqot muammosi beriladi. Odatda, tadqiqot tashqi siyosiy muammoning biron-bir jihati tahliliga bag'ishlanadi. Bir strategik ma'ruza doirasida muammoni har tomonlama tahlil qilish amalda mumkin emas. Shuning uchun nomlanish taxminan quyidagicha boshlanishi mumkin: "...ichki siyosatni idrok qilish tendensiyalari to'g'risida", "...tashqi siyosiy taraqqiyotning ba'zi muammolari", "...to'g'risida", "...dagi ichki siyosiy vaziyat" va boshqalar.

Tendensiyalarni aniqlash

Tahliliy ma'ruzaning asosiy maqsadi o'rganilayotgan voqea, muammo va vaziyatning joriy tendensiyalarini aniqlashdir, zotan, ularsiz siyosiy voqealarni bashorat qilish mumkin emas. Siyosiy hodisalar bashorat qilishning obyektiv asosi shundaki, ularning kelajagi hozirgi zamondan iborat, ammo faqat imkoniyatlarda. Imkoniyat voqelikning o'zida, uning keyingi taraqqiyotidagi yashirin tendensiya sifatida obyektiv shaklda mavjud bo'ladi. Shuning uchun kelajakni bashorat qilishning siyosiy tizimning hozirgi holatidagi tendensiyalar, imkoniyatlarni anglashdan boshqa yo'li yo'q. Imkoniyatni anglab, biz yashirin, ammo ko'zlangan tendensiyaning belgilashimiz mumkin. Ko'zlangan tendensiya paydo bo'lgan, ammo keng tarqalmagan tendensiyadir, ammo biz uni istiqbolli hisoblaymiz.

Masalan, Yevropaning yirik biznesi Markaziy Osiyoda korxonalar barpo etilishiga qo'rqib qarashadi. Ammo ular bajonidil

Markaziy Osiyodagi neft va gaz qazib oluvchi respublikalar, shu jumladan, Qozog'iston va Turkmaniston bilan aloqaga kirishadi. Nima uchun? Chunki bu mamlakatlar iqtisodiyotida ularni qiziqtiruvchi zaxiralar (neft va gaz) salohiyati bor, bu esa, YEI va AQShning investitsion qobiliyatlarini hisobga oladi, MO mamlakatlari va Yevropa hamjamiyati o'rtasidagi o'zaro foydali hamkorlik istiqbolini ochib beradi. Bu tendensiyadir. U nima haqida gapirmoqda? Yevropa va AQShning MOdagi energetika biznesi taraqqiyoti ehtimolligi to'g'risida, agar mintaqa davlatlari zarur shart-sharoitlarda mutanosib ehtiyojlarni his qilsa. Shunday qilib, *tendensiya ehtiyojlar amalga oshirilishini ifodalaydi.*

Davlat ehtiyojlari, yuqorida aytilganidek, uning milliy manfaatlari orqali ifodalanadi. Shining uchun agar O'zbekistondagi vaziyatni o'rgansak, O'zbekiston milliy manfaatlaridan, O'zbekistonning tub ziddiyatlaridan ehtiyojlar jadvalini shakllantiramiz. Ehtiyojlar manfaatlarining barqaror realizatsiyasini ta'minlovchi tendensiya turg'un hisoblanadi. Agar tendensiya tahdid va xavflarga bardosh bersa, qonuniyatga aylanadi. Masalan, O'zbekistonda jamiyatni demokratlashtirish tendensiyasi ketmoqda. Ammo hozirgi vaqtda O'zbekistonning ijtimoiy hayoti zaif. Tendensiyalar mavjud, ammo qonuniyat yo'q, mavjud muxolifat nokonstruktiv, shuning uchun bu tendensiyaning barqarorligi haqida gapirishga hali erta.

Tendensiya hamkor davlatlar milliy manfaatlarining amalga oshishi darajasiga qarab ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. To'g'ri keluvchi manfaatlar qanchalik ko'p bo'lsa, ikki yoki undan ortiq davlatlarning hamkorligi shunchalik ijobiy xarakterga ega bo'ladi (masalan, O'zbekiston va Turkmanistonning joriy hamkorligi). Va aksincha, manfaatlar to'g'ri kelmasa yoki manfaatlar mosligi yetarli darajada bo'lmasa, biz davlatlararo munosabatlardagi salbiy tendensiya haqida gapiramiz (masalan, AQSh - Eronning zamonaviy munosabatlari).

Tendensiyaning aniqlash uchun tahlil subyektlari va uning aniq ko'rinishlarini aniqlash kerak (kimlar o'rtasida, qaysi sohada, qanday vaziyatda). Masalan, suv zaxiralari bo'yicha (O'zbekiston - Tojikiston, Tojikiston - Qirg'iziston). Ziddiyat (qarama-qarshilik) tendensiyasi o'chuvchi va o'suvchi bolishi mumkin. Muammoni o'rganishning dastlabki tahlilida ziddiyat sababini aniqlash lozim. Bunda vositalarni aniqlash, sabablar dinamikasi va reytingi ahamiyatga ega. Ziddiyatlar

intensivligi darajasi bo'yicha ancha xavfli ziddiyat (davlat milliy xavfsizligiga tahdid soluvchi) antogonistik ziddiyat hisoblanadi.

Haqiqiy hayot siyosatda tendensiyalar to'qnashuvi ro'y bermoqda.

Mintaqaviy xavfsizlik sohasidagi tendensiyalar iqtisodiy sohadagi tendensiyalarni neytralizatsiya qiladi. Bir qancha tendensiyalar bir soha doirasida birga mavjud bo'lishi mumkin. Ob'yektivlik uchun barcha tendensiyalarni ko'rsatish kerak, ammo bunda tendensiyalarni qaysi sohaga tegishligini aniq ko'rsatish kerak.

Tahlilning omil metodi

Yana omilli va tizimli tahlilga qaytamiz. Tizimli-tuzilmaviy yondashuvga ko'ra, davlatning tashqi siyosiy faoliyatiga ko'proq ta'sir ko'rsatadigan ichki va tashqi siyosiy omillarni ajratib olishimiz zarur va ularning o'zaro ta'sirlashuvi va ahamiyatini baholashimiz kerak. Ma'lumki, obyektiv va subyektiv omillar mavjud. XM aktorining tashqi siyosiy xulqiga va umuman aniq siyosiy vaziyatga subyektiv ta'sir ko'rsatuvchi omillar davlatlarning o'zaro ta'siri va o'rganilayotgan mamlakat ichki vaziyati rivoji natijasida shakllantiriladi.

Ichki omillar quyidagilarga ta'sir ko'rsatadi:

a) davlatlararo munosabatlar (masalan, O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida);

b) davlatning (O'zbekiston Respublikasi) ko'p tomonlama munosabatlaridagi manfaatlari;

c) o'rganilayotgan davlat manfaatdor geoiqtisodiy vaziyat (masalan, O'zbekiston Respublikasi, quvvur o'tkazish strategiyasi);

d) mintaqadagi geosiyosiy vaziyat (xavfsizlik nuqtai nazaridan).

Hamkor davlatlarning tashqi siyosiy harakatlari subyektiv ta'sirning ikkinchi omili hisoblanadi. Sub'yektiv ta'sirning tashqi omillari tizimi global, mintaqaviy, geoiqtisodiy, geosiyosiy omillarga bo'linadi.

Obyektiv omillarga, eng avvalo, omillarning global tizimi, joriy jahon siyosati omillari kiradi. Ularda XM va ular majmuining aniq yo'nalganligi jamlanadi. Global omillarni ochib berish katta ahamiyatga ega, ular davlatning xalqaro munosabatlardagi barcha harakatlarini determinatsiya qiladi, shartlab qo'yadi. Ularni hisobga olishni rad qilish qishloqlashtirishning o'sishiga olib keladi (shu jumladan, yaqin o'tmishdagi Turkmaniston). Yuqorida ko'rib chiqilgan omillardan tashqari, XMning har qanday tahlilida hisobga

olish zarur bo'lgan mintaqaviy omillarni tahlilga tortish maqsadga muvofiqdir. Global va mintaqaviy omillarning o'zaro aloqasi O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.Karimov tomonidan quyidagi formulada ifodalangan: "mintaqaviy omilni global omil orqali hal qilish".

Mintaqaviy omillar ikki ko'rinishga bo'linadi:

1) Mintaqaviy (masalan, MO, ammo jahon hamjamiyatida MOga qaysi davlatlar kiradi, ular umumiy XMMM bormi, degan masala bo'yicha turli muqobil variantlar mavjud).

2) Mintaqaviy muhit (bu juda muhim, biz "beqarorlik yoyi", "zaxiralar yoyi"da joylashganmiz va kontinental mamlakatmiz).

Geoiqtisodiy va geosiyosiy omillar ham alohida ahamiyatga ega .

Geoiqtisodiy omillarga jahondagi iqtisodiy manfaatlarining o'zaro aloqasini aks ettiruvchi omillar kiradi (xususan, global iqtisodiyot sohasidagi vaziyat, Janubiy Koreyadagi vaziyat, Yaqin Sharqning neft va gaz qazib oluvchi davlatlaridagi iqtisodiy vaziyat va boshqalar).

XMni tahlil qilishda global va mintaqaviy darajadagi joriy iqtisodiy o'zaro munosabatlarning majmuini hisobga olish kerak hamda XMning turli jihatlaridagi geoiqtisodiy jarayonlarning kauzal modelini ishlab chiqish kerak.

Geosiyosiy omillarga xalqaro xavfsizlik strategiyasi birligi va majmui, yangi jahon tartiboti va XMning joriy tizimidagi kuchlar balansini aks ettiruvchi omillar kiradi. Bu darajada tahlil qilinayotgan davlatlar XMMM balansini, ularning imkoniyatlari va mavjud zaxiralar balansini, ko'p darajali hamkorlikni (davlatlarda har bir alohida olingan sohada turli hamkorlar bo'lishi mumkin) o'rganish zarur. Xususiy omillar borligini ham hisobga olish kerak. Ularga aniq individlar, vaziyatlar, aniq tahdid va boshqalarni kiritish mumkin. Har bir tizimni shakllantiruvchi omillarga xususiy omillarning yaxlit to'plami kiradi. Bu ma'noda strategik axborot ham xususiy omillarga tegishli.

Omillar ularni boshqa omillar bilan birlashtirishda paydo bo'ladi. Siyosiy vaziyatlar rivoji jarayonida ular *betaraflashtirilishi* mumkin. Qisman va yirik neytrallash farqlanadi. U yoki bu omilning hukmronligi holatida u *monopol* bo'ladi (masalan, ko'pincha Lotin Amerikasida – bu AQSh omili).

Omillarning optimal munosabatiga erishish maqsadida XM aktorlari davlatlari manfaatlari balansi va muvofiqlashishiga erishish zarur, bunga xalqaro siyosatda qiyinchilik bilan erishish mumkin.

Tahlil jarayonini soddalashtirish uchun o'rganilayotgan omillar reytingini tuzish lozim. Omillar banki bilan ishlash algoritmi:

1. Mamlakat milliy xavfsizligiga tahdid reytingi - birlamchi tahdid.

2. Tahdidni bartaraf qilish uchun zaxiralar tuzilmasi (defitsit).

3. Qaysi omillar defitsit (tanqislik)ni bartaraf qila oladi va qaysi sharoitda –birlamchi omil.

4. Qaysi qo'shimcha omillar birlamchi omillarni barqarorlashtiradi - omillar balansi. Demak, dastlab tahlil predmetiga ta'sir qila oluvchi, shakllantiruvchi omillar aniqlanadi. Keyin birlamchi omillar ajratib olinadi, ulardan ehtimoliy balans keltirib chiqariladi. Bunda asosiy e'tibor salohiyatli strategik omillarga, ularni neytrallashtirish, tutib turish, rag'batlantirishni hisobga olishga qaratiladi:

5. Axborotni tasdiqlash.

6. Axborotning davlat XMMMga mosligini aniqlash.

Strategik tahlilda omildan tashqari “vektor” tushunchasi mavjud. Odatda “vektor” tushunchasi ostida harakatlar integratsiyasi va milliy xavfsizlikning barcha o'rganilyatgan omillarini umumlashtirish tushuniladi. Bunda taklif qilinadigan harakatlarning algoritmlari quyidagichadir: XMMM, ularga tahdidlar, zaxiralar - har bir omil bilan qiyoslash (omilni aniqlashtirish). Keyin XMMM bilan aloqador holda omil ta'sirini ochib berish: bartaraf qiluvchi, monopollashtiruvchi, muvofiqlashtiruvchi. Oxirgi natija ularni yagona vektorga umumlashtirish hisoblanadi. Vektor XMMM uchun zarur omillarni o'z ichiga oladi. Ammo, bu model vektordir (biz yaratgan vaziyat modelidan kelib chiquvchi), aslida boshqariluvchan, zaif boshqariluvchan va umuman boshqarilmagan vektor amalda harakat qilmoqda. Analitikning vazifasiga qaysi sharoitda vektor boshqariluvchan bo'lishi mumkinligini aniqlash kiradi.

Matnni tashkil etish

Tahliliy ma'ruza matnini turli usullar bilan tashkil etish mumkin. *Tahlil predmetini aniqlash.* Masalan, gap MO to'g'risida ketsa, matn alohida olingan mamlakatga - Afg'oniston, Tojikiston va boshqalarga, aniq mintaqaviy muammo –MO davlatlari integratsiyasi, joriy siyosiy jaryonlar, MO havfsizligi yoki alohida olingan MO mamlakatining hududiy yaxlitligiga tahdid, tashriflarni tayyorlash, embargo

bo'yicha takliflar va boshqalarga bag'ishlanadi. Predmetni natijani qo'lga kiritishda tezkor bo'lish uchun aniqlashtirish kerak.

Maqsadni belgilash ushbu predmet aynan nimani ochishga yo'naltirilganligini bildiradi.

1. Guruhlar, kuchlar munosabati.

2. Guruhdagi tashqi homiyalar harakatini aniqlash.

3. Ma'lum bir qarash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

4. Bosh maqsadga yondosh narsalar (embargo, muzokaralar, tashqi homiyalar).

Manzilni aniqlash muayyan shaxs, vaziyat, davlat yoki muammoni ishtirokchilar, ishtirokchilar birlashmasi va boshqalar asosida tahlil qilishni ko'zda tutadi (M.Axmadinejad, obyektlar, geoiqtisodiy sharoitlar, Afg'oniston).

Solishtirish qurilmasi mamlakatlar pozitsiyalari, narkotiklar aylanmasi, qurollarni yetkazib berishni qiyoslashdir (ishtirokchilar bo'yicha, harakatlar bo'yicha). Taqqoslash variantlarini ko'rsatish kerak. Taqqoslash jarayon dinamikasi (yillar bo'yicha, muammo bo'yicha) amalga oshirilishi mumkin, dinamika orqali jaryonning barcha subyektlarini (5 ta ma'lum savollar asosida) ko'rib chiqish mumkin. Bu bashoratchilar va ekspertlar uchun zarur. Shuning uchun hukumat tuzilmalariga umumlashtirilgan hujjatlar topshiriladi.

Natija bo'yicha yo'naltirish. Matn ma'lum natija va xulosalarga mos ravishda tuziladi. Bunday matn ma'lum tezislarni rasmiy faktlash uchun muzokaralarga tayyorlanish yoki o'zini o'zi nazorat qilish, o'z xulosalarini to'g'riligini tasdiqlash uchun zarur. Bu, tahlilning nisbatan murakkab turi bo'lib, u natijaning bir qancha variantlarini ko'zda tutadi.

Me'yoriy yo'nalish tahlilning ishlangan to'la modeli, tahlil tezligi, aniq shema bo'yicha ish operativligidir.

Matnni tashkil etish algoritimi juda oddiy bo'lishi mumkin. Bu algoritm qanday axborot kerakligini (masalan, davlat, chegaralar, aholi va hokazolar) va biz biladigan yoki bilmaydigan axborotni, axborotning qaysi turini izlash zarurligini ochib berishi bilan muhum. Tahliliy matn bilan ishlashda quyidagi metodik ko'rsatmalarga amal qilish kerak.

- I. Aniq mavzu bo'yicha matnni muommaviy - mantiqiy tuzish. Muammoda yashirin javob, maqsad va natijaga ishora bo'lishi mumkin. Muammo manfaatlar ziddiyatidan (tanqislik) kelib chiqadi. Masalan, havfsizlik, jo'natish va boshqa sohalaridagi tashqi siyosat. Bunda matnni tashkil etish qo'yilgan vazifalarga bog'liq bo'ladi:

1. Bu vaziyatni suratga olish bo'lishi mumkin (eng kamida). Mamlakatdagi harakatlar, siyosiy kuchlarining joylashuvi (iqtibosli faktlar).

2. Vaziyat tahlilini nazarda tutuvchi situativ metod. Dalillar beriladi. Vaziyat rivojining turli variantlarini tahlil qilish kerak, ya'ni variativ bashoratni taqdim qilish kerak.

3. Fundamental, ko'p omilli tahlil. Ko'plab faktlar so'nggi qatorga olib kelish va bu cheklangan qatorni davlat (masalan, O'zbekiston) milliy manfaatlariga olib chiqish maqsadga muvofiq.

4. Taqqoslash metodi. Tahlilni vaqt doirasida (-gacha, -dan, keyin) cheklash zarur. Masalan, Hindiston va Pokistonning Afg'onistonga nisbatan strategiyasining 2001 yil 11 sentyabrdan to hozirgi kungacha davri.

5. Tavsiyalar, taqrizlar. Biz katta hajmdagi xulosalarga egamiz. Tahliliy ekspertizadan o'tkazish kerak.

II. Tahlilning formal mantig'i asosida qo'yilgan tahliliy vazifalar dolzarbligi. Vazifa mazmuni. Asosiy qism (muammo yo'nalishi yoki boshqa usullar bo'yicha qurilishi mumkin). Asosiy tendensiyalar. Umumlashtirish. Xulosalar, tavsiyalar.

III. Savol-javob sxemasi bo'yicha. Masalan, ekstremistlar harbiy holati bo'yicha qo'poruvchilik harakatini davom ettira oladimi va u ... bilan aloqaga kira oladimi?

IV. Mamlakat, mintaqa, subyektlar bo'yicha. Masalan, MO qaysi darajada AQSh manfaatlariga ta'sir zonasi hisoblanadi.

V. Davrlar bo'yicha dinamik taqqoslash.

Tahlil predmeti tuzilmasi quyidagi mazmuniy ko'rsatkichlardan iborat -qayerda hamkorlik imkoniyati bor, bu hamkorlik qaysi mezonlar bo'yicha amalga oshirilishi shart, hukumat darajasida, iqtisodiy va madaniy sohada ko'rib chiqilayotgan davlatlar o'rtasida qanday asosiy o'zaro aloqadorliklar bor; yo'nalishlar bo'yicha XMMM mos kelishi yoki mos kelmasligi; mazmuni, tashkilotlari, vositalari (mexanizmlari) bo'yicha hamkorlikning asosiy yo'nallishlari tanlovi.

Birinchida bosqichda tanqislikdan (zaxiralar yetishmovchiligi) muammoni shakllantiramiz. Tahlilda muammoning ikki darajasi mavjud: birinchisi, muammoning o'zi bilan bog'liq, ikkinchisi, axborot tanqisligini bartaraf qilish bilan bog'liq.

Navbatdagi qadam, maqsadni qo'yish hisoblanadi. Ish maqsadini ifodalashda qanday aniq natijalarga kelishimiz shartligini ko'rsatish kerak. Odatda, 3 asosiy maqsad ko'zlanadi: Mazmuni bo'yicha

tadqiqot (mexanizmi) vositalari va tashkil etish bo'yicha. Yakuniy maqsad yo'nalish bilan muvofiq bo'ladi.

Strategik tahlildan avval obyekt maqsadlarini, masalan, biror jarayon ishtirokchilarini o'rganishning ilmiy tahlili yuz berishi kerak, ya'ni tadqiqot obyektning to'liq tahlilini o'tkazish zarur. Shuning uchun strategik markazlar odatda, quyidagi faoliyat bilan shug'ullanuvchi guruhlariga ega.

1. Chora-tadbirlarni rejalashtirish, zarur axborotni to'plash bo'yicha axborot tahliliy vazifalarni hal qilish.

2. Axborot-tahliliy monitoring.

3. Strategik tahlil.

Strategik ma'ruza mezonlari uning yonalishlaridan kelib chiqadi. Tahlilning eng murakkab jihati o'z farazlarini, gipotezani (tahlil "onasi"), yo'nalishni ("ota") ilgari surishdir. Gipoteza ehtimollik vaziyatidir - *Agar ... qilish kerak...*

Bu yerda e'tiborni ilgari surilgan gipotezani baholashning uch tizimli yaratuvchi mezonlariga qaratish lozim: *axborotning ishonchiligi, gipotezaning zaruriyati va uning yetarliligi.*

Tahliliy ma'ruzaning xulosalari va tavsiyalari

Xulosa qo'yilgan muammo, maqsad va vazifalarga zid bo'lmagan mulohazalar bo'lib, u tahlil qilingan jarayon, vaziyat va voqea mazmuni, tashkil etilishi, dinamikasi va vositalarini ochib beradi. Ko'rsatib o'tilgan vazifalar ijtimoiy - siyosiy fanlar sohasidagi har qanday ilmiy tadqiqot ishining xulosasi vazifasiga kiradi. Strategik xulosalarga qo'shimcha ravishda XMMM xulosalari vazifasi kiradi.

O'zinning mazmuni bo'yicha xulosa tahlil yo'nalishiga mos umumlashgan bilimlardan iborat. Yo'nalish bo'yicha xulosalardan tashqari, o'zaro aloqador masalalar bo'yicha ham xulosalar bor, ammo birinchi galda yo'nalish bo'yicha xulosalarni berish, keyin o'zaro aloqador masalalar bo'yicha xulosalar qilish darkor.

Xulosa mezonlari.

1. XMMMga muvofiqlik (vatanparvarlik mezon).

2. Daliliy jihatdan asoslanganlik, unga faktlar zanjiri asos bo'lib xizmat qiladi (bittasi yetarli, agar xulosa juda keng miqyosli bo'lsa, bir qancha faktlar zanjiri kerak).

3. Xulosaning birlamchiligi, bunda mutanosib ravishda xulosalarning ketma-ketligi, gradatsuyasi, asoslanganlik darajasi belgilarini aniqlaydi.

Bu maqsadda xulosalarning reytingi tuziladi: avval strategik umumlashgan xulosalar, keyin mazmuni bo'yicha xulosalar beriladi.

Xulosalar tendensiyalar birikmasini izohlaydi. Bu tendensiyalar muayyan aniq manfaat tufayli mavjud bo'ladi. Avval, tuzilgan omillar reytingi asosiga qo'shimcha ravishda tahlil obyektiga birlamchi bo'lgan tahdidni va o'rganilayotgan muammoning yechimi uchun xaziralar yetishmasligini ko'rsatib o'tish mumkin.

Vujudga kelgan vaziyatdan kelib chiqib, *bashorat qiluvchi xulosalarni* chiqarish mumkin. Masalan, "ko'rsatilgan tendensiyalar saqlanib qolgan holatda muayyan muddatda, ehtimol, nimadir sodir bo'ladi".

XMMM ta'sir qilish darajasi bo'yicha *joriy va uzoq muddatli* xulosalar ajratiladi. Ularda odatda, jarayon, vaziyatning rivoji bosqichlari va bashoratning turli variantlari, shu jumladan, salbiy, normal, ijobiy variantlari namoyan bo'ladi.

Variativ xulosalarda har bir variant bo'yicha alohida xulosalar beriladi. Bashorat qiluvchi xulosalarda dastlab faktlar bo'yicha xulosalarni berish, keyin yakunda bashorat qiluvchi xulosalarni keltirish maqsadga muvofiq. Xulosalarni yozishdan oldin, uning tuzilishini tayyorlab olish juda muhim. Bunda qaytariqlardan qochish va o'rganilayotgan mamlakat bo'yicha xulosalarni guruhlashtirish kerak. Yakuniy qismda shuni qayd etish kerakki, xulosalar qo'shimcha faktlardan holi bo'lishi kerak, "chunki ..." shaklidagi so'zlar kam bo'lishi kerak.

Ma'ruza tavsiyalari muammo yechimining maqsadi, vazifalari, yo'llari, usullari, vositalari va bosqichlarini belgilashga mo'ljallangan. Agar tendensiya to'la shakllangan bo'lsa, qaysi maqsadlar, bosqichlar bilan uni kuchaytirish mumkinligini ko'rsatish zarur, rejalashtirilgan maqsadga erishish uchun yangi harakatlar yo'nalishlarini belgilash lozim. Tavsiyalar keyin alohida punktlarga bo'linuvchi umumiy gapdan boshlanishi mumkin. Tavsiyalar ma'lum bir muddatda yuzaga kelgan vaziyatdan kelib chiqishi va o'rganilayotgan davlatning ushbu vaziyatga muvofiq harakatlariga tegishli bo'lishi kerak. Ular ushbu davlatning amaliy harakatlariga va kelgusi tahliliga yo'налgan bo'lishi mumkin.

Tavsiyalarga talablar:

- Manzilning mavjudligi (masalan, O'zbekiston Respublikasi savdo-sanoat palatasi, O'RTIV) bunda shunday ifodalarni qo'llash kerak: "Ma'qul bo'lar edi", "maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz", "kelgusida", "zarur", "shunday sharoitda", "buning uchun".

- Harakatlar tartibini ko'rsatish (boshlang'ich harakatlarni ko'rsatish muhim).

- Tavsiya darajalari: operativ, strategik (XMMM bo'yicha harakatlar tizimi); boshqaruv (harakatlarning qisqa rejasi); tahliliy vazifalar (tavsiyaning so'nggi bandi).

- Ma'ruza mualliflari qo'ygan strategik vazifalarga va o'z davlatiga XMMMning muvofiqligi.

Bashorat. Oldindan ko'rishning birlamchi vazifalari tashqi siyosat prioritetlaridan kelib chiqadi. Bashorat normativ yondashuvga asoslanadi, ya'ni jamiyatda qabul qilingan me'yorlar va qadriyatlar tizimi asosida zaruriyatning aniqlanishiga tayanadi. Me'yoriy model, bu ideal model bo'lib, unda muammo eng optimal usullar bilan hal qilinadi. Lekin, me'yoriy model mohiyatan bashorat hisoblanmaydi, u faqat bashoratni shakllantirishga yordam beradi, ya'ni qayerdan izlash kerakligini ko'rsatadi. Aniq bashoratni talab etuvchi savollarga javob berish yordamida (masalan, aholining mintaqaviy, etnik tarkibi, siyosiy kuchlar nisbati va boshqalar) tashkil etuvchi bashoratga kelaymiz (Masalan, milliy murosaning birlamchi shartlari nima). Shunday qilib, bashorat muammoning muvaffaqiyatli yechimini belgilovchi asosiy shartlaridan birini ochib beradi.

SEMINAR

Muhokamalar uchun mavzular:

1. Strategik ma'ruza
2. XMda tendensiyalar
3. Tahliliy ma'ruzada matnni tashkil etish
4. Tahliliy ma'ruza xulosalari va tavsiyalari

Adabiyotlar ro'yxati

1. Соловьев А. И. Политология. Политическая теория. Политические технологии. – М.: Аспект пресс, 2005.
2. Цыганков П.А. Теория международных отношений – М.: Гардарики, 2003.
3. Политология. Под ред. М. Н. Марченко – Изд. «Зерцало», 1999.
4. <http://www.intertrends.ru>
5. <http://www.marshallcenter.org/>
6. <http://www/jahon.mfa.uz>
7. <http://www.uza.uz>

19- Ma'ruza: Qarorlar qabul qilish jarayoni tahlili

Reja:

1. Davlat boshqaruvi mexanizmida ierarxik darajalar va strategiya
2. Davlat qarorlarini qabul qilish jarayoni: modellar, usullar va asosiy bosqichlar

Tayanch so'z va iboralar:

Strategiya, davlat boshqaruvi, davlat va ommaviy siyosat, davlat ma'muriy boshqaruvi, qaror qabul qilish jarayoni tahlili, konsensus.

Davlat boshqaruvi mexanizmida ierarxik darajalar va strategiya

Davlat strategiyasini ishlab chiqish va kundalik ommaviy siyosatni olib borish bilan bog'liq davlat boshqaruvi siyosiy jarayonlar tuzulmasida hal qiluvchi o'rinni egallaydi. Davlat boshqaruvida, bir tomondan, rasmiy qarorlar qabul qilish kanallari bo'yicha sotsiumning "kollektiv irodasi" namoyon bo'ladi va ifodalanadi, boshqa tomondan, muayyan institutsional mexanizmlar va instrumental vositalar yordamida ijtimoiy ishlarni boshqarish bilan bog'liq ommaviy siyosatda ro'yobga chiqadi. Boshqaruv o'z tuzilshi bo'yicha ichki jarayonni qamrab oladi. Birinchidan, jamiyatning kollektiv zaxiralarini tartibga solish; ikkinchidan, insonlarni maqsadga yo'naltirgan holda boshchilik qilish, ular o'rtasidagi muloqotda ma'lum institutsional tartibni tutib turish.

Ingliz-amerika an'analari doirasida "**davlat boshqaruvi**" (public management) kategoriyasi miqyosan keng bo'lib, u ijtimoiy strategiya va taktikani ishlab chiqish bilan bog'liq "**davlat yoki ommaviy siyosat**" (public policy)ni davlat apparatining bo'limlari va boshqaruv personalisi ishi texnologiyasi funksionallashuvini optimallashtirish va samarali tashkil etishga yo'naltirilgan "**davlat mamuriyati**" (public administration)ni o'z ichiga oladi. Demak, bu ma'noda, davlat siyosati jamiyatning strategik kursi, davlat rivojining asosiy yo'nalishlari va uning maqsad hamda vazifalarini amalga oshirishni ishlab chiqish bilan bog'langan. Zamonaviy davlat siyosati mexanizmi tuzilmasida quyidagi bloklarni ajratish mumkin:

1) legitim subyekt va davlat siyosatining institutsional ierarxiyasini shakllantirish;

2) strategik kursni ishlab chiqish va davlat qarorlarini qabul qilish;

3) boshqaruv qarorlari realizatsiyasida ma'muriy va boshqa vositalar;

4) davlat nazorati va arbitraj bloki, siyosiy rejimning o'z-o'zini korreksiya qilish va davlat rahbariyati obyektlari bilan "teskari aloqa"ni ta'minlash.

Davlat siyosati subyektlarini shakllantiruvchi modellar va taqdimoti usullaridan boshlaymiz. Ular 4 asosiy tipga bo'linadi: *elitistik, korporativ, plyuralistik va partisipator* turlarga bo'linadi, ular siyosiy boshqaruvning deyarli barcha tizimini tashkil etuvchi spektrini qamrab oladi.

Elitizm konsepsiyasi tarafdorlarining hisoblashicha, davlatni tanlangan yoki tayinlangan kam sonli mutaxassislar boshqaradiki, ular yaxshi tayyorgarlikka va asosiy ma'lumotlarga ega, shuning uchun ancha mas'uliyatlidirlar. Ijtimoiy vakillik va siyosiy ishtirok chegaralarining haddan tashqari kengayishi davlat boshqaruvining barcha tizimlarining harakatlari samarasini kamaytiradi va inqirozga olib keladi. Davlat siyosati subyekti sifatida elita chiqadi. Elita davlat uchun strategik qarorlarni qabul qilishda asosiy vakolatlarga ega bo'ladi va millatning jamoa irodasini kuchaytiradi. Korporativistlar boshqa nuqtai nazarga asoslanadi. Bunda ular aynan, davlat siyosati doirasida turli guruhlar, korporativ manfaatlar kelishuvi modeliga asoslanishadi. Bu vazifa parlament mexanizmlari orqali "uch tomonlama hay'at" tipidagi maxsus funksional tuzilma vositasida amalga oshiriladi. "Uch tomonlama hay'at" tarkibiga ish beruvchilar, kasaba uyshmalari kiradi va bunda hukumat organlari arbitr rolini bajaradi. Plyuralistik model doirasida davlat strategiyasini ishlab chiquvchi va davlatga rahbarlik qiluvchi organlar erkin, teng va proporsional vakillik asosida shakllantiriladi.

Boshqaruvning partisipator tizimi tarafdorlari davlat strategiyasini shakllantirish jarayonida halq ommasining ta'sir doiralarini kardinal kengaytirish uchun kurashadi va davlat subyektlarining hukmronlik vakolatlarini detsentralizatsiyasi, mintaqaviy darajada qaror qabul qilish va mahalliy fuqaro jamoalarining o'z-o'zini boshqarish tartibotiga yon bosishadi.

Ijtimoiy irodani ifodalovchilarni shakllantirish usullari, vakillik tartiboti va davlat boshqaruvida ommaning ishtiroki ommani makrosiyosiy jarayonlar bilan uning tarkibiy qismi bo'lgan saylov jarayoni tarkibi orqali bog'laydi. Saylov va yuqori mansabdor shaxslarning almashinuvi yoki hukmron partiyaning o'zgarishi holatida umuman yangi davlat strategiyasi vujudga kelishi mumkin (liberallar yoki konservatorlarning sotsialistlar bilan almashinuvi).

Davlat siyosati mexanizmidagi keyingi, ikkinchi halqa sifatida *davlat strategiyasini ishlab chiqish* va qonun chiqarish jarayoni hamda ijro etuvchi ma'muriyat organlari tomonidan operativ boshqaruv bilan bog'liq holda *davlat qarorlarini qabul qilish* turadi. Bu blokda davlat siyosatini ishlab chiqishda qonun chiqaruvchi (parlament) va ijro etuvchi (hukumat) institutlar faol ishtirok etadi. Ular o'rtasidagi hokimiyat vakolatlari mutanosibligiga qarab, davlat strategiyasini ishlab chiqish va qarorlar qabul qilishning ikki asosiy modeli ajratiladi: "faol", "vakillik".

Birinchi holatda, qonun chiqaruvchi institutlar asosiy tamoyillar va konstitutsiyaviy me'yorlarni shakllantiradi, umumdavlat siyosat strategiyasini ishlab chiqadi, ijro etuvchi organlar strategik qarorlarining amaliy realizatsiyasi va operativ boshqaruvi texnologiyasi bilan shug'ullanadi. Ikkinchi modelga ko'ra, ya'ni boshqaruvning vakillik modeliga ko'ra (bu model bir qator Yevropa mamlakatlarida mavjud), qonun chiqaruvchi parlament organlari eng umumiy yo'nalishlarini va o'yin qoidalarini ifodalash bilan cheklanadi, ko'pgina muhim operativ-strategik qarorlarni qabul qilish ijro hokimiyati strukturalariga beriladi.

Davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmining uchinchi halqasi operativ boshqaruv texnologik usullarini va metodlarini qo'llash jarayonidan iborat. U strategik maqsad va qarorlar realizatsiyasi zaruriyati bilan shartlangan bo'lib, birinchi navbatda, amaliy boshqaruv ta'siriga qaratilgan. Boshqaruv siklining bu bosqichi bevosita ravishda, u yoki bu mamlakatdagi siyosiy-huquqiy boshqaruv metodlari singari davlat organlarining oddiy fuqarolar bilan o'zaro institutsional munosabati xususiyatlarini aks ettiruvchi (ishontirish va majburlash, kuch ishlatish va qonun, va boshqalar mutanosibligi) siyosiy tuzilmalarga bog'liq.

Va nihoyat, davlat siyosati mexanizmidagi so'nggi blok *boshqaruv jarayoni nazoratini ta'minlash va rejimning o'z-o'zini*

korreksiyasi uchun javob beradi. Munozarani hal qilish “teskari aloqa” harakatarini ta’minlovchi nazorat tizimi ishi va arbitraj, eng avvalo, sud - konstitutsiyaviy jarayon va nazorat-taftish institutlari funkcionallashuvi bilan bog‘langan (prokuratura, ombudsman).

Davlat siyosatini amalga oshirish va shakllantirishning funkcion-al bloklari ierarxiyasi tahlili bilan davlat vakolatlarini tashuvchilar o‘rtasidagi subordinatsiya hamda davlat boshqaruv obyektlari va subyektlari o‘rtasidagi koordinatsiya masalasi ko‘rsatiladi. Avval qayd etib o‘tilganidek, davlat subinstitutlar tizimidan iborat, ular o‘z vakolati va vazifasi bo‘yicha “gorizontal” (“hokimiyat tarmoqlari”) va “vertikal” (hokimiyat darajalari) qatorlarga ajratiladi. O‘z vaqtida A.Bentli ta’kidlab o‘tganidek, davlat boshqaruvi jarayoni hokimiyat-ning uch tarmog‘i doirasida harakatlanuvchi insonlarning guruh bo‘yicha faolligiga bo‘linadi, shartli ravishda aytsa, “uch gorizontal” sub jarayon: qonun chiqarish, ma’muriy va sud jarayonidan iborat. Bu davlat boshqaruvi subyektlarining “gorizontal” ierarxiyasi, ularning vazifalari va vakolatlari hokimiyatning uch va undan ortiq vertikal darajalari hamda unga xos tashuvchilari mavjud bo‘lgan federativ davlatlarda sezilar darajada murakkablashadi.

Jadval 19.1.

Hokimiyat vakolatlarining subyekt darajalari va davlat boshqaruvidagi rahbarlik vazifalari

Funksional faza	Strategik qarorlar qabul qilish, o‘yin-qoidalari, maqsadini ishlab chiqish	Operativ -taktik qarorlarni qabul qilish va amalga oshirish (ijro)	Sud nazorati, arbitraj va nazoratni olib borish (sud nazorati)
Ierarxik daraja	-	-	-
markaziy	Mamlakat parlamenti	Markaziy hokimiyat	Oliy, konstitutsion, arbitraj sudlari, bosh prokuratura, ombudsman

mintaqaviy	Mintaqaviy qonun chiqaruvchi majlis	Mintaqaviy hukumat	Qishloq sudlari va prokuraturalar
mahalliy	Munisipal kengashlar	Munisipalitet ma'muriyati	Mahalliy sudlar

Shunday qilib, davlat siyosati, birinchidan, ko'pchilik insonlarning tobe harakatlari majmuini; ikkinchidan, strategik maqsad va qarorlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga yo'naltirilgan boshqaruv xalqalari va institutsional mexanizmlar bloklari o'zaro ta'sirini; uchinchidan, qat'iy funksional fazalar izchilligi bo'lmagan ma'lum boshqaruv siklini (ular ko'pincha parallel ravishda boradi, va bu to'xtovsiz harakatda boshlanish va tugash aniq belgilanmagan bo'ladi) taqdim etadi. Davlat siyosatining umumiy mexanizmidagi markaziy bo'g'in strategik va operativ-taktik qarorlarni qabul qilishdir.

Davlat qarorlarini qabul qilish jarayoni: modellar, usullar va asosiy bosqichlar

Qarorlar qabul qilish jarayoni (QQQJ) tahlili xalqaro siyosat tizimi tahlilining dinamik o'lehoivi bo'lib, u shu bilan birga, ijtimoiy fanlardagi, umuman, XM to'g'risidagi fanning markaziy muammolaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonni hisobga olmasdan, tashqi siyosat determinantlarini o'rganish bashorat imkoniyatlari nuqtaiy nazaridan yoki behudaga vaqtni yo'qotish bo'ladi yoki xavfli yanglishish bo'ladi, zotan, ushbu jarayon qaror qabul qiluvchi shaxslar (QQQS) tomonidan tashqi siyosatga ta'sir ko'rsatuvchi omillar majmuini "elakdan o'tkazuvchi", "filtr" sifatida namoyon bo'ladi.

Siyosiy nazariya va amaliy siyosat uchun davlat qarorlarini qabul qilish jarayonining ahamiyati shunchalik buyukki, g'arb politologiyasida siyosiy hokimiyat va ma'muriy boshqaruv interpretatsiyasi qarorlarni qabul qilish ustidan haqiqiy nazorat olib boradi. Bunda strategik qarorlarni qabul qiluvchi shaxslar hukmronlik qiluvchi elitaga tegishli, deb hisoblanadi (A.Xiggli). Politologiyada bu muammoni birinchilardan G.Saymon ko'tarib chiqqan bo'lib, u o'zining "Ma'muriy xulq: ma'muriy bo'limlarda qaror qabul qilish jarayoni tadqiqi" (1945) asarida davlat qarorlarini qabul qilish maxsus nazariyasining asoslarini yaratdi.

Qaror qabul qilish tahlilining klassik yondashuvi veber an'analari uchun xarakterli "metodologik individualizm"ni aks ettiradi, u tadqiqotning ikki asosiy bosqichidan iborat. Birinchi bosqichda, *qaror qabul qiluvchi asosiy shaxslar aniqlanadi* (masalan, davlat rahbari, uning maslahatchilari, vazirlar: tashqi ishlar, muhofaza, xavfsizlik) va har birining roli ta'riflanadi. Bunda ularning har biri u yoki bu davlat idorasidan har qanday zaruriy axborotni talab qilish vakolatiga bo'lgan maslahatchilariga ega.

Keyingi bosqichda QQQSning siyosiy afzalliklari tahlili o'tkaziladi, bunda ularning dunyoqarashi, tajribasi, siyosiy qarashlari, ularning boshqaruv uslubi hisobga olinadi. Bu ma'noda R.Snayder, X.Bruk, B.Sapen, R.Jervisning asarlari muhim rol o'ynaydi.

Ijtimoiy nazariyada siyosiy va boshqaruv qarorlarining bir qancha ta'riflari mavjud. Ularning keng tarqalgani va bu ilmiy tushunchaning tipik izohidan ikkitasiga to'xtalamiz. Birinchidan, "*ratsional tanlov*" nazariyasiga (ratsional choice) ko'ra, davlat qarorlari muqobil variantlar qatoridan axloq modeli tanlovi bilan bog'liq. Siyosiy qaror-bu, eng kamida ikki ehtimoliy siyosiy harakatdan birini tanlash. "Ratsional tanlov" konsepsiyasiga ko'ra, siyosiy harakat quyidagi bosh farazlarni ilgari suradi:

1. Akto'rlar mutanosib maqsadlarni ko'zlaydilar.
2. Bu maqsadlar akto'rlarning ongli xudbinona manfaatlarini aks ettiradi.
3. Xulq ongli tanlovga asoslanadi.
4. Indiv'ud jamiyatdagi asosiy akto'rlar hisoblanadi.
5. Akto'rlar izchil va mustahkam birlamchi yo'nalishlarga ega.
6. Muqobil variantni tanlash imkoniyatida akto'rlar eng yuqori darajada foyda keltiruvchi variantni tanlaydi.
7. Akto'rlar ehtimoliy muqobilliklar va ular tanlovining ehtimoliy oqibatlari to'g'risida muayyan axborotga ega.

Ikkinchidan, *faoliyat yondashuvi* doirasida davlat qarorlari faoliyatning ideal natijasi va ommaviy hokimiyat bo'limlari ishida bu natijaga erishishning optimal vositalari, o'z vakolati darajasida imperativ ahamiyatga ega maqsad sifatida ta'riflanadi.

Ikkita keng tarqalgan nuqtai nazar mavjud bo'lib, ular doirasida siyosiy qarorlarni qabul qilish jarayoni chegaralari aniqlanadi: keng va tor nuqtai nazar. Tor nuqtai nazarga ko'ra, qarorlar qabul qilish jarayoni faqatgina nazariy- tahliliy jarayonlar va mushohada ama-

liyotlari bilan cheklangan bo‘lib, qarorning optimal modeli tanlovi va uning anchagina qat‘iy shakllanishi bilan tugallanadi. Ikkinchi qarash bu jarayon chegaralarini kengaytiradi va qarorni amalga oshirish bo‘yicha amaliy va texnologik chora-tadbirlarni bu jarayonga kiritadi. O‘z mazmuniga ko‘ra, keyingi qarash siyosiy boshqaruv va davlat siyosati mexanizmlarining barcha jarayonlarini davlat qarorlarini ongli qabul qilish va amalga oshirish bilan tenglashtiradi. Ma‘lum darajada bu holat boshqaruv jarayonidan siyosiy hayotdan tasodifiylik omillarini va regulatorlarini chiqarib tashlaydi.

Zamonaviy politologiyada davlat qarorlarini qabul qilish jarayonini izohlaydigan maxsus konsepsiyalar ikki asosiy tipga ajratiladi:

1. Tavsifiy (deskriptiv) konsepsiya.
2. Me‘yoriy (preskriptiv) konsepsiya.

Davlat qarorlarini tahlil qiluvchi bu yondashuvlar o‘rtasida qanday farq bor? Tavsifiy yo‘nalish, eng avvalo, empirik tadqiqotlar prinsipini va qaror qabul qiluvchi shaxslar siyosiy xulqining deskriptiv tahlili, shuningdek, muayyan vaziyatdagi siyosiy subyektlarning o‘zaro harakatidan kelib chiqadi. Deskriptiv yondashuv doirasida bu, u yoki bu individual qaror motivlari va sabablari bilan bog‘liq alohida siyosiy liderning faoliyati sifatida tavsiflanishi mumkin.

Qarorlar qabul qilishning me‘yoriy nazariyasi spetsifikasida, optimal qoida va jarayonlar, algoritmlar va shakliyl modellarni ishlab chiqishga e‘tibor qaratilganligini qayd etish mumkin, zotan, ularga muvofiq davlat qarorlarini qabul qilishning yaxlit jarayonini barpo etish mumkin. Bu konsepsiya siyosiy qarorlar ratsionalizatsiyasiga mo‘ljallangan, chunki uning doirasida ishlab chiqilgan algoritmlar maqsadlar tanlovi va berilgan siyosiy vaziyat yechimi uchun optimal hisoblangan me‘yoriy formulada aks etgan maqsadlarga erishish vositalari samarasini oshirishga yo‘naltirilgan. Me‘yoriy yondashuvning kuchsiz tarafi, ideal tiplarning roli qarorning, ularning manfaatlari qadriyatlaridan chalg‘itadigan ratsional modellari, boshqaruv subyektlari, qaror qabul qiluvchi shaxslarni aniqlashda, shuningdek, ular o‘rtasidagi mavjud ierarxik munosabatlarga yuqori baho berishda kuzatiladi.

Yuqorida bayon etilganlardan davlat boshqaruvi subyektlari va obyektlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning ma‘lum bir prinsiplari mavjudligini sezish mumkin edi. Aynan esa, subyektning obyektga muvofiqliligi, obyektning subyektga ters aloqasi, siyosiy qarorlar

qabul qilish jarayonida subyekt va obyektlarning o‘zaro bir-biriga murojaat qilishi va o‘zaro nisbiyligi tamoyillari bor. Birinchi qoida shu bilan bog‘langanki, masalan, ijtimoiy siyosat bo‘yicha parlament komitetining qonuniy vakolati va hokimiyat kompetensiyasi doirasi ijtimoiy soha bo‘yicha qonun loyihalarini tayyorlash va o‘tkazish jabhasini qamrab olishi kerak, bunda u mudofaa masalalari bo‘yicha qo‘mita vazifalari yoki mintaqaviy mehnat birjalarini operativ boshqarish sohasiga bevosita o‘tib ketishi kerak emas. Boshqacha aytganda, qaror qabul qiluvchi davlat subyekti hokimiyat vakolatlari va javobgarligi hajmi ideal boshqariladigan ijtimoiy obyekt manfaatlari va prioritetlari xarakteriga muvofiq bo‘lishi shart. Teskari aloqa va qarorning o‘z- o‘zini korreksiyasi prinsipi qaror qabul qiluvchi rahbarlar yoki kollegial organlar o‘z boshqaruv obyektlari (yoshlar, ishsizlar, kichik biznes vakillari) bilan doimiy o‘zaro munosabatda bo‘lishi, alohida siyosiy qarorlarni vaqti-vaqti bilan tahrir qilish tartibini belgilaydi. Zaruriyat tug‘ilganda, hukumat tomonidan ijtimoiy yoki iqtisodiy siyosatni muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz amalga oshirishiga qarab butun davlat strategiyasiga tuzatishlar kiritadi.

So‘nggi prinsip davlat siyosatidagi subyekt-obyekt darajalari ierarxiyasi, shuningdek, siyosiy qarorlarning tasniflanishi muammosi bilan bevosita bog‘liq. Bunda siyosiy qarorlar tasnifi mezonlari qaror qabul qilish subyekti roli va rahbariyat obyekti va nihoyat, ular o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir bilan shartlanadi. Siyosiy qarorlarning tipologiyasini yaratishga bo‘lgan qiziqarli urinishlardan birini politolog T.Klementevich ishlab chiqqan. Olim siyosiy qarorlarni ikki asosga ko‘ra tasniflagan: siyosiy harakatlar tanlovida ishtirok etuvchi subyektlar doirasiga ko‘ra, rahbariyat obyekti yoki qarorlar adresati ijtimoiy manfaatlari sohasi integratsiyasi darajasi bo‘yicha. Siyosiy qarorlar kollegial va individual bo‘lishi mumkinligini ham qayd etib o‘tamiz.

Jadval 19.2 ⁴

Siyosiy qarorlar tipologiyasi

Subyektlar	Manfaatlar integratsiyasi darajasi
-------------------	---

⁴ Q.: Klementevich T. Siyosiy qaror qabul qilish jarayoni // Siyosat nazariya elementlari / V.P. Makarenko tahririyati. Rostov-Don, 1991.

	markaziy	mahalliy – mintaqaviy
fuqarolar	markaziy organlarga saylovlar, referendum va plebissit	mahalliy organga saylovlar. Yig‘ilish va aholining mahalliy referendumi
fuqarolarning rasmiy vakillari	farmon, qonunlar va parlament qarorlari	mahalliy dasturlar, ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyot rejalari
vakillik shakli	iqtisodiy – ijtimoiy taraqqiyot dasturlari va rejalari	mahalliy byudjet to‘g‘risidagi qaror
fuqarolik guruhlari faollari (jamoat delegatlari)	siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari yuqori organlarinng qarori	siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalarining mahalliy organlari muammoviy qarorlari
novakillik shakli	siyosiy kelushuv	

Davlat siyosatida optimal qaror qabul qilishning muqobil variantini tanlash va kelishilgan qarorni aniqlashning ikki asosiy usuli mavjud: **konsensus** va ovoz berish. Ulardan birinchisi, konsensus usuli (lotincha “Consensus omnium - barchaning roziligi” so‘zidan). Bu usul qaror qabul qilishda ishtirokchilar manfaatlariga qisman mos tushsa va biroz to‘g‘ri kelmasa, samarali bo‘ladi, shuning uchun qaror barcha tomonlar qo‘llab-quvvatlayotgan turli muqobilliklar o‘rtasidagi kompromis sifatida qabul qilinadi. Aynan “barchaning roziligi” prinsipi BMT XKda muhim qarorlarni qabul qilishda ishlatiladi, ammo ayni vaqtning o‘zida davlat siyosatida amalda yanada keng qo‘llanilayotgan usul strategik qarorlarni qabul qilishning ovoz berish usuli hisoblanadi. Qarorlar tanlovining bu usuli faqat rasmiy jarayon va ovoz berish texnikasi bilan cheklanib qolmaydi, ammo u qarorlar turli variantlarining kuchli va kuchsiz tomonlari izohlarini, QQQSning nuqtai nazarini aniqlash, shuningdek, ovoz berish jarayonida ishtirok etuvchi ko‘pchilik, ozchilik va oraliqdagi kuchlar nisbati va hissasini aniqlashni qamrab oladi.

Davlat qarorlarini qabul qilish jarayoni alohida bosqichlar va funksional fazalarga bo‘linadi. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishning asosiy bosqichlari chegaralarini va ularning sonini aniqlashning turli nuqtai nazarlari mavjud. Umumiy ko‘rinishda professor

A.A.Degtyarev davlat qarorlarini qabul qilish jarayonini quyidagi asosiy bosqichlarga ajratib chiqadi.

1. *Prioritet (ustuvor) muammolarni aniqlash va siyosiy “kun tartibini” shakllantirish.* Bu boshlang‘ich bosqichda, siyosiy qaror qabul qilish uchun zarur dastlabki axborotlar to‘planadi, saralanadi, tahlil qilinadi. Alohida individlar, ijtimoiy guruh va jamoat tashkilotlarining manfaatlari, talablari va ehtiyojlari o‘rganiladi: yechimni talab qilayotgan ustuvor muammolar tanlab olinadi va hukumat yoki boshqa davlatning harakat organlaridan kutilgan ijtimoiy – siyosiy “kun tartibi” tuziladi.

2. *Ijtimoiy muammolar bo‘yicha siyosiy qarorlarning muqobil variantlarini ishlab chiqish va ko‘rib chiqish.* Qarorlarning invariantlarini ishlab chiqish bir qancha muqobil qarorlardan eng yaxshi qaror tanlovining optimizatsiyasidagi obyektiv ehtiyoj hamda subyektiv intilishlar, ko‘pincha bir-biri bilan raqobatlashuvchi va u yoki bu siyosiy qaror uchun o‘z loyihasini o‘tkazishga urunuvchi turli ijtimoiy kuchlar qarorlarini qabul qilish jarayoniga bosim bilan bog‘liq.

3. *Yakuniy tanlov,* davlat qarorlarini ifodalash va legitimlashtirish. Bu ish mohiyatan, qaror qabul qilishning asosiy bosqichi bo‘lib, demokratik mamlakatlarda davlat boshqaruvi subyektlari tomonidan ovoz berish yoki konsensusga erishish usullari yordamida texnologik shaklda amalga oshiriladi. Bunda qaror uning vakolatiga kiruvchi barcha fuqarolar uchun umummajburiy shaklga kiradi.

4. *Qabul qilingan davlat qarorlarini siyosiy amaliyotda amalga oshirish.* Boshqaruv qarori shu bosqichda amalga kiritiladi va hayotga tatbiq etiladi. Davlat ma‘muriyati ushbu mamlakat siyosiy rejimiga bog‘liq ravishda usullar (majburlash va ishontirish) kombinatsiyasidan foydalanadi va qabul qilingan strategik qarorlarni amalga oshirish uchun alohida sotsiotexnik vositalarni (manipullash-tirish, manevrlardan foydalanish) va boshqalarni qo‘llaydi.

5. *Qarorni amalga oshirish ustidan nazorat va uning natijalari bilan “teskari aloqa”.* Bu, qaror qabul qilishning tugallovchi bosqichi. Nazoratning va “teskari aloqa”ning yo‘qligi davlat qarorining yoki buzib ko‘rsatilishiga yoki shunchaki bajarilmasligiga yoki, hatto teskari natijaga olib kelishi mumkin. U yoki bu davlat qarorlarining realizatsiyasi nazorati amaliy tadbirlar, texnologik amaliyotlarni siyosiy qarorlar qabul qilishning dastlabki modeli, rejasi va dasturi bilan

doimiy ravishda qiyoslashdan iborat bo'ladi. Nazorat jamiyatdagi institutsional tartibni qo'llab-quvvatlovchi turli me'yor va amaliyotlarni belgilovchi (korrupsiyaga qarshi kurash, jinoyatchilikning boshqa shakllari), qonun chiqaruvchi qarorlarni bajarishga davlat byudjetidagi umumiy proporsiyaga ko'ra, moliyaviy va boshqa material zaxiralarning operativ taqsimoti bilan shug'ullanadigan ijro etuvchi hokimiyat organlari qaroriga tegishlidir. So'nggi bosqichlarda umummajburiy qarorlarning refleksif modelini ishlab chiqishdan uni amaliyotga tatbiqiga o'tish harakati sodir bo'ladi.

Davlat qarorlari realizatsiyasi amaliyoti ommaviy siyosatning ikki jihati bilan chambarchas bog'langan: ijtimoiy zaxiralar va institutsional usullar bilan tartibga solish, insonlarga rahbarlik qilishning instrumental vositalari, ya'ni mamlakat siyosiy rejimining funktsionallashi. U yoki bu ideal modellar va yo'nalishlar, siyosiy fikrlar va doktrinalar realizatsiyasining asosiy usullari amalda hamisha aniq siyosiy harakatlar bilan bog'langan.

F.Brayer va M.R.Jalili *QQJ*ning tahlili metodini umumlashtirib, 4 asosiy yondashuvni ajratdi.

Ulardan birinchisi ratsional tanlov modeli deb nomlanishi mumkin, uning doirasida qaror tanlovi milliy manfaat asosida yagona va ratsional fikrlovchi rahbar tomonidan amalga oshiriladi.

Quyidagilar faraz qilinadi: a) qaror qabul qiluvchi qadriyatlar yaxlitligi va ierarxiyasi haqida yetarlicha mustahkam tasavvurga ega va ularni hisobga olib harakat qiladi; b) u o'z tanlovining ehtimoliy oqibatlariga ega; c) *QQJ* qarorga ta'sir qilish qobiliyatiga ega har qanday yangi axborot uchun ochiq.

Ikkinchi modelda yondashuv doirasida o'rnatilgan amaliyotlarga muvofiqlikda harakat qiluvchi hukumat tuzilmasi majmui ta'siri ostida qaror qabul qilinadi, deb faraz qilinadi. Qaror alohida fragmentlarga ajratiladi, hukumat tuzilmalarining tarqoqligi, ular tomonidan axborotlarni tanlov xususiyatlari, bir-biri bilan o'zaro munosabatlarining murakkabligi, ta'sir va obro'-e'tibor darajasidagi farqlar - u yoki bu tanlov oqibatlarining tizimli baholanishiga asoslangan *QQJ* uchun to'siq hisoblanadi.

Uchinchi modelda qaror byurokratik ierarxiya va hukumat apparati a'zolari o'rtasidagi murakkab o'yin natijasi sifatida ko'rib chiqiladi, ularning har bir vakili o'z manfaatlari, o'z qarashlari va davlat tashqi siyosati ustuvorliklari to'g'risida o'z tasavvuriga ega.

Nihoyat, to'rtinchi yondashuvda shunga e'tibor beriladiki, ko'p hollarda QQQS murakkab muhitda mavjud bo'ladi va noto'liq, cheklangan axborotga ega bo'ladi. Bundan tashqari, ular u yoki bu tanlov oqibatlarini baholash imkoniyatiga ega emas. Bu sharoitda ularda muammoni foydalanilayotgan axborotni o'zgaruvchanlarning ko'p bo'lmagan soniga nisbatan qo'llash zaruriyati tug'uladi.

QQQJ tahlilida tadqiqotchi u yoki bu ko'rsatilgan yondashuvlarni "sof ko'rinish"da foydalanishdan chetda bo'lishi zarur. Haqiqiy hayotda ular tomonidan ta'riflangan jarayonlar turli-tuman birikmalarda namoyon bo'ladi, bu birikmalarni o'rganish, ulardan qaysi biriga aniq bir holatda tayanish kerakligini va qaysi biri bilan birlashtirish kerakligini ko'rsatish zarur. Qaror qabul qilish jarayoni tahlili ko'pincha u yoki bu muayyan xalqaro vaziyat, masalan, davlatlararo nizolar evolyutsiyasini bashorat qilish uchun qo'llaniladi. Bunda QQQSga bevosita tegishli omillargina emas, balki qaror qabul qiluvchi shaxs yoki instansiya salohiyati (zaxiralar yig'indisi) ham hisobga olinadi.

SEMINAR

Ma'ruzalar mavzulari:

1. Davlat boshqaruvi mexanizmidagi strategiya va ierarxik darajalar
2. Davlat qarorlarini qabul qilish jarayoni: modellar, usullar va asosiy bosqichlar

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Дегтярев А.А. Основы политической теории: Учеб. пособие / Ин-т "Открытое о-во". -М.: Высш. шк., 1998.
2. Цыганков П.А. Теория международных отношений. –М. 2003.
3. Кременюк В. Управление и управляемость в мировой политике// Международные процессы – Т.3 № 1(7). Январь- апрель 2005.
4. Рейлян Я.Р. Аналитические основы принятия управленческих решений. - М.,1989.
5. Эддоус М., Стэнсфилд Р. Методы принятия решения. -М., 1997.
6. <http://www.intertrends.ru>
7. <http://www.marshallcenter.org/>
8. <http://www.jahon.mfa.uz>

20- Ma'ruza: Ma'lumotlar tavsifi: jadvallar, diagrammalar va gistogrammalarni tuzish

Reja:

1. *Ro'yxatli jadval*
2. *Chiziqli jadval*
3. *Sektorli diagramma va gistogramma*
4. *Ikki tomonlama diagramma va o'zaro alomatlar jadvali*

Tayanch so'z va iboralar:

Ro'yxatli jadval, chiziqli diagramma, sektorli diagramma, ustunli diagramma, ikki tomonli diagramma, alomatlarning o'zaro bog'liqligi jadvali.

Ro'yxatli jadval

Tadqiqotni olib borishdagi muhim vazifalardan biri tadqiqotimiz natijalarini ifodalash usulidir. Biz yaqqol, qisqa va aniq, bundan tashqari, ma'lumotlarni obyektiv aks ettiruvchi uslubni topishimiz shart. Va ayni vaqtning o'zida boshqa tadqiqotchilarga biz aniqlagan narsalarning ahamiyatini anglashga yordam berish zarur. Asosan, ma'lumotlarning to'g'ri interpretatsiyasi sxematik va grafik materiallar sifati, jadval va diagrammalarning muvoffaqiyatli tanlovi va ular qurilishining aniqligi va yaqqolligiga bog'liq.

Ma'lumotlarni sxematik va grafik tavsiflashning rang-barang tiplari juda ko'p. Ma'lumotlarni sxematik va grafik tasvirlashning nisbatan keng tarqalgan tiplarini ko'rib chiqamiz va ular asosida jadval, grafiklarni o'qishda, tayyorlashda kerak bo'ladigan narsalarni muhokama qilamiz.

Ma'lumotlarni taqdim etishning eng oddiy usullaridan biri ro'yxatli jadvaldir. **Ro'yxatli jadval** - bu tadqiqot ma'lumotlarining jadval ko'rinishidagi taqdimoti bo'lib, mohiyatan ro'yxat hisoblanadi. Misol sifatida quydagi jadvalni ko'rib chiqamiz: 2006-2007 yillarda "O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari bilan tashqi savdo aylanmasi, million AQSH dollarida". Jadval 2006-2007 yillarda Markaziy Osiyo respublikalarining eksport-import ma'lumotlarini jamlaydi. Jadvalning har bir ustuni alohida o'zgaruvchanni aks ettirgan (uchta o'zgaruvchan). Jadvalning birinchi ustunida joylashgan MDH mamlakatlari o'zgaruvchan keyingi ma'lumotlar bayoni tartibini belgilab beraydi. Tartibga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi va Markaziy Osiyo davlatlarining har biri

bilan tashqi savdo tovar aylanmasi rivojining 2006-2007 yillar mobaynidagi asosiy tendensiyalarini aniqlashga imkon beradi.

Jadval 20.1

O‘zbekiston Respublikasining 2006-2007 yillarda Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan tashqi savdosi aylanmasi

	Eksport		Import	
MDH davlatlari Jami:	2006	2007	2006	2007
	2685,5	4273,0	2060,6	2721,8

ulardan:

Qozog‘istin	304,7	661,7	426,2	532,2
Qirg‘iziston	80,0	137,8	31,7	39,0
Tojikiston	169,9	191,8	16,0	16,0
Turkmaniston	33,7	77,1	13,5	11,2

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi statistik axboroti. 2007. – Toshkent, 2008, 157- bet*

Ro‘yxatli jadvallarni rasmiylashtirishning ba‘zi qoidalari:

Barcha jadvallar izchillik bilan raqamlanishi kerak (yirik hajmdagi ishlarda, masalan, jadval 3.1, 3.2, jadval III.1 III.2, kichikroq hajmdagi ishlarda jadval 1, jadval 2.) Har bir jadvalda ma‘lumotlar mazmunini aniq aks ettiruvchi sarlavhasi bo‘lishi shart.

Sarlavha bu jadvalda berilgan ma‘lumotlar bo‘yicha asosiy o‘zgaruvchanlarni aks ettirishi lozim. Jadval boshqa manba axborot bo‘yicha to‘la yoki qisman tuzilgan bo‘lsa, undan keyin darhol manba haqidagi ma‘lumotni keltirish lozim. Umuman jadvalga oid izohlovchi ma‘lumotlar sarlavhadan keyin yulduzcha yoki boshqa belgilar bilan belgilab qo‘yilishi kerak. Jadval qismiga oid bunday qo‘shimcha ma‘lumot jadvalning o‘zida belgilab qo‘yiladi. Izohning o‘zi jadval ostiga joylashtiriladi, keyin manba qayd etiladi.

Jadval raqami va sarlavhani oldingi matndan pastroqda va jadvalning o‘zidan bir xil masofada, sahifaning o‘rtasiga (yoki o‘ng tomoniga) joylashtirgan ma‘qul. Yoki har bir jadvalni alohida bir betda berish mumkin. Agar matnda jadval haqida gap ketsa, bir satr siljitib jadval -1 deb bosh harflar bilan sahifa markaziga yozing. 1 satr qoldirib matnini davom ettiring. Har ikki holatda ham jadvalning tashqi chegaralarining ikki ichki chegaralarini bir chiziq bilan belgilash mumkin.

Agar imkoniyati bo'lsa, jadval ichidagi alohida kataklar uchun vertikal chiziqlarni qo'llamaslik kerak. Sarlavhalar va jadvallar ichidagi ma'lumotlar o'rtasida ikki oraliq joy bo'lishi lozim. Agar matnda jadval haqida hech bo'lmaganda bir sahifa izoh berilmaydigan bo'lsa, hech bir jadval matnga kiritilmasligi shart. Izohda jadvaldagi o'zaro aloqalarni tushunish, o'quvchi e'tiborini asosiy va asosiy bo'lmagan xulosalarga qaratish kerak.

Chiziqli jadval

Ma'lumotlarning yanada oddiy va aniq tasviri **chiziqli diagramma** hisoblanadi. Diagrammada kuzatuvlarning natijalari mutanosib holda chiziqlarni birlashtiradiki, u taraqqiyot yo'nalishini yoki boshqa o'zgaruvchanlarni aks ettirishga imkon beradi. Chiziqli diagramma bir o'zgaruvchanning barcha ma'nolarini uzluksiz birlashtiradi va tasvir shakli yoki rangiga ko'ra, bir necha o'xshash chiziqlarni diagrammaga kiritish orqali turli o'zgaruvchanlar ma'nolarini qiyoslashga sharoit yaratadi. Chiziqli diagrammalar trendlarni tasvirlashda juda foydali. Shu jumladan, quyidagi jadvalda demokratlar uchun ovoz berish va uning irqiy tarkibi natijalariga bir bor nazar tashlab, 1960, 1976 yillarda prezident saylovlarida demokratlar uchun umumiy ovozning 40% dan 60% berilgan; 1960, 1964, 1976 yillarda ularga 1968 va 1972 yillardan ko'proq ovoz berilgan. Partiya uchun ovoz beruvchi oq tanli saylovchilar umumiy saylovchilar taqsimotiga deyarli to'g'ri keladi, negrlar orasida partiyani qo'llab-quvvatlovchilar oq tanlilarga nisbatan faolroqdir.




20.1- rasm. Chiziqli diagramma: demokratlar uchun ovoz berish va uning irqiy tarkibi.

Bunday grafiklarni ham jadval kabi rasmiylashtirish kerak. Har bir rasm o'z raqami va aniq sarlavhasiga ega bo'lishi shart. Gorizontaal va vertikal o'qlar, agar shunday o'qlar ishlatilsa, belgilab qo'yilishi zarur, o'qlarning har biri katta ehtiyotkorlik va e'tibor bilan aniq va ishonchli shkalalangan bo'lishi lozim. Vertikal o'qning nomlanishi, uning gradatsiyasi raqamlari ustiga qo'yilishi kerak, gorizontaal o'q nomlanishi esa diagrammaning ostiga joylashtirilishi lozim. Agar gorizontaal o'q gradatsiyasi yillar bo'lsa, qo'shimcha nom kerak bo'lmaydi. Diagramma bir qancha chiziqlardan iborat bo'lsa, diagramma ostida **kalit** (har bitta punktini ta'riflashi) joylashtirish kerak. Agar zarur bo'lsa, diagrammaga qo'shimcha izohlovchi matnni joylashtirish mumkin.

Sektorli diagramma va gistogramma

Ro'yxatli jadval ham, chiziqli diagramma ham talab qilinayotgan axborotni tavsiflash va jamlashda ustunliklarga ega. Ma'lumotlarning biroz o'zgarishida tahlilning grafik usuli yoki raqamlar interpretatsiyasidan foydalanish bor. Bu holatda, sektorli diagrammaga murojaat qilish mumkin. **Sektorli diagramma** - bu shunday tasvirki, har bir aylana (yoki bir necha aylanalar) muayyan yig'indini aks ettiradi va har bir qismning ulushini ko'rsatadigan segmentlarga bo'lingan.



 Процент белых избирателей  Процент чернокожих избирателей

Oq tanli saylovchilar

Qora tanli saylovchilar

20.2-rasm. Sektorli diagramma: demokratik koalitsiyaning irqiy tarkibi. 1960-1976 yillar.

Rasmdagi har bir aylana demokratlar uchun ma'lum bir davrdagi 100% ovoz berishni bildiradi, shtrixlangan qism - qora tanli saylovchilar ovozi ulushini bildiradi. E'tibor bering, rasmda sarlavha va izohlar chiziqli diagrammadagi kabi joylashtirilgan. Har bir segment egallagan

ulush (foizlarda) diagramma ichida ham, tashqarisida ham ko'rsatilishi mumkin. Sektorli diagrammalar odatda to'liq bo'lmagan ma'lumotlardan iborat bo'ladi, shuning uchun yangilanishi mumkin. Nafaqat aniq, balki to'liq bo'lishi uchun diagrammalar o'rganilayotgan o'zgaruvchanlar o'zgarishiga muvofiq hajman o'zgarib turishi kerak.

Shuni esda tutish lozimki, sxema va diagrammalarning *har qanday* shaklidan ehtiyotkorlik bilan foydalanish kerak. Bu grafik yigilgan ma'lumotlarni *aynan biz ishlatishni istagan aspektda (nuk-tai nazarda) aks ettirishiga* ishonishimiz shart (ya'ni, muayyan ilmiy masalalar kontekstida, masalan, demokratik koalitsiyada qora tanli saylovchilar ulushi doimiy ravishda o'sib bormoqdam yoki yo'qmi savoli). Faqatgina ushbu holatda, grafik tasvir ma'lumotlarni o'rganishga hissa qo'shadi va tadqiqot natijasini aks ettiradi.

Ustunli gistogramma - grafik tasvir bo'lib, ustunlar sirasining balandliklari va ba'zida enlari bir yoki bir qancha o'zgaruvchan kuzatuvlarining ayrimlarini illyustratsiya qiladi.

O'zbekiston - Rossiya eksport balansi (1993-2001)



20.3 - rasm. O'zbekiston va Rossiya eksport balansi. (1993-2001.)

Manba: Diagrammadagi ma'lumotlar har yili tuziladigan statistik to'plam axborotlari asosida tuzilgan, bu to'plam BMTning Osiyo-Tinch okeani mintaqasi bo'yicha iqtisodiy va ijtimoiy ishlar komissiyasi tomonidan chiqarilgan. Statistical Yearbook for Asia & the Pacific. 2003. United Nations/Nations UNIES.

Segmentli diagrammadagi har bir alohida olingan ustun qismlarga ajratilgan, ustunlar xossalar yig'indisi va taqsimot to'g'risidagi qo'shimcha axborotni ifodalaydi. Format chiziqli va sektorli diagrammada ishlatilgan format kabidir, faqat gistogrammadagi tavsif odatda rasm ostida emas, ustida beriladi. Ma'lumotlar berilishiga ko'ra, sektorli diagramma kabidir, ammo bu yerda ma'lumotlar nisbatan to'la va chuqur xulosalar chiqarishga imkon beradi. Sektorli diagrammalar va gistogrammalar uchun shtrixlash usuli. Ular taqdim etilgan ma'lumotlarni eng yaxshi usulda illyustratsiya qilish va tushuntirish uchun mos ravishda tanlanadi.

Ikki tomonlama gistogramma va o'zaro alomatlarining o'zaro bog'liqligi jadvali

Siyosiy adabiyotlarda ko'p uchraydigan grafikning ko'rinishlardan biri ikki tomonlama gistogrammadir. **Ikki tomonlama gistogramma** bu – ikki yo'nalishdagi grafik bo'lib, markaziy chiziq tasvirlangan ma'lum me'yorning yuqori yoki kamroq nisbatlari tebranishini ko'rsatadigan grafik turi.



Рис. 13.5. Двусторонняя гистограмма: колебания расовой составляющей на президентских выборах (1960—1976 гг.).

20.4- rasm. Ikki tomonlama gistogramma: Prezident saylovlarida irqiy tarkibning tebranishi (1960-1976 yillar).

O'rganilayotgan o'zgaruvchanlarning o'rtacha soni rasmdagi markaziy chiziq foizlarda yoki boshqa belgilarda ifodalanagan,. Ustunlar o'rtacha qiymat atrofidagi tebranishni bildiradi. Ustunlar uzunligi o'rta qiymatdan cheklanish darajasini, raqamlar farqning aniq qiymatini bildiradi. Bu raqamlar jadvalda berilgan ma'lumotlar tahliliga yana bir qirrani qo'shadi. Umumun aytganda, ikki tomonlama gistogrammadagi axborotlarni boshqa grafik usullaridan foydalanib, qo'lga kiritish mumkin.

20.2 jadval

1964 yil president sailoalarida irq farkliklari, %

Irqiyl mansublik	Nomzodlar uchun ovoz berish			
	demokratlardan	respublikachilardan	Jami %	Hodisalar soni
Oq tanlilar	59	41	100	1 350
Qora tanlilar	94	6	100	150
Barcha ovoz berganlar	61	39	100	1 500

20.3 jadval

1972 yil president saylovlarida irq farkliklari %

Nomzod uchun ovoz berish	Irqiyl mansublik		
	Oq tanlilar	Qora tanlilar	Barcha ovoz berganlar
demokratlardan	34	89	40
respublikachilardan,	66	11	60
jami %	100	100	100
hodisalar soni	1 350	150	1 500

Belgilarning o‘zaro bog‘liqligi jadvali - jadval ko‘rinishidagi ikki yoki undan ortiq o‘zgaruvchanlar o‘rtasidagi tobeliklarning umumlashtirilgan tasviridir. Format va tuzilishi bo‘yicha bu jadval ro‘yxatli jadvalga o‘xshab ketadi, ammo uning mohiyati umuman boshqacha. Bu jadvallar ko‘p hollarda farazlarga asoslangan va o‘zgaruvchanlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni o‘rganishni osonlashtirishga mos tarzda tuzilgan. Jadvallar shunday qurilganki, ular bizga ilgari surilgan gipotezani o‘rganishga imkon beradi. Masalan, 20.2 jadvalda 1964-yilda prezident saylovi uchun ovoz berish va irqiy mansublik o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar jamlangan bo‘lsa, 20.3 jadvaldan shu ma‘lumotlar 1972-yil uchun takrorlanadi. Ikki holatda 1500 ta saylovchining gipotetik tekshirilishi ma‘lumotlari keltirilgan. Jadval shunday tuzilganki, u bizga har keltirilgan yilda u yoki bu sababga ko‘ra qora tanli saylovchilar demokratlar uchun oq tanlilar-dan ko‘ra ko‘proq ovoz berganligiga oid gipotezani o‘rganishga imkon beradi. Jadvalda sanab o‘tilgan har bir band katak deb nomlanadi. Har bir jadval to‘rtta katakdan iborat. Jadvalda qator va satrlar ham bo‘lib, har bir qator bir o‘zgaruvchanning ma‘lum bir qiymatini, har bir ustun boshqa o‘zgaruvchanlarning ma‘lum qiymatini bildiradi. Ushbu jadvallarda mustaqil va izohlovchi o‘zgaruvchanlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar jamlanadigan shaklda yaratiladi. Jadvaldagi mustaqil o‘zgaruvchan qator bo‘yicha ham, ustun bo‘yicha ham joylanishi mumkin. Har ikki usul ilmiy adabiyotda keng tarqalgan. Agar siz u yoki bu shaklni tanlagan bo‘lsangiz, o‘quvchini adashtirmaslik va chalg‘itmaslik uchun unga oxirigacha amal qilish lozim. Bunday jadvallarni o‘rganishda ba’zida umumiy shaklda berilgan ma‘lumotlar gipotezani qanchalik tasdiqlashini ko‘rsatish mumkin.

Xulosa sifatida, jadval va grafiklardan foydalanishning uch muhim jihatini qayd etib o‘tamiz. Birinchidan, ular yaqqol va konstruktiv bo‘lishi shart. Tadqiqot jarayonining qismi sifatida jadval va grafiklar konsepsiyaning yanada chuqur ishlab chiqilishi va ma‘lumotlar asosini tushunushda nihoyatda foydali bo‘lishi mumkin. Tahlilning bu shakli siyosiy voqealar to‘g‘risidagi bilimlarimizni chuqurlashtirishga ancha yordam beradi, hatto bunday oddiy metodikalar xulosalarni rasmiylashtirishga yordam beradi.

Ikkinchidan, jadval va grafiklarni to‘g‘ri qo‘llash kerak. Qisqa sharhdan ham ko‘rinib turibdiki, metodikadagi kichik buzilishlar

sababli, natijalarni noto‘g‘ri taqdim etish holati mavjud. Huddi shu kabi, kimdir bunday usulni haddan tashqari ko‘p qo‘llab xatolarga yo‘l qo‘yishi mumkin. Tadqiqotchida boshqalar bilan munosabatlarda ahloqiy majburiyat mavjud –u o‘z xulosalarini nafaqat aniq, balki to‘g‘ri bayon qilishi zarur, o‘ziga nisbatan munosabatlarda intellektual majburiyatga ega, ya’ni ularni puxta tekshirib ko‘rishi lozim. Bu majburiyatlar tadqiqotning negizini tashkil etadi. Biz ular haqida unutmasligimiz kerak. Nihoyat, sizning ishingiz jadvallar va grafiklar bilan haddan ortiq yuklanmasligi kerak. Bunday materiallarning ko‘pligi matnning idrok etilishini qiyinlashtiradi.

SEMINAR

Ma’ruza uchun mavzular:

1. Ro‘yxatli jadval
2. Chiziqli jadval
3. Sektorli diagramma va gistogramma
4. Ikki tomonlama gistogramma
5. Belgilarning o‘zaro tutash jadvali

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Джарол Б.Мангейм, Ричард К.Рич. Политология. Методы исследования.*
2. <http://www.jahon.mfa.uz>
3. <http://www.uza.uz>
4. <http://www.cer.uz>
5. <http://www.un.org>

Qaydlar uchun

MUNDARIJA

Kirish	3
1 - Ma'ruza: Xalqaro munosabatlar o'quv va tadqiqot fani sifatida	
Xalqaro munosabatlar tushunchasi va mezonlari	5
Jahon siyosati.....	7
Ichki va tashqi siyosatning o'zaro aloqadorligi	8
Xalqaro - siyosiy fanlar predmeti	11
2 -Ma'ruza: XMni o'rganish metodologiyasi masalasi	
Metod muammosining ahamiyati	14
Tadqiqot jarayoni, nazariyaning operasionallashishi va ifodalanishi	16
Tadqiqotning mos metodlarini tanlash, ma'lumotlar tahlili va natijalar interpretatsiyasi (sharhi)	18
3 - Ma'ruza: Nazariyani yaratish: siyosiy fanlarda gipotezalar va tushunchalar	
Nazariya tushunchasi.....	21
Nazariya komponentlari	23
Gipotezaning ifodalanishi.....	26
4- Ma'ruza: Nazariya operatsionalizatsiyasi	
Operatsionalizatsiya: nazariya va ta'rif o'rtasidagi aloqa	31
O'lchov, o'lchov birliklari	32
Nazariya validligi va ishonchliligi.....	40
5 - Ma'ruza: Reja bo'yicha ishlash: tadqiqot dasturini tuzish usullari	
Tadqiqot maqsadi va dasturi, tadqiqot dasturida muqobil gipotezalarning hisobga olinishi	46
Tadqiqot dasturlari ko'rinishlari (turlari)	48
Tadqiqot dasturini tanlash va validlikka tahdid soluvchi omillar...52	
6 - Ma'ruza: XMni tadqiq qilishda tizimli yondashuv	
Tizimli yondashuv mohiyati	54
XMni tahlil qilishda tizimli yondashuvning asosiy yo'nalishlari va xususiyatlari	57

Xalqaro tizimlarning tuzilishi va tiplari.....	62
Xalqaro tizimlar funksionallashishi va transformatsiyasi qonunlari.....	64
Davlatlararo munosabatlar tahlilining asosiy darajalari	69
7- Ma’ruza: Situatsiya tahlili metodlari	
Siyosiy tahlil mazmuni va xususiyati	73
Kuzatish.....	78
Hujjatlarni o’rganish.....	79
Qiyoslash	79
Senariylar metodlari	81
8- Ma’ruza: So’rov ma’lumotlarni to’plash metodi sifatida	
Ijtimoiy fanlar metodologiyasida “so’rov” tushunchasining mazmuni	83
So’rovni o’tkazish bosqichlari.....	84
So’rov konseptualizatsiyasi va sxematizatsiyasi	85
Instrumentariyani tayyorlash va so’rovni rejalashtirish	87
Ma’lumotlarning ikkilamchi tahlili	89
9- Ma’ruza: Intervyu jarayoni	
Intervyu haqida tushuncha.....	92
Savollar tuzish	95
Intervyu oluvchilar tanlovi	96
Yo’naltirilgan intervyular	97
Maxsus intervyu	102
10- Ma’ruza: Manbalar va yig’ma ma’lumotlarni qo’llash	
Ma’lumot manbalari haqida asosiy tushunchalar	104
Yig’ma ma’lumotlarning turlari va ulardan foydalanishdagi muammolar.....	105
Jamlanma ma’lumotlarning manbalari	110
11- Ma’ruza: Ma’lumotlarni tayyorlash va qayta ishlash, axborotlarni kodlashtirish	
Politologik tadqiqotlarda kodlashtirishning mohiyati va ahamiyati	111
Kodlar kitobi va kodlashtirish varaqasi	115
Ma’lumotlarni qayta ishlash	116

12- Ma’ruza: XMda siyosiy bashorat

Siyosiy bashoratning mohiyati	117
Bashorat usulining tasnifi	119
XM bashoratida metod tanlovi va uni amalga oshirish bosqichlari	127

13- Ma’ruza: Eskplikativ metodlar

Kontent – tahlil	132
Ivent – tahlil, kognitiv kartalash metodi va eskplikativ metodning boshqa turlari	137

14 - Ma’ruza: Xalqaro munosabatlarda qiyosiy metod

Qiyosiy tahlil haqida tushuncha	141
“Ko‘chmanchi” savollarni aniqlanishi.....	142
Ekvivalent o‘lchovni axtarish.....	143
Tadqiq uchun davlatlar tanlovi	145
Mustaqil kuzatuvlar tanlovi	145

15- Ma’ruza: XMni tadqiq qilishda modellashtirish

Muammoning konseptualizatsiyasi va modellashtirishi.....	147
Siyosiy hudud (makon), mikro, makro va mega-siyosat	148
M.A Xrustalev bo‘yicha xalqaro munosabatlarni tizimli modellashtirish	150
XMni modellashtirishning yutuqlari va kamchiliklari	152

16- Ma’ruza: Matematik modellashtirish

Matematik modellashtirish tushunchasi va jarayoni.....	154
Modellashtirishni qo‘llash sabablari.....	157
Modellarining boshqa tiplari	161
Modellashtirish bilan bog‘liq murakkabliklar	162

17- Ma’ruza: Strategik tahlil tashqi siyosatning tizimli metodi sifatida

Strategik tahlilning asosiy tushunchalari va kategoriyalari	164
Davlat tashqi siyosatini o‘rganishda qo‘llaniladigan tizimli tahlil metodi.....	168

18- Ma’ruza: Strategik tahlil tayyorlash metodikasi

Strategik ma’ruzani rasmiylashtirish	175
--	-----

Tendensiyalarni aniqlash	176
Tahlilning omil metodi	178
Matnni tashkil etish	180
Tahliliy ma’ruzaning xulosalari va tavsiyalari	183
19- Ma’ruza: Qarorlar qabul qilish jarayoni tahlili	
Davlat boshqaruvi mexanizmida ierarxik darajalar va strategiya.....	186
Davlat qarorlarini qabul qilish jarayoni: modellar, usullar va asosiy bosqichlar	191
20- Ma’ruza: Ma’lumotlar tavsifi: jadvallar, diagrammalar va gistogrammalarni tuzish	
Ro’yxatli jadval	198
Chiziqli jadval	200
Sektorli diagramma va gistogramma	201
Ikki tomonlama diagramma va o‘zaro alomatlar jadvali	203

Komp.verstkasi:

Mirolim ZARIFOV

Ushbu o'quv qo'llanma Toshkent davlat sharqshunoslik institutining O'quv-uslubiy kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (№1- sonli bayonnoma. 16.10.2008 yil).